

73 Son
2025

Iyun

USTOZLAR UCHUN

respublika pedagoglar jurnali

2-TO‘PLAM



ISBN 978-9943-6663-3-7



O'zbekiston



pedagoglar.org



info@pedagoglar.org

TAHRIRIYAT | EDITORIAL

Editor in chief

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

Executive Secretary

Abdurahmonov Boburjon

He is mathematic teacher at

Uzbekistan District 49 Secondary School

Preparing for publishing

Xoliqov Zokirjon Shavkatjon ugli

CODEMI academy teacher

Bosh muharrir

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

Mas'ul kotib

Abdurahmonov Boburjon

O'zbekiston tumani 49-umumiy o'rta

ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi

Nashrga tayyorlovchi

Xoliqov Zokirjon Shavkatjon o'g'li

CODEMI akademiyasi o'qituvchi

TAHRIRIYAT KENGASH A'ZOLARI | EDITORIAL BOARD MEMBERS

Saidova Mohinur Jonpolatovna, *Doctor of Pedagogy, Associate Professor, Head of the Department of Primary Education, Bukhara State Pedagogical Institute*

Turdiyev Sardorjon Abdumuminovich, *doctor of philosophy (PhD) in technical sciences, associate professor of Navoi State University of mining and technology*

Qurbonov Oybek Muhammadqulovich, *doctor of philosophy (PhD) in technical sciences, docent of the Mining Electromechanics Department of Navoi State Mining and Technology University*

Mustafayev Oybek Bobomuradovich, *doctor of philosophy (PhD) in technical sciences, associate professor of Navoi State University of mining and technology*

Saydaxmetova Shaxnoza Ravshanbekovna, *Doctor of Philosophy (PhD) Pedagogical Sciences, Tashkent State Pedagogical University, Uzbekistan*

Zhuraev Akbar Shavkatovich, *PhD, acting Associate Professor of the Department of Mining Electromechanics, Navoi State Mining and Technology University in the Republic of Uzbekistan*

Yuldasheva Nilufar Ibrokhimovna, *Doctor of Philosophy (PhD) in Art Sciences, Senior Researcher of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Institute of Art Studies, "Art History" Department*

Shukurova Ugiloy Umarovna, *Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological, Docent of Psychological Sciences, Council of the Gulistan State University of Uzbekistan*

Abdullayev Baxodir Abdugafforovich, *Doctor of Philosophy in Economics (PhD), Associate Professor, Associate Professor of the Department of "Accounting and Management" of the Andijan Machine-Building Institute*

TAHRIRIYAT MANZILI | EDITORIAL ADDRESS

UZB: 712000. Farg'ona viloyati, Rishton shahri, Istirohat bog'i ko'chasi 24-uy
www.pedagoglar.uz, E-mail: info@pedagoglar.uz Tel: +998 90 905-14-30

ENG: 712000. Fergana region, Rishtan city, Park park street 24
www.pedagoglar.uz, E-mail: info@pedagoglar.uz Tel: +998 90 905-14-30

QATTIQ CHIQINDILARDAN ATROF-MUHITNI HIMOYA QILISH

Akmal Ostonov Aslonovich

G'ijduvon tuman 3-son politexnikumi O'IBDO'

Bekmurod Rustamov Alisher o'g'li

O'quv bo'limi uslubchisi

rustamovbekmurod786@gmail.com

Laylo Bafoyeva Choriqulovna

Biologiya fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sanoat korxonalari tomonidan turli xil mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Ishlab chiqarilgan mahsulotlardan foydalanilgandan keyin ularning ayrimlaridan chiqadigan chiqindilarning bir necha turi va shaklini ko'rish mumkin. Bulardan asosiysi qattiq chiqindilar hisoblanadi. Qattiq chiqindilar to'planib, atrof-muhitga va tabiatga katta zarar yetkazish bo'yicha masalalar yoritilgan. Atrof-muhitga chiqarib yuborilayotgan chiqindilarni keskin kamaytirish va ularni zararsizlantirish chora tadbirlari belgilangan.

Kalit so'zlar: Atrof-muhit, tabiiy resurslar, maishiy chiqindi, ekologiya, uglerod izi, qattiq chiqindilar, sanoat chiqindilari, karbonat angidrid, izolatsiya materiallari, kimyoviy moddalar.

ABSTRACT

This article describes the production of various products by industrial enterprises. After the use of the manufactured products, several types and forms of waste are observed. The main one is solid waste. The issues of solid waste accumulation and causing great harm to the environment and nature are discussed. Measures are set to drastically reduce the amount of waste released into the environment and to neutralize it.

Keywords: Environment, natural resources, household waste, ecological carbon footprint, solid waste, industrial waste, carbon dioxide, insulation materials, chemicals.

KIRISH

Tabiat o'ziga xos murakkab tizim bo'lib, inson va jamiyat uning hosilasidir. U tabiat evaziga mavjud va rivojlanadi. Inson o'z ehtiyojlarini tabiat hisobiga qondiradi. U tabiatdan havo, suv, oziq-ovqat, mineral va yonilg'i xomashyolarini oladi va o'zining hayot faoliyati davomida tabiatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada tabiat uchun yod bo'lgan yangi obyektlar vujudga keladi. Bular: shahar va qishloqlar, zavod va fabrikalar, yo'llar, konlar, suv omborlari, qishloq xo'jalik yerlari va boshqalardir. Inson aql-idroki va mehnati tufayli yuzaga kelgan bunday antropogen landshaftlar atrof tabiiy muhitiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Yer yuzida aholi sonining keskin o'sib borishi, fan va

texnikaning shiddatli taraqqiyoti, mamlakatlar hududida tabiiy resurslarning bir tekis tarqalmaganligi, mavjud tabiiy resurslardan imkon qadar ko‘proq foydalanish va shu yo‘l bilan jamiyat taraqqiyotini tezlatishni taqozo qiladi. Natijada tabiat va inson o‘rtasidagi o‘zaro munosabat qonunlari buziladi. Bu qonunlarning buzilishi esa ertami-kechmi ekologik inqirozga olib keladi. Hozirgi kunga kelib, butun dunyodagi ekologik holat ko‘pchilikni birdek bezovta qilmoqda. Ekologik halokat ko‘z o‘ngimizda dahshatli tus olmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish va mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Hozirgi ekologik inqirozning sababchisi va o‘z aqli zakovati bilan shu inqirozdan xoli etuvchisi ham inson ekanligi ma’lum bo‘lib qoldi. Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish ko‘p jihatdan insonlar qaysi jamiyatda yashashlaridan qat’iy nazar insonlarning ekologik savodxonlik darajasiga va ekologik madaniyatiga bog‘liq. Mustaqil Respublikamizdagi ekologik muammolarni hal qilish uchun aholining ekologik savodxonligini oshirish eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Sanoati rivojlangan barcha mamlakatlarda qattiq chiqindilar juda katta miqdorda to‘planadi. Qattiq chiqindilar o‘zlarini, qolaversa, atrof-muhitni iflos qilish bilan bir qatorda, juda katta yer maydonini ham band qiladi. Aslida, ushbu yerdan ekin maydoni sifatida madaniy o‘simliklarni o‘stirib, inson uchun foydali mahsulotlar yetishtirish mumkin. Qattiq moddalar faqatgina atmosferani ifloslantiruvchi bo‘lmasdan, balki ular tarkibida ikkinchi xil foydali moddalar ham bor, bu moddani qayta ishlash yordamidagina ajratib olish mumkin. Bugungi kunda atmosferaga tashlanayotgan zaharli moddalar miqdori barchani tashvishga solmoqda. Ko‘pgina megapolis shaharlarda, “qizil”, “sariq” va “yashil” darajalar mavjud. Ushbu tushunchalar sariq daraja endi xavfli vaziyat vujudga kelganini bildirsa, qizil vaziyatda atmosfera havosi mutloq xavfli ekanini bildiradi. Shanxay, Seul shaharlarida doimo qizil daraja turib qolmoqda, bu holat inson hayoti uchun juda xavflidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonuni O‘zbekiston Respublikasi hududida chiqindi bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasi fuqarolar hayoti va sog‘lig‘iga, atrof-muhitga chiqindilar zararli ta’sirining oldini olish, chiqindilar hosil bo‘lishini kamaytirish va ulardan xo‘jalik faoliyatida oqilona foydalanish munosabatlarini tartibga solishni belgilab berdi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - 2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 2019-yil PQ-4291-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko‘ra, mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilishni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, shuningdek, hududlarning sanitariya va ekologik holatini yaxshilash sohasida izchil siyosat amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2017-2018-yillarda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimining infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borildi, 13 ta sanitariya jihatidan tozalash davlat unitar korxonalari hamda ularning tuman va shaharlardagi 172 ta filiali, shuningdek, 9 ta maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni kompleks amalga oshirish klasterlari tashkil etildi. Ko‘rilgan chora-tadbirlar aholining deyarli yarmini sanitariya jihatidan tozalash xizmatlari bilan qamrab olinishiga imkon berdi.

Shu bilan birga qishloq aholi punktlarida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatlarning yetarli darajada ta‘minlanmaganligi, qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi infratuzilmaning qoniqarsiz holatda ekanligi, mavjud qattiq maishiy chiqindi poligonlarining sanitariya talablari va ekologik me‘yorlarga muvofiq kelmasligi mazkur sohada kompleksli chora-tadbirlarni qabul qilishni talab etmoqda.

Ekologiya mutaxassislar 2018-yilda dunyodagi eng ekologik jihatdan ifloslangan xavfli shaharlar ro‘yxatini ma‘lum qildi. Aholi punktlarining ifloslanish ro‘yxati dunyodagi uglerod izi xususiyatlari modeli loyihasi (GGMCF) tomonidan taqdim etilgan. Ekologik ifloslangan shahar reytingni tuzish uchun norvegiyalik, shvesiyalik, amerikalik va yaponiyalik olimlar ma‘lumot yig‘ishdilar va atmosferaga tashlanayotgan karbonat angidrid gazi miqdori bilan belgiladilar. Atrof-muhitni eng ifloslantiruvchi shahar sifatida ko‘p millionli Seul shahri tan olindi. Janubiy Koreya poytaxti yiliga 276.1 megatonna karbonat angidrid gazi ishlab chiqaradi. Undan keyin Xitoyning Guanchjou shahri (272 megatonna), yana ko‘p millionli yirik megapolislardan biri Nyu-York shahri (233,5 megatonna), bugun tezlik bilan rivojlanib borayotgan Gonkong shahri esa (208,5 megatonna) joy oldi. Karbonat angidrid ishlab chiqaruvchi shaharlarni “yetakchilar” 110 beshligiga esa Los-Anjeles yiliga 196,4 megatonna karbonat angidrid gazi bilan yakun yasab berdi. Shuningdek, ilk o‘nlikdan Shanxay (181 megatonna), Singapur (161,1 megatonna), Chikago (152,9 megatonna), Tokio va Yokogama shaharlari aglomeratsiyasi (132,8 megatonna) hamda Ar-Riyod (118,8 megatonna) joy oldi. Dubay esa 110,8 megatonna bilan 11-pog‘onani egalladi. Rossiya davlatining poytaxti Moskva shahri ro‘yxatda 15-o‘rinni (99,5 megatonna) egallagan bo‘lsa, Qozog‘istonning Olmaota shahri 95-pog‘onadan (25 megatonna) joy oldi. Shuningdek, Qozog‘iston poytaxti Ostona 12,9 megatonna bilan 178-o‘rinda ekanligi qayd etildi. Markaziy Osiyoning katta shaharlaridan Turkmaniston poytaxti Ashxobod hozircha 211-pog‘onani egalladi (10,5 megatonna karbonat angidrid tashlaydi). Ozarboyjon davlatining poytaxti Boku shahri esa 8,7 megatonna tashlanadigan karbonat angidridi bilan 260-o‘rindan joy olgan. O‘zbekiston poytaxti Toshkent ekologiyaga eng ko‘p zarar yetkazuvchi shaharlar ro‘yxatida-yiliga 7,1 megatonna karbonat angidrid gazi bilan 305-pog‘onadan joy oldi. Qozog‘istonning yana bir shahri Aktyubinsk 421-pog‘onada qayd etildi (5,3 megatonna). Ammo shuni qayd qilish lozimki, bu shaharlardan atmosferaga tashlanadigan karbonat angidrid miqdori

uzluksiz oshib bormoqda, hozirgacha bironta shaharda atmosferaga tashlanayotgan karbonad angidrid miqdori kamaymadi.

NATIJALAR

Qattiq chiqindilar to'planib, uzoq vaqt turib qolgan joylarda, tozalanganidan so'ng ham uzoq vaqt bu joyda o'simliklarni ekish mumkin emas. Modomiki, o'simlik ekib o'stirilar ekan, bu mahsulotlarni iste'mol qilish xavflidir. Chunki bu o'simliklar tuproqdagi ozuqa moddalar orqali ko'pgina zaharli moddalarni o'zi bilan olib chiqadi. Bu tuproqlarda temir, xrom va boshqa moddalar yoki qaysi tur qattiq chiqindi bo'lishigi qarab o'sha moddalar ko'p bo'ladi. Sanoat chiqindilari 12.1.007-76 Davlat standarti bo'yicha tarkibidagi zaharli moddalar va tashqi muhitni ifloslantirishi bilan to'rt guruhga bo'linadi:

1. Favqulodda xavfli.
2. Juda xavfli.
3. O'rtacha xavfli.
4. Sal xavfli.

1-guruh – kutilmaganda portlash, yong'in, zilzilalar ta'sirida zaharli moddalar va gazlar xavfli ta'sir ko'rsatadi.

2-guruhdagi korxona chiqindilari tarkibida inson hayoti uchun xavf soladigan simob, margimush, xrom, qo'rg'oshinli azot va boshqa zaharli tuzlarni saqlashi bilan juda xavfli hisoblanadi.

3-guruhdagi korxona chiqindilari tarkibida mis sulfati, misning otquloq kislotasi tuzlari, nikelning xlorli tuzi, qo'rg'oshin oksidi va boshqalarni saqlashi bilan inson hayotiga xavf soladi.

4-guruhga sanoat chiqindilari tarkibida zaharli moddalar saqlamaydiganlar kiradi. Bu guruh chiqindilar tarkibida fosfotlarni, marganets, ruxning simob tuzlarini saqlaydi. Korxona chiqindilari ikkiga bo'linadi, ya'ni biridan foydalanish mumkin, ikkinchi turidan mutlaq foydalanib bo'lmaydi. Sanoat korxonasi chiqindilaridan g'isht, qurilish materiallari, yoqilg'i mahsulotlari, shuningdek, ayrim elementlarni sof holda ajratib olinadi. Masalan, neftni qayta ishlash sanoatida chiqadigan shlam qoldiqlari qayta ishlansa, 1 mln tonnasidan 4300 tonna kobet olish mumkin. Metallurgiya kombinati shlaklaridan va issiqlik energiya ishlab chiqaradigan bo'limlaridan chiqqan kuldan sement, o'g'it material tolalar qayta ishlab olinadi. Shuningdek, ulardan kislotalarga chidamli izolyatsiya materiallari va beton quyish uchun qurilmalar tayyorlanadi. Inson va tabiat uchun xavfli bo'lgan chiqindilar zararsizlantirilib, aholi punktlaridan mutlaq uzoq joylarda ko'mib tashlanadi. Chiqindilarni termik usul bilan zararsizlantirishda maxsus o'choqlarda ular 1000-1200 °C da kuydiriladi, ammo ularning yonishidan zaharli gazlar hosil bo'lsa, ular albatta maxsus ushlagichlar yordamida ushlab qolinadi. Bizdagi sanoat korxonalaridan Olmaliq va Angrenda chiqindilar miqdori juda ko'payib ketadi. Ba'zan to'plangan chiqindilar miqdori 40 mln. tonnagacha yetishi mumkin, bu korxonalardagi chiqindilarning ko'pchiligi qayta ishlanadi. Ba'zilar ko'mib tashlanadi. O'ta zaharli

bo'lgan chiqindilar qalinligi 10 mm bo'lgan temir konteynerlarga solinib mahkamlab, to'rt tomoni betonlangan chuqurlarga ko'miladi, suyuq chiqindilar uchun ajratilgan chuqurliklar hamma tomoni betonlanib, chetlariga tuproq solinib, ko'miladi. Betonlangan chuqur yer yuzasidan kamida 80-100 sm pastda qoladi.

Yirik shaharlarda sanoat chiqindilari juda ko'plab chiqadi. Masalan, eng katta shaharlardan biri bo'lgan Moskva shahrida qattiq, uy-ro'zg'or chiqindilari bir odam boshiga bir yilda 300 kg to'g'ri keladi. Shundan qog'oz va kartonlar 28.8%; metall jinslar 5.7%; oziq-ovqat chiqindilari 28.5%; plastmassa 5.1%; tekstil 3.1%; oyna 4.4%; yoqilg'i materiallari 1.8%; inert materiallar 3.4%; mayda chang chiqindilarning 19.2% hajmini tashkil qiladi. Respublikamizda qattiq chiqindilar asosan energetika beruvchi inshootlardan kul va shlaklar; qora va rangli metallurgiyadan shlaklar, koks qoldiqlari; ko'mir qazib oluvchi sanoatdan chang chiqindilari; yog'ochni qayta ishlovchi xo'jaliklardan qipiq va qirindilar; kimyo sanoatidan fosfogipslar shaklida hosil bo'ladi. Qattiq chiqindilar tarkibida turli kimyoviy moddalar bo'lib, o'ta zaharli moddalar – mishyak, ftor, fosfor, simobdan tortib inert moddalargacha bo'ladi, bular bo'r, gips va loylardir.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, maishiy chiqindilar butun dunyoda arzon xomashyo hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi yaqin kelajakda chiqindilarning 85% ni qayta ishlash mumkinligini ko'rsatmoqda. Ayrim mamlakatlarda chiqindilarni alohida yig'ish tizimi yo'lga qo'yilgan. Natijada qog'oz, plastik, alyuminiy kabi chiqindilarning katta qismi qayta ishlashga yuboriladi. Bu jarayonning ekomuhitga ijobiy ta'siri juda katta. Chiqindilarni qayta ishlash energiya va xomashyoni sezilarli darajada tejaydi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Yaponiyada rezina va kabel buyumlarining 34%, shisha buyumlarning 43%, qog'oz va kartonning 54% chiqindini qayta ishlash evaziga olinar ekan. Bu borada Xitoy tajribasi yanada hayratlanarli. Ular alyuminiy, temir, mis kabi metallardan yasalgan buyumlarning 33% ni, jun, ipak, charm-attorlik buyumlarining 34% ni turli chiqindilarni qayta ishlashdan olishadi. Ko'rinib turibdiki, chiqindilarni paydo bo'lishi va yig'ilib qolishi katta ekologik muammo ekanligi, ularni qayta ishlash va utillashtirish insoniyat oldidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib kelayapti.

Tabiiy ekotizimlarda ishlab chiqarish bilan parchalanish muvoffiqlashgan, ularda chiqindilar bo'lmaydi: bir turdagi organizmlar chiqindilari boshqa bir tur uchun yashash muhiti bo'lib xizmat qiladi va shunday qilib, tabiatda yopiq moddalar almashinuvi ro'y beradi. Tabiiy ekotizimlardan 90% ga yaqin energiya moddalarning parchalanishiga va biogeokimyoviy aylanishiga sarf bo'ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda 90% ga yaqin moddiy resurslar chiqindiga aylanadi, energiyaning asosiy miqdori esa ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlar uchun foydalaniladi. Shuning uchun, bizning bosh vazifamiz, tabiiy resurslardan samarali foydalanish yo'llarini topish, ularning kamayib ketishini, atrof -

muhitning ifloslanishini va degradatsiyasini bartaraf etish, pirovard natijada esa, moddalarning texnogen va biogeokimyoviy almashinuvini qo'shib yuborishdir.

XULOSA

Tahlillarga ko'ra, so'nggi yillarda respublikamizda yiliga, 100 million tonnadan ortiq sanoat chiqindisi (uning 14 % toksik chiqindilar toifasiga mansub), shundan 35 million tonnaga yaqin maishiy chiqindi hosil bo'ladi. Chiqindixonalar va chiqindi saqlash omborxonalarida 2 milliard tonnaga yaqin sanoat, qurilish va maishiy chiqindi saqlanayotgani hamda ular 12 ming gektar maydonni egallab turganini inobatga olsak, chiqindilarning salbiy ta'sirini tasavvur etish qiyin emas. Xabarlariga ko'ra Respublikamizda hosil bo'layotgan chiqindilarning atigi 5-10 % qayta ishlanadi yoki utilitatsiya qilinadi. Bu ko'rsatgich chet ellarda 55-60% ni tashkil etadi.

Bugun dunyo hamjamiyatini havotirga solayotgan dolzarb muammolardan biri atmosfera havosiga, Yer yuziga turli sanoat korxonalaridan har xil ko'rinishdagi-gazsimon, suyuq va qattiq chiqindilar chiqarib tashlanayotganligidir. Bu o'z navbatida, atrof- muhitning, qolaversa zaminimizning ifloslanishiga sabab bo'lmoqda. Chunki chiqindilarning aksariyat qismi zararsizlantirilmay, tozalanmay atrof-muhitga chiqarib tashlanmoqda. Ularning salbiy ta'siri natijasida esa atrof-muhit uchun turli noxush holatlar yuzaga kelmoqda.

Taraqqiyot va yutuqlarga erishish davrida turli xil elektron qurilmalar va xo'jalik texnikasini ishlab chiqarish yuqori sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bugungi kunda, bizga odat bo'lib qolgan ofis, ishdagi elektronikasiz hayotni tasavvur qilish qiyin. Yirik elektronika kompaniyalari katta raqobat sabab, har kuni yangi va raqobatbardosh elektronika mahsulotlarini ishlab chiqarishadi. Bu esa o'z navbatida eski texnikalar chiqindisi hajmini oshiradi.

Respublikamizning ko'pgina sanoat shaharlari chetlarida chiqindilardan iborat sun'iy tog'lar paydo bo'lgan. Bu sanoat chiqindilari 1 mlrd. tonnaga yaqin bo'lib, 10 ming gektardan ortiq yerni egallagan. Ularning tarkibida nodir hamda rangli madanlar va boshqa foydali qazilmalardan tashqari, zahar birikmalar ham mavjud. Bu chiqindilar tarkibidagi foydali moddalarni ajratib olib, bir qismini qurilish yoki boshqa maqsadlarda foydalanilsa minglab gektar ekinzor, bog'lar, barpo etishga imkon tug'ilar edi. Respublikamizda 159 ta axlatxonalar mavjud bo'lib, yiliga kommunal xo'jaliklardan o'rtacha 30 mln t. chiqindi chiqadi. Uning 29% i axlatxonalarga, jarliklarga, daryo va ariqlarga to'kib yuboriladi.

Ishlab chiqarilayotgan xomashyo va materiallar, mahsulotlar ishlab chiqarish, ularni ortish, tashish, saqlash va foydalanish kabilar insonlar salomatligi uchun mutlaqo zararsiz hamda hozir ham, kelgusida ham xavfsiz bo'lishi, barcha ishlarda sanitariya qoidalariga rioya qilinishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - 2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi 2019-yil PQ-4291-sonli qarori.
2. A.Ergashev. Umumiy ekologiya. Toshkent – 2003
3. A.Ergashev, T.Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2005.
4. D.Yo. Yormatova, X.S.Xushvaqtova Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. Toshkent – 2018.
5. N.I.Ibragimov, I.S Raximova. Qattiq maishiy chiqindilarini utilizatsiyalash. Toshkent – 2018.
6. P.S.Sultonov. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. <<MUSIQA>> nashriyoti Toshkent – 2017.
7. O‘.E.Xo‘janazarov, Sh.Yakubjonova. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. O‘quv qo‘llanma Toshkent – 2018.
8. B.Sh.Ismoilxo‘jayev, J.B.Mirzaqobulov. Ekologik ekspertiza. Uslubiy qo‘llanma Toshkent – 2019.

ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ БСП С УСЛОВНЫМ ЗНАЧЕНИЕМ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ РУССКИХ ПИСАТЕЛЕЙ И ПОЭТОВ

*Зиядова Диёра, студентка факультета
"Филология и обучение языкам: русский язык "
Навоийского университета инноваций*

Аннотация: В данной статье даётся анализ бессоюзных сложных предложений со значением условия в произведениях русских писателей и поэтов, а также – в пословицах и поговорках.

Ключевые понятия: чередование, бессоюзие, условие, последовательность.

Abstract: This article provides an analysis of non-union complex sentences with the meaning of a condition in the works of Russian writers and poets, as well as in proverbs and sayings.

Key concepts: alternation, non-union, condition, sequence.

БСП (бессоюзные сложные предложения) в русском языке выделены в особую структурно-семантическую единицу и они, независимо от ССП и СПП, выступают и в разговорной речи, и на письме. БСП нашли в разговорной речи широкое использование, а в литературе широко встречаются в произведениях русских поэтов и авторов. Умелое использование этих конструкций позволило многим авторам произведений мастерски пользоваться БСП в произведениях.

Структуры БСП хорошо представлены в трудах А.М. Пешковского, Пospelова Н.С., Ширяева Е.Н., Белошапковой В.А., которые дали описание разных конструкций этих предложений, особо отметив факторы, влияющие на смысловые отношения между предложениями, входящими в состав этих предложений. Что касается условного подчинения предикативных частей, БСП нашли своё широкое применение в русском языке. [1].

Как подчеркивает в своей работе известный учёный-филолог Пешковский А.М., под сложным предложением понимается «сочетание предложений, соединённых союзами, союзными словами или союзными синтаксическими паузами и не разделённых разделительными синтаксическими паузами» [3, с.459]. Следовательно, если отсутствует союз или союзное слово, тогда эту роль выполняет соединительная интонация. Пешковский рассматривает БСП как одно целое. Он объясняет связь предикативных частей сложного бессоюзного предложения ведущей ролью интонации. Шустер А.Г. в своей диссертации пишет: «Таким образом, синтаксическая форма БСП у Н.С.Пospelова обладает планом выражения или средством – определённым интонационным типом, «и своим особым синтаксическим значением, несводимым к значению союзов и союзных слов» [2].

Бессоюзным сложным предложением называется такое сложное предложение, в котором части, входящие в его состав, связаны между собой по смыслу, с помощью интонации, порядком следования частей, видовременными формами глаголов-сказуемых. Но смысловая часть в предложении образует единое целое. Вопрос о статусе бессоюзного сложного предложения постоянно рассматривают и изучают многие лингвисты. Так, Шведова Н.Ю. отмечает: «в современной лингвистике нет концепции БСП, на которую можно опереться в его описании» [4]. Следует отметить, что синтаксический статус бессоюзного сложного предложения в русском языке продолжает до сих пор волновать русских лингвистов, и они постоянно исследуют такие конструкции. Первым ученым в русской лингвистике, который коснулся структурно-семантических типов БСП, был А.М. Пешковский. Он утверждал, что интонация в какой-то мере принимает на себя функцию, выполняемую союзами (союзными словами). Это означало, что бессоюзные сложные предложения отличаются от союзных предложений не значением, а только лишь синтаксическим средством. Такой подход в науке стал называться компенсационным законом А.М. Пешковского.

Лингвисты постоянно обращаются к исследованию всех типов БСП в русском языке, так как их использование придают особые оттенки смыслового содержания. Исследуя непростые конструкции БСП со значением условия, можно сделать вывод, что широкое использование их наблюдается в прозе русских поэтов, в современной литературе встречаются реже.

Русские лингвисты, в основном, основательно исследовали простые предложения, традиционно типичные для авторского повествования. Стремительный рост использования БСП с характерными условными отношениями в литературе и в устной речи в русском языке – одна из основных причин для исследования названных сложных конструкций. Основным методом в исследовании БСП было использовано детальное изучение названных сложных предложений в русском языке

Как и большинство СПП, так и БСП со значением условия содержат две части, которые связаны по смыслу. Поэтому они нашли широкое применение в творчестве многих писателей, поэтов, а также в пословицах и поговорках. [5]. Структурно-семантический метод позволил подтвердить единство значений и средства их выражения в таких сложных синтаксических конструкциях в художественной речи. Проведённые исследования и всестороннее изучение подтвердили их широкое использование в произведениях А.П. Чехова, И.С. Тургенева, в драме А.Н. Островского «Гроза», а также в стихах, поэмах великих русских поэтов А.С. Пушкина, М.Ю. Лермонтова, великого русского поэта, «крестьянского поэта» Н.А. Некрасова и др.

Когда А.С. Пушкин пишет о красоте русской природы и природы родного края, когда он раскрывает силу своих сказочных героев, богатырский дух русского народа, он использует БСП условного направления, да так, что мы сами становимся участниками всех событий, наполняясь духом и красотой русской природы, углубляясь в мир его глубоких размышлений о неповторимой красоте и силы русской природы.

Пример. «Он свистнет — задрожит луна». Первая часть предложения содержит условие, при котором возможно или совершается действие во второй его части. А чтобы в этом убедиться, достаточно в самое начало первого предложения поставить союз «если». Тогда это БСП условного значения приблизится к сложноподчинённому предложению со значением условия: «Если он свистнет, задрожит луна» или «Если он свистнет, тогда задрожит луна».

БСП отличается от сложноподчинённого предложения отсутствием союза и дополнительного слова «тогда», которые усиливают синтаксическое значение сложноподчинённого предложения. Большой мастер использования БСП со значением условия великий русский поэт, как его называли потом «крестьянский поэт», Н.А. Некрасов внутренне переживает тяжёлый быт русского, простого народа, подчёркивает силу русского мужика и тяжёлый труд русской женщины. При этом он часто использует все типы БСП.

Пример. «Дыхну — с ладони скатишься, Чихну — в огонь укачишься, Щёлкну — мертва покатишься...». В первые части этих предложений можно поставить союз «коли», и заложенный смысл сохранится: «Коли дыхну, с ладони скатишься, Коли чихну, в огонь укачишься, Коли (если) щёлкну, мертва покатишься». Помимо этих союзов, можно воспользоваться и союзами «раз» и «кабы».

БСП условного подчинения часто используются в поговорках и пословицах, которые присутствуют не только в разговорной речи, но и в литературе. Примеры пословиц и поговорок. «Репей посадишь – рожь не уродится» (пословица). «Не мудрено голову срубить – мудрено приставить» (пословица) «Поспешишь - людей насмешишь» (пословица). «Ума нет – считай калека» (поговорка). «Денег нет - снимай шубу».

Важно заметить, что перестановка частей БСП с условным значением может привести к новому БСП с этим же значением, но с другим смыслом. Пример. «Хочешь быть безукоризненным – не бойся прямолинейности» (Ю. Нагибин). Это БСП с условным значением. Сравни после перестановки частей: «Не бойся прямолинейности, если хочешь быть красивым». Это условное сложноподчинённое предложение. Но бессоюзные сложные предложения передают множественность фактов, формируют динамику происходящего, усиливают атмосферу напряжения, служат одним из средств создания психологизма. Такое постоянно наблюдается в речи героев Достоевского, в раскрытых поступках и рассказанных событиях. Это

другой пример с незавершённым событием, но условного значения. «Узнают хозяева - из квартиры выгонят». Наряду с этим данный семантический оттенок может быть назван в предложении и эксплицитно, с помощью вводных компонентов или наречий со значением уверенности, бесспорности наверняка, обязательно, несомненно, а при отрицании - никак, нипочём, ни за что и др.: Пример. «Ведь пойду на нём плавать - на крейсер уж никак не вернусь». В самое начало первой части можно поставить союз «коли», а вместо «тире» - ставим «запятую». «Коли ведь пойду на нём плавать, на крейсер уж никак не вернусь».

Полученные результаты при исследовании таких конструкций могут быть использованы при исследовании других типов бессоюзных сложных предложений. Изучение этих конструкций поможет изучающим русский язык для правильного перевода текстов, широком их использовании в разговоре, более быстрое изучение БСП со значением условного характера.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Аничкина Л. В., Автореферат к дисс., Москва, 2004.
2. Иванчикова Е.А. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата филологических наук. Соотносительное употребление форм будущего времени глаголов в современном русском языке (в слитном и сложном предложении). М., 1954. - 20 стр. 49
3. Пешковский А.М. «Русский синтаксис в научном освещении», с. 459, 1920.
4. Пospelов Н.С., Мысли о русской грамматике. Избранные труды (составитель Е.А.Иванчикова. Москва: Наука, 1990. - 183 стр.).
5. Рубинчик Ю.А., «Основные виды бессоюзных сложных предложений в персидском языке», Индийская и иранская филология, М., 1964.

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA DARSNI QIZDIRUVCHI MASHG‘ULOTLAR (WARM-UP ACTIVITIES)

Yaqubova Zebunniso Yaqub qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

3-kurs talabasi

yoqubovazebuniso58@gmail.com

Annotatsiya. Darsni boshlashda o‘quvchilarni tayyorlash, ularning e’tiborini jamlash va darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish muhim hisoblanadi. Buning uchun “warm-up” deb ataluvchi darsni qizdiruvchi mashg‘ulotlar samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada ingliz tili darslarini samarali boshlash uchun foydalaniladigan qizdiruvchi mashg‘ulotlarning turlari, ularning afzalliklari va amaliy misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili, darsni boshlash, qizdiruvchi mashg‘ulotlar, warm-up activities, chet tili o‘qitish, motivatsiya, o‘quvchilarni faollashtirish, lug‘at o‘yinlari, muloqot ko‘nikmalari, interaktiv metodlar, til o‘rganish strategiyalari.

Аннотация. Начиная урок, важно подготовить учеников, сосредоточить их внимание и повысить их интерес к уроку. Для этого эффективным инструментом являются разминочные упражнения, называемые «разминками». В этой статье представлены типы разминочных упражнений, используемых для эффективного начала уроков английского языка, их преимущества и практические примеры.

Ключевые слова: английский язык, начало урока, разминочные упражнения, обучение иностранному языку, мотивация, активация учащихся, словарные игры, коммуникативные навыки, интерактивные методы, стратегии изучения языка.

Abstract. When starting a lesson, it is important to prepare students, focus their attention, and increase their interest in the lesson. For this, warm-up activities, called “warm-ups,” are an effective tool. This article presents the types of warm-up activities used to effectively start English lessons, their advantages, and practical examples.

Keywords: English, starting the lesson, warm-up activities, foreign language teaching, motivation, student activation, vocabulary games, communication skills, interactive methods, language learning strategies.

Kirish

Hozirgi globallashuv davrida chet tillarini, ayniqsa, ingliz tilini o‘rganish va o‘qitish barcha sohalarida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tili xalqaro aloqa, ilm-fan, texnologiya, biznes, turizm, diplomatiya va ta’lim sohalarida asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu sababli, ushbu tilni samarali va muvaffaqiyatli o‘rgatish har bir pedagog oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Ingliz tilini o'rgatish jarayoni nafaqat grammatik qoidalarni o'rgatish, balki o'quvchilarda til ko'nikmalarini (tinglash, o'qish, yozish, gapirish) izchil va faol shakllantirishni ham talab etadi. Buning uchun esa darsning har bir bosqichi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, darsning boshlanishi – ya'ni birinchi 5–10 daqiqa – o'quvchilarning butun dars davomida faol bo'lishi va mavzuni qanday qabul qilishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Dars boshidagi mashg'ulotlar, ya'ni “warm-up activities” (qizdiruvchi mashg'ulotlar), o'quvchilarning e'tiborini jamlash, ularni darsga ruhiy va aqliy tayyorlash, til muhitiga kiritish va darsga qiziqishni kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, chet tilini o'rganishda o'quvchilarda psixologik to'siqlar, noqulaylik hissi va til barerini yengish zarur bo'ladi. Qizdiruvchi mashg'ulotlar esa bu muammolarni yumshatish va muloqotga ochiqlik yaratishda samarali vosita hisoblanadi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, darsni ijodiy, interaktiv va qiziqarli mashg'ulotlar bilan boshlagan o'qituvchilar o'quvchilarning e'tiborini yaxshiroq jalb qilgan, ularni faollikka undagan va natijada til o'rganish jarayonida yuqori samaradorlikka erishgan. Shu boisdan ham ingliz tilini o'qitishda warm-up mashg'ulotlarining turli shakl va metodlaridan foydalanish har bir o'qituvchining metodik arsenalida bo'lishi kerak.

Ushbu maqolada ingliz tili darslarini samarali boshlashda qo'llaniladigan qizdiruvchi mashg'ulotlarning pedagogik ahamiyati, turlari va ularning dars jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Bundan tashqari, ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ham keltiriladi.

Qizdiruvchi mashg'ulotlarning ahamiyati

Ingliz tilini samarali o'rgatishda darsni qanday boshlash katta ahamiyatga ega. “Warm-up” mashg'ulotlari o'quvchilarni yangi mavzuga tayyorlash, ularning diqqatini jamlash va ruhiy holatini darsga moslashtirish uchun xizmat qiladi. Quyida bu mashg'ulotlarning asosiy pedagogik ahamiyatlari bayon qilinadi:

1. Psixologik tayyorgarlikni shakllantirish

O'quvchi darsga kelganida, uning e'tibori boshqa masalalarda bo'lishi mumkin. Qizdiruvchi mashg'ulotlar orqali o'quvchi asta-sekin dars mavzusiga “ko'chadi”, fikran til muhitiga kiradi. Bu, ayniqsa, chet tilida o'qitiladigan darslarda juda muhim. Masalan: O'yinli savol-javoblar orqali o'quvchi o'zini erkin his qila boshlaydi va darsga jalb etiladi.

2. Diqqatni jamlash va motivatsiyani oshirish

Dars boshlanishidagi qiziqarli, ijodiy mashg'ulotlar o'quvchining diqqatini tezda jamlashga yordam beradi. Ayniqsa, texnologik asrda e'tiborni ushlab turish qiyin bo'layotgan bir paytda, warm-up faoliyatlari darsga jalb qilishning samarali vositasidir. Masalan: “Odd one out” o'yini orqali so'zlarni saralash, e'tiborni faol ishlatishga undaydi.

3. Oldingi bilimlarni faollashtirish

Yangi mavzuni tushuntirishdan oldin, o'quvchilarning mavjud bilimlarini esga solish juda muhim. Qizdiruvchi mashg'ulotlar orqali avvalgi darslarda o'rganilgan lug'at yoki

grammatik birliklar qayta faol holatga keltiriladi. Masalan: “Mind map” (fikir xaritasi) yaratish orqali avvalgi bilimlar jamlanadi.

4. Til muhitini yaratish

Ona tilidan chet tiliga o'tish, ayniqsa boshlang'ich bosqichda, o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi. Warm-up mashg'ulotlari ingliz tilidagi muhitni bosqichma-bosqich yaratishga xizmat qiladi. Masalan: Oson va qisqa gaplar bilan suhbatga kirishish orqali o'quvchi o'zini chet tilida fikrlashga odatlantira boshlaydi.

5. Jamoaviylik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish.

Qizdiruvchi faoliyatlar ko'pincha guruhda yoki juftlikda bajariladi. Bu esa o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirib, muloqot qilishga undaydi. Masalan: “Find someone who...” (Kimda shunday odat bor?) faoliyati orqali o'quvchilar o'zaro gaplashishga majbur bo'ladilar.

6. Ijodkorlik va tafakkurni faollashtirish

Ba'zi warm-up mashg'ulotlar o'quvchilardan ijodiy fikrlashni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida ularning ingliz tilida mustaqil fikrlash ko'nikmasini kuchaytiradi. Masalan: Rasm asosida voqeani tasvirlash, to'ldirilmagan jummalarni to'liq hikoyaga aylantirish kabi topshiriqlar ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi.

7. Til barerini yengish

Ko'plab o'quvchilar chet tilida gapirishdan uyaladilar yoki xatodan qo'rqadilar. Qizdiruvchi mashg'ulotlar norasmiy va erkin muhit yaratgani sababli, o'quvchilar o'z fikrini bemalol bayon qila boshlaydilar. Masalan: Kulgili savol-javoblar, o'yinli topshiriqlar orqali o'quvchi o'zini qulay his qiladi va asta-sekin til bareridan o'tadi.

Qizdiruvchi mashg'ulotlar turlari

Qizdiruvchi mashg'ulotlar turli shakl va mazmunga ega bo'lib, o'quvchilarning yoshi, ingliz tilini bilish darajasi va dars mavzusiga qarab tanlanadi. Quyida keng tarqalgan, samarali deb topilgan mashg'ulot turlari bayon etiladi:

1. Lug'at asosidagi o'yinlar

Bu turdagi mashg'ulotlar o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga, avval o'rganilgan so'zlarni takrorlashga va ularni tez esga tushirishga yordam beradi.

- So'z zanjiri (Word chain): O'quvchilar bir-biriga bog'liq so'zlar aytadi.

- Masalan: teacher → classroom → student → book → pen...

- So'z topish (Guess the word): O'qituvchi so'zni tariflaydi, o'quvchilar topadi: “It is something you read” → book.

- Anagrammalar va so'z bo'laklari: So'zlar harflarini chalkashtirib berish orqali ularni to'g'ri tartibga keltirish topshirig'i.

- Afzalliklari: Tez o'ylash, eslab qolish va faol ishtirokni talab qiladi.

2. Savol-javob asosidagi faoliyatlar

Bu mashg'ulotlar o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga va o'zaro muloqot ko'nikmalarini mustahkamlashga qaratilgan.

•“Find someone who...” faoliyati: O‘quvchilar bir-biridan savollar so‘rab, mos odamni topadi: Find someone who has a cat / likes chocolate / can sing...

•“Yes/No” o‘yini: O‘quvchi o‘ylagan narsani topish uchun savollar beriladi.

•Mini-intervyular: Juftlikda ishlash orqali oddiy intervyu savollarini berish.

•Afzalliklari: Gapirishga bo‘lgan ishonchni oshiradi, grammatik strukturani mashq qilish imkonini beradi.

3. Rasm va vizual materiallar asosida mashg‘ulotlar

Vizual vositalar o‘quvchilarning e‘tiborini tortadi va ularning tasavvurini ishga soladi.

•Rasm tavsifi (Picture description): O‘quvchi rasmni ko‘rib, ingliz tilida tasvirlaydi.

•Farqni toping (Spot the difference): Ikkita rasm taqqoslanib, ularning farqlari aniqlanadi.

•“What is happening?”: Harakatli yoki hodisali rasm asosida voqea bayoni tuziladi.

•Afzalliklari: Til va tafakkurni bog‘laydi, so‘z boyligini amalda qo‘llashga undaydi.

4. Matn asosida ishlash mashg‘ulotlari

O‘quvchilarning o‘qish va tushunish ko‘nikmalarini faollashtirishga qaratilgan.

•Gapni to‘ldirish (Gap-fill): So‘zlar yoki gap bo‘shliqlari to‘ldiriladi.

•Xatolik topish (Error correction): Matndagi xatolarni aniqlab, to‘g‘rilash.

•Savol-javob (Reading Q&A): Kichik matndan so‘ng savollarga javob berish.

•Afzalliklari: Til strukturasi ustida ishlashga yordam beradi, o‘quvchini fikrlashga undaydi.

5. Musiqa va video asosidagi mashg‘ulotlar

Bu usullar ayniqsa yoshlar orasida ommabop bo‘lib, darsni jonlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

•Qo‘shiqdagi bo‘sh so‘zlarni to‘ldirish (Fill in the blanks): Tinglagan qo‘shiq matni asosida bo‘sh joylarni to‘ldirish.

•Video asosida muhokama: Qisqa animatsiya yoki videodan so‘ng savollar berish yoki hikoya tuzish.

•Musiqiy viktorinalar: Qo‘shiqdan so‘zlarni eslab qolish yoki tarjima qilish.

•Afzalliklari: Eshitish va talaffuz ko‘nikmalarini shakllantiradi, darsga zavq bag‘ishlaydi.

6. Harakatli va jismoniy faoliyatga asoslangan mashg‘ulotlar

Bu mashg‘ulotlar ayniqsa kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun samaralidir, chunki ular harakatga ehtiyoj sezadilar.

•Simon Says: “Simon says jump”, “Simon says touch your nose” kabi buyruqlar bajariladi.

•Tana a‘zolarini ko‘rsatish: O‘qituvchi tananing inglizcha nomini aytadi, o‘quvchilar ko‘rsatadilar.

•O‘yin orqali harakat qilish: “Run to the board and write a color!” kabi interaktiv vazifalar.

•Afzalliklari: Energiyani boshqaradi, darsni jonlantiradi, kinestetik o‘quvchilar uchun foydalidir.

7. Tasavvurga asoslangan topshiriqlar

Bu turdagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va mustaqil fikr bildirishga o‘rgatadi.

•“If I were...” (Agar men...) faoliyati: “If I were a bird, I would...” kabi gaplarni davom ettirish.

•Rangtasvir asosida hikoya tuzish: Rasm yoki belgidan kelib chiqib, voqea tuzish.

•Xayoliy savollar: “What would you do if you had a million dollars?”

•Afzalliklari: Erkin ifoda qilish, mantiqiy fikrlash va tilni ijodiy qo‘llashga o‘rgatadi.

Qizdiruvchi mashg‘ulotlarni tanlashda e‘tiborli bo‘lish kerak bo‘lgan jihatlar

Ingliz tili darslarida qizdiruvchi mashg‘ulotlar darsni qiziqarli va samarali boshlash uchun xizmat qiladi. Biroq bu mashg‘ulotlarni tanlashda bir nechta muhim jihatlarga e‘tibor berish lozim.

1. O‘quvchilarning yoshi va xususiyatlari

Mashg‘ulotlar o‘quvchilarning yoshiga mos bo‘lishi kerak. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ko‘proq harakatli va o‘yinli faoliyatlar tanlanadi. Katta yoshdagi o‘quvchilar esa suhbat, bahs-munozara yoki yozma faoliyatlarga ko‘proq qiziqadilar.

2. Ingliz tilini bilish darajasi

Har bir mashg‘ulot o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish darajasiga qarab tanlanishi kerak. Boshlang‘ich darajadagilar uchun sodda so‘zlar va gaplardan iborat mashg‘ulotlar kerak bo‘lsa, o‘rta yoki yuqori darajadagilar murakkab topshiriqlarga tayyor bo‘ladilar.

3. Dars mavzusiga moslik

Qizdiruvchi faoliyat asosiy mavzuga kirish vazifasini bajarishi kerak. Masalan, agar dars mavzusi “transport” haqida bo‘lsa, mashg‘ulot ham shu mavzudagi so‘zlar bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

4. Vaqtdan to‘g‘ri foydalanish

Bu faoliyatlar dars vaqtining ko‘p qismini egallamasligi kerak. Odatda, 5–10 daqiqa yetarli bo‘ladi. Shunda asosiy dars mavzusi uchun ham yetarli vaqt qoladi.

5. Barcha o‘quvchilarning ishtiroki

Mashg‘ulotlar shunday tashkil qilinishi kerakki, barcha o‘quvchilar faol qatnashsin. Agar faqat bir necha o‘quvchi ishtirok etsa, qolganlar darsdan chetda qolishi mumkin. Juftlikda yoki guruhda ishlash bunga yordam beradi.

6. Madaniy jihatlariga e‘tibor

Ba‘zi mashg‘ulotlar yoki materiallar boshqa madaniyatlarga asoslangan bo‘lishi mumkin. Shu sababli, o‘qituvchi mashg‘ulot tanlayotganda o‘quvchilar madaniyati va qadriyatlariga zid kelmaydigan faoliyatlarni tanlagani ma’qul.

7. Texnik imkoniyatlar

Agar mashg'ulot audio yoki video kabi texnik vositalarni talab qilsa, o'qituvchi oldindan bu vositalar mavjudligini tekshirib olishi kerak. Agar sharoit bo'lmasa, boshqa, oddiyroq usul tanlangan ma'qul.

8. Mashg'ulotning maqsadga xizmat qilishi

Har bir mashg'ulot foydali bo'lishi uchun aniq maqsadga xizmat qilishi lozim. U yangi so'zlarni esga solish, gapirishni faollashtirish, tinglab tushunishni yaxshilash yoki grammatika ustida ishlashga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Natijalar muhokamasi

Ingliz tili darslarida qizdiruvchi mashg'ulotlarning samaradorligi haqida olib borilgan tahlillar ularning o'quvchilarning til o'rganish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Qizdiruvchi mashg'ulotlar nafaqat o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki dars muhitini yanada jonlantiradi, o'quvchilarni faol va ishtirokchi holatga olib chiqadi.

O'rganilgan materiallardan ma'lum bo'lishicha, mashg'ulotlar turlicha shaklda bo'lishi mumkin — lug'atga asoslangan o'yinlar, savol-javob, rasm va vizual materiallar, harakatli mashg'ulotlar va boshqalar. Har bir tur o'zining maxsus pedagogik vazifasini bajaradi va o'quvchilarning yoshiga, darajasiga mos ravishda qo'llanilganda eng samarali natijalar beradi.

Masalan, kichik yoshdagi o'quvchilar uchun harakatli va o'yinli mashg'ulotlar til o'rganishda motivatsiyani oshiradi, ular o'rganilayotgan so'z va iboralarni jonli shaklda mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, katta yoshdagi o'quvchilar uchun savol-javoblar va muloqotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tilni amaliy qo'llashni, nutq ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Bu esa, ularning tilni erkin va to'g'ri ishlatishga bo'lgan qobiliyatini oshiradi.

Qizdiruvchi mashg'ulotlarni tanlashda e'tiborli bo'lish kerak bo'lgan jihatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning o'quvchilar yoshi, til darajasi, dars mavzusi va mavjud vaqtga mos kelishi zarur. Agar mashg'ulot dars mavzusidan uzoq bo'lsa yoki vaqtni haddan tashqari egallasa, u holda o'quvchilar diqqatini jamlash qiyinlashadi va dars samarasi pasayadi. Shu sababli mashg'ulotlarning qisqa, qiziqarli va maqsadga muvofiq bo'lishi o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biridir.

Bundan tashqari, qizdiruvchi mashg'ulotlarning muvaffaqiyati o'quvchilarning barcha qatlamlarini faol ishtirok etishga undashda ham namoyon bo'ladi. Agar mashg'ulot faqat bir necha o'quvchini jalb qilsa, qolganlari darsdan chetda qolib, nazariy bilimlarni qabul qilishda

qiynalishi mumkin. Shu sababli, juftlikda, guruhda yoki butun sinf bo'lib bajariladigan faoliyatlar samaraliroqdir.

Yana bir muhim jihat — o'quvchilarning madaniy xususiyatlarini hisobga olishdir. Ingliz tilini o'rgatishda qo'llaniladigan material va mashg'ulotlar mahalliy madaniyatga

mos kelishi, o'quvchilarni noqulay holatga solmasligi kerak. Bu esa, o'quvchilar til o'rganishda o'zlarini erkin va qulay his qilishlariga yordam beradi.

Texnologiyalarni qo'llash ham qizdiruvchi mashg'ulotlarni yanada samarali qiladi. Audio va video materiallar, interaktiv o'yinlar va boshqa multimediya vositalari o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi va darsni yanada qiziqarli qiladi. Lekin bunday vositalarning mavjudligi va ishlatilish qulayligini oldindan aniqlash kerak.

Shu bilan birga, qizdiruvchi mashg'ulotlarning samaradorligi ularning maqsadga xizmat qilishida namoyon bo'ladi. Har bir mashg'ulot aniq pedagogik vazifani bajarishi, o'quvchilarning lug'at, talaffuz, grammatika yoki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarur.

Umuman olganda, qizdiruvchi mashg'ulotlar til o'rganish jarayonining muhim va ajralmas qismi bo'lib, ular o'quvchilarda o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi, tilni erkin ishlatish ko'nikmalarini shakllantiradi va dars muhitini quvnoq va samimiy qiladi. Shu sababli o'qituvchilar mashg'ulotlarni tanlashda yuqoridagi jihatlarni hisobga olib, har bir dars uchun eng maqsadga muvofiq faoliyatlarni tanlashi lozim.

Xulosa

Ingliz tili darslarida qizdiruvchi mashg'ulotlarning o'rni juda muhimdir. Ular o'quvchilarni darsga tayyorlash, ularni faol qatnashishga rag'batlantirish va til o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Qizdiruvchi mashg'ulotlar yordamida o'quvchilar o'zlaridagi bilimlarni esga olib, yangi mavzu uchun zarur bo'lgan asosiy tushunchalar bilan tanishadi, shuningdek, o'zaro muloqotga kirishib, dars muhitida erkinlik va ishonch hosil qiladi. Mashg'ulotlarni tanlashda o'quvchilarning yoshi, til darajasi, dars mavzusi va vaqt kabi omillarni inobatga olish zarur. Shu yo'l bilan o'quvchilarning individual xususiyatlari va ehtiyojlariga moslashgan samarali mashg'ulotlar tashkil etish mumkin. Shuningdek, mashg'ulotlarning qisqa, sodda va qiziqarli shaklda bo'lishi dars davomida o'quvchilarning diqqatini jamlash va charchashining oldini olishga yordam beradi.

Qizdiruvchi mashg'ulotlarning turlari xilma-xil bo'lib, ular o'quvchilarning turli ko'nikmalarini faollashtiradi: so'z boyligini oshirish, talaffuzni yaxshilash, grammatika qoidalarini mustahkamlash va nutq madaniyatini rivojlantirish. Shu sababli, o'qituvchi mashg'ulotlarni tanlashda ularning pedagogik maqsadga xizmat qilishiga alohida e'tibor qaratishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, qizdiruvchi mashg'ulotlar dars jarayonini yanada samarali, qiziqarli va jonli qilishga xizmat qiladi. Ular o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirib, mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Shu bois, o'qituvchilar bu faoliyatlarni dars rejasida doimiy ravishda qo'llashlari va har bir sinfning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlashlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education Limited.
2. Thornbury, S. (2005). How to Teach Speaking. Pearson Longman.
3. Scrivener, J. (2010). Learning Teaching. Macmillan Publishers.
4. Ur, P. (1996). A Course in Language Teaching: Practice and Theory. Cambridge University Press.
5. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press.
6. Brown, H. D. (2007). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson Education.
7. Celce-Murcia, M. (2001). Teaching English as a Second or Foreign Language. Heinle & Heinle Publishers.
8. Nunan, D. (2003). Practical English Language Teaching. McGraw-Hill.

LEGAL THEORIES OF UNJUST ENRICHMENT IN COMMERCIAL DISPUTES

Gao XinXin

Master of the faculty of "International Commercial Law",

Tashkent State Law University,

E-mail:1518527727@qq.com

Xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganish bugungi kunda kasb-hunar ta'limi tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Politekxnikularda ingliz tilini o'qitish nafaqat til bilimini oshirish, balki o'quvchilarning kasbiy salohiyatini yuksaltirish, ularni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur fan orqali o'quvchilar texnik atamalarni o'zlashtiradi, kasbiy matnlarni tushunadi va mutaxassislik yo'nalishidagi muloqotda faol ishtirok eta oladi.

Ingliz tili fanining ta'limdagi samaradorligini oshirish uchun dars jarayonini kasbiy yo'nalishga moslashtirish, kommunikativ va interaktiv metodlarni qo'llash, fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalarni yangilash, o'qituvchilarning malakasini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish orqali ta'lim sifati sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini samarali o‘qitish politekxnikum o‘quvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib, ularning kelajakdagi mehnat faoliyatida muvaffaqiyatli bo‘lishlariga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 10 декабрдаги «Чет тилларни 1. ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-1875-сон қарори.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 27 майдаги «2013-2. 2016 йилларда таълим муассасаларининг чет тиллари кабинетларини замонавий ахборот-коммуникация, ўқитишнинг техник воситалари ва анжомлари билан жиҳозлаш (қўшимча жиҳозлаш)ни жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 143-сон қарори.

3. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. - Т.: ТДПУ, 2003.3.

4. Ахлиддинов Р.Ш. Умумий ўрта таълим сифатини бошқаришнинг ижтимоий-педагогик асослари (Кадрлар тайёрлаш миллий дастури асосида). Пед. фан. докдисс. – Т., 2002. -338-б.

5. Маҳмудов М.Х Бўлажак магистрларни компетентли тайёрлашнинг дидактик таъминотини такомиллаштириш. П.ф.д., илмий даражасини олиш учун... дисс автореферати. - Т., 2017.

BOLALARDA KASB-HUNARGA NISBATAN TUSHUNCHALAR SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK BOSQICHLARI

Yakupbayeva Gulnara Maratovna

Qaraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'iroq tumani

1-sonli maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Yoshlarning kasb tanlashlari maktabdan boshlanadi. Bunga ularni tayyorlab borish zarur bo'ladi. Buni psixolog olim Anvar Jalolov o'zining "Kasb qanday tanlanadi" kitobida shunday ko'rsatib beradi. Xilma – xil va qiziqarli kasblarni tanlashning asosiy maqsadi yaxshi yashash va yaxshi kasbni tanlash hisoblanadi.

Kalit so'zlar: kasb, bilish jarayonlari, nutq, xotira, kasblar tasnifi, iqtidor

KIRISH

O'zi uchun qiziqarli bo'lgan kasb insonni har doim o'z ustida ishlashga, uni yaxshiroq bilishga olib keladi. Insonda kasb tanlash jarayonini yana shu muallif quyidagicha belgilaydi. Insonda ma'lum kasbga, uni egallashga xavas, mayil, orzu, ishtiyoq, xafsala bo'lmasa u hech qanday kasbni egallay olmaydi. Insondagi shu jarayonlar odamning o'z kelajagini to'g'ri anglashga, tushunishga olib keladi. Unda istak, xohish paydo bo'ladi. Bular bolada ma'lum bir maqsadni shakllanishiga va bu yo'lda iroda kuchini sarf qilishga olib keladi. Irodali inson o'z maqsadi sari intiladi va orzu havaslariga erishadi. Bunda bolaBunda bolada paydo bo'luvchi xavas atrofdagi insonlarni kuzatish orqali, ularga aytilgan maqtov so'zlarini tinglash va uning mahoratiga qoyil qolish, odamlarni uning mahoratini maqtashlari, bu insonni bilimdonligi, qo'lidan ko'plab ishlar kelishini kuzatishi unda shu insonga o'xshashga xavasni uyg'otadi. Unda orzu, armon, tilak, ishtiyoq va xafsala paydo bo'ladi.

Bu jarayonlar bolada uyg'onayotgan ehtiyojlar va manfaatlar bilan bog'liq bo'lib uni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishning xissiyotlari, irodalari bilan bog'liq jarayondir. Katta bo'lib borayotgan bolada xavas paydo bo'ladi. Kasbga nisbatan olganda bolani shu kasbga qiziqishi, intilishi, mayli, xohish, istak va orzusi bo'lib ko'zga tashlanadi. Bu yo'lda bola o'ziga tilak tilab shu kasbni egallashga bo'lgan intilishi sodir bo'ladi. Agarda bola o'z tilaklarini xafsala bilan amalga oshirmasa, xarakat qilmasa bu armon va orzu bo'lib qoladi. SHuning uchun u zo'r ishtiyoq bilan xarakat qilishi va armonlarini amalga oshirishi zarur bo'ladi. Ko'rinib turibdiki bu jarayonlar insonga xos bo'lgan psixologik jarayonlarni tashkil etib. Insonning maqsadini vujudga kelishining asosi hisoblanadi. Albatta bu jarayonda insondan iroda kuchi ham talab qilinadi. Ishtiyoq bu – zo'r istak, xohish hisoblanadi. Yoshlarni kasb tanlashlari yo'lidagi bunday jarayonlarni o'rgangan psixolog olimlar ularni quyidagicha ta'riflaydilar. Insonni anglash darajasiga ko'ra kasb tanlashda quyidagi tomonlar ta'riflanadi.

Istak – intilishning shunday bir turidirki, bunda inson faqatgina o‘zining hozirgi holatidan norozi ekanini his qilib tursa ham, lekin qanday maqsadga intilayotganini, binobarin, bu maqsadga erishishning yo‘l – yo‘riqlarini aniq bilmaydi. Bunda kishi nima istayotganini o‘zi anglab etmaydi. Bola o‘zi nimani istayotganini anglamas ekan bu istakni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Insondagi istak ma‘lum darajada anglangan bo‘lsa, tilak – xavasga aylanib ketishi mumkin.

Kasb va kasbiy psixologik jarayonlar kasb tanlovchidan quyidagilarni talab qiladi:

- Umumta‘lim maktablarida beriladigan ta‘lim darajalaridagi bilimlarga ega bo‘lishni;

- Kasb tushunchasining ta‘rifini, uning tabiatini, xususiyatlarini kasblar sonini va turlarini bilishni;

- Kasbni inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunish va u haqida tasavvurga ega bo‘lish;

- Kasb tanlashga kerak bo‘lgan idrokni, xohishni mavjud bo‘lishi; • O‘z maqsadi va manfaatini to‘g‘ri anglab olgan bo‘lishi; • Kelajagi haqida tasavvurlarni bo‘lishi.

Kasb tushunchasi quyidagilar bilan tavsifanadi:

- •-Bu mehnatning alohida turi bo‘lib, psixologdan qator mutaxassislar bilan hamkorlik qilishini talab etadi.

- •-Bu doimiy tayyorgarlikni talab etuvchi mehnat.

- •-Bu bajarilgan ishga rag‘bat talab etuvchi mehnat.

- •-Bu ijtimoiy foydali mehnat •-Bu shaxsga jamiyatda muayyan mavqe beruvchi mehnat.

Shu o‘rinda kasb va mutaxassislik terminlarining mazmun va mohiyatiga alohida tuxtalib o‘tgan holda ularning ma‘nolarini farqlab o‘tamiz,

Kasb – bu jamiyat uchun zarur bo‘lgan, ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida chegaralangan, insondan jismoniy, aqliy, ma‘naviy kuch talab etuvchi va sarflangan kuch evaziga insonga mavjud bo‘lish hamda rivojlanish imkonini beruvchi faoliyat sohasi. Mutaxassislik – bu bitta kasb ichida tor doiradagi faoliyat turi.

“ Kasb” tushunchasining mohiyatini chuqurroq anglash uchun mashhur psixolog S.M.Bogoslovskiyning fikrini keltirish joiz. Kasb –bu shunday faoliyatki, shaxs u orqali jamiyat hayotida faol ishtirok etadi va uning uchun moddiy manba vazifasini bajaradi va kasb orqali shaxs o‘zini o‘zi namoyon etadi.

- Ko‘pchilik qandaydir muammoni hal qilib o‘zini “yaxshi psixolog” deb hisoblab adashadi. “Ommaviy psixologiya” mavjud narsa bo‘lib, ayrim psixolog mutaxassislar o‘zlarining ijtimoiy hayot tajribalariga asoslanib, ommaviy psixologiyaga murojaat qiladilar. Biroq mutaxassislar ommaviy va mahalliy psixologlarni farqlab berdilar.

Kasb – inson ish faoliyatining ma‘lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir. Kasbga umumiy yoki maxsus ma‘lumot hamda amaliy tajriba yo‘li

bilan erishiladi. Kasb ichida mehnat faoliyatining eng tor xarakteri bilan ajralib turuvchi ixtisoslari bor. Ba'zi kasblarda bir qancha ixtisoslar masalan: chilangar kasbida – remontchi chilangar, asbobsoz chilangar, yig'uvchi chilangar kabi yo'nalishlar mavjud. Dunyoda 60 ming (qiyoslash uchun Rossiyada 20 ming) O'zbekistonda 6 mingdan ziyod kasblar mavjud. Shuni aytish joyizki jamiyat rivojlangan sari kasblar ham ko'payib boradi. SHu bilan birga kasb bu jamiyatdagi qabul qilingan huquqiy – normativ qonunlarga amal qilishi zarur bo'ladi.

Kasb – hunarli bo'lish inson uchun zarur bir ehtiyoj ekanligini buyuk avlodlarimiz o'z asarlarida aytib o'tganlar. Deylik Kaykovus o'zining “Qobusnoma” asarida shunday yozadi “Bas, agar aqling bo'lsa xunar o'rgang'il, nedinkim hunarsiz aql – boshsiz tan, suratsiz badandekdir... Ey farzand, ogoh bo'lki, xunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' etkurmas.” Hozirda o'sib kelayotgan yoshlar o'z qiziqishlaridan kelib chiqib minglab kasblar ichidan o'zi uchun qiziqarli bo'lgan kasbni tanlab olishlari va o'z hayotlarini mazmunli, yaxshi o'tkazishlari uchun intiladilar. Ularga bu kasblarni tanlashlarida kasb psixologiyasining o'rni va ahamiyati juda katta. “Men kelajakda kim bo'laman?”, “Yaxshi yashashim uchun qaysi kasbni tanlashim kerak?”, “Mendagi iqtidor shunga etadimi?”, “Kelajagimdan qoniqamanmikan?” degan ko'lab savollar yoshlarni o'ylantiradi. Bu savollarga javob olish uchun ular ko'plab kuzatadilar, hayotdan ma'lum bir malakalar olishga intiladilar. Kattalarni maslahatlarini o'ylaydilar va ikkilanib yuradilar. Kasb psixologiyasi esa ularni to'g'ri yo'lga solishga harakat qiladi. Izlanuvchi yoshlar kasb – xunar va uni egallash, hayotlarini, kelajaklarini hal qiluvchi omil ekanligini bilib boradilar.

Shulardan kelib chiqib kasb – bu inson hayoti uchun zarur bo'lgan, jamiyatdagi huquqiy normalarga javob beradigan, insonni kelajagini belgilab beradigan o'ziga xos murakkab bo'lgan jarayon deb belgilashimiz mumkin. Kasbga xos bo'lgan jarayonlar, ularni egallash, tanlash inson psixologiyasi bilan bog'liq. Kasb psixologiyasi aynan shunday murakkab jarayonlarni o'rganish orqali yoshlarni o'zlari qiziqqan kasbga yo'nalish beruvchi murakkab fan hisoblanadi. Har bir kasbning o'ziga xos bo'lgan tomonlari, insonlarni o'ziga jalb qila oladigan qirralari mavjud bo'lib, inson bu jarayonlarni kuzatib borib shu kasbni egallashga intiladi.

Bu jarayonlarda inson o'zini ruhiyati bilan shu kasbga xos bo'lgan psixologik tomonlarni ham shakllantirib boradi. Jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar yoshlarni ham kasb tanlashda o'ylantirib qo'yimoqda.

Ko'plab yangi kasblar paydo bo'lmoqda, ularni fan yangiliklari, texnika va texnologik yangiliklar asosida ko'plab mutaxassisliklar bilan tanishishlari kasb tanlashda qiyin ahvolga solib qo'yimoqda. Bundan tashqari jamiyatni olg'a rivojlanib borishi yoshlarni olayotgan kasblarini raqobatbardoshligini, kerakligini va yashashlari uchun imkoniyatlar yaratib bera olishlariga ishonтира bilishini ham talab qilib bormoqda. Hayotiy jarayonlar, yashashga beriladigan imkoniyatlar, kasbga bo'lgan intilishlar tabiiy ravishda

amaliy psixologiyaning bir bo‘lagi bo‘lgan kasb psixologiyasiga bo‘lgan talabni zaruriy qilib qo‘ydi va bu fanni paydo bo‘lishiga olib keldi. Hozirda O‘zbekistonda bu fan endi rivojlanishi kerak bo‘lgan va yoshlarni tarbiyalashda, ularga kasb tanlashlariga yordam beruvchi asosiy mutaxassislik fani bo‘lib bormoqda.

Kasb psixologiyasini mohiyati bu insonni kasbga xos xatti – harakatini va kasb tarixi bilan bog‘liq tomonlarni ko‘rsatib berish, shuningdek yoshlarni, kasb tanlovchilarni o‘zi qiziqqan kasbni tanlashlarida yo‘nalishlar berish, keyinchalik kasbdan ketishlariga yordam berish kabilar hisoblanadi. Dunyoga kelgan bola haqida, uning kelajagi haqida, qanday kasbni egallashi haqida ko‘proq uning ota – onasi bosh qotiradi. Bolani maktabga chiqqanidan boshlab uning ota – onasi “Mening bolam kelajakda vrach bo‘ladi”, yoki ma’lum bir kasbni oldindan tayyorlab qo‘yadilar. Lekin hayotni o‘zi bolani shaxs sifatida rivojlanishi, biologik taraqqiyoti, psixologik imkoniyatlari asosida o‘ziga xos bo‘lgan kasbni tanlashlariga imkoniyat yaratadi. Dunyoga kelgan bolada kurtak tarzida o‘ziga xos bo‘lgan imkoniyatlar bo‘ladi. Bola rivojlanib borgan sari unda ma’lum bir tamonga ixtidorlik ham taraqqiy etib boradi. SHaxs bo‘lib borayotgan bolada psixologik xususiyatlar yuzaga chiqib, uni borliqqa bo‘lgan qiziqishini ortirib boradi. Ayrim bolalar yosh davrlaridanoq o‘simliklarga, ularning tuzilishlariga qiziqadilar, ayrimlari xarakatdagi xashoratlarga, xayvonlarga qiziqadilar.

XULOSA

Qo‘ng‘izni ko‘rgan bola uni xarakatlanishini tekshirib uni nima xarakatlantirmoqda degan savol bilan tekshirib ko‘radilar. Uni bo‘laklarga ajratadilar. Bunday bolalardan ko‘plab yaxshi vrachlar, injinerlar, konstruktorlar, qassoblar chiqadi. Keyinchalik bunday shaxslar o‘zida shu kasbga xos bo‘lgan xususiyatlarni rivojlantirib boradilar. Bular ularning qiziqishlaridan kelib chiqadi. Shaxs sifatida bolada shu sohani bilishga ehtiyojlar rivojlanadi. Tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha bilimlar to‘plab boradi. Bu maktabda, oliygohda, atrofdagilarning aytib berishlari va o‘zining mustaqil o‘rganishlari bilan shakllanib boradi. Maktabda bolalarga kasb bilan bog‘liq bo‘lgan tanishtirish darslarini ham tashkil etish zarur bo‘ladi. Bunda bolalar ko‘pchilik kasblar haqida bilib oladilar va kasb tanlashlari uchun imkoniyatlar kengayadi. Ularni yuqori sinflarga o‘tib borishlari bilan birga keyingi etaplarda qaysi kollejga va litseyga kirishlari ham aniqroq bo‘lib boradi. Ular o‘zlari qiziqqan kasbni olishga mustaqil qarorlar qabul qilgan holda intiladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.Jalalov KASB QANDAY TANLANADI. 2010 Y. 62 b.
- 2.I.A.Karimov Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.1998.17b
- 3.Kaykaus. “Qobusnoma” T., 1994 y. 26 b.
4. Gurevich K.M. Дифференциальная психология и психодиагностика. 2008 y. 21b.

SHAXSLARDA ONGLI RAVISHDA RUHIY CHARCHOQNI YUZAGA KELISHI VA BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Pirmatova Nargiza Kenjaboy qizi

Matyaqubova Minavar Komilovna

Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani 35-maktab amaliyotchi psixologlari

Annotatsiya: Hissiy charchoq sindromining asosiy belgilarining mohiyati olimlar tomonidan aniqlangandan so‘ng va bu hodisa umume’tirof etilgandan so‘ng, tabiiy ravishda ushbu kasallikning rivojlanishiga yordam beradigan yoki unga to‘sqinlik qiladigan omillarni aniqlash va tasniflash masalasi paydo bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: ruhiy holatlar, professional mutaxassislarning psixofiziologik xususiyatlari, kasbiy stress, “hissiy charchoq” sindromi, psixik jarayonlar belgilari.

KIRISH

Ijtimoiy soha professional mutaxassislarning psixofiziologik xususiyatlariga qat’iy talablar qo‘yadi va ijtimoiy ish mutaxassislari tanlash, moslashtirish va hissiy “charchoq” sindromining oldini olishning ilmiy asoslangan usullarini talab qiladi. Bugungi kunga kelib, ijtimoiy soha egalarining kasbiy faoliyatida stressga chidamliligini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar sanoqli bo‘lib, bu ilm ahlini ushbu muammoni ishlab chiqishga etarlicha e’tibor berilmaganligini ko‘rsatadi. An’anaga ko‘ra, jamoat ongida ham, ilmiy adabiyotlarda ham, birinchi navbatda, odamlar bilan ishlashning ijobiy tomonlariga (shifokorlar, o‘qituvchilar, ijtimoiy xodimlar va boshqalar) urg‘u beriladi. Shu bilan birga, bu odamlar bilan ishlash o‘zining yuqori talablari, alohida mas’uliyati va hissiy stressi tufayli mehnat sharoitlari bilan bog‘liq qiyin tajribalar xavfini va kasbiy stress ehtimolini o‘z ichiga olishi aniq. Birinchi marta amerikalik mutaxassislar “hissiy charchoq” sindromi muammosiga ijtimoiy xizmat sohasini kengaytirish va ommalashtirish munosabati bilan e’tibor qaratdilar. Ularning ishchilari kasbiy ma’lumotga ega bo‘lgan yoki psixologiya yoki sotsiologiya sohasiga maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan mutahassislarga qoida tariqasida, juda og‘ir muammolari bilan kelgan mijozlar bilan ishlash jarayonida duch keldilar. Ba’zan bunday holatlarda ularning yagona vazifasi psixologik yordam ko‘rsatish - tinglash, qo‘llab-quvvatlash, iloji bo‘lsa, biror nima deb maslahat berish edi. Maxsus tayyorgarlik va xodimlarni tanlashga qaramay, ushbu xizmatlarning rahbariyati ma’lum vaqt o‘tgach o‘z xodimlarining qoniqarsiz ishlayotganligi haqidagi dalillariga duch kelganlar. Xodimlarning bunday qoniqarsiz ishlayotganligini, tashrif buyuruvchilarga e’tiborsizlik, befarqlik va hatto qo‘polliq haqida shikoyatlardan aniqlaganlar. O‘tkazilgan tadqiqotlar o‘ziga xos kasbiy stress – “muloqot stressi”ni aniqlashga olib keldi, bu boshqa kasbiy stresslar bilan birgalikda “hissiy charchash” deb ataladigan hodisaning paydo bo‘lishiga sababi edi. “Hissiy

charchoq” atamasi 1974 yilda amerikalik psixiatr H.J.Freudenberger tomonidan mijozlar bilan intensiv va yaqindan muloqotda bo‘lgan sog‘lom odamlarning psixologik holatini tavsiflash uchun kiritilgan. Dastlab, bu atama oddiygina charchash holatini anglatgan. “Hissiy charchoq” tushunchasi odatda odamning yuqori hissiy idrokni o‘z ichiga olgan vaziyatlarda uzoq vaqt ishtirok etishi natijasida yuzaga keladigan jismoniy, hissiy va ruhiy charchoq holatini ifodalash uchun ishlatildi, bu esa o‘z navbatida haddan tashqari yuqori surunkali situatsion stresslar bilan hissiy holatlarning kombinatsiyasi natijasidir.

K.Maslachning 1976-yilda “Human Behavior” jurnalida chop etilgan ushbu mavzudagi birinchi maqolasi, o‘z e’tirofiga ko‘ra, ayniqsa, noprofessionallar orasida katta va kutilmagan munosabatga sabab bo‘ldi. Va shu maqola sabab, u turli ijtimoiy kasb egalaridan ko‘plab xatlar oldi. Atigi o‘n yildan so‘ng “hissiy charchoq” sindromi muammolari bo‘yicha mingdan ortiq maqolalar chop etildi. “Hissiy charchoq” sindromiga tashxis qo‘yishning maxsus usullari ishlab chiqildi. Agar dastlab tibbiyot xodimlarining muammolarini tavsiflash haqida bo‘lgan bo‘lsa, undan keyingi tadqiqotlar aniqlangan fenomenalarini turli kasb egalarining keng doirasiga etkazish imkonini berdi. K.Kondo “hissiy charchoq” sindromini ishning haddan tashqari og‘irligi va shaxslararo munosabatlarning noto‘g‘riligi tufayli ish joyiga moslashmaslik deb ta’riflaydi. Ushbu ta’rif uning “yonish” tushunchasini talqiniga mos keladi. Bu birinchi navbatda odamlar bilan alturistik va intensiv ishlaydiganlarga ta’sir qiladi. Bunday emotsional hissiy ish ruhiy energiyaning haddan tashqari sarflanishi bilan birga keladi va psixosomatik charchoq (holdan toyish) va hissiy charchoq (toliqish) olib keladi. Natijada bezovtalik (tashvish), nafas qisilishi, oshqozon-ichak traktining buzilishi, bosh og‘rig‘i, qon bosimining pasayishi, uyquning buzilishi fonida norozilik hushi, g‘azab, o‘ziga bahoning pasayishi; hamda qoidaga ko‘ra, oilaviy munosabatlardagi muammolar paydo bo‘ladi.

“Hissiy charchoq” fenomenini keltirib chiqaradigan stress omillarining ta’siri turli kasblarni sezilarli qismini qamrab oladi va bu kasallikka moyil bo‘lganlar sonini kengayishiga sabab bo‘ladi. Ushbu hodisaning dastlabki tadqiqotlari asosan unga tavsif berish bilan cheklangan bo‘lsalar, 1982-yilga kelib “hissiy charchoq”ni o‘rganish bo‘yicha etakchi mutaxassislardan biri Maslach bu hodisani maxsus holat deb atadi. Unga ko‘ra:

- holdan toyish;
- degumanizatsiya, depersonalizatsiya belgilari;
- salbiy o‘z-o‘zini idrok qilish;
- kasbiy mohirlikni yo‘qotish

1983 yilda E.Maher o‘z sharhida “hissiy charchash” belgilari ro‘yxatini umumlashtiradi: charchoq, toliqish, horg‘inlik; psixosomatik kasalliklar, uyqusizlik, mijozlarga salbiy munosabat; ishning o‘ziga salbiy munosabat; faoliyatda harakatlarning sustligi; kimyoviy vositalarni ortiqcha iste’moli: tamaki, qahva, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar; ishtahaning sustligi yoki aksincha, ortiqcha ovqatlanish, salbiy

“Men-kontseptsiyasi”; tajovuzkor his-tuyg‘ular (asabiylashish, zo‘riqish, tashvish, holsizlik, haddan tashqari hayajonlanish, g‘azab); salbiy kayfiyat va u bilan bog‘liq his-tuyg‘ular (beadablik, pessimizm, umidsizlik hissi, befarqlik, tushkunlik, samarasiz harakat); aybdorlik hissini boshdan kechirish. 1982-yilda S.Maslach sindromga duchor bo‘lgan shaxsning quyidagi muhim belgilarini ajratib ko‘rsatdi: o‘z “men”ini saqlab qolish asosidagi charchoqqa qarshi kurashi. “Charchoq”qa qarshi turish qobiliyatining chegarasi; ichki psixologik tajriba, shu jumladan his-tuyg‘ular, munosabatlar, motivlar, umidlar; salbiy shaxsiy tajriba; qayg‘u, noqulaylik, disfunktsiya yoki ularning oqibatlari. “Charchoq” sindromining asosiy belgilari:

- holdan toyganlik hissi;

- mijozlarga nisbatan salbiy his-tuyg‘ularning mavjudligi; - o‘z-o‘ziga salbiy munosabat.

Sindromning bu belgilari uning namoyon bo‘lishini o‘rgangan va kuzatgan ko‘pchilik klinitsistlar tomonidan qayd etilgan. Hissiy charchoq sindromining asosiy belgilarining mohiyati olimlar tomonidan aniqlangandan so‘ng va bu hodisa umume’tirof etilgandan so‘ng, tabiiy ravishda ushbu kasallikning rivojlanishiga yordam beradigan yoki unga to‘sqinlik qiladigan omillarni aniqlash va tasniflash masalasi paydo bo‘ldi.

Psixologlarning ta’kidlashicha, hissiy charchashga asosan kasb egalarining to‘rtta amal qiladigan pozitsiyasi olib keladi:

Men xato qila olmayman.

Men ehtiyotkor bo‘lishim kerak.

Men tarfakashlikka haqqim yo‘q.

Men hamma narsada namuna bo‘lishim kerak.

Ba’zi tadqiqotchilar (P.Tornton) shaxs omilini o‘rganishda quyidagi ko‘rsatkichlarni yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, ish staji, ma’lumot darajasi, ish staji, ijtimoiy kelib chiqishi hisobga oldilar. Biroq, ularga “hissiy charchoq” darajasiga bog‘liq emasligi ma’lum bo‘ldi. Boshqa tadqiqotchilar (A.Pins) motivatsiya va “charchoq” o‘rtasidagi bog‘liqlikka alohida e’tibor berishdi; Xususan, mehnat faoliyati motivlari ish haqidan qoniqish, ish joyida kerakligini his qilish, kasbiy yuksalish, mustaqillik va rahbariyat tomonidan nazorat darajasi va boshqalar o‘rganildi. Lekin “hissiy charchoq” sindromi va ish haqi o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik yo‘q edi. Shu bilan birga, kasbiy o‘sisdan norozilik va qo‘llab-quvvatlovchi munosabat (turli mukofotlar, rag‘batlar) “hissiy charchoq” sindromining rivojlanishi bilan ko‘proq bog‘liq bo‘lib chiqdi. Mustaqillik etishmasligi (“ortiqcha nazorat”) bo‘lgan ijtimoiy ishchilar uchun “hissiy charchoq”qa ko‘proq moyillik ham aniqlandi. Ijtimoiy kasb, shuningdek, psixologik maslahat va psixoterapiya ko‘p hissiy stressni, mas’uliyatni talab qiladigan va muvaffaqiyat uchun juda noaniq mezonlarga ega bo‘lgan kasblar sifatida tasniflanadi. Afsuski ushbu kasblar vakillari “hissiy charchoq” xavfi ostida ekanlar.

Insonning ijtimoiy muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biri bu ruhiy salomatlikdir. Salomatlikka psixologik qarashlarni o'rganishdan oldin, keling, dastlabki savollarga aniqlik kiritaylik. Zamonaviy ilm-fanda "salomatlik" tushunchasi umumiy qabul qilingan yagona talqinga ega emas, u noaniqligi va xilma-xilligi (ya'ni, sinkretiklik) bilan tavsiflanadi. 1948 yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) Konstitutsiyasining muqaddimasida berilgan ta'rifga ko'ra, "sog'liq" - bu nafaqat kasallik yoki nogironlikning yo'qligi, balki to'liq jismoniy, aqliy va ijtimoiy farovonlik bilan tavsiflangan insonning holatidir.

Salomatlikning to'liq ratsional ta'riflari esa kelajak masalasi bo'lib qolmoqda. Sog'liqni saqlash muammosiga bugungi kunda mamlakatimizda xam ko'p ishlar qilinmoqdaki, bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorini misol qilishiz mumkin. Unga ko'ra bugungi kunda o'tgan vaqt mobaynida aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish milliy xizmatini takomillashtirish, ruhiy holati buzilishidan aziyat chekuvchi shaxslarni aniqlash, davolash va reabilitatsiya qilish bo'yicha sog'liqni saqlash tizimining barcha darajalarida muayyan ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga "Ruhiy salomatlik" borasida ham ishlar yo'lga qo'yilganligi quvonarli holdir.

Ruhiy salomatlik deganda biz, turli ruhiy buzilish yoki salbiy ruhiy xolat ko'rinishlarining yo'qligi va atrofdagi voqelik sharoitlariga mos keladigan xatti-harakatlarning tartibga solinishini ta'minlaydigan ruhiy farovonlik holatidir. Lekin, salbiy ruhiy xolatni bugungi kunda ba'zi odamlarda, turli kasb egalarida kuzatishimiz mumkin. Asosan bu holat ijtimoiy soha vakillarida kuzatilmoqda.

Ijtimoiy soha vakillarining kasbiy faoliyati, bajaradigan ish turidan qat'i nazar, odamlar, aholi guruhlari va umuman jamiyatning sog'lig'i va hayoti uchun ma'naviy javobgarligi yuqori bo'lgan kasblar guruhiga kiradi. Ijtimoiy kasb egalari mijoz bilan murakkab ijtimoiy o'zaro munosabat jarayonida bo'lgan doimiy stressli vaziyatlar, mijozning ijtimoiy muammolarining mohiyatini doimiy ravishda tushunish, ishonch va boshqa axloqiy-psixologik omillar uning sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladi. Ijtimoiy kasb egalari, shu jumladan hokimiyat vakillari, pedagoglar, shifokorlar, o'z faoliyatining tabiati bo'yicha, boshqa odamlar bilan uzoq muddatli intensiv aloqada bo'ladilar. Odamlar bilan ishlashda kuchli shaxslararo o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladigan, hissiy zo'riqish va kognitiv bosim bilan birga keladigan jismoniy va ruhiy charchoq holati sifatida namoyon bo'ladigan "hissiy charchash" bugungi kunda barchaga ma'lum. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, salbiy ruhiy tajribalar va holatlar mehnat jarayonining turli jabhalariga ta'sir qilishi mumkin - kasbiy faoliyat, kasb egasining shaxsi, kasbiy muloqot, umuman olganda, shaxsning kasbiy rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, "Hissiy charchoq" sindromi murakkab psixofiziologik hodisa bo'lib, u uzoq davom etgan ortiqcha stress tufayli hissiy, aqliy va jismoniy charchoq sifatida tavsiflanadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bunday buzilishlar mehnat jarayonining turli jabhalariga – kasb egasiga, faoliyatiga, kasbiy muloqotga ta'sir qilishi mumkin. Bu buzilishlar, odatda, odamda "hissiy charchoq" paydo bo'lishidan iborat - bu salbiy ko'rsatkichlar to'plamini o'z ichiga olgan simptomlar majmuasi, uning ta'siri ostida mutaxassisning shaxsi yo'qoladi, u o'z imkoniyatlari va vositalaridan foydalana olmaydi. Hamda aqliy charchoq holati bilan bog'liq yoki mehnat ko'nikma va qobiliyatlarini yo'qotadi. Natijada, kasbiy faoliyatning buzilishi va deformatsiyasi yuzaga keladi. Umuman mehnat unumdorligi pasayadi. Shu munosabat bilan, profilaktika va ijtimoiy ishchining ruhiy gigienasini ta'minlashga alohida e'tibor berilishi va ijtimoiy xodimlarning o'ziga psixologik yordam tizimini yaratishga yordam berish kerak.

Korey (1986) va Naisberg-Fennig (1991) tomonidan ta'riflanganidek, charchash sindromi depressiya holatida, charchoq va holdan toyish hissi, g'ayrat va ishtiyoqning etishmasligi, ijobiy natijalarni ko'rish qobiliyatining yo'qolishi bilan ifodalanadi. Shu sabab o'z ishiga, mehnatga va umuman hayotga salbiy munosabat paydo bo'ladi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Баробанова М.В. Изучение психологического содержания синдрома «эмоционального сгорания»// Вестник МГУ.–сер.14, Психология.– 1995.– №1.– стр.54-58.
2. Орел В.Е. Феномен «выгорания» в зарубежной психологии. Эмпирические исследования//Психологический журнал.– 2001.– №1.–стр.16-21.
3. Синдром сгорания. Защитные механизмы.–Меры профилактики//Вестник РАТЭПП.– 1995. –№1.
4. Словарь-справочник по социальной работе/ Холостова Е.И.– М.:Юрист, 2000г.– 424с.

ZAMONAVIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASI: MOTIVATSIYA TURLARI VA ULARNI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH

Usmonova Oyxon Boltayevna
Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani
2-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda o'quvchilarning motivatsiyasi, uning turlari va ta'lim jarayonida qanday qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Motivatsiya o'quvchilarning o'qishga qiziqishini oshirish, muvaffaqiyatlarini ta'minlash va ta'limda ijobiy natijalarga erishish uchun muhimdir. Ichki va tashqi motivatsiya, o'qituvchilar tomonidan motivatsiyani oshirish uchun qo'llaniladigan usullar va strategiyalar, shuningdek, motivatsiyaning ta'lim jarayonidagi ahamiyati keng yoritiladi.

I. Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning motivatsiyasi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biridir. O'quvchilarni o'qishga undash, ularning qiziqishini oshirish va muvaffaqiyatlarini ta'minlash uchun motivatsiya zarur. O'quvchilarning rag'batlantirilishi va ularga ta'lim jarayonida yordam berish, ularning o'z-o'zini anglashiga va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

II. Motivatsiya Turlari

A. Ichki Motivatsiya
Ichki motivatsiya – bu shaxsning ichki qiziqishlari, ehtiyojlari va maqsadlari asosida yuzaga keladi. O'quvchilar o'z bilimlarini oshirish, yangi narsalarni o'rganish yoki shaxsiy rivojlanish uchun o'qishadi. Ichki motivatsiyaning asosiy xususiyatlari:

Qiziqish: O'quvchilar o'quv materialiga qiziqish bilan yondashadilar. O'z-o'zini anglash: O'quvchilar o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini anglashadi. Ma'naviy qoniqish: O'quvchilar o'z bilimlarini oshirishdan ma'naviy qoniqish olishadi.

B. Tashqi Motivatsiya
Tashqi motivatsiya – bu tashqi omillar, masalan, mukofotlar, baholar yoki o'qituvchilarning rag'batlantirishi bilan bog'liq. O'quvchilar o'z muvaffaqiyatlari uchun tashqi rag'batlar orqali motivatsiya olishadi. Tashqi motivatsiyaning asosiy xususiyatlari:

Mukofotlar: O'quvchilar baho yoki mukofot olish uchun o'qishadi. **Raqobat:** O'quvchilar boshqa o'quvchilar bilan raqobatlashish orqali motivatsiya olishadi. **Ijtimoiy ta'sir:** O'quvchilar o'qituvchilarning yoki ota-onalarning kutishlariga javob berishga intilishadi.

III. Motivatsiyani Ta'lim Jarayonida Qo'llash

A. O'qituvchilarning Roli
O'qituvchilar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda muhim rol o'ynaydilar. Ular o'quvchilarga ichki va tashqi motivatsiyani rivojlantirishda yordam berishlari kerak. O'qituvchilar quyidagi usullarni qo'llashlari mumkin:

Qiziqarli Darslar: O'quvchilarning qiziqishini oshirish uchun darslarni qiziqarli va interaktiv tarzda o'tkazish. **Ma'lumotlarni Shaxsiylashtirish:** O'quvchilarning shaxsiy

qiziqishlariga mos keladigan materiallarni tanlash. Mukofotlash: O'quvchilarning muvaffaqiyatlarini tan olish va mukofotlash orqali motivatsiyalarini oshirish. B. O'quvchilarning O'z-o'zini Motivatsiyasi

O'quvchilar o'z-o'zini motivatsiya qilish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak. Buning uchun quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

Maqsadlar Qo'yish: O'quvchilar o'zlariga aniq va o'lchovli maqsadlar qo'yishlari kerak. O'z-o'zini Baholash: O'quvchilar o'z muvaffaqiyatlarini baholash va o'z-o'zini tanqid qilish orqali motivatsiyalarini oshirishlari mumkin. O'z-o'zini Rag'batlantirish: O'quvchilar o'zlarini rag'batlantirish uchun ijobiy fikrlar va tasavvurlarni ishlatishlari kerak. C. Ta'lim Muassasalarida Motivatsiya Dasturlari

Ta'lim muassasalari o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun turli dasturlarni joriy etishlari mumkin. Bular:

Emotsional Ta'lim Dasturlari: O'quvchilarga emotsional intellektni rivojlantirishga yordam beradigan dasturlar. Mentorlik Dasturlari: Tajribali o'qituvchilar yoki mutaxassislar yordamida o'quvchilarga motivatsiya berish. Raqobatbardosh Dasturlar: O'quvchilar o'rtasida raqobatni rag'batlantirish orqali motivatsiyalarini oshirish. IV. Motivatsiyaning Ta'limdagi Ahmiyati A. O'qish Natijalari

O'quvchilarning motivatsiyasi ta'lim jarayonidagi natijalariga bevosita ta'sir qiladi. Motivatsiya yuqori bo'lgan o'quvchilar ko'proq muvaffaqiyatga erishadilar va o'z bilimlarini yanada kengaytiradilar.

B. Ijtimoiy Ko'nikmalar

Motivatsiya o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar o'zaro munosabatlar o'rnatish va guruh ishlarida muvaffaqiyatli bo'lish uchun motivatsiyaga ega bo'lishlari kerak.

C. Psixologik Salomatlik

Yuqori motivatsiya o'quvchilarning psixologik salomatligini yaxshilaydi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish orqali o'z-o'zini anglash va qoniqish his qilishadi.

V. Motivatsiyani Rivojlantirish Usullari

A. O'qituvchilar uchun Tavsiyalar

O'qituvchilar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni ko'rib chiqishlari mumkin:

O'quvchilarning Qiziqishini Tushunish: O'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash va darslarni shunga mos ravishda tashkil etish. Interaktiv O'qitish: O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun interaktiv metodlardan foydalanish. Ijobiy Muhit Yaratish: O'quvchilarning o'zini erkin his qilishlari uchun ijobiy muhit yaratish.

B. O'quvchilar uchun Tavsiyalar

O'quvchilar o'z-o'zini motivatsiya qilish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirishlari mumkin:

Qiziqarli Maqsadlar Qo'yish: O'zlariga qiziqarli va muhim maqsadlar qo'yish. O'z-o'zini Rag'batlantirish: O'z muvaffaqiyatlarini tan olish va o'z-o'zini rag'batlantirish. O'z-o'zini Baholash: O'z bilimlarini baholash va o'z-o'zini tanqid qilish.

VI. O'qitish Metodlari va Motivatsiya

A. O'qitish Metodlarining Motivatsiyaga Ta'siri

O'qitish metodlari o'quvchilarning motivatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy va interaktiv metodlar o'quvchilarning qiziqishini oshirishda samarali bo'ladi. Bunday metodlar:

Guruh Ishlari: O'quvchilar o'rtasida hamkorlikni rag'batlantiradi.

Muammoli O'qitish: O'quvchilarga muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Loyihaviy O'qitish: O'quvchilarning ijodkorligini va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

B. O'qituvchilarning Motivatsiyaga Ta'siri

O'qituvchilar o'zlari qanday motivatsiya ko'rsatishlari, o'quvchilarning motivatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi. O'qituvchilar quyidagi jihatlariga e'tibor berishlari kerak:

Ijobiy Muloqot: O'quvchilar bilan ijobiy va ochiq muloqot o'rnatish.

Rag'batlantirish: O'quvchilarning harakatlarini rag'batlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash.

Shaxsiy Yondashuv: O'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga mos yondashish.

VII. O'quvchilarning Motivatsiyasini O'lchash

A. Motivatsiyani O'lchash Usullari

O'quvchilarning motivatsiyasini o'lchash uchun turli usullar mavjud. Bular:

So'rovnomalar: O'quvchilarning motivatsiya darajasini aniqlash uchun so'rovnomalar o'tkazish.

Intervyular: O'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazish orqali motivatsiya darajasini aniqlash.

Baholash: O'quvchilarning muvaffaqiyatlarini baholash orqali motivatsiya darajasini o'lchash.

B. O'lchash Natijalarini Tahlil Qilish

O'quvchilarning motivatsiya darajasini o'lchash natijalarini tahlil qilish, o'qituvchilarga ularning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlarini yaxshilashga yordam beradi. Tahlil natijalari asosida o'qituvchilar o'z darslarini takomillashtirish va o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqishlari mumkin.

VIII. Motivatsiya va Ta'limning Kelajagi

A. Texnologiyalar va Motivatsiya

Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonini o'zgartirishda katta rol o'ynamoqda. Onlayn ta'lim platformalari va interaktiv dasturlar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishda samarali vosita bo'lishi mumkin.

Texnologiyalar:

Interaktiv O'qitish: O'quvchilarga qiziqarli va interaktiv ta'lim materiallari taqdim etish.

O'z-o'zini O'rganish: O'quvchilarga mustaqil ravishda o'rganish imkoniyatini berish.

Ma'lumotlarga Kirish: O'quvchilarga keng ma'lumot bazalariga kirish imkoniyatini taqdim etish.

B. Ta'lim Tizimidagi O'zgarishlar

Ta'lim tizimida motivatsiyani oshirish uchun yangi yondashuvlar va metodlar joriy etilishi zarur. O'qituvchilar va ta'lim muassasalari o'quvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda o'z darslarini takomillashtirishlari kerak.

IX. Xulosa

Zamonaviy ta'limda o'quvchilarning motivatsiyasi ta'lim jarayonining muhim jihatlaridan biridir. Ichki va tashqi motivatsiya turlari, o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun turli usullar va strategiyalarni qo'llashlari kerak. Motivatsiya, shuningdek, o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va psixologik salomatligini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

X. Foydalanilgan Adabiyotlar

Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). "Intrinsic and Extrinsic Motivations: Classic Definitions and New Directions". *Contemporary Educational Psychology*, 25(1), 54-67. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2008). "Self-Determination Theory: A Macrotheory of Human Motivation, Development, and Health". *Psychological Inquiry*, 11(3), 227-268. Schunk, D. H. (2012). *Learning Theories: An Educational Perspective*. Pearson. Dweck, C. S. (2006). *Mindset: The New Psychology of Success*. Random House. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). "The Power of Feedback". *Review of Educational Research*, 77(1), 81-112.

RUS TILINI O'QUVCHILARGA YANGI METOD YORDAMIDA SIFATLI VA TEZ O'ZLASHTIRILISHI, O'QITILISHI

Domakova Janimkul Amangeldiyevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqala tumani

MMTB ga qarashli 47-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Rus tili o'qitishda texnologiyadan foydalanish yana bir samarali o'qitish usulidir. O'qituvchilar turli xil audio-vizual materiallardan, masalan, video, audio yozuvlar, interaktiv o'yinlar va viktorinalardan foydalanishlari mumkin. O'qituvchilar o'z darslarini lug'atlar, grammatika resurslari va til o'rganish ilovalari kabi onlayn resurslar bilan to'ldirishlari mumkin.

Kalit so'zlar: metod, tajriba, ta'lim, integratsiya, bilim, ko'nikma, malaka

KIRISH

Rus tilini o'qitishning boshqa o'qitish usullariga grammatika tarjimasi kiradi. Bu usullar o'quvchilarni grammatika qoidalarini o'rganish va matnlarni rus tilidan ona tiliga tarjima qilishni nazarda tutadi. Biroq, bu usul favqulodda bo'lib qoldi va yuqorida aytib o'tilgan boshqa usullarga qaraganda kamroq samarali hisoblanadi. Nihoyat, madaniyatni til o'qitishga kiritish o'quv tajribasiga yana bir o'lcham qo'shishi mumkin. Talabalar Rossiya tarixi, urf-odatlar va oshxonasi haqida ma'lumot olishlari mumkin. O'qituvchilar o'z darslariga til o'rganishni boyitish uchun ham, o'quvchilar bilimini kengaytirish uchun ham madaniy elementlarni kiritishlari mumkin.

Metod so'zi - yunoncha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, yo'l, usul ma'nolarini anglatadi. Ta'lim metodi - o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarini egallay hamda ulardan amalda ham foydalanish imkonini beruvchi ish usulidir.

Rus tilini chet tili sifatida o'qitish turli o'qitish usullari va texnikasini talab qiladigan qiyin vazifadir. Yaxshi o'qituvchi o'quvchilarning tilni samarali o'rganishlariga ishonch hosil qilishi, shu bilan birga ularni jalb qilishi va motivatsiyaga ega bo'lishi kerak. Ushbu maqolada rus tilini o'qitishda qo'llaniladigan eng samarali o'qitish usullarini, jumladan kommunikativ til o'qitish, vazifa asosida o'qitish, texnika vositalaridan foydalanishni o'rganamiz.

Birinchi usul – Kommunikativ til o'qitish (CLT) bo'lib, unda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Bu usul tilning turli kontekstlarda ma'noli ishlatilishiga alohida e'tibor berishdan iborat. O'quvchilar tildan rolli o'yinlar, munozaralar, munozaralar kabi mazmunli usullarda foydalanishni talab qiladigan

faoliyat bilan shug'ullanadilar. CLT talabalarga tildan foydalanish va ularning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish uchun haqiqiy kontsepsiyalarni taqdim etadi.

Yana bir usul – Vazifaga asoslangan o'quv (TBL) bo'lib, unda o'quvchilar til tuzilmalari va funksiyalarini qo'llash imkonini beruvchi bir qator vazifalarni bajarishlari nazarda tutiladi. TBL talabalar oziq-ovqat buyurtma qilish, mehmonxonani bron qilish yoki yo'nalishni so'rash kabi haqiqiy vazifalar bilan shug'ullanishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar tilni kontekstda o'rganadilar va asosiy e'tibor faqat til olishga emas, balki vazifani muvaffaqiyatli bajarishga qaratilgan.

Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil etishning tartibga solingan usullar majmuasi hisoblanadi. Suhbat metodi bu - o'quvchi shaxsini g'ayaviy, ma'naviy, axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usullardan biri hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun har tomonlama mosligi, dolzarbligi muhim ahamiyatga ega. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin. 1. Etik mavzular (ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, jamoa orasida o'zini tutish qonunqoidalari) 2. Estetik mavzular (tabiat go'zalligi, inson go'zalligi, shaxslararo munosabatlar) 3. Siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar). 4. Ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot va hayvonot dunyosi va boshqalar) kabi mavzularda suhbat tashkil etish ijodiy natija beradi. Suhbat davomida o'quvchilarga ularning o'z fikrini erkin ifoda etishlari hamda mustaqil fikr yuritishlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat etish juda muhimdir. Bu borada bahsmunozaraning ham katta ahamiyati bor.

Hikoya metodi bunda o'quvchilar odatda turli xil misollar bilan boyitilgan hikoyalarga qiziqishadi va ularni sevib tinlashadi. Ularga xalq o'tmishi, ertak qahramonlarining hayoti, ularning ko'rsatgan jasoratlari haqida so'zlab berish mumkin. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, gazetalar, jurnallar, radiotelevideniyaedagi malumotlar ham o'quvchilarni aslo befarq qoldirmaydi. Suhbat yokki hikoya mavzusining o'quvchilar tomonidan tanlanishi, ularning mazmunli va qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Buning natijasida o'quvchilar ilgari surilayotgan bu mavzuga e'tiborsiz bo'lishmaydi. O'z fikrlarini erkin ravishda bildiradi. Bu esa fikrlarini rivojlanishiga olib keladi.

Bu borada birinchi Prezidentimiz I.Karimov ham "Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samara uchuni past bo'lishi muqarrar" degan fikrni bildirgan edilar. Shuning uchun bolalarni erkin fikrlashga undashimiz, ularning dunyoqarashini boyitib borishimiz kerak. O'z-o'zini tarbiyalash metodi bu - o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilish va o'quvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta'minlash, ijtimoiy mavqeini oshirishning ta'sirchan vositasidir. O'z-o'zini baholash metodi bunda xatti-harakatlari, fazilatlari, xulqatvorini tahlil qilish, asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi. O'quvchi o'z-o'zini baholash qiyin, lekin ularni bunga yetarlicha tayyorlash mumkin. Buning uchun o'quvchi o'z burchini tushunishi,

tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo'lishi, ya'ni tarbiyalanishni xohlashi, o'z - o'zini takomillashtirishga intilishi lozim. Bu usul ularga o'zlariga chetdan turib, xolisona baho berishga yordam beradi. Rag'batlantirish metodi bu - o'quvchilarning faoliyatiga, xatti harakatiga ijobiy baho berish, asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va ularni qo'llab- quvvatlash usuli hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, rus tilini chet tili sifatida o'qitishda tanlash uchun ko'plab samarali o'qitish usullari mavjud. Kommunikativ til o'qitish, vazifaga asoslangan o'quv, texnika vositalaridan foydalanish eng samarali usullardan hisoblanadi. Madaniyatni til o'qitishga kiritish o'quv tajribasiga yangi chuqurlik va ma'no qo'shishi mumkin. Yaxshi o'qituvchi o'z o'quvchilarining ehtiyojlarini aniqlab, ularning o'quv uslubi va ehtiyojlariga mos keladigan eng yaxshi o'qitish usullarini tanlashi kerak. To'g'ri o'qitish usullari yordamida talabalar boy va hayratlanarli til bo'lgan rus tilini samarali o'rganishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M. X. Toxtaxodjayev "Pedagogika" Toshkent - 2010. 220, 221 - betlar.
2. I. Karimov "Barkamol avlod orzusi" Toshkent- 2000. 133, 134 - betlar
3. O. Z. Suyunov "Pedagogika Psixologiya" fanidan o'quv - uslubiy majmua. Samarqand- 2013.
4. Internet materiallari

BOLALARDA PSIXIK BUZILISH, RUHIY ZO'RIQISH HOLATLARIGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH HAMDA PSIXOLOGIK HIMOYA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Majidova Xolisxon Samiyevna

Toshkent viloyati Piskent tumani MMTBga qarashli

30 - UO'T maktabi psixologi

Annotatsiya: Doimiy stress, xavotir yoki g'azab organizmning resurslarini tugatishi va uni somatik kasalliklarga nisbatan zaiflashtirishi mumkin. Hissiyotlar qanday jismoniy simptomlarni keltirib chiqarishi mumkin? Ko'plab jismoniy simptomlar hissiyotlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: normalar; vijdon; psixosomatika; psixosomatik buzilish; g'azab; qo'rquv; tashvish; xafagarchilik; o'zi o'zini boshqarish, ruhiyat, psixik jarayonlar

KIRISH

Psixologik himoya mexanizmlari, qoida tariqasida, ota-onadan taqlid qilish yoki irsiyat mahsuli sifatida uzatiladi. Ular, shuningdek, o'rganish natijasida hayot davomida takroriy ijobiy mustahkamlash natijasida olinishi mumkin. Psixologik himoya mexanizmlari bajarilmagan istaklardan kelib chiqadigan xavotirni vaqtincha kamaytirishga yordam beradi (odam "og'riqli fikrlar va his-tuyg'ularni" unutadi yoki ulardan chalg'iydi) va ularning ba'zilari o'zining bahosi hamda o'z hurmatini saqlab qoladi. Ular orasida biz uzoq vaqt davomida ishlashi mumkin bo'lgan va yetishmayotgan odamni (masalan, sublimatsiya, ratsionalizatsiya) qoplaydigan foydali mexanizmlarni va sog'liq uchun salbiy oqibatlarga olib keladigan zararli mexanizmlarni (masalan, somatizatsiya, kasallikni tark etish) shartli ravishda ajratib ko'rsatishimiz mumkin yoki shaxslararo munosabatlarni buzadigan mexanizmlar (masalan, fantaziya, regressiya).

Agar instinkt va vijdon o'rtasidagi qarama-qarshilik libido yoki mortidoning g'alabasi bilan tugasa, odam boshqa haddan tashqari holatlarga tushishi mumkinasotsial xatti-harakatlar (fohishabozlik, shafqatsiz jinoyatlar sodir etish), jinsiy inversiyalar (masochizm, sadizm, ko'rgazma va boshqalar) va turli xil psixotik kasalliklar. Stressni yengish uchun moslashuvchan mexanizmlar mavjud bo'lganda, odam o'zining dominant instinktlarini anglay oladi va/yoki ular uchun ijtimoiy jihatdan maqbul foydalanishni topadi (masalan, mortidoni sportga sublimatsiya qilish yoki yo'q qilishni o'z ichiga olgan professional faoliyat). Sublimatsiya psixologik himoya mexanizmi sifatida instinktlar haddan tashqari ifoda etilgan va ijtimoiy normalar unga mos kelmasa, insonning moslashishi uchun asosiy manba hisoblanadi. Psixosomatik kasalliklarga chalingan odamlarda tashvish va shubhaning kuchayishi, hissiyotlarning labilligi, depressiyaga moyillik, ijtimoiy va psixofiziologik moslashuvning buzilishi, qattqlik, javobgarlikning kuchayishi, aqlning

o'rtacha yoki yuqori darajasi, psixologik himoyaning samarasiz mexanizmlari va koping strategiyasi kabi shaxsiy xususiyatlar mavjud.

Aql va tana alohida mohiyatlar emas, balki bir butunning ikki qismi hisoblanadi. Qanday fikrlashimiz va his qilishimiz jismoniy salomatligimizga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, surunkali stress jismoniy simptomlarga olib kelishi mumkin: bosh og'rig'i, charchoq, ovqat hazm qilish muammolari. Xuddi shunday, depressiya va xavotir jismoniy og'riq sifatida namoyon bo'lishi mumkin, masalan, mushaklarning zo'riqishi, kramplar va bel og'rig'i. Bunda jismoniy simptomlar ham psixikaga ta'sir qiladi: kasallik simptomlari, noxush tashxislar, shifokorga borish va noqulay davolanish juda stressli bo'lishi mumkin, ko'plab hissiy kechinmalarni keltirib chiqarishi va hatto depressiya yoki xavotirli buzilishlarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Ammo ko'pincha shunday holatlar bo'ladi-ki, qandaydir kasallik faqat organizmimizning bir qismini ta'sir qiladi. Masalan, shamollash va boshqa ko'plab somatik kasalliklar psixikaga ta'sir qilmasdan o'tib ketadi. Va aksincha, psixik buzilishlar yoki hissiy kechinmalar umuman jismoniy simptomlarni keltirib chiqarmasligi mumkin. Hissiy holat tanaga qanday ta'sir qiladi? Hissiyotlar bizning tanamizga ta'sir qilishi mumkin, chunki miyamiz va tanamiz bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiladi. Masalan, biz stress yoki xavotirni his qilsak, organizmimiz ko'proq stress gormonlarini, masalan, kortizol va adrenalin ishlab chiqara boshlaydi. Bu qon bosimini oshiradi, yurak urishini va nafas olishni tezlashtiradi, mushaklarning zo'riqishiga olib keladi.

Shartli ravishda, psixologik sabablarga ko'ra rivojlanishi va davom etishi mumkin bo'lgan somatik kasalliklarni va psixologik sabablarga ko'ra (ehtimol) yuzaga keladigan somatik kasalliklarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisiga, masalan, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari kiradi. Bir tomondan, uzoq muddatli stress ta'siri yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishiga yordam berishi mumkin. Boshqa tomondan, mavjud kasallik bo'lsa, xavotir, stress va boshqa tetiklovchilar simptomlarni kuchaytirishi va kasallikning davom etishini yomonlashtirishi mumkin. Bronxial astma holatida hujumlar ko'pincha hissiy zo'riqish, xavotir yoki stress bilan bog'liq bo'lishi mumkin, chunki bu kasallikda nafas yo'llarining mushaklari giperxosil (ta'sirlarga juda sezgir) bo'ladi. Ikkinchi variant — psixologik sabablarga ko'ra (ehtimol) yuzaga keladigan somatik kasalliklar — hozirda ilm-fan uchun kulrang zona bo'lib qolmoqda. Masalan, o'n ikki barmoqli ichak yarasi kasalligining sabablari psixologik omillar bo'lishi mumkin, chunki bakteriya (Helicobacter pylori) mavjudligi kasallikning rivojlanishini 100% izohlab bermaydi va hozirgi paytda olimlar boshqa sabablari topa olmaydilar.

Ko'pchilik autoimmun kasalliklar stress bilan bog'liq, masalan, revmatoid artrit yoki psoriasis. Ammo olimlar bunday kasalliklarni psixologik sabablarga ko'ra yuzaga kelgan deb tan olishga shoshilmaydilar va fiziologik qonuniyatlarni topishga urinishni davom ettirmoqdalar.

Psixosomatik kasalliklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi omillari muammosi olimlarni qadimgi davrlardan beri qiziqtiradi (Gippokrat, Platon), birinchi urinishlar odamni yaxlit ko'rib chiqish va uning shaxslararo ziddiyatlarini somatik kasalliklar uchun zarur shart-sharoitlar sifatida tahlil qilish uchun qilingan. Biroq, qadimgi davrlarda paydo bo'lgan psixosomatik patologiyaning sabablari va mexanizmlari haqidagi g'oyalar uzoq vaqt davomida 80-yillarga qadar qattiq tanqid qilindi. Hozirgi vaqtda tibbiy psixologiyada psixosomatik kasalliklarning paydo bo'lishining omillari va shu munosabat bilan ularning psixoprofilaktikasi, psixokorreksiya va psixoterapiya imkoniyatlari sifatida shaxslararo nizolarga qiziqish qayta tiklanmoqda. Shaxslararo ziddiyat-bu uning elementlari (istaklari, qadriyatlar, motivlari, maqsadlari) qarama-qarshiligi yuzaga keladigan shaxsning holati.

Insonning tabiati shundan iboratki, u vaqti-vaqti bilan paydo bo'ladigan shaxslararo nizolar bilan ajralib turadi, ammo instinktlar va vijdon o'rtasidagi nisbiy muvozanatni saqlash uchun yana bir shaxsiyat tuzilishi-Ego mavjud. Ego foydalanadigan psixologik himoya mexanizmlari tufayli biz amalga oshirilmagan instinktiv drayvlardan kelib chiqadigan keskinlikni kamaytiramiz va odatda bu mexanizmlar ichki muvozanatni saqlashi kerak, ya'ni nevrozlar va psixotik kasalliklarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik.

Psixologik himoyaning bunday mexanizmlari orasida rad etish va idrokni himoya qilish (odam yoqimsiz narsani qabul qilmaydi yoki ko'rmaydi (eshitmaydi)), repressiya (qabul qilinmaydigan tuyg'u yoki fikr xabardorlikka yetib bormasa, "beixtiyor unutish"), ratsionalizatsiya (o'z-o'zini hurmat qilishni saqlab qolish uchun o'zini oqlash), intellektualizatsiya (hissiyotlarni intellektual aks ettirish), devalvatsiya (mavjud bo'lmagan narsalarning qadsizlanishi), sublimatsiya (instinktlarni ijtimoiy maqbul yo'nalishga o'tkazish), harakatdagi reaksiya (keskinlik kuchga kiradi), somatizatsiya (salbiy hissiy tajribalar somatik alomatlarga aylanadi), kasallikka o'tish (bemorning maqomidan psixologik foyda bo'lsa, muammolardan kasallikka "qochish"), siljish (salbiy his-tuyg'ularni xavfsizroq ob'ektga o'tkazish), xayol qilish (yaxshiroq haqiqatni va undagi eng yaxshi o'zini ixtiro qilish), regressiya (avvalgilariga qaytish javobgarlik bilan kurashish mumkin emasligi sababli o'zini tutish shakllari), izolyatsiya (odam haddan tashqari kuchli tajribalar natijasida vaqtincha his qilishni to'xtatadi), proektsiya (o'z-o'zidan qabul qilib bo'lmaydigan narsa boshqa odamlarga tegishli va qoralanadi) va boshqalar.

XULOSA

Psixosomatik patologiya bilan stressni yengish mexanizmlari samarali ishlamaydi, salbiy his-tuyg'ular javob bermaydi, to'g'ri qayta ishlanmaydi, siljish va somatizatsiya tufayli ular shaxsiy darajadagi ziddiyatning o'ziga xos xususiyatlarini ramziy ravishda aks ettiruvchi tana darajasiga "o'tishadi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Akhmedova, M., Narmetova, Y., & Alisherov, B. (2021). Categories of person in conflict and methods of conflict resolution in the occurrence of conflicts between medical personnel.
- Narmetova, Y., Melibayeva, R., Akhmedova, M., Askarova, N., & Nurmatov, A. (2022). PSYCHODIAGNOSTICS ATTITUDE OF THE PSYCHOSOMATIC PATIENTS'DISEASE.
- Мелибаева, Р. Н. (2022). КЛИНИК АМАЛИЁТДА КОГНИТИВ ФУНКЦИЯЛАР ВА УЛАРНИНГ БУЗИЛИШЛАРИ ПСИХОДИАГНОСТИКАСИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 928-932.

BOLA TARBIYASIDA OILANING MUHIM PSIXOLOGIK VAZIFALARI, BURCHLARI

Otaniyozova Gulrux Ixtiyor qizi
Qashqadaryo viloyat Muborak tumani
7-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya. Bolalikdan tarbiya to'g'ri yo'naltirilsa bunday "og'ishlar" bo'lmaydi. Jamiyatdagi, ijtimoiy hayotdagi talablarga javob beruvchi shaxsni shakllantirish tarbiyaning mazmunini tashkil etadi. Talablar bilan birga boshqa insonlarni hurmat qilish o'zgalar fikrini tinglash, insonparvarlik va ilm olish, ilmga intilish tarbiyaning muhim tamoyillaridandir. Yana insonda e'tiqod, hayotga nisbatan qarashlar, o'zini-o'zi anglashi, keng fikr yuritishi o'zini va boshqalarni fikri, g'oyalari, qarashlarini baholashi ham tarbiyaning muhim unsurlaridan biridir.

Kalit so'zlar. Oila, ota-ona va bola munosabatlari, me'yor, tabiya, ruhiy holat, tushkunlik, tafakkur, psixik jarayonlar.

KIRISH

Oila deganda ko'z oldimizga birinchi navbatda ota-ona va bolalar keladi. Oila jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Shu bilan birga oilada yurtning kelajagi ya'ni barkamol farzandlar o'sib ulg'ayadi, kamolga yetadi. Biz oilani bir bog' deb tasavvur qiladigan bo'lsak oiladagi farzandlar – mevali daraxt, ota-onalar esa bog'bonlardir. Mana shu bog ichidagi mevali daraxtlar doim bog'bonga muhtoj. Farzand ham xuddi shunday, ota-ona parvarishiga, ota-ona ko'magiga muhtoj. Bog'bon qachonki mevali daraxtini o'z vaqtida parvarishlasa undan mo'l hosil oladi. Ota-ona ham qachonki farzandini to'g'ri tarbiyalasa, kelajakda u ham albatta o'z mevasini beradi. Agar aksincha bo'lsa-chi? Oilada ota-ona farzandga e'tibor bermasa, farzandi u uchun ahamiyatga ega bo'lmasa, xuddi bog'dagi mevali daraxt meva bermaganidek, ota-ona bag'ridagi farzand ham o'z yutuqlarini bermaydi.

Keling, endi ota-ona va bola munosabatlari, ularning tarbiyalari to'g'risida gaplashsak. Aslida tabiatdagi barcha jonzor bolasi uchun jon kuydiradi. Odamzod esa nasli davomchisi bo'lgan dilbandi uchun ulardanda ziyod qayg'uradi. Chunki ota-ona farzandi ulg'ayib, el-yurt koriga yaraydigan, yaxshi joyda ishlab, farovon hayot kechiradigan, hurmatga sazovor inson bo'lishini xoxlaydi. Bu ezgu orzular amalga oshishi uchun albatta ota-ona farzandiga to'g'ri tarbiya berilishi kerak. To'g'ri tarbiya berish uchun ham ota-ona qaysidir ma'noda ota-lik va onalik roliga tayyor bo'lishi lozim. Chunki bola dunyoga kelgan payti hamma narsani bilib tug'ilmaydi. U xuddi "top-toza qog'oz". Bu qog'ozga sekin-asta ota-ona bergan tarbiya, muhit tarbiyasi va hayot qonuniyatlari yozilib

borilaveradi. Qachonki ota-ona farzandini avaylab, e'zozlab katta qilsa u shunchalik mehroqibatli bo'ladi.

Agar oilada farzandga to'g'ri tarbiya berilmasa, farzand bilan to'g'ri munosabat qilinmasa, u bola kelajakda barkamol shaxs bo'lib kamolga yetolmaydi. Ota-ona o'z farzandiga qanchalik e'tiborsiz bo'lsa bola ruhan eziladi, o'zini baxtli va kerakli inson deb his qilmaydi. Hayotda har bir bola baxtli yashashga haqli. Chunki ular dunyodagi eng begunoh insonlardir. Shu o'rinda psixolog olim V.I.Selivanov fikrlarini keltirib o'tsak - "baxtli bolalik bu oiladagi quvonchni, hamjihatlikni hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir". Biz bilamizki, inson xato qilish xususiyatiga ega. Oilada ota-ona ham farzand tarbiyasida bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yadi. Quyida ota-ona yo'l qo'yadigan xatolarni keltirib o'tsak.

Bola tug'ilganidan boshlab ota-onasining bag'rida voyaga yetadi. Bola ulg'aygan sari taqlid qilishni, ota-onasining harakatlarini bajarishni boshlaydi. Ya'ni bola ko'radi, bola qaytaradi. Oilada ota-ona nima harakat qilsa bola o'shani bajaradi. Agar oilada ota-ona bir-birini hurmat qilsa, to'g'riso'z, xushmuomala, mehribon bo'lsa, bola ham xuddi shunday bo'ladi. Aksincha, oilada o'zaro hurmatsizlik, turli xil kelishmovchiliklar, ziddiyatlar bo'lsa, bu bolaga ta'sir qiladi. U ham ulg'ayganda turli xil zo'ravonliklarni amalga oshirishi mumkin. Agar bunday oilada ota-ona farzandiga to'g'ri yo'lda yurishni maslahat bersa, bu hol ularning o'zida mavjudligini aytib, ota-onasining gapiga quloq solmasligi mumkin. Unutmang farzandingiz maslahatlaringizdan ko'ra amallaringizni ko'proq bajaradi. Shuning uchun oilada farzandingizga o'rnak bo'lish uchun avvalo o'zingiz tarbiyalangan bo'lishingiz kerak. Farzand tarbiyasida ota-ona yo'l qo'yadigan eng katta xatolardan biri bubolani urish. Oilada bolaga turli xil tazyiqlar o'tkazilsa, ular ham atrofdagilarga tazyiq, ziyon yetkazishi mumkin. Bunday hollarda bolalar muammoni kuch bilan hal qilish mumkin degan fikrda bo'ladi. Ular turli xil tazyiqlar orasida o'sganligi sababli, ulg'ayib o'z oilasini qurganda ham xuddi shunday zo'ravonliklarni amalga oshiradi. Bu kabi xatoliklar avloddan-avlodga o'tib borsa, butun bir kelajak yovuzlik to'riga tushib qoladi. Shu sababli butun jamiyat aziyat chekmasligi uchun oilada turli xil munosabatlarni, muammolarni murosasiz yo'li bilan hal qiling. Shu bilan birga farzandiningiz oldida boshqalar bilan urish qilmang, boshqa insonlar to'g'risida yomonlab gapirmang. U bu kabi holatlarni ko'rsa dunyoda yomon odamlar ko'p ekan degan xulosaga kelib qoladi.

Farzand tarbiyasida barcha narsa o'z me'yorida bo'lishi kerak. Bolani haddan tashqari qo'rqitish, haddan ziyod erkalash ham kerak emas. Tarbiya jarayonida bolaning o'z fikrlarini ham inobatga olish kerak. Turli xil muammolarga duch kelganda uning fikrini to'liq eshita olish lozim. Unga muammoning tayyor yechimini o'zingiz bermasligingiz kerak. Agar muammolarni o'zingiz hal qilsangiz, u bunga o'rganib qoladi. O'z muammolarini o'zi hal qilishga urinmaydi, o'zining shaxsiy fikriga ham ega bo'lmaydi. Agar farzandingiz mustaqil inson bo'lishini xoxlasangiz va barkamol inson bo'lib

ulg'ayishini istasangiz, o'z xatolaringiz ustida ishleng. Axir farzandingiz sizning xatolaringiz evaziga badal to'lashi kerak emas.

Aziz ota-onalar farzandingizdan mehringiz va vaqtingizni qizg'onmang. Ularning tarbiyasiga e'tiborli bo'ling. Zero farzandingiz tarbiyasidagi bugungi munosabat, kelajakda oyoqlarinigizda kuch qolmaganda seziladi!

Tarbiya-muayyan, aniq maqsadga va har tomonlama ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni tarbiyalash uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogic jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan hissiyotlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan choratadbirlar yig'indisi. Tarbiya jarayoni- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayoni. Demakki, insonning shaxs bo'lib rivojlanishi, uning odatlari, xulqi qay darajada bo'lishi, dunyoqarashi, ongi his-tuyg'ularini shakllantirish tarbiya jarayonida hosil bo'ladi. Shaxsning jamiyatdagi o'rnini topishi, his-tuyg'u, kechinmalarini yo'nalishi, o'sishi tarbiyaga bog'liq.

O'z-o'zini tarbiyalash shaxsni o'zida ijtimoiy qadrga ega bo'lgan fazilatlarni hosil qilish, takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarini bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat. Inson hayotidagi har xil illat va nojo'ya holatlar tarbiyadagi xato tufayli kelib chiqadi. Bolalikdan tarbiya to'g'ri yo'naltirilsa bunday "og'ishlar" bo'lmaydi. Jamiyatdagi, ijtimoiy hayotdagi talablarga javob beruvchi shaxsni shakllantirish tarbiyaning mazmunini tashkil etadi. Talablar bilan birga boshqa insonlarni hurmat qilish o'zgalar fikrini tinglash, insonparvarlik va ilm olish, ilmga intilish tarbiyaning muhim tamoyillaridandir. Yana insonda e'tiqod, hayotga nisbatan qarashlar, o'zini-o'zi anglashi, keng fikr yuritishi o'zini va boshqalarni fikri, g'oyalari, qarashlarini baholashi ham tarbiyaning muhim unsurlaridan biridir.

Jamoa bilan ishlash, boshqalarga nisbatan hurmat hissini oshirish, insonda hamkorlik tuyg'usini shakllantirish ham tarbiya asosida vujudga keladi. Bizning olam, borliqqa nisbatan qarashlarimiz paydo bo'layotgan g'oyalalarimiz negizida ham aynan shu tarbiya tamoyillari yotadi.

Tarbiya pedagogikaning ham asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Pedagogikada tarbiya ikki ma'noda farqlanadi: keng ma'nodagi tarbiya va tor ma'nodagi tarbiya. Keng ma'noda tarbiya- shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Ya'ni, shaxsning jamiyat talablariga javob berishiga va jamiyatning ta'siri natijasida shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan tarbiya. Tor ma'nodagi tarbiya- pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati hisoblanadi. Bunda, tarbiya ma'lum bir ta'limni o'rganish maqsadida tashkil etiladi va pedagog va o'quvchining faoliyat jarayoni tushuniladi. Bundan bilinadiki, jamiyat uchun komil, ilmiy, yetuk,

barkamol insonni shakllantirishdan iboratdir tarbiyaning maqsadi. Shaxsni kamol toptirishdagi asosiy tushuncha ham bu tarbiyadir.

XULOSA

Shaxsni jamiyat talabidan kelib chiqib shakllantirishni tarbiya desak, tarbiya ham sohasiga ko'ra turlarga bo'linadi. Aqliy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya. Ta'lim muassasasidagi yo'nalishlarga asosan ekologik, iqtisodiy, huquqiy, fuqarolik, siyosiy, axloqiy tarbiyaga bo'linadi. Mamlakatimizda yoshlarning ma'naviy qiyofasini mustaqillik mafkurasi, uning insoniy tamoyillari asosida shakllantirishga bosh vazifa sifatida qaralayotgani bejiz emas. Eng quvonarlisi shundaki, davlatimiz rahbari yoshlarning ma'naviy tarbiyasiga, ularning bilim va kasb mahoratini oshirish masalalariga alohida e'tibor berib kelmoqdalar. Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi – mustaqil siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma'naviyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning uyg'un rivoji ta'minlansagina O'zbekiston buyuk yurt sifatida jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rnini egallay oladi. Oila - oziga xos ijtimoiy birlik. Uning asosida er-xotin ittifoqi, qarindoshlik munosabatlari, maishiy hayot birligi, axloqiy va huquqiy ma'suliyat hamda eng asosiysi ota-onalarning bolalarini tarbiyalash majburiyatlari turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. Toshkent, «Adolat», 1998, 46-bet 2. Yo'ldoshev J.G'. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish (qo'llanma)-T.:2000. 54-bet
3. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования: Учебное пособие. М.: Гардарики, 2005. - 320 с.
4. Uzoqov H, G'oziyev E, Tojiyev A. Oila etikasi va psixologiyasi. T: O'qituvchi 1992. 128 b.
5. Xo'jayev N. Tarbiya nazariyasi. – T.: 2003. 75-bet.
6. Internet materiallari

O'QUVCHILARDAGI JIZZAKILIK, AGRESSIYAGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Mamanazarova Manzuraxon Abdualiyevna

Toshkent viloyati Angren shahar MMTBga qarashli

14-maktab amaliyotchi psixologi

Annontatsiya: Mazkur ilmiy maqolada bolalardagi agressiv xatti-harakatlarni paydo bo'lish sabablarini o'rganilib chuqur tahlil qilingan va korreksiyalash jarayoni o'rganilgan. Pedagoglar tomonidan bolalardagi agressiya darajasi aniqlanib, agressiya jarayoni darajasi pasayishi kuzatilgan. Agressiya holatlarini korreksiyalash uchun ot-onalarga tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: agressiya, korreksiya, oila munosabatlari, bolalik davri inqirozi, ruhiy zarba, jamiytdagi o'rni, psixika, jizzakilik

KIRISH

Bolalardagi agressiv xatti-harakatlar yuqorida ta'kidlab o'tilgan omillardan paydo bo'lishini aniqlangan. Nosog'lom oila muhiti bolaning agressiv xatti-harakatlarning paydo bo'lishinig asosiy sababidir. Chunki ta'lim va tarbiya doimo oiladan boshlanadi. Oiladagi ota-onaning munosabatlari urush-janjallari orqali bolalarda qo'rquv shakllanadi. Bu qo'rquv tufayli u o'ziga nisbatan ishonchsizlik orttiradi, atrofdagilarga nisbatan qo'rquv orqali bola yolg'iz o'zi qolib ketadi, kattta bo'lganda ham jamiyatda atrofdagilarga qo'shila olmaydi. Bolalardagi aggressi xatti-harakatlar paydo bo'lmasligi uchun nosog'lom oila muhitini to'g'irlash lozim. Yuqorida biz faqat nosog'lom oila muhitidagi bitta holatni ya'ni oiladagi nosog'lom munosabatlar orqali bolada qanday agressiv xatti-harakatlar bo'lishi va kelajagidagi ta'sirini o'rganib chiqdik xolos. Bolada agressiv xatti-harakatlarni oldini olish uchun ota-onalarga maslahatlar. Birinchidan oila muhitini to'g'irlash urush-janjallarni kamaytirish. Ikkinchidan ota-onaning farzandiga bo'lgan munosabatini, ishonchini oshirish, bolaga imkon yaratib berish. Uchinchidan ota-onalarga bolalari orqali o'zlarining bolalik damlarini eslatib, farzandidagi talab darajasining yuqoriligini, injiqlik, sho'xliklarini qabul qilishni o'rgatish kerak.

Bolalardagi agressiv xatti-harakatlarni korreksiyalash uchun

- Bolalardagi agressiv xatti-harakatlarni bartaraf etish uchun kelib chiqish sababini o'rganish.
- Har bir bola bilan individual psixolog-pedagog shug'ullanish.
- Bolaga ta'sir etadigan agressiv omillarni kamaytirish uni ko'rishiga yo'l qo'ymaslik.

- Psixologlarning yakka tartibda faqat bola bilan emas uziviy ravishda ota-ona tarbiyachilar bilan shug'ullanish.
- Agressiv xatti-harakatlarni bartaraf etish uchun bolaga atrofdagi mo'jizalarni, ko'rsatish.
- Bolada muloqot ko'nikmalarini shakllantirish.
- Atrofdagilarga nisbatan iliq munosabatlarni paydo qilish.
- Ota-onalariga nisbatan ishonch tuyg'usi yaxshi ko'rish sevilish tuyg'usini shakllantirish.
- Qiziqish qobiliyatlarini o'rganib chiqqan holda o'zi shug'ullanishni o'zi bajarashni istagan mashg'uloti uchun imkoniyat yaratib berish
- Bola kayfiyatini ko'taruvchi musiqaterapiyasi, izoterapiyalardan foydalanish, tavsiya etiladi.

Agressiv bolalarning ota-onalariga tavsiyalar

1. Farzandingiz bilan birga o'ynang
2. Farzandingizni kamsitmang yaxshi muomalada bo'ling
3. Farzandingizga haddan ziyod to'siqlar qo'ymang uni jismoniy jazolamang
4. Farzandingizni qo'rqitmang atrofdagilarga nisbatan qo'rquv paydo qilmang
5. Farzandingiz bilan o'rtangizda kelishmovchilik chiqqanda g'azabingizni jilovlab, aziyatni to'gri tushuntiring
6. Farzandingizga e'tiborli bo'ling atrofdagilarga nisbatan g'amxo'rlik qilishi uchun imkon yarating, farzandingizni yaxshi ko'rishingizni doimo eslatib.
7. Farzandingizni eshiting, qiziqishlari va savollariga javob bering, eng asosiysi oiladagi agressiv munosabatlarni yakunlang.

Inson qaysi sohada faoliyat olib bormasin, o'z faoliyati davomida agressiya, stress holatlariga duch keladi. Agressiya stress natijasida ishchi hodimlarda kayfiyat yo'qligi, sog'liqlarida bo'lgan muammolar, ish qobiliyati samaradorligi susayishi kuzatilgan. Agressiya stress jarayonlari bu yosh bilan bog'liq bo'lmagan jarayon hisoblanadi. Sababi hozirgi kunga kelib bolalarda ko'p aniqlanyapdi. Agressiya xatti-harakatlari bolalarda ham uchrab ularda uyquni buzulishi, ovqatlanish tarzining buzilishi, asabiylashish, jizzakilik holatlari ko'p kuzatilmoqda. Xo'sh agressiya o'zi nima? Agressiya ilmiy adabiyotlarda "aggressio"- xujum yo'naltirilgan salbiy xulq-atvor ijtimoiy muhitdagi qoidalarga normal amal qilmaslik, insonlarga jismoniy va ruhiy zarar keltirish" deya ta'riflanadi. Bolalar agressiyasi esa bolalarga xos yo'naltirilgan tajavvuzkorona xatti-harakatlar hisoblanadi. Bu davrda bolalarda alam, o'ch olish tuyg'usi, g'azab, faqat "men" degan tushuncha paydo bo'ladi. Ba'zi bir manbalarda agressiya bu bolalardagi qo'rquvni yashirish holatlarida psixologik jihatdan o'zlarini himoya qilishdir deb ta'kidlangan. Nega bola hayotida qo'rquv paydo bo'lishi, atrofdagilarga nisbatan ishonchsizlik, sabablari o'rganilganda oilaviy nosog'lom muhit yoki tashqi muhitda bo'ladigan voqea hodisalar bolalarda kuchli agressiya holatlari bolalik davri inqirozini olib kelishi mumkin. Bola yosh

davrlari inqirozi vaqtida qiyinchiliklarga duch keladi va natijada uning xatti-harakatlarida xarakterida agressiya holatlari seziladi. Agressiya holatlari bolada chuqur taassurot qoldiradi va agressiya holatining tugatilishi qiyin bo'ladi.

Agressiv bolalar xususiyatlari:

- Atrofdagilarga nisbatan qo'rquv
- O'ziga va atrofdagilarga nisbatan ishonchsizlik
- O'zini nazorat qila olmaslik
- Asabiylashish, kayfiyat yo'qligi
- O'ziga nisbatan salbiy munosabatlarni his qilish va h.k

Bolalardagi agressiv xatti-harakatlar

- ❖ Ruhiy zarba berish
- ❖ Atrofdagilarga nisbatan taqlid
- ❖ Jismoniy zo'ravonlik (ba'zi vaqtlarda atrofdagilarga yoxud o'ziga nisbatan

zarar yetkazish)

Bolalardagi agressiv holatlarni paydo bo'lishiga va rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar.

1.Nosog'lom oila muhiti

- Ota –ona mehridan uzoqligi
- O'zini kerak emasdek his qilish
- Oilada farzandning o'rni yo'qligi
- Farzandining qiziqishlariga ota-onaning befarqligi
- Oilada ota-onaning munosabatlarida urush va janjallar

2.Kattalarning bolalarga munosabati

- Bolaga taxdid qilish
- Qo'rquv uyg'otish
- Bolaga jismoniy zo'ravonlik
- Bolaga hukm o'tkazish ayblolar
- Bola bilan negativ muloqotlar

3.Bolaga ommaviy axborot vositalarining ta'siri

- Jangari kinofilmlar
- Yoshiga mos emas multfilimlar
- Internet tarmoqlaridan ko'p foydalanish zararli malumotlarni izlash

4.Bolaning tengdoshlari bilan munosabatlari

- Tengdoshlari orasidagi o'rni
- Tendoshlarining munosabatlari, ishonchsizligi va h.k.

XULOSA:

Bolalardagi agressiv xatti-harakatlarni korreksiyalashda 3 shaxsning otaonaning, atrofdagi yaqin insonlarning va tarbiyachining bolaga qilayotgan munosabatalarni, mehribonlik va g'amxo'rlik, ishonch tuyg'ulari yordam bera oladi. Mashxur oilaviy

trapevt Virdjiniya Sair bolani kuniga bir necha marta quchoqlashni tavsiya etadi. Bu bolaga mehrni his qilishiga yordam beradi. D.B.Elkonin fikricha bolalardagi idrok qilish, fikr yuritish qobiliyatlari ortib borgan ehtiyojlari ham oshib boradi, atrofdagilar bilan yaxshi munosabatga kirishish tuyg'usi shakllanadi. Buning uchun esa bola ota-onaning a trabiyachining yordami va rag'batiga muhtoj bo'ladi. Ota-onalar farzandini rag'batlantirib turishi kerak deydi. Shu sababli agressiv bola bilan ishlash bir muncha qiyin bo'lishi mumkin bu jarayonda ota-onalarga sabr, mehr va natijaga erishadigan yo'l talab qilinadi. Bolada ta'lim-tarbiya darajasi yaxshi bo'lgan, mustaqil fikrlay oladigan sog'lom, ruhiy va jismoniy tarafdin mustahkam irodaga ega shahxs bo'lib o'sadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Z.T.Nishonova, Sh.T.Alimbayeva, M.V.Sulaymonov darslik "Psixologik xizmat" Toshkent-2013
2. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti -2010
3. OwlCation:"Agressiyaning sabablari:psixologik nuqtai nazar". OwlCation:owlcation.com saytidan 2019-yil 7-oktabrda olingan.
4. "Agressiv xatti-harakatlarning buzilishi" Sog'lom bolalar. Qabul qilingan sanasi:2019 yil 7-oktabr, Sog'lom bolalar: healthychildren.org.

O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR: ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'ZARO TA'SIRI VA AHAMIYATI

Jumayeva Umida Xolmurod qizi
Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani
44-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, ularning ta'lim jarayonidagi o'zaro ta'siri va ahamiyati ko'rib chiqiladi. O'qituvchilarning pedagogik yondashuvlari, o'quvchilar bilan aloqalari, o'zaro hurmat va ishonch, shuningdek, ta'lim muhitining sifatini oshirishdagi roli muhokama qilinadi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi samarali munosabatlar ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Maqola o'qituvchilarning o'zaro munosabatlarni qanday rivojlantirishlari, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish va o'qish jarayonida ijobiy natijalarga erishish uchun qanday strategiyalarni qo'llashlari kerakligini o'z ichiga oladi.

I. Kirish

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar ta'lim jarayonining asosiy komponentlaridan biridir. Bu munosabatlar o'quvchilarning o'qish jarayoniga qiziqishini oshiradi va ta'lim muhitini ijobiy qiladi. O'qituvchilar o'quvchilarni rag'batlantirish va ularning o'z-o'zini anglashlariga yordam berish orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etishlari mumkin.

II. O'qituvchi va O'quvchi O'rtasidagi Munosabatlar: Ta'rifi

A. O'qituvchi Munosabati

O'qituvchining munosabatlari o'quvchilarga nisbatan ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi bo'lishi kerak. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning o'zlarini erkin his qilishlariga yordam beradi.

B. O'quvchi Munosabati

O'quvchilar o'qituvchilariga hurmat va ishonch bilan yondashishlari zarur. Bunday munosabatlar o'qituvchilarning o'z ishlariga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

III. O'zaro Ta'sir va Ta'lim Jarayonidagi Ahamiyati

A. O'zaro Ta'sir

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ijobiy o'zaro ta'sir o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularning ta'limga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

B. Ta'lim Jarayonidagi Ahamiyat

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali munosabatlar ta'lim jarayonining sifatini oshiradi. O'quvchilar o'zlarini xavfsiz his qilganda, ularning o'qish motivatsiyasi ortadi va natijada o'z bilimlarini yanada kengaytiradilar.

IV. O'qituvchilarning Pedagogik Yondashuvlari

A. Pedagogik Yondashuvlar Turlari

O'qituvchilar o'quvchilar bilan munosabatlarni rivojlantirish uchun turli pedagogik yondashuvlarni qo'llashlari mumkin. Bular:

Individual Yondashuv: Har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olish.

Guruh Ishlari: O'quvchilar o'rtasida hamkorlikni rag'batlantirish.

Interaktiv O'qitish: O'quvchilarni faol ishtirok etishga undash.

B. Pedagogik Yondashuvlarning Ta'siri

O'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlar o'quvchilarning o'qish jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar o'zlarini qulay his qilganda, ular o'qishga ko'proq qiziqish ko'rsatadilar.

V. O'quvchilarning Motivatsiyasini Oshirish

A. Motivatsiya Turlari

O'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun ichki va tashqi motivatsiya turlarini tushunish zarur. Ichki motivatsiya o'quvchilarning o'z qiziqishlari va maqsadlariga asoslanadi, tashqi motivatsiya esa mukofotlar va baholar orqali ta'minlanadi.

B. Motivatsiyani Oshirish Usullari

O'zaro Rag'batlantirish: O'qituvchilar o'quvchilarni rag'batlantirish orqali ularning motivatsiyasini oshirishlari mumkin.

Maqsadlar Qo'yish: O'quvchilar o'zlariga aniq va o'lchovli maqsadlar qo'yishlari kerak.

Ijobiy Muloqot: O'quvchilar bilan ijobiy va ochiq muloqot o'rnatish.

VI. O'qituvchilar va O'quvchilar O'rtasida Ijtimoiy Ko'nikmalar

A. Ijtimoiy Ko'nikmalarni Rivojlantirish

O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar o'zaro munosabatlar o'rnatish va guruh ishlarida muvaffaqiyatli bo'lish uchun psixologik xavfsiz muhitda o'qishlari kerak.

B. Empatiya va Hamkorlik

O'quvchilar psixologik xavfsiz muhitda empatiya va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bunday muhitda ular bir-birlariga yordam berishdan qo'rqmaydilar.

VII. Ta'lim Muassasalarida O'qituvchi va O'quvchi Munosabatlari

A. Ta'lim Muassasalaridagi Rol

Ta'lim muassasalari o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish uchun muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularning ehtiyojlarini hisobga olish zarur.

B. Strategiyalar

Psixologik Ta'minot: O'quvchilarga psixologik yordam ko'rsatish.

Emotsional Ta'lim Dasturlari: O'quvchilarga emotsional intellektni rivojlantirishga yordam beradigan dasturlar.

Ijtimoiy Faollik: O'quvchilarni ijtimoiy faoliyatlarga jalb qilish.

VIII. O'qituvchi va O'quvchilar O'rtasidagi O'zaro Munosabatlarni O'lchash

A. O'lchash Usullari

O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'lchash uchun turli usullar mavjud. Bular:

So'rovnomalar: O'quvchilarning o'qituvchilarga bo'lgan munosabatlarini aniqlash uchun so'rovnomalar o'tkazish.

Intervyular: O'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazish orqali munosabatlarni aniqlash.

Baholash: O'quvchilarning o'zini his qilishlarini baholash.

B. Tahlil Natijalari

O'zaro munosabatlarni o'lchash natijalarini tahlil qilish, o'qituvchilarga ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlarini yaxshilashga yordam beradi. Tahlil natijalari asosida o'qituvchilar o'z darslarini takomillashtirish va o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqishlari mumkin.

IX. Xulosa

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar o'quvchilar bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantirish orqali ularning motivatsiyasini oshirishlari va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishlari mumkin. O'quvchilar o'zlarini xavfsiz his qilganda, ularning o'qish motivatsiyasi, ijodkorligi va umumiy muvaffaqiyati oshadi.

X. Foydalanilgan Adabiyotlar

Hattie, J., & Timperley, H. (2007). "The Power of Feedback". Review of Educational Research, 77(1), 81-112.

Dweck, C. S. (2006). Mindset: The New Psychology of Success. Random House.

Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). "Intrinsic and Extrinsic Motivations: Classic Definitions and New Directions". Contemporary Educational Psychology, 25(1), 54-67.

Edmonson, A. C. (1999). "Psychological Safety and Learning Behavior in Work Teams". Administrative Science Quarterly, 44(2), 350-383.

Schunk, D. H. (2012). Learning Theories: An Educational Perspective. Pearson.

ЁШЛАР ОРАСИДА ГИЁХВАНДЛИКНИНГ ТАРҚАЛИШИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ

Ботиржон Ғафуржонович Тешабоев

Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси

Тезкор-қидирув фаолияти кафедраси ўқитувчиси

Кириш

Гиёхвандлик бугунги кунда жаҳон миқёсида долзарб муаммолардан бири бўлиб, айниқса ёшлар орасида унинг тарқалиши жиддий хавф туғдирмоқда. Ўзбекистонда ҳам бу муаммо ёш авлоднинг саломатлиги, маънавий-ахлоқий қадриятлари ва жамиятнинг умумий ривожланишига таъсир кўрсатмоқда. Гиёхвандлик нафақат инсон саломатлигига зарар етказди, балки ижтимоий, иқтисодий ва маънавий оқибатларга олиб келади. Ушбу мақола ёшлар орасида гиёхвандликнинг тарқалиш сабаблари, унинг оқибатлари ва бу муаммонинг олдини олиш йўллари кўриб чиқади. Мақолада илмий манбалар ва расмий маълумотларга таяниб, муаммонинг кенг миқёсда ёритилишига эътибор берилади.

Гиёхвандликнинг ёшлар орасида тарқалишига бир қатор омиллар сабаб бўлади. Бу омилларни ижтимоий, иқтисодий, психологик ва маданий жиҳатларга бўлиб кўриб чиқиш мумкин.

Ижтимоий омиллар – ёшлар орасида гиёхвандликнинг тарқалишига ижтимоий муҳит катта таъсир кўрсатади. Оиладаги муносабатларнинг заифлиги, ота-она назоратининг етишмаслиги ёки мувофиқ тарбия усуллариининг йўқлиги ёшларнинг хато йўлга киришига сабаб бўлиши мумкин. Масалан, тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ота-онаси билан муносабати яхши бўлмаган ёшлар кўпроқ хавфли гуруҳларга қўшилишга мойил бўлади [1].

Бундан ташқари, ёшларни гиёхвандлик воситалари ва психотроп моддаларни истеъмол қилишга ундайдиган сабаблар қаторида ўзини-ўзи тасдиқлаш, дўстларига тақлид қилиш, ўзига жалб этиш ва “кўнгил ёзиш”, “завқ олиш”, қизиқувчанлик, танишлардан олинган маълумотларни ўзларида синаб кўришга интилиш, ғаразли мақсадларда ушбу гиёхвандлик воситаларини истеъмол қилишга жалб қилиш, ўзини ахлоқий ва психологик жиҳатдан бўйсундириш каби кўрсатиб ўтиш мумкин.

Иқтисодий омиллар – ишсизлик, камбағаллик ва иқтисодий мустақилликнинг йўқлиги ёшларни гиёхвандликка мойил қилиши мумкин. Айрим ёшлар тез пул топиш мақсадида гиёхванд моддалар савдосига аралашиб, кейинчалик ўзлари ҳам ушбу моддаларга қарам бўлиб қолади. Ўзбекистонда ёшлар бандлигини таъминлаш

бўйича кўплаб дастурлар амалга оширилмоқда, бироқ айрим ҳудудларда бу муаммо ҳалигача сақланиб қолмоқда [2].

Психологик омиллар – ёшларнинг стресс, депрессия, ўзига ишончсизлик каби психологик муаммолари гиёҳванд моддаларга мойилликни оширади. Кўпинча ёшлар бу моддаларни “муаммолардан қутулиш” ёки “хурсанд бўлиш” учун вақтинчалик чора сифатида ишлатишади. Бироқ, бу одат кейинчалик қарамликка айланиб, жиддий оқибатларга олиб келади [3]. Бундан ташқари, гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларни истеъмол қилиш учун сабаблар сифатида психологик хусусиятлар ва жинсий балоғатга етиш даврининг таъсири бўлиши мумкин – эмансипация таъсири, яъни чекиш, спиртли ичимликлар, гиёҳвандлик воситалари ёки гуруҳнинг таъсирини талаб қиладиган мустақил бўлишга интилиш, яъни норасмий гуруҳларда қабул қилинган хулқ-атвор номаларни ўзлаштириш истаги, раҳбарлар, ҳокимият вакилларига тақлид қилиш, янада етукроқ кўринишга интилиш, қайсидир маънода ажралиб туриш истаги, бу ҳам гиёҳвандлик воситаларини истеъмол қилишга олиб келади.

Маданий ва медиа таъсири – интернет ва ижтимоий тармоқлар орқали гиёҳвандликни “тарғиб қилувчи” маълумотларнинг тарқалиши ҳам ёшларга салбий таъсир кўрсатади. Маданиятдаги баъзи ўзгаришлар, хусусан, ғарб маданиятининг кўр-кўрона қабул қилиниши ёшларнинг қадриятларини бузиши мумкин. Қонунчилик ва назоратнинг етарли эмаслиги. Ёшларнинг гиёҳванд моддаларнинг ноқонуний айланмасига қарши етарли назоратнинг йўқлиги. Ёшларнинг бу моддаларга осон эришиши ва тарқатиш тармоқларининг фаоллиги.

Гиёҳвандликнинг оқибатларини тиббий, ижтимоий, иқтисодий ва маънавий жиҳатлардан кўриб чиқиш мумкин. Гиёҳванд моддалар инсон организмга жиддий зарар етказади. Улар марказий асаб тизими, юрак-қон томир тизими ва бошқа аъзоларга таъсир қилиб, турли касалликларга сабаб бўлади. Масалан, опиоидлардан узоқ муддат фойдаланиш жигар касалликлари, ОИТС ва гепатит каби хавфли инфекцияларга олиб келиши мумкин [4]. Бундан ташқари, гиёҳвандлик онгнинг бузилиши, хотиранинг йўқолиши ва психик касалликларга сабаб бўлади.

Ижтимоий оқибатлар – гиёҳвандлик оилавий муносабатларнинг бузилиши, жиноятчиликнинг ортиши ва жамиятдаги ишончнинг йўқолишига олиб келади. Гиёҳванд моддаларга қарам бўлган ёшлар кўпинча ўз оиласидан узилиб, ижтимоий муҳитдан четланиб қолади. Бу эса уларнинг жамиятга қайта интеграция қилинишини қийинлаштиради [5].

Иқтисодий оқибатлар – Гиёҳвандлик нафақат шахснинг молиявий аҳволига, балки бутун жамият иқтисодиётига зарар етказади. Гиёҳвандларни даволаш, уларни реабилитация қилиш ва жиноятчиликка қарши курашиш учун давлат катта маблағ

сарфлайди. Бундан ташқари, гиёҳвандликка чалинган ёшларнинг меҳнатга лаёқатсиз бўлиши иқтисодий фаол аҳоли сонини камайтиради [6].

Маънавий оқибатлар – гиёҳвандлик ёшларнинг маънавий-ахлоқий кадриятларини йўқотади. Улар ўз миллати, дини ва анъаналаридан узилиб, маънавий бўшлиққа тушиб қолади. Ўзбекистонда маънавиятни юксалтириш бўйича кўплаб тадбирлар амалга оширилмоқда, бироқ гиёҳвандлик бу жараёнга путур етказди [7].

Гиёҳвандликнинг ривожланишини учта асосий босқичга бўлиш мумкин:

Гиёҳвандликнинг биринчи босқичи организмнинг гиёҳвандлик воситаларига бўлган муносабатининг ўзгариши билан тавсифланади. Ушбу босқичда гиёҳвандликка руҳим қарамлик “психологик қулайлик”га эришиш учун яна қабул қилиш истаги ривожланади.

Иккинчи босқич – гиёҳвандлик воситаларини бир хил дозаларда мунтазам равишда қабул қилиш билан эйфория таъсири пасаяди ва зарур бўлган гиёҳвандлик воситасидан заҳарланиш содир бўлмайди.

Гиёҳвандликнинг учинчи босқичи тананинг чарчаши, тортиб олиш синдромининг оғир кечиши, ҳаётий тонус ва ишлаш қобилятининг пасайиши билан тавсифланади. Гиёҳвандлик воситаларини қабул қилишнинг дозаси ва частотасини ошириш зарур, улар энди биринчи босқичда бўлган эйфория туйғуларига олиб келмайди, фақат зерикарли тортиб олиш белгиларига олиб келади.

Психотроп моддаларни мунтазам равишда истеъмол қиладиган одамларнинг ўзига хос ташқи белгилари истеъмол қилинадиган гиёҳвандлик воситасининг турига боғлиқ.

Гиёҳвандликка қарши курашиш учун комплекс чора-тадбирлар талаб қилинади. Бу чораларни қуйидаги йўналишларга бўлиб кўриб чиқиш мумкин.

Ёшларни гиёҳвандликнинг хавфи ҳақида хабардор қилиш учун таълим тизимида махсус дастурлар жорий қилиниши керак. Мактаблар ва университетларда бу мавзуда махсус дарслар, семинарлар ва маърузалар ташкил этиш муҳим. Бундан ташқари, ота-оналар учун ҳам тарбия усуллари бўйича тренинглар ўтказилиши лозим [8].

Ёшларнинг бўш вақтини самарали тўлдириш учун спорт, санъат ва маданий тадбирлар ташкил қилиниши керак. Ўзбекистонда “Ёшлар дафтари” ва “5 ташаббус” каби дастурлар ёшларни ижтимоий фаолликка жалб қилишда муҳим ўрин тутади [9]. Бу дастурлар ёшларнинг бандлигини таъминлаш ва уларни хавфли муҳитдан узоқлаштиришга хизмат қилади.

Гиёҳванд моддаларнинг ноқонуний айланмасига қарши курашиш учун қатъий қонунчилик чоралари керак. Ўзбекистонда бу борада бир қатор қонунлар қабул қилинган бўлиб, уларнинг ижросига қатъий назорат қилиш муҳим [10]. Шу билан

бирга, гиёҳвандларни жазолаш билан бирга уларни реабилитация қилишга эътибор берилиши лозим.

Ўзбекистонда Ислом дини қадриятларига асосланган маънавий тарбия ёшларни гиёҳвандликдан ҳимоя қилишда муҳим ўрин тутди. Дини ва маънавий таълим орқали ёшларда ахлоқий масъулият туйғусини шакллантириш мумкин [11].

Тақиқланган моддалар истеъмолини қандай аниқлаш мумкин?

Ҳар йили гиёҳвандлик воситаларини истеъмол қилиш туфайли ўлим сони ортиб бормоқда. Бу ҳолатни гиёҳвандлик воситалари ва психотроп моддаларни сотиб олишнинг ошаётганлиги янада кучайтирмоқда. Ўзингизни ва яқинларингизни ҳимоя қилиш учун сиз гиёҳвандлик белгиларини билишингиз керак.

Гиёҳвандлик воситаларини истеъмол қилувчиларни ташқи кўриниши ва хатти-ҳаракатидан қандай таниб олиш мумкин? Баъзан бу жуда оддий. Кўзлар, юз ва танадаги характерли ўзгаришлар, турмуш тарзи ҳамда феъл-атвордаги ўзгаришлар – буларнинг барчаси ноқонуний моддалардан фойдаланишни бошлаган одамни ошкор қилиши мумкин. Доимий равишда кенгайган кўз қорачиғи, қуруқ оғиз (одам доимо чанқайди), пулс тезлигининг ошиши, қўлларнинг музлаши, иштаҳанинг йўқолиши ва асабийлашиш синтетик гиёҳванд моддаларни истеъмол қилишнинг асосий белгиларидир.

Гиёҳвандлик воситаларини истеъмол қилишнинг бир қатор умумий белгилари мавжуд бўлиб, улар сафига қуйидагиларни киритиш мумкин:

– Баъзида ташқи белгилар ҳатто собиқ гиёҳвандни ҳам кўрсатиши мумкин. Паспорт ёшига тўғри келмайдиган ҳолатда ажин тушган юз, қўллардаги чандиклар, ёшликда орттирилган юрак-қон томир касалликлари – буларнинг барчаси гиёҳвандликнинг оқибатлари бўлиши мумкин. Бироқ, бу аломатлар бутунлай бошқа сабабларга кўра ҳам пайдо бўлиши мумкин. Шунинг учун одам ўтмишда гиёҳванд моддаларни истеъмол қилган ёки йўқлигини аниқлашнинг юз фоизли аниқ усули йўқ. Гиёҳвандлик воситалари савдоси йил сайин кўпайиб бормоқда. Истеъмолчиларнинг аксариятини эса, афсуски, ёшлар ташкил этади ва уларнинг сони йилдан йилга ошиб бормоқда. Гиёҳвандликни дастлабки босқичларда аниқлаш инсон ҳаётини сақлаб қолиш имконини беради. Агар касаллик имкон қадар тезроқ аниқланмаса, ўлимга олиб келиш эҳтимоли бир неча бор ортади.

Ўзбекистонда гиёҳвандликка қарши курашиш бўйича кўплаб тадбирлар амалга оширилмоқда. Масалан, 2021 йилда “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили” деб эълон қилиниб, бу йўналишда кўплаб лойиҳалар амалга оширилди [12]. Бундан ташқари, Ички ишлар вазирлиги томонидан гиёҳванд моддаларнинг ноқонуний айланмасига қарши мунтазам рейдлар ўтказилмоқда. Шу билан бирга, реабилитация марказлари ташкил қилиниб,

гиёҳвандликка чалинган ёшларни жамиятга қайтариш бўйича ишлар олиб борилмоқда.

Хулоса

Гиёҳвандлик ёшлар орасида жиддий муаммо бўлиб, унинг тарқалишига ижтимоий, иқтисодий, психологик ва маданий омиллар сабаб бўлмоқда. Унинг оқибатлари эса тиббий, ижтимоий, иқтисодий ва маънавий жиҳатлардан жамиятга катта зарар етказди. Ўзбекистонда бу муаммонинг олдини олиш учун кўплаб чоратадбирлар кўрилмоқда, бироқ бу йўналишда янада кенгроқ ва тизимли ишлар талаб қилинади. Таълим, ижтимоий дастурлар, қонунчилик чоралари ва маънавий тарбия орқали ёшларни гиёҳвандликдан ҳимоя қилиш мумкин. Келгусида бу муаммони бартараф этиш учун давлат, жамият ва оила бирлашиб ҳаракат қилиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. World Health Organization. (2020). *Substance Abuse Among Youth: Global Trends and Interventions*. Geneva: WHO Press.
2. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги. (2024). *Гиёҳвандликка қарши курашиш бўйича йиллик ҳисобот*. Тошкент.
3. Johnson, M. P., & Smith, K. L. (2019). *Psychological Factors in Substance Abuse Among Adolescents*. *Journal of Youth Studies*, 22(3), 345-360.
4. National Institute on Drug Abuse. (2021). *Health Consequences of Drug Addiction*. Bethesda, MD: NIDA.
5. Smith, J. R. (2018). *Social Impacts of Drug Addiction on Communities*. *Social Work Review*, 15(2), 123-140.
6. United Nations Office on Drugs and Crime. (2020). *Economic Costs of Drug Abuse*. Vienna: UNODC.
7. Аҳмедов, М. (2019). *Маънавият ва ёшлар тарбияси*. Тошкент: Ўзбекистон.
8. UNESCO. (2018). *Education as a Tool for Drug Abuse Prevention*. Paris: UNESCO.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси. (2021). *Ёшлар дафтари ва 5 ташаббус: амалий натижалар*. Тошкент.
10. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси. (2022). *Гиёҳванд моддалар билан боғлиқ жиноятларга оид моддалар*. Тошкент.
11. Имомов, А. (2020). *Ислонда маънавий тарбия ва унинг аҳамияти*. Тошкент: Ислон университети.
12. Мирзиёев, Ш. М. (2020). *Парламентга мурожаат: 2021 йил – Ёшларни қўллаб-қувватлаш йили*. Тошкент.

HOW METAPHORS REFLECT WORLDVIEW AND COGNITION

Gayvullayeva Jasmina

jasminagayvullayeva20@gmail.com

*Student of Teaching Languages and Pedagogy Faculty
Kattakurgan Branch of Samarkand State University*

Annotation: This article explores how metaphors are not merely linguistic expressions but reflect deep-seated cognitive processes and cultural worldviews. Drawing from cognitive linguistics, anthropology, and cross-cultural communication studies, the paper argues that metaphors function as cognitive models that shape how individuals and societies perceive reality. By analyzing conceptual metaphors such as “Life is a journey”, “Mind is a container”, and culture-specific metaphors in English, Uzbek, and other languages, this study illustrates how metaphorical language encodes perception, value systems, and collective experience. The findings underscore the role of metaphor in shaping thought and highlight its significance in intercultural understanding and translation.

Keywords: Cognitive metaphor, worldview, cognition, conceptual mapping, cultural models, linguistic relativity.

Аннотация: Данная статья исследует метафоры не только как языковые выражения, но и как отражение глубинных когнитивных процессов и культурных мировоззрений. Опираясь на данные когнитивной лингвистики, антропологии и межкультурной коммуникации, автор утверждает, что метафоры функционируют как когнитивные модели, формирующие восприятие реальности как отдельными индивидами, так и обществом в целом. Анализируя концептуальные метафоры, такие как «жизнь — это путешествие», «разум — это контейнер», а также культурно-специфические метафоры в английском, узбекском и других языках, исследование демонстрирует, как метафорический язык кодирует восприятие, систему ценностей и коллективный опыт. Полученные результаты подчеркивают роль метафоры в формировании мышления и её важность для межкультурного понимания и перевода.

Ключевые слова: когнитивная метафора, мировоззрение, познание, концептуальное соответствие, культурные модели, языковая относительность.

Annotatsiya: Ushbu maqolada metaforalar faqat til birliklari emas, balki chuqur kognitiv jarayonlar va madaniy dunyoqarashlarning ifodasi ekani o'rganiladi. Kognitiv lingvistika, antropologiya va madaniyatlararo kommunikatsiya tadqiqotlariga tayanilgan holda, maqolada metaforalar shaxslar va jamiyatlar qanday qilib haqiqatni qabul qilishini shakllantiradigan kognitiv modellari sifatida faoliyat yuritishi ta'kidlanadi. “Hayot — bu safar”, “Ong — bu konteyner” kabi konseptual metaforalar hamda ingliz, o'zbek va boshqa tillardagi madaniy jihatdan xos bo'lgan metaforalar tahlili orqali metaforik til qanday qilib

inson idroki, qadriyatlar tizimi va jamoaviy tajribani kodlashi yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari metaforalarning tafakkurni shakllantirishdagi rolini va ularning madaniyatlararo tushunish hamda tarjima jarayonidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kognitiv metafora, dunyoqarash, idrok, konseptual moslik, madaniy modellar, til nisbiyligi.

The study of metaphor has evolved from a purely literary concern to a central topic in cognitive science. Since Lakoff and Johnson's groundbreaking *Metaphors We Live By* (1980), metaphors have been understood not only as stylistic devices but as cognitive tools that structure thought, perception, and behavior. They reveal how humans conceptualize abstract domains through more familiar, embodied experiences.

The relationship between metaphor, cognition, and worldview is especially important in cross-cultural communication, where differences in metaphorical framing can reflect deeper divergences in how societies interpret reality. This article examines how metaphors encapsulate cultural models and cognitive schemata, contributing to the formation of distinct worldviews across languages and societies.

The cognitive approach to metaphor, pioneered by Lakoff and Johnson (1980, 1999), posits that metaphors are conceptual mappings between source and target domains. These mappings are rooted in bodily experience and are shaped by culture. Kövecses (2005) argues that metaphors are both universal and variable, with cultural context determining the specifics of metaphorical expression.

Whorf's linguistic relativity hypothesis (1956) suggests that language influences thought, a view echoed in how metaphors shape the way we categorize and respond to our environment. For example, in Western cultures, "Time is money" conceptualizes time as a limited resource, influencing punctuality and efficiency. In contrast, in Uzbek and many Eastern cultures, time is more contextually and socially embedded, often expressed through metaphors that emphasize patience, fate, or spiritual rhythm.

Yu (1998) and Boers (2003) further explored how metaphors vary based on cultural logic, values, and environment. For instance, metaphors based on seafaring (e.g., "smooth sailing") are more common in maritime cultures, while metaphors rooted in agriculture or family dominate agrarian or collectivist societies.

1. Metaphors as Cognitive Frameworks

Metaphors function as frames that structure perception. The metaphor "Life is a journey" shapes how we think about goals, obstacles, progress, and destinations in life. This metaphor implies agency, direction, and purpose. Its cognitive salience lies in mapping physical movement onto existential experience. In cultures where life is seen more as a cycle than a linear path, such as in many Asian traditions, this metaphor may be replaced by "Life is a circle" or "Life is a wheel", reflecting different conceptions of time and existence.

2. Cultural Models Embedded in Metaphors Worldview is often embedded in metaphorical expressions. The metaphor “Argument is war” (e.g., “He shot down my argument”) reflects a confrontational, competitive view of discourse. In contrast, some cultures may view argument as collaborative discussion or even mutual learning, resulting in metaphors like “argument is weaving” or “argument is construction”. These metaphors encode cultural attitudes toward conflict, dialogue, and social harmony.

In Uzbek culture, expressions like “Til – el ko‘zgusi” (Language is the mirror of the nation) or “Ona yurt – oltin beshiging” (Your homeland is your golden cradle) reflect deep emotional attachment to land, family, and identity, which may not be easily translatable but reveal a worldview centered around collectivism and respect for heritage.

3. Embodiment and Shared Human Experience

Metaphors are grounded in bodily experiences. Expressions such as “I’m under pressure” or “He exploded with anger” reflect universal physical sensations associated with stress or emotion. However, the interpretation of these metaphors may differ: some cultures externalize emotion (e.g., through metaphors of heat or explosion), while others emphasize control or internalization.

4. Metaphors and Social Cognition

Metaphors shape not only individual thought but collective ideology. Political metaphors like “the nation is a family” or “the state is a machine” guide how people view authority, responsibility, and power structures. These metaphors are culturally specific: in paternalistic societies, the state is often portrayed as a father figure, whereas in Western liberal contexts, metaphors of contract or network dominate.

5. Implications for Translation and Intercultural Understanding

Understanding metaphor as a reflection of cognition and worldview is essential for translators, educators, and intercultural communicators. Translating metaphors literally can lead to misinterpretation if the underlying cultural model is not shared. For example, “She carries emotional baggage” may be rendered in Uzbek as “U ko‘nglida og‘ir yuk ko‘taradi”, adapting the metaphor to local conceptual norms.

Results: Metaphors are powerful linguistic indicators of how people think, feel, and view the world. They serve as cognitive templates shaped by embodied experience and cultural worldview. While some metaphors are near-universal due to shared physical experience, others are culture-specific, reflecting values, beliefs, and historical memory. Recognizing the role of metaphor in cognition enhances our understanding of linguistic diversity and fosters deeper intercultural empathy.

References:

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
2. Lakoff, G., & Johnson, M. (1999). *Philosophy in the Flesh: The Embodied Mind and its Challenge to Western Thought*. Basic Books.

3. Kövecses, Z. (2005). *Metaphor in Culture: Universality and Variation*. Cambridge University Press.
4. Whorf, B. L. (1956). *Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf*. MIT Press.
5. Yu, N. (1998). *The Contemporary Theory of Metaphor: A Perspective from Chinese*. John Benjamins.
6. Boers, F. (2003). "Applied Linguistics Perspectives on Cross-Cultural Variation in Conceptual Metaphor." *Metaphor and Symbol*, 18(4), 231–238.
7. Sharipova, N. (2022). "Metaphor as a Cultural Marker in Uzbek Discourse," *Philological Studies*, 3(1), 55–62.
8. Musayev, D. (2021). "Worldview through Metaphor in Uzbek Proverbs," *Uzbek Journal of Language and Literature*, 5(2), 38–47.
9. Kövecses, Z. (2010). *Metaphor: A Practical Introduction* (2nd ed.). Oxford University Press.

BOLALARDA O‘ZLIGINI ANGLASH HAMDA “MEN” SHAXSINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK VAZIFALARI

Saparova Gulhayo Xo‘janazar qizi
Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi
84-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ko‘plab psixologlar fikriga ko‘ra, inson shaxsidagi yetakchi sifatlarining shakllanishi va “Men” konsepsiyasi asoslarining yaratilishi aynan ontogeneznining dastlabki 5-6 yilida ro‘y berad. O‘zini-o‘zi anglash masalalariga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili bizga o‘zgaruvchilarning kattagina qismi kichik ijtimoiyguruhsifatida hayot tarzini oilada aks ettiruvchilarni tashkil qiladi, deyishimizga imkon beradi.

Kalit so‘zlar:shaxs, ruhiy holat, tushkunlik, agressiya, korreksiya, profilaktika

KIRISH

L.S.Vigotskiyning yosh davrlarini tabaqalash nazariyasi Ilmiy garixiy ahamiya-1ta ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar to‘g‘risidagi mulohazali va olga surgan g‘oyalari hozirgi kunning talablariga mosdir. Men tushunchasi rivojlanishiga nazar solar ekanmiz, uning shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi. Dastlab, chaqaloqlar o‘zlarini anglamaydilar. Keyinchalik tashqi va ichki muhitdagi turli omillar ta’sirida o‘zligini anglay boshlaydilar. Bu borada ko‘pgina psixologlar va nazariyotchilar turli yosh davrlarida shaxsiyatni rivojlantirish tushunchasini o‘rganib chiqdilar, ular orasida Gordon Allport va Erikson qarashlari ko‘pgina muhokamalarga sabab bo‘lgan.

Erikson shaxsiyat rivojlanishi psixosotsiyal rivojlanishning sakkiz bosqichda sodir bo‘lishiga ishondi. “Men-kontsepsiya”ning bosqichma-bosqich rivojlanishining eng rivojlangan nazariyalaridan biri amerikalik psixolog Gordon Allport tomonidan taklif qilingan. Bu bosqichlar shaxsning o‘ziga xos shaxsni shakllantirishga bo‘lgan psixologik ehtiyojlari va bu rivojlanishda ro‘l o‘ynaydigan ijtimoiy omillarni o‘z ichiga oladi. Ushbu 8 bosqichdan 5 tasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida sodir bo‘ladi.

1-bosqich - bu o‘z tanasini his qilish . Chaqaloq o‘zini alohida shaxs sifatida anglamaydi, o‘zlarini boshqa narsalardan ajrata boshlaydilar. Shuning uchun u “meniki” va “meniki emas” o‘rtasidagi farqni ajratmaydi. Biroq, hayotning ilk yilida chaqaloqlar ichki sezgi organlaridan kelib chiqadigan ko‘plab his-tuy g‘ularni seza boshlaydilar.

2-bosqich - bu o‘zini o‘zi anglash hissi , ya’ni bola o‘zini ma’lum va eng muhim shaxs sifatida biladi. Bu esa “men”ning yaxlitligi va uzluksizligi ta’minlashning eng muhim boshlan g‘ich nuqtasi bolaning o‘z ismidir. 2-3 yoshga kelib o‘z ismini anglab olgan bola, uning rivojlanishida va tashqi olam bilan bo‘ladigan munosabatlaridagi barcha o‘zgarishlarga qaramasdan, o‘sha odam bo‘lib qolishini tushuna boshlaydi.

3-bosqich - (3-4 yosh) o‘z-o‘zini hurmat qilishni shakllanishi . Eng avvalo, o‘z-o‘zini hurmat qilish tuy g‘usi bolaning o‘zi biror ish bajarganda boshdan kechiradigan g‘urur tuy g‘usi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z-o‘zini hurmat qilish bolaning topshiriqni muvaffaqiyatli bajarishiga bo g‘liq.

4-bosqich - chegaralarini kengaytirish. 4-5 yoshda bola faqatgina o‘zining jismoniy tanasiga emas, balki atrofdagi olamning muhim elementlariga, shu jumladan odamlarga ham ega ekanligini tushuna boshlaydi. Bu bosqichda bolalar “men” ning ma’nosini tushunishni o‘zlashtira boshlaydilar.

5-bosqichda, (5-6 yosh) bu yoshga kelib “men” obrazi shakllana boshlaydi. Bu bosqichda bola atrofidagi odamlarni, ota-onasi, qarindoshlari, va boshqa odamlarga qanday munosabatda bo‘lishini va undan nima kutishlarini, qanday bo‘lishini xohlashlarini o‘rganishni boshlaydigan vaqt. Shu davrga kelib bola “yaxshi” va “yomon” o‘rtasidagi tafovutni anglab boshlaydi.

6-bosqich (6-12 yosh) ongli ravishda oqilona o‘zini o‘zi boshqarish. O‘zo‘zini shakllantirishning ushbu davri kuchli muvofiqlikni, axloqiy va ijtimoiy itoatkorlikni o‘zida namoyon qiladi.

7-bosqichda, o‘smirlik davrida “men” tushunchasi, yaxlit “men” tuy g‘usi joy oladi. “Men-tushunchasi” rivojlanishining sakkizinchi bosqichi insonning o‘zini o‘zi bilish va o‘zini o‘zi qadrlash kabi qobiliyatlari shakllanishi bilan bog‘liq. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytishimiz mumkinki, shaxs sifatida shakllanishida tashqi muhit omillari ahamiyati katta. Lekin shu bilan birgalikda o‘sayotgan bolaning irsiyati va individual rivojlanishi hamda shaxsiy salohiyatini ham hisobga olish o‘rinli. Agarda rivojlanish bosqichlariga nazar soladigan bo‘lsak, dastlabki “men” tushunchalari oilada shakllanishini ko‘rishimiz mumkin. Keyingi bosqichlarda bu mustahkamlanib boradi. Bu esa ta’lim muassasalari bilan bo g‘liq, ayniqsa maktabgacha ta’lim alohida ahamiyatga egadir. Rus tadqiqotchilarining ko‘pchiligi oilada ota-onaning bolalar munosabatlariga yoki juda keng, yoki bolaning psixik rivojlanishi umumiy nuqtayi nazardan juda tor manoda yondashadilar. Masalan, ular asab buzilishlari paydo bo‘lishi, ruhiy holatlarning namoyon bo‘lishi, himoya mexanizmlari shakllanishiga tasiri jihatlaridan o‘rganib chiqqan.

Ko‘plab psixologlar fikriga ko‘ra, inson shaxsidagi yetakchi sifatlarining shakllanishi va “Men” konsepsiyasi asoslarining yaratilishi aynan ontogenezning dastlabki 5-6 yilida ro‘y beradi. O‘zini-o‘zi anglash masalalariga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili bizga o‘zgaruvchilarning kattagina qismi kichik ijtimoiyguruhsifatida hayot tarzini oilada aks ettiruvchilarni tashkil qiladi, deyishimizga imkon beradi. Tadqiqotchilar buni bolalarda “Men” konsepsiyasining shakllanishida ota-onalarning o‘zaro munosabatlari muhim biromil ekanligi bilan bog‘laydilar. Ota-onalarning bola bilan o‘zaro munosabati va uning o‘zini anglashi o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, o‘zini boshqarish shakli sifatida, bola xulq-

atvorini boshqarish usullari va ota-ona munosabatlarini namoyon etuvchi model sifatida ochib beriladi.

Ilmiy adabiyotlardan olingan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda bolaning o'zini-o'zi anglashi interiorizatsiya usuli bo'yicha ota-ona bilan muloqotning to'rt xil turini ajratish mumkin.

1. O'ziga munosabat yoki "Men" obrazini bevosita yoki bilvosita xulq-atvor orqali singdirish.

2. Xatti-harakat standartlari va da'volar, ijtimoiy kutishlar darajasining shakllanishi orqali bolaning o'ziga munosabati shakllanishi.

3. Bola xulq-atvori ustidan nazorat, bunda bola tomonidan bir vaqtning o'zida o'zini-o'zi nazorat qilish usullari va ko'rsatkichlari o'zlashtirib olinadi.

4. Bolaning o'zini baholashi ko'rinishini o'zgartirishga qodir bola xulqini yo'lga solmoq, bunda bolaga ota-ona tomonidan o'tkaziluvchi "Men" obrazi va o'ziga munosabatining ijobiy va salbiy ma'noga ega bo'lishi mumkinligi tabiiy, albatta.

Shu tariqa, bolada shakllanuvchi "Men" ijobiy obrazi ham atrofdagilarning salbiy baholashga duch kelganda o'zgarishi mumkin, ya'ni uning barqarorligi bu bosqichda shak-shubhasiz emas va boshqalarning, birinchi navbatda, onaning munosabatiga bog'liq bo'ladi: ona esa o'z navbatida, o'ziga ijobiy munosabatda bo'lishi lozim, chunki aks xolda u bola uchun namuna bo'la olmaydi. Ona "Men"ini qo'llab-quvvatlash bola "Men"ini shakllantirishni yengillashtiradi va bolaning ona bilan munosabatlari oiladagi uchlik munosabatlari bilan almashgan xoldagi rivojlanish bosqichidagina bola qat'iy chegaralarga muhtojlik seza boshlaydi. Bu zarurat muhabbat va nafrat mojarosini ishlab chiqish va uning asosiy tendensiyalari bolaning otaga yo'nalganlikka asoslanuvchi hamda bolaning onaga yo'nalganlikka tayanuvchi tendensiyalari bilan bog'liq.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Рахматуллаева, П. М., & Маҳкамова, М. А. (2022). ЁШЛАР ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШДА МОТИВАЦИЯНИНГ ЎРНИ ЁХУД УЛКАН МАҚСАДЛАР САРИ ДАСТЛАБКИ ҚАДАМ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, (Special Issue 1), 160-163.
2. Rahmatullayeva, M., Rashidova, G., & Karakulova, U. (2023). XXI ASRDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
3. Rahmatullayeva, M. (2021). XALQ PEDAGOGIKASIDA TA'LIM VA TARBIYA MASALARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(4).
4. Abdulla, S., & Abduvakilovna, K. U. (2022). AXBOROT SAVODXONLIGI VA AXBOROT IZLASH XULQ-ATVORIDAGI PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 586-589.

5. Rahmatullayeva, M., Umida, K., & Gulnoza, R. (2023). BOSHQARUV PSIXOLOGIYASI VA BU BORADAGI ILMIY YONDASHUVLAR. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
6. Karakulova, U., Rashidova, G., & Raxmatullayeva, M. (2023). DEVIANT XULQ-ATVOR RIVOJLANISHIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING TA'SIRI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).

O'Z-O'ZINI BOSHQARISH VA TA'LIM: O'QUVCHILARNING O'Z-O'ZINI BOSHQARISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

*Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani
16-IDUM psixologi **Muhammadiyeva Xurshida Bo'riyevna**,
28-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi
Allayorov Turg'un Allanazarovich*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'z-o'zini boshqarish va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik tahlil etiladi. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari ularning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari, mustaqil fikrlashi va shaxsiy rivojlanishlari uchun muhimdir. Maqola o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ta'limda qanday metodlar va strategiyalar qo'llanilishi mumkinligini ko'rib chiqadi. O'z-o'zini boshqarishning ahamiyati, uning ta'lim jarayonidagi roli va o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga ta'siri keng yoritiladi.

Kalit so'zlar: O'z-o'zini boshqarish, Ta'lim, O'quvchilar, Mustaqil fikrlash, Ko'nikmalar, Rivojlanish, Motivatsiya, O'qitish strategiyalari, Ta'lim jarayoni, Shaxsiy rivojlanish

I. Kirish

O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari ta'lim jarayonida o'quvchilarning muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ushbu maqolada o'z-o'zini boshqarish tushunchasi va uning ta'limdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi.

II. O'z-o'zini Boshqarish: Ta'rifi va Ahmiyati

A. O'z-o'zini Boshqarish Ta'rifi

O'z-o'zini boshqarish – bu shaxsning o'z faoliyatini, xatti-harakatlarini va qarorlarini mustaqil ravishda boshqarish qobiliyatidir. Bu ko'nikmalar o'z-o'zini anglash, maqsad qo'yish va o'z vaqtini samarali boshqarishni o'z ichiga oladi.

B. O'z-o'zini Boshqarishning Ta'limdagi Ahamiyati

O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari o'quvchilarga:

Mustaqil fikrlashni rivojlantirish.

O'qish jarayonida faol ishtirok etish.

O'z maqsadlariga erishish uchun motivatsiyani oshirish imkonini beradi.

III. O'z-o'zini Boshqarish Ko'nikmalarining Turlari

A. Vaqtni Boshqarish

O'quvchilar o'z vaqtlarini samarali boshqarish orqali o'qish va boshqa faoliyatlarga vaqt ajratish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

B. Maqsad Qo'yish

O'quvchilar o'z maqsadlarini belgilash va ularga erishish uchun reja tuzish ko'nikmalarini o'zlashtiradilar.

C. O'z-o'zini Motivatsiya

O'quvchilar o'z-o'zini rag'batlantirish va o'z maqsadlariga erishish uchun ichki motivatsiyalarini rivojlantiradilar.

IV. O'z-o'zini Boshqarish Ko'nikmalarini Rivojlantirish Strategiyalari

A. Ta'limda Interaktiv Metodlar

Interaktiv o'qitish metodlari o'quvchilarga o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. O'quvchilar guruh ishlari va muammoli vazifalar orqali o'z fikrlarini ifoda etish va qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini o'rganadilar.

B. Konstruktiv Pedagogika

Konstruktiv pedagogika yondashuvi o'quvchilarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda qurish imkonini beradi. Bu yondashuvda o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlarda ishtirok etadilar.

V. O'z-o'zini Boshqarish va Motivatsiya

A. Motivatsiya Ta'rifi

Motivatsiya – bu shaxsning maqsadga erishish uchun harakat qilishga undovchi ichki va tashqi kuchdir.

B. O'z-o'zini Boshqarish va Motivatsiya O'rtasidagi Bog'liqlik

O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish jarayonida o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini qo'llash orqali motivatsiyalarini kuchaytiradilar.

VI. O'qituvchilarning Rolini O'rganish

A. O'qituvchilarning O'z-o'zini Boshqarish Ko'nikmalarini Rivojlantirishdagi Roli

O'qituvchilar o'quvchilarga o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular o'quvchilarga maqsad qo'yish, vaqtni boshqarish va o'z-o'zini motivatsiya qilishda yordam berishlari kerak.

B. O'qituvchilar uchun Ta'lim Strategiyalari

O'qituvchilar o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun quyidagi strategiyalarni qo'llashlari mumkin:

Mentorlik: O'quvchilarga o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini o'rganish uchun yo'l-yo'riq ko'rsatish.

Ma'lumot Berish: O'quvchilarga o'z-o'zini boshqarish haqida ma'lumot berish.

O'zaro Muloqot: O'quvchilar bilan ochiq muloqot o'rnatish.

VII. Ta'lim Muhitining O'zgarishi

A. Ta'lim Muhiti Ta'rifi

Ta'lim muhit – bu o'quvchilarning o'qish va rivojlanish jarayonida o'zaro ta'sirlar va sharoitlar to'plamidir.

B. Ta'lim Muhitini Yaxshilash

O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ta'lim muhitini yaxshilash zarur. O'quvchilar o'zlarini xavfsiz va qulay his qilganda, ularning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari rivojlanadi.

VIII. O'z-o'zini Boshqarish Ko'nikmalarini O'lchash

A. O'lchash Usullari

O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini o'lchash uchun quyidagi usullar qo'llanilishi mumkin:

So'rovnomalar: O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini baholash uchun so'rovnomalar o'tkazish.

Baholash: O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini baholash.

Intervyular: O'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazish orqali ko'nikmalarni aniqlash.

B. Tahlil Natijalari

O'lchash natijalarini tahlil qilish, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

IX. O'z-o'zini Boshqarish va Shaxsiy Rivojlanish

A. Shaxsiy Rivojlanish Ta'rifi

Shaxsiy rivojlanish – bu shaxsning o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda oshirish jarayonidir.

B. O'z-o'zini Boshqarish va Shaxsiy Rivojlanish O'rtasidagi Bog'liqlik

O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari shaxsiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali o'z shaxsiy maqsadlariga erishadilar.

X. Xulosa

Ushbu maqola o'z-o'zini boshqarish va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, motivatsiyasini va shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida o'qituvchilar o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun innovatsion metodlarni qo'llashlari zarur.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

Zimmerman, B. J. (2002). "Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview". *Theory into Practice*, 41(2), 64-70.

Schunk, D. H., & Zimmerman, B. J. (2008). *Motivation and Self-Regulated Learning: Theory, Research, and Applications*. Routledge.

Pintrich, P. R. (2000). "The Role of Goal Orientation in Self-Regulated Learning". *Handbook of Self-Regulation*, 451-502.

Bandura, A. (1997). *Self-Efficacy: The Exercise of Control*. W.H. Freeman.

Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). "The "What" and "Why" of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior". *Psychological Inquiry*, 11(4), 227-268.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA DIQQAT VA BILISH JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK VAZIFALARI

Toirova Yayra Shavkatovna

Buxoro viloyati Romitan tumani MMTB ga qarashli

3-umumta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Pedagogika va psixoterapiyada bolalar o'yin jarayonida xususan rolli o'yinlardan odamovilik, potologik tortinchoqlik, nutq sustligi va hatto duduqlanish kabi illatlarga yo'liqqan ayrim bolalar uchun tuzatish vositasi sifatida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, yetuklik, komil inson, taraqqiyot, ko'nikma, o'yinlar, so'zmantiq xotirasi, tasavvur, ruhiy holat, psixoterapiya, texnologiya, rivojlanish, yosh davrlari, psixik jarayonlar

KIRISH

Kichik maktab yoshidagi bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o'yinlarda, rasm chizish, loy hamda plastilindan o'yinchoqlar tayyorlashda, o'zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko'rinadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi o'z diqqatini muayyan ob'ektga yo'naltirish, to'plash, taqsimlash bo'yicha ma'lum darajada ko'nikmaga ega bo'lib, o'z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to'plashga intiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllanishida ularning maktab ta'limiga tayyorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayoni samaradorligini yuqori darajaga ko'tarish, komil inson shaxsi rivojlanishini ta'minlash vazifasini amalga oshirish bolaning maktab ta'limiga tayyorligini qanchalik to'g'ri e'tiborga olinishiga bog'liq.

A. Anastazining fikricha, ta'limga yetuklik "maktab dasturidagi bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan qobiliyat va motivatsiyaning mavjudligidir". I. Shvantsara esa "maktab ta'limida ishtirok etishga qobiliyatlilik" deb baholagan. 6-7 yoshli bolalarning bilish jarayonlari o'quv faoliyatida yangi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi uchun zaruriy taraqqiyot darajasiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yoshdagi bolalar xotirasi qiziqarli, ajoyib-g'aroyib, kishini taajjubga soladigan ma'lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish-irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. O'quvchining ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganini bildiradi. U she'r, hikoya va

ertaklarni esda qoldirish uchun takrorlashi, yod olishning eng qulay yo'l va usullaridan foydalanishi ta'lim jarayonida unga juda qo'l keladi. Birinchi sinf o'quvchisi ko'pincha yaqqol obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi, aksincha, ta'lim so'zmantiq xotirasini taqozo etadi. So'z-mantiq xotirasining mavjudligi ma'nosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi.

O'yinlar bolalarning asosiy faoliyat turi bo'lib, u orqali kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlari ortadi, hayotni, borliqni, tevarak- atrofni o'rganadilar va unga moslashadilar. Ma'lumki, bolalar o'yining sifati va samaradorligi unda ishtirok etuvchilarning hayotiy kuzatishlari va shaxsiy tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bunda onglilik, tashabbuskorlik va irodalilik kabi sifatlar ahamiyat kasb etadi. Shu sababli turli ijtimoiy-psixologik tavsifga ega o'yinlarga o'quv jarayonida foydalanish, shakshubhasiz o'z samarasini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda jamiyatdagi insonlar salomatligi muammosi davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bilan birga quvonarli hol shundan iboratki, har bir kishi o'z salomatligiga nisbatan ongli munosabatda bo'lmoqda. Salomatlik deganda nafaqat jismoniy balki, birinchi prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "... har tomonlama, ya'ni ham jismonan, ham ruhan, ham ma'nan" sog'lom bo'lishga e'tibor berilayotganligi ham bizning yutug'imizdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars jarayonida turli rolli va didaktik o'yinlar va trening mashqlaridan foydalanish orqali bolalarda o'qishga bo'lgan qiziqishlarni mustaxkamlashlari mumkin.

Taniqli metodolog olim G.P.Shchedrovskiyning ta'kidlashicha, o'yin - bu bolalar rivojlanishini boshqarish uchun jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan yoki vujudga keltirilgan bolalar hayotining alohida shaklidir; bu jihatdan qaraganda, uning ijodkori alohida odamlar emas, balki umuman jamiyat bo'lsa ham, o'yinning vujudga kelishi va rivojlanish jarayoni "ommaviy", "tabiiy-tarixiy" bo'lsa ham alohida pedagogik ijoddir, unda tabiiy tarixiy qonuniyat alohida kishilarning xilma-xil faoliyati orqali o'ziga "o'ziga yo'l ochgan".

O'yin dastavval - faoliyat mahsuli, uning vosistasida odam voqelikni qayta quradi, dunyoni o'zgartiradi. Bolaning dunyoga ta'sir ko'rsatishga bo'lgan ehtiyojining namoyon bo'lishi ilk bor o'yinda shakllanadi.

O'yinning mohiyati shundan iboratki, unda natija emas, balki jarayonning o'zi muhimdir. Bola o'ynaydigan vaziyatlar tasavvur etilgan bo'lsa ham ular boshidan kechiradigan tuyg'ular realdir.

O'yinning bu o'ziga xos xususiyati o'zida katta tarbiyaviy imkoniyatlarini mujassamlashtirgan, chunki o'yin mazmunini boshqarib, o'yin syujetiga muayyan rollarni kiritib, pedagog shu tariqa o'ynayotgan bolalarning muayyan ijobiy tuyg'ularini programmalashtirishi mumkin. Birinchidan, odam uchun ijobiy tuyg'ularni boshidan

kechirish tajribasining o'zi muhimdir, ikkinchidan, kechinmalar orqaligina faoliyat ijobiy munosabatni tarbiyalashi mumkin. O'yin noo'yin faoliyatiga munosabatni shakllantirishning boy imkoniyatlariga ega.

S.L.Rubinshteyning ta'kidlashicha, bola u yoki bu rolni o'ynar ekan, u shunchaki soxtalik bilan begona shaxsga ko'chmaydi; rolga kirar ekan, u o'z shaxsini kengaytiradi, boyitadi, chuqurlashtiradi. Har doim bolalarning o'yinidagi markaziy jihat ular uchun eng muhim bo'lgan narsa, ya'ni boladagi mavjud ehtiyojlarga javob beradigan mazmun bo'lib chiqadi. Shu sababli bir xil mazmun turli yoshdagi bolalarga turli mohiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bolalarning o'yini natijasida ular faoliyatining shunday mahsulotlari qoladiki, ularning mazmuni eng ko'p tarzda o'qish ehtiyoji bilan bog'liqlikdan yaqqol dalolat beradi.

Kam o'ynaydigan bola o'z rivojida orqada qoladi, chunki L. S. Vigotskiyning ifodasi bo'yicha o'yinda "bola o'zining o'rta yoshidan kattaroq, o'zining odatdagi xulq-atvoridan yuqoriroqdadir; u o'yinda o'zidan bir bosh yuqoriroqdir. Bola o'yinda o'zining odatdagi xulq-atvor darajasidan yuqoriroqqa sakrashga uringandek bo'ladi.

Amalda bola o'yin faoliyati orqali harakat qiladi".

L.S.Vigotskiy o'yinning quyidagi aqlga sig'maydigan tomonlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Bola eng kam qarshilikka uchraydigan yo'ldan boradi (qoniqish hosil qiladi), lekin eng katta qarshilik yo'ldan harkat qilishga o'rganadi. O'yin - iroda va mahorat maktabidir.

2. Odatda bola o'zi hohlagan narsadan voz kechishda ham qoidaga bo'ysunishni xis etadi, bu yerda esa qoidaga bo'ysunish eng ko'p darajada qoniqish hosil qilish sari olib boradigan yo'ldir. O'yin bolaga istakning yangi shaklini beradi, ya'ni istakni o'yindagi roli va uning qoidalari bilan qiyoslaydi. O'yinda bola eng yuqori natijalarga erishish mumkinki, bu natijalar ertaga uning real o'rtacha darajasi, uning axloqiga aylanadi.

Boshlang'ich ta'limda o'yin ijodiy faoliyatning bir shaklidir. Bunda o'quvchi ijtimoiy va moddiy borliqni bilish hamda anglash asosida emotsional - xissiy, intellektual-axloqiy rivojlanadi. O'yinlar, ularning inson taraqqiyotidagi o'rni haqida psixologiya, etnografiya, madaniyat, pedagogika fanlarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. XIX asrning oxirida nemis olimi K.Gross o'yinlarni tizimli o'rganishga xarakat qilgan bo'lsa, nemis psixologi K.Byuller o'yinlarni "qoniqish hosil qiluvchi" faoliyat sifatida tadqiq etadi.

L.S.Vigotskiy, A.N.Leont'evlar fikricha, o'yinlarni nazariy jixatdan ijtimoiy tabiatiga ko'ra ma'lum faoliyatiga yo'naltirilganligi bilan bog'lab, tadqiq etgan bo'lsalar, D.B.Elkonin shaxs xulqini boshqarishni tarkib toptirib, uni takomillashtiruvchi faoliyat sifatida talqin etadilar. Lekin o'yinlarni yagona va eng muhim asosiy xususiyati uning ta'limdagi ahamiyatliligidir. O'yinlarda bolaning xulqi erkin shakllanadi va ijtimoiylashadi. O'yinlarning eng muhim jihati uning ikki tomonlama xarakterga egaligi bo'lib, uning dramatik san'atga ham mosligidir. Bir tomondan o'yin ishtirokchilari uni amalga oshirishda muayyan nostandart vazifalar bilan bog'liq xaqiqiy faoliyatni bajarsalar,

ikkinchi tamondan esa o'yinlar bu faoliyatning aksariyat paytlarida ma'suliyatni his etgan holda xaqiqiy vaziyatlardan chetga chiquvchi shartli xususiyat ham kasb etadilar.

XULOSA

Pedagogika va psixoterapiyada bolalar o'yin jarayonida xususan rolli o'yinlardan odamovilik, potologik tortinchoqlik, nutq sustligi va hatto duduqlanish kabi illatlarga yo'liqqan ayrim bolalar uchun tuzatish vositasi sifatida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Demak, o'yinlarning ikki tomonlama vazifani bajarishi uning rivojlanuvchi natijaga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. O'yin faoliyati elementlaridan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular ishbop oyinlar, didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, kompyuter o'yinlari shular jumlasidandir. Boshlang'ich sinflarda turli fanlarni o'qitish jarayonida didaktik o'yinlardan keng foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sarsengali, B., & Shagytbai, A. (2022). Діни философиядағы мейірбан және кемел адам түсінігі. Вестник КазНУ, Серия Религиоведение, 32(4), 50-59.
2. Ориббоева, Д. Д. (2022). O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISHDA IJTIMOY KOMPETENTLIKNI TA'SIRI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.8.08.045> Oribboyeva Dilafrō'z Dadamirzayevna NamDU Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (8), 314-318.
3. Oribboyeva, D. D. (2019). STUDY OF SOCIAL COMPETENCE IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(4), 288-292.
4. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Science and Education, 4(5), 988-992.

MAKTABGACHA YOSHDAGILAR VA VIRTUAL OLAM XATARLARI

Termiz davlat universiteti talabasi

Sharabidinova Nigora

Ilmiy rahbar: Mamaradjabova Bog'zoda

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning virtual hayotga duch kelishi va raqamli texnologiyalarning bolalarga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Ayniqsa televizor telefon, kompyuter kabi qurilmalar orqali bolalarning ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir etishi haqida yozilgan. Maqola virtual olamning salbiy va ijobiy jihatlari muvozanatli tarzda ko'rib chiqilib, ota onalar va tarbiyachilarning bu boradagi ma'suliyati haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yoshdagi bolalar, virtual hayot, raqamli texnologiyalar, ekran ta'siri bolalarning rivojlanishi, onlayn havflar, ota ona nazorati, tarbiya, psixologik ta'sir, raqamli qurilmalar.

Kirish

Raqamli texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bir davrda yashayapmiz. Bugungi kunda hatto maktabgacha yoshdagi bolalar ham planshet, telefon yoki televizor orqali ham virtual olam bilan tanishmoqda. Uzoq vaqt davomida ekran qarshisida o'tirish, yoshga mos bo'lmagan axboratga duch kelish va raqamli qurilmalarga bog'lanish holatlari bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Kichkintoylar real hayotni endigina o'rganayotgan bir vaqtda, ularning fikrlashi, ta'savuri va ijtimoiy ko'nikmalari shu davrda shakillanadi. Shunday bir muhim bosqichda virtual olamning chegaralanmagan axborat oqimiga duch kelishi salbiy oqibatlariga olib keladi.

Asosiy qism

Bugungi kunda raqamli qurilmalar har bir honadonda mavjud. Ular orqali bolalar turli multfilmlarni tomosha qiladi, o'yinlar o'ynaydi va musiqalar tinglaydi. Bu vositalar yordamida ular juda erta virtual olamga kirib borishmoqda. Ko'pchilik ota onalar bu vositalarni Bolani tinchlanishi yoki band bo'lishi uchun ishlatmoqda. Ammo virtual hayotning haddan tashqari ta'siri bolaning sog'ligi va rivojlanishiga zarar yetkazishi mumkin. Salbiy oqibatlarini bazilarini sanab o'tamiz:

1) Nutqa rivojlanishining sekinlashuvi: Bolalar real muloqat o'rniga ekranga qarab vaqt o'tkazganlarida, ularning so'z boyligi va muloqat qobiliyatlari yetarlicha shakillanmaydi.

2) Diqqat va xotiraning susayishi: Tez tez o'zgaruvchi rang-barang o'zgaruvchi tasvirlar bolaning tabiiy diqqatini qisqa muddatligiga o'rgatadi.

3) Jismoniy faollikning kamayishi: Bolalar ko'proq o'tirgan holatda bo'lib harakatlanishga bo'lgan ehtiyoji kamayadi. Bu esa ortiqcha vazn va mushaklar rivojlanishigining sustlashuviga olib keladi.

4) Ko'z salomatligiga zarari: Uzoq vaqt ekran qarshisida bo'lish ko'z zo'riqlashiga, ko'rish qobiliyating pasayishiga olib keladi.

5) Emotsional va ijtimoiy rivojlanishdagi muomolar: Virtual hayot bolani yolg'izlantiradi, hissiy bog'lanish va empatiya shakillanishiga to'sqinlik qiladi.

Shunga qaramay, texnologiyalardan to'g'ri foydalansa foydali tomonlari ham bor. Bularni ham ko'rib o'tamiz:

- 1) Interaktiv o'yinlar orqali o'rganish: raqamli o'yinlar orqali ranglar, shakillar, harflar, va sonlarni o'rganish mumkin.
- 2) Muloqatni qo'llab quvatlash: Ba'zi ilovalar bolaning tovush chiqarishi va so'zlashuvini rag'batlantirishi mumkin.
- 3) Tarbiyaviy multfilmlar: Yoshga mos va ma'naviy tarbiya beradigan multfilmlar bolaning axloqiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bolani virtual hayotdan butkul ajratish mumkin emas, ammo uni nazoratli va foydali ishlatish mumkin. Undan bir hil meyorda foydalanish buning uchun ekran vaqtini cheklash, bu bolaning real hayotdagi faolyatiga zarar bermasligi uchun. Bolaning yoshiga mos content tanlashimiz ham muhim sababi uning rivojlanish darajasiga mos bo'lishi kerak biroq televizor va telefonlarda yosh bolaga to'g'ri kelmaydigan multfilm yoki kinolarniga ham ko'zimiz tushadi. Bu bolaning rivojlanishini tezlashtirib salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin va axloqiy taraflama ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Televizordagi kinolarni joyi kelsa kattalar ko'rishga uyaladi. Sababi bo'lar bo'lmas behayo sahnalar va voshqalar targ'ib qilingan. Buni ko'rgan bolaning ham hayolida bu narsalar aylanadi. Erta ulg'ayishga olib keladi. Bu borada juda e'tiborli bo'lish zarur.

Xulosa

Bugungi rivojlangan davrda virtual olam maktabgacha yoshdagi yoshdagi bolalar hayotiga chuqurroq kirib bormoqda. Texnologiyalar to'g'ri va maqsadli foydalanilganda bolalar uchun foydali bo'lishi mumkin. Biroq ularning ularning noaniq va nazoratsiz qo'llanishi bolalarning jismoniy, ruhiy holatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ota onalar, tarbiyachilar va pedagoglar bolaning ekran bilan bo'lgan munosabatini ongli tarzda yo'naltirishi zarur. Bu bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Farzandlarni virtual olamda yo'qolib qolmasligi uchun unda ongli va sog'lom tarzda raqamli axboratlardan foydalanishni o'rgatishimiz zarur. Bunga biz kattalar ma'sulmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanboyeva, O. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti.
2. Karimova, D. (2021). Raqamli texnologiyalar ta'sirida bolaning rivojlanishi. Toshkent: «Yangi asr avlodi».
3. Махмудова, G. (2022). “Erta yoshdagi bolalarga media vositalarining psixologik ta'siri”. Ilmiy-amaliy pedagogika jurnali, №2.
4. Turdiyeva, N. (2023). “Bolalar va raqamli olam: xavf va imkoniyatlar”. Maktabgacha ta'lim muammolari jurnali, №1(45).

GEOGRAFIYA FANIDA XARITA VA YOZUVSIZ XARITALAR BILAN ISHLASHNING O'QUVCHILARDA BILIM VA TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Ostanova Dilora Ergashevna
Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani1
24-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada geografiya fanini o'qitishda xarita va yozuvsiz xaritalar bilan ishlash metodikasi yoritilgan. Xaritalar orqali o'quvchilarda fazoviy tasavvur, mantiqiy fikrlash, tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi. Ayniqsa, yozuvsiz xaritalar (blank xaritalar) yordamida mustaqil izlanish, hududlarni eslab qolish va ularni xaritada aniqlash ko'nikmalari shakllanadi. Maqolada xaritalar bilan ishlashning bosqichlari, samarali usullari, darsda qo'llash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, interfaol metodlardan foydalangan holda yozuvsiz xaritalarni o'rgatishning afzalliklari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Geografiya, xarita, yozuvsiz xarita, blank xarita, metodika, fazoviy tafakkur, o'quv jarayoni, interfaol usullar.

Geografiya fanini xaritalarsiz tasavvur qilish qiyin, deyarli imkonsizdir. Chunki xaritalar geografiya o'rganadigan barcha tabiiy va ijtimoiy jarayonlar, ob'ektlar va hodisalar haqida mazmunli ma'lumotlar beradi. Ular o'zida geografik bilimlarni aniq, qisqa va ravshan ifodalagan bo'lib, darsliklar bilan bir qatorda muhim o'quv vositasi sifatida e'tirof etiladi.

Geografik tadqiqotlar, tahlillar va kuzatuvlar xaritalarsiz samarali olib borilishi mumkin emas. Har qanday ilmiy izlanish, statistik yoki joylashuv tahlili xarita asosida tuzilgan tasavvurlar orqali puxta yoritiladi. Bu esa, xaritalarning ilmiy izlanishlar va o'quv jarayonidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Ta'lim jarayonida, ayniqsa geografiya darslarini mazmunan boyitish, qiziqarli va interaktiv qilishda ko'rgazmali vositalar — xususan, xaritalar, globuslar, atlaslar, yozuvsiz xaritalar muhim rol o'ynaydi. Bu vositalar o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki tahliliy fikrlash, fazoviy tasavvur va mantiqiy mushohada yuritish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Dars davomida matnli ma'lumotlar bilan birga muntazam ravishda turli mavzularga oid o'quv xaritalaridan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Masalan, tabiiy geografiya bo'yicha darslarda relyef, iqlim, suv resurslari yoki tuproq xaritalaridan foydalanish orqali o'quvchilar mavzuni yanada chuqurroq anglaydi. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy geografiya darslarida sanoat, aholi zichligi yoki transport tizimlariga oid xaritalar orqali o'quvchilar hayotiy misollar asosida tahlil qilishga o'rganadi.

O'quvchilar geografik ob'ektlarning joylashuvini, ularning o'zaro bog'liqligi va fazoviy holatini xarita orqali ko'rmasdan turib, bu ob'ektlarga oid nazariy ma'lumotlarni chuqur anglab yetolmaydi. Shu bois, o'qituvchi yangi geografik ob'ektlarni o'rgatishda avvalo ularni devoriy xaritada ko'rsatib, so'ngra o'quvchilarga bu ob'ektlarni atlaslar yoki darslik xaritalari orqali mustaqil topishni, ularning geografik o'rnini tahlil qilishni o'rgatishi muhimdir. Bu jarayon o'quvchilarda izlanish va kuzatish malakalarini shakllantiradi, geografik tafakkurni rivojlantiradi.

Ya'ni, xaritalar geografiya ta'limining ajralmas qismi bo'lib, ular yordamida o'quvchilar nafaqat geografik bilimlarni egallaydilar, balki amaliy ko'nikmalarni ham shakllantiradilar.

Shuningdek, xarita – bu real geografik obyekt va hodisalarning sxematik tasviri. Geografiya darslarida xarita bilan ishlash o'quvchilarni joylashuv, masofa, yo'nalish, relyef, tabiiy resurslar haqida tushuncha hosil qilishga yordam beradi. Masalan, tabiiy zonalar, iqlim mintaqalari, iqtisodiy tarmoqlarni xarita asosida o'rganish aniqroq tasavvurga olib keladi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi xaritasi.

Xaritalarni to'g'ri tahlil qilish va ularning mazmunini chuqurroq anglash uchun bir nechta samarali usullardan foydalanish lozim. Bu metodlar xarita orqali fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni vizual, statistik, matematik hamda grafik usullar bilan ifodalash imkonini beradi.

Vizual tahlil usuli xarita tahlilida eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biridir. Bu metod orqali xaritada tasvirlangan fazoviy shakllar, ularning o'zaro joylashuvi, tuzilmalari

va bog‘liqliklari ramziy-belgilar yordamida aniqlanadi va tahlil qilinadi. Xarita orqali tasvirlangan hudud haqida umumiy tasavvur shakllanishi mumkin, bu esa foydalanuvchiga joyning tabiiy va ijtimoiy xususiyatlarini tezda anglash imkonini beradi. Vizual tahlil sifati bo‘yicha xaritada ifodalangan hodisalarni baholashga imkon beradi. Shu bilan birga, bu usulda miqdoriy ko‘rsatkichlarga ham — masalan, uzunlik, balandlik, maydon kabi parametrlarga — alohida e‘tibor qaratilishi lozim. Bu fazoviy xususiyatlarning o‘zaro nisbatlarini tushunishga yordam beradi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasining siyosiy yozuvsiz xaritasi.

Kartometrik tahlil usuli esa, aksincha, xaritada ko‘rsatilgan hodisalarni aniq raqamlar orqali baholashga qaratilgan. Bu metod yordamida xaritadagi koordinatalar, masofa, balandlik, uzunlik, hajm, burchak va boshqa topografik elementlar o‘lchanadi va hisob-kitob qilinadi. Kartometrik tahlil kartografiyaning alohida sohasi – kartometriya doirasida o‘rganiladi. Masalan, 1966-yilda nashr etilgan “Sovet Antarktida Atlasi”da qit‘aning umumiy maydoni, muz qatlami qalinligi, o‘rtacha balandligi va hajmi kabi ko‘rsatkichlar aniq kartometrik usulda aniqlangan. Ushbu aniqlik esa Antarktida muzlarining global iqlim o‘zgarishlariga, xususan Jahon okeanidagi suv miqdoriga ta’siri bo‘yicha yangi ilmiy gipotezalarni ilgari surishga zamin yaratdi.

Grafik tahlil metodi esa xaritalarda tasvirlangan obyektlar va hodisalarni grafik shakllarda ko‘rsatish orqali tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bu metod orqali profil chiziqlari, bo‘limlar, blok-sxemalar, diagrammalar, yo‘nalish chiziqlari va boshqa grafik modellar asosida xaritadagi inshootlar va hodisalar chuqur tahlil qilinadi. Ayniqsa, geologik, geomorfologik va muhandislik xaritalarida bu metoddan keng foydalaniladi.

Matematik-statistik tahlil usuli xaritada statistik ko'rsatkichlarni o'rganish uchun qo'llaniladi. Bu usulda balandlik, harorat, yog'in miqdori, ekin maydonlari, aholining zichligi kabi tasodifiy o'zgaruvchilar to'plami tahlil qilinadi. Statik ma'lumotlar xaritada maxsus belgilar bilan ifodalanadi va bu orqali hodisalar orasidagi qonuniyatlarni aniqlash mumkin bo'ladi. Shuningdek, bu metod ilmiy izlanishlar va bashoratlar qilishda keng qo'llaniladi.

Matematik modellashirish metodi xaritalardan olingan boshlang'ich ma'lumotlar asosida hodisa yoki jarayonlarning fazoviy modellarini yaratishdan iborat. Bu metod fazoviy va vaqt bo'yicha o'zgaruvchan hodisalarni matematik tenglamalar yordamida ifodalash imkonini beradi. Masalan, relyef, tuproq va o'simlik qoplamasi kabi turli xaritalarni o'zaro tahlil qilish orqali ularning o'zaro bog'liqligi aniqlanadi.

Umuman olganda, xaritalarni o'qib tushunish va tahlil qilishda har bir metod o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ular birgalikda qo'llanilganda aniq va chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa geografik, iqtisodiy, ekologik va boshqa sohalardagi tadqiqotlar uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.¹

Xulosa qilib aytganda, xarita va yozuvsiz xaritalar bilan ishlash – geografiya ta'limining ajralmas qismidir. Bu jarayon o'quvchilarda nafaqat bilimni, balki tahliliy va tanqidiy tafakkurni, ijodkorlikni ham rivojlantiradi. Zamonaviy o'quv jarayonida xaritalarni interfaol va innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Juraev B., "Geografiya ta'limi metodikasi", Toshkent, 2020.
2. Norkulov S., "Geografik xaritalar va ulardan foydalanish", Samarqand, 2019.
3. "Zamonaviy dars ishlanmalari to'plami: Geografiya", O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2021.
4. B. Qodirov, "Geografiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish", Ilmiy-amaliy jurnal, 2022.

¹ B. Qodirov, "Geografiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish", Ilmiy-amaliy jurnal, 2022.

ILK BOLALIK DAVRIDA NUTQNING O'SISHI

*Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

Mingliboyeva Ruxshona Jamol qizi
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti dotsenti, PhD
Kudratova Lola Ravshanovna

Anottatsiya: Ushbu maqolada ilk bolalik davrida bolalarning nutqiy rivojlanish bosqichlari ilmiy–nazariy asosda tahlil qilindi. Bola nutqining shakllanish jarayonida fonetik, leksik va grammatik qobiliyatlarning bosqichma-bosqich rivojlanishi yoritilgan. Maqolada nutq rivojiga ta'sir ko'rsatadigan psixologik va ijtimoiy omillar, shuningdek, oila va pedagogik muhitning ahamiyati alohida ko'rsatib o'tildi. Undan tashqari bolalarda, nutqiy faollikni rag'batlantirish usullari, pedagogik va psixologik tavsiyalar asosida tavsiflangan. Ushbu tadqiqot ilk bolalik yoshidagi bolalar bilan ishlovchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib nutqiy rivojlanishning samarali strategiyalarini ishlab chiqishda metodik asos bo'la oladi.

Kalit so'zlar: ilk bolalik, nutq rivojlanishi, til o'sishi, psixologik omillar, pedagogik muhit, maktabgacha yosh, fonetik rivojlanish, lug'at boyligi, bolalar nutqi, ijtimoiy aloqa.

Аннотация: В статье на научно-теоретической основе анализируются этапы развития речи детей раннего возраста. Подчеркивается постепенное развитие фонетических, лексических и грамматических способностей в процессе формирования речи ребенка. В статье рассматриваются психологические и социальные факторы, влияющие на развитие речи, а также значение семейной и педагогической среды. Кроме того, на основе педагогических и психологических рекомендаций описаны методы стимуляции речевой активности детей. Данное исследование имеет практическое значение для специалистов, работающих с детьми раннего возраста, и может служить методической основой для разработки эффективных стратегий развития речи.

Ключевые слова: раннее детство, речевое развитие, языковое развитие, психологические факторы, педагогическая среда, дошкольный возраст, фонетическое развитие, словарный запас, речь детей, социальное общение.

Abstract: This article analyzes the stages of speech development of children in early childhood on a scientific-theoretical basis. The gradual development of phonetic, lexical and grammatical abilities in the process of the formation of a child's speech is highlighted. The article highlights the psychological and social factors that affect speech development, as well as the importance of the family and pedagogical environment. In addition, methods for stimulating speech activity in children are described based on pedagogical and

psychological recommendations. This study is of practical importance for specialists working with children in early childhood and can serve as a methodological basis for developing effective strategies for speech development.

Keywords: early childhood, speech development, language development, psychological factors, pedagogical environment, preschool age, phonetic development, vocabulary, children's speech, social communication.

Ushbu maqolaning maqsadi– ilk bolalik davrida bolalarning nutqiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish, bu jarayonga ta'sir qiluvchi asosiy psixologik va pedagogik omillarni aniqlash hamda nutq o'sishini rag'batlantirishga qaratilgan samarali yondashuv va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Bugungi kunda bolalarning erta rivojlanishi, xususan, nutqiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Nutq– bolaning ijtimoiylashuvi, tafakkurining shakllanishi va atrof-muhit bilan muloqot qilishda muhim vositadir. Afsuski, ayrim hollarda bolalarda nutqiy kechikishlar, fonetik yoki gramatik nuqsonlar kuzatilmoqda. Bu esa erta tashxis qo'yish va samarali pedagogik–psixologik yondashuvlarni talab etadi. Shu sababli ilk bolalik davrida nutqning rivojlanishini chuqur tahlil qilish va uni qo'llab-quvvatlash usullarini aniqlash dolzarb muammo hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, nutq bu insonning kommunikativ vositasi bo'lib, u orqali shaxs atrof-muhit bilan muloqot qiladi, fikrini bildiradi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadi. Ayniqsa ilk bolalik davrida nutqning shakllanishi bolaning intellektual va psixologik rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bu davrda til o'zlashtirilishi tabiiyki ong osti jarayonida kechadi. Shuning uchun aynan shu bosqichda bolaga to'g'ri nutqiy muhit yaratish, uni rag'batlantirish, eshtish, talaffuziga oid muammolarni erta aniqlash juda muhim sanaladi. Ushbu maqolada ilk bolalik davrida, nutqning bosqichma-bosqich rivojlanishi, unga, ta'sir qiluvchi omillar va nutqiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, usullari ilmiy-nazariy va amaliy usulda tahlil qilindi.

Shunga ko'ra, bolaning nutqiy rivojlanishiga oid nazariy yondashuvlar asosan quyidagi olimlarning ishlanmalarida asoslangan:

Vigortskiy- sotsiomadaniy rivojlanish nazariyasi.

Nazariyaga ko'ra; bola nutqi, sotsiomadaniy muhit bilan, ya'ni ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. U "yaqin rivojlanish zonasi" (ZPD) tushunchasini ilgari surib, bolaning mustaqil bajara olmaydigan, lekin kattalar yoki tengdoshlari yordami bilan bajara oladigan vazifalari orqali nutq va tafakkur rivojlanishini tushuntiradi.[1].

J.Piajet– kognitiv rivojlanish nazariyasi.

Piajet, fikricha, bola tafakkuri nutqdan oldin shakllanadi va har bir yosh bosqichida o'ziga xos tafakkur shakli mavjud. U preoperatsional bosqichda bola til orqali tashqi olamni tushunishni boshlaydi va bu bosqichda egosentrik nutq faol bo'ladi.[2].

A.N.Leontyev– Faoliyat nazariyasi. Leontyev nutqning rivojlanishini bolaning faoliyat bilan bog‘liq psixik jarayonlarining, bir qismi sifatida qaraydi. Bola o‘yin, orqali atrof-muhit bilan munosabatga kirishadi va bu jarayon orqali til o‘zlashtiradi.[3].

O‘zbek tilshunoslik yondashuvi asosida A.Madvaliev va N.Jo‘rayev kabi olimlarning fikricha, bola nutqi fonetik bosqichda tovushlarni o‘zlashtiradi, keyinchalik leksik va grammatik birliklar rivojlanadi. Bola gap qurish orqali nutqiy muloqotga kirishadi va bu orqali ijtimoiy tajribani egallaydi.

Nutqiy rivojlanish mustaqil emas, balki bolalikdagi psixik, fiziologik va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Shu sababli, bola, nutqni tahlil qilishda ularning jismoniy rivoji, emotsional holati va ijtimoiy muloqot muhiti ham inobatga olinadi. Kompleks yondashuv asosida pedagogik, psixologik va lingvistik usullar birgalikda qo‘llanilib, bola nutqining fonetik, leksik, grammatik va kommunikativ jihatlari bir butunlikda o‘rganiladi. Bu yondashuv natijalarni yanada aniq va puxta tahlil qilishga xizmat qiladi.

Ota-onalar farzandlari bilan kundalik muloqotni ko‘paytirishlari savol-javobli suhbatlar olib borishlari va bolalarning so‘z boyligini oshirish uchun ertak, she‘r va hikoyalar o‘qib berishlari tavsiya etiladi. Maktabgacha ta‘lim muassalarida faol kommunikativ muhit yaratish. Audiovizual vositalardan samarali foydalanish, ko‘p tilda rivojlanayotgan bolalar uchun alohida yondashuvlar orqali, ta‘lim tizimini tashkil qilish lozim. Agar bola belgilangan yosh bosqichlarida nutqiy rivojlanishdan orqada qolayotgan bo‘lsa, logoped yoki defektolog mutaxassisga murojaat qilish zarur. Nutqiy buzilishlar erta aniqlansa, tuzatish jarayoni samariliroq bo‘ladi.

Shuningdek, bola nutqining rivojlanishi nafaqat til o‘zlashtirilish, balki uning emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. To‘g‘ri rivojlangan nutq orqali bola atrof-muhit bilan faol muloqotga kirishadi, o‘z fikrini ifoda etishni o‘rganadi va o‘z-o‘zini anglash bosqichiga yaqinlashadi. Jamiyatga moslashuvi va o‘z imkoniyat asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki nutqni rivojlantirishga oid ishlar erta yoshdayoq tizimli uzviy va individual xususiyatlarni inobatga olgan holda olib borilishi zarur va lozim. Bu yo‘lda ota-onalar logopedlarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib ilk bolalik davrida yutuqning rivojlanishiga qaratilgan izchil va samarali yondashuvlar nafaqat bolalarning til o‘zlashtirishiga balki ularning to‘laqonli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. — Москва: Педагогика, 1934.
2. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. — Москва: Просвещение, 1962.
3. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. — Москва: Политиздат, 1975.
4. Mahkamova D. Bolaning nutqiy rivojlanishi va kommunikativ kompetensiyasi. — Toshkent: Fan, 2018.

5. Jo‘raev N. Til va nutq taraqqiyoti. — Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
6. Madvaliyev A. O‘zbek tilshunosligiga kirish. — Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
7. Гойхман О.Я., Надеждина М.Е. Детская психология. — Москва: Академия, 2008.
8. Hamroyeva N. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning rivojlanishi. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
9. Юнусова Д. Bolalar nutqining bosqichma-bosqich rivojlanishi. — Toshkent: Barkamol Avlod, 2019.
10. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining rasmiy metodik qo‘llanmalari va dasturlari.

MAKTABGA TAYYORGARLIK DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH

Akbaraliyeva Asilaxon Tajiddinovna

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti

Psixologiya fakulteti o'qituvchisi

Mingliboyeva Ruxshona Jamol qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti

Pedagogika fakulteti Psixologiya yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlash va baholashning zamonaviy yondashuvlari yoritilgan. Bolaning maktabga psixologik, ijtimoiy va jismoniy jihatdan tayyor bo'lishi, uning kelajakdagi o'quv faoliyatida muvaffaqiyat qozonishida muhim omil hisoblanadi. Maqolada diagnostika jarayonining asosiy yo'nalishlari va baholash usullarini ko'rib chiqqan, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassalarida ushbu jarayonlari samarali tashkil etish bo'yicha takliflar berildi.

Kalit so'zlar: maktabga tayyorgarlik, diagnostika, maktabgacha ta'lim, psixologik tayyorgarlik, intellektual rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, baholash usullari, bola rivojlanishi, psixologik testlar.

Maqoladagi mavzuni yoritishdan asosiy maqsad–maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini kompleks diagnostika qilish ahamiyatini aniqlash diagnostika yo'nalishlari va usullarini o'rganish hamda bolalarning psixologik, aqliy, ijtimoiy va jismoniy jihatdan maktabga tayyorgarlik holatini baholash bo'yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kirish: Bugungi kunda ta'lim tizimida sifatli o'zgarishlarga erishish o'quvchilarning individual rivojlanishini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bola maktabga ilk qadam qo'yishidan oldin uning tayyorgarlik darajasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, maktabga psixologik yoki ijtimoiy jihatdan tayyor bo'lmagan bolalarda o'qishga moslashish jarayoni qiyin kechadi. Bu esa ularning o'zlashtirish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli maktabga tayyorgarlik darajasini diagnostika qilish bugungi ta'lim siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu jarayon orqali bolalarning individual xususiyatlarini aniqlab ularga mos yondashuvni ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Har bi bola hayotida maktab– yangi bosqich, yangi muhit va mas'uliyatli hayot tarzining boshlanishi hisoblanadi. Bola maktabga borishidan oldin uning bunga qanchalik tayyor ekanligini aniqlash zarurati ortib bormoqda. Chunki, bolalik davridagi individual rivojlanish sur'ati psixologik holati va ijtimoiy ko'nikmalari maktabdagi muvaffaqiyatli

moslashuvi va o'quv faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan maktabga tayyorgarlik darajasini har tomonlama o'rganish baholash va to'g'ri yo'naltirish, ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Maqolada maktabga tayyorgarlikning asosiy yo'nalishlari, diagnostika usullari hamda bu jarayonning ahamiyati tahlil qilinadi.

- 5.Shuhrat Rizayev "Tanlangan asarlar"

³ Sharof Boshbekov "Temir xotin",2013 Toshent.

DEVELOPMENT OF THE AUTOMOTIVE INDUSTRY IN THE NEW UZBEKISTAN

Akbarov Iqboljon Ahmadjonovich

Oltiariq tumani 1-son politexnikumi o'qituvchisi

Abstract: This article explores the evolution and current progress of the automotive industry in the context of the socio-economic reforms of the New Uzbekistan. The study examines state support mechanisms, joint ventures with foreign partners, modernization efforts, and the introduction of electric vehicles (EVs) into the domestic market. It also highlights the significance of innovation, localization, and export-oriented strategies that contribute to sustainable industrial development in Uzbekistan.

Keywords: Uzbekistan, automotive industry, economic reform, modernization, electric vehicles, localization, industry 4.0, innovation.

Introduction The New Uzbekistan, shaped by ambitious reforms under President Shavkat Mirziyoyev, has seen dynamic transformations across various economic sectors, including the automotive industry. Once reliant on Soviet-era infrastructure and monopolized structures, Uzbekistan's car production sector is now pivoting toward innovation, competition, and international cooperation. This article examines the strategies and milestones driving the modernization of the automotive sector in the New Uzbekistan.

1. Historical Context and Initial Development. Uzbekistan's automotive industry began its development in the 1990s, with the establishment of the UzDaewoo joint venture in Asaka. Over time, this evolved into UzAuto Motors, which became the core of the national automotive industry. However, for decades, the industry faced criticism over monopolistic practices, high tariffs, and limited model diversity.

2. Reforms and Liberalization under New Uzbekistan

a. Market Liberalization

Since 2017, Uzbekistan has introduced reforms to liberalize the automotive market, including:

- Removal of excessive customs duties
- Deregulation of car imports
- Tax incentives for car producers and component manufacturers

b. Improving the Investment Climate

Foreign direct investments have increased through strategic partnerships with South Korea, China, Germany, and Russia.

3. Industrial Modernization and Localization

a. Modernization of UzAuto Motors. Technological upgrades, robotics, and automation have been introduced at existing plants. ISO-certified systems and digital monitoring have improved product quality.

b. Localization Strategy

A key development is the push toward increased local content — domestic production of car parts. This supports job creation and strengthens national industry.

4. Diversification and Innovation

a. Electric Vehicle (EV) Initiatives

In line with green economy goals, Uzbekistan launched EV assembly projects:

- Joint venture with China's BYD
- Development of EV infrastructure (charging stations, batteries)
- Tax exemptions for EV import and production

b. Digital Integration

Industry 4.0 technologies, such as data analytics, AI-based quality control, and smart logistics, are being integrated into automotive production lines.

5. Export Strategy and Global Integration

UzAuto Motors and other producers have begun exporting to:

- Russia and CIS countries
- Kazakhstan, Azerbaijan
- African and Middle Eastern markets

Standardization, competitive pricing, and diplomatic outreach support these efforts.

6. Challenges and Outlook Despite progress, challenges remain:

- Need for broader competition to reduce prices
- Infrastructure gaps for EV expansion
- Skills development for a modern workforce

However, government support, digital transformation, and the emergence of private-sector players indicate a positive long-term outlook.

Conclusion. The automotive industry in the New Uzbekistan reflects the nation's broader shift toward openness, innovation, and global integration. Through liberalization, strategic partnerships, and investment in technology, Uzbekistan is laying the foundation for a competitive, sustainable, and forward-looking automotive sector that can meet both domestic and international demands.

References:

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2022). Strategy for the Development of New Uzbekistan 2022–2026. Tashkent.
2. UzAuto Motors. (2024). Annual Industry Report. <https://uzautomotors.com>
3. Ministry of Investments and Foreign Trade of Uzbekistan. (2024). Industrial Modernization Initiatives.
4. BYD Uzbekistan JV. (2023). Electric Vehicle Roadmap in Central Asia.
5. World Bank. (2023). Uzbekistan Country Economic Update: Transition and Reform.

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN MODERN COMPUTER SCIENCE

Mirzatullayeva Sayyora

Oltiariq tumani 1-son politexnikumi o'qituvchisi

Abstract: Artificial Intelligence (AI) has emerged as one of the most transformative forces in modern computer science. This paper investigates the core role of AI in reshaping computational methods, automating tasks, enhancing decision-making, and facilitating breakthroughs in subfields such as machine learning, robotics, and data analytics. The study further discusses ethical concerns, algorithmic bias, and the future trajectory of AI technologies in the digital age.

Keywords: Artificial intelligence, computer science, machine learning, robotics, automation, neural networks, algorithmic ethics.

Introduction. Artificial Intelligence (AI) is revolutionizing modern computer science by enabling machines to perform tasks that require human-like cognition. From intelligent search algorithms to autonomous vehicles, AI is deeply embedded in the computing landscape. This paper explores AI's core contributions to modern computing, the technologies it encompasses, and its ethical and societal implications.

1. Defining AI in the Context of Computer Science

AI refers to the simulation of human intelligence in computers that can perform tasks such as problem-solving, learning, reasoning, and natural language processing. In computer science, it intersects with:

- Machine Learning (ML)
- Deep Learning
- Natural Language Processing (NLP)
- Computer Vision
- Expert Systems

2. Key Applications of AI in Computer Science

Automation and Intelligent System

AI-driven automation handles repetitive tasks efficiently in industries, finance, and software development.

b. Machine Learning Algorithms

ML algorithms like decision trees and neural networks allow systems to improve from experience without explicit programming.

c. Natural Language Processing

NLP tools (e.g., ChatGPT, BERT) enable human-computer interaction via voice or text with growing accuracy.

d. Computer Vision

AI helps interpret and analyze visual data, vital for facial recognition, autonomous driving, and medical imaging.

e. Cybersecurity

AI models detect anomalies, prevent threats, and respond faster to cyber attacks.

3. Contributions to Scientific Research and Industry

- Medical Diagnostics: AI assists in detecting diseases from radiographic images.
- Finance: AI models predict market trends and detect fraud.
- Education: AI supports personalized learning and automated grading.
- Agriculture: Computer vision and drones powered by AI optimize crop monitoring.

4. Challenges and Ethical Implications

a. Algorithmic Bias

AI systems trained on biased data can produce unfair outcomes in hiring, justice, and healthcare.

b. Loss of Jobs

Automation may displace workers in some sectors, leading to socioeconomic issues.

c. Lack of Transparency “Black box” AI models make decisions that are hard to interpret or explain.

d. Security Concerns

AI-powered cyber tools can be used maliciously if not properly regulated.

5. Future Directions in AI and Computer Science

- Explainable AI (XAI): Improving model transparency and trust.
- Quantum AI: Combining quantum computing and AI for unparalleled speed.
- General AI: Advancing beyond narrow applications to broader human-like intelligence.
- AI Governance: International frameworks to ensure ethical deployment.

Conclusion .Artificial Intelligence is not merely a component of modern computer science—it is its very engine of evolution. Its integration into every computational field signals a paradigm shift in how we interact with machines, solve problems, and envision the future. However, with great potential comes great responsibility, making it imperative to develop ethical frameworks alongside technological advancements.

References

1. Russell, S., & Norvig, P. (2021). Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson.
2. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.
3. Bostrom, N. (2014).
4. Bostrom, N. (2007)

AVTOMOBIL: KELIB CHIQISHI, RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY HAYOTDAGI O‘RNI

Matisayeva Sayoraxon

Oltiariq tumani 1-son politexnikumi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada avtomobil tushunchasining paydo bo‘lishi, texnologik taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘rni va ekologik ta’siri ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Avtomobilsozlik sanoatining rivojlanish bosqichlari, yetakchi avtomobil ishlab chiqaruvchilarning strategiyalari, shuningdek, ekologik avtomobillarning joriy etilishi haqida ma’lumotlar beriladi. Shuningdek, avtomobil transportining ijtimoiy-madaniy hayotga ta’siri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Avtomobil, transport vositasi, avtomobilsozlik, ekologik transport, sanoat taraqqiyoti, texnologiya, yo‘l harakati, insoniyat sivilizatsiyasi.

Kirish

Avtomobil – insoniyat tarixidagi eng muhim texnik yutuqlardan biri bo‘lib, u zamonaviy hayot tarzining ajralmas qismiga aylangan. Bugungi kunda dunyoda bir necha milliard dona avtomobillar mavjud bo‘lib,

ularning harakati ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada avtomobilning kelib chiqishi, evolyutsiyasi va hozirgi kundagi o‘rni tahlil qilinadi.

1. Avtomobil tushunchasining kelib chiqishi va ilk taraqqiyot bosqichlari. “Avtomobil” atamasi fransuzcha “automobile” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘z-o‘zidan harakatlanuvchi” degan ma’noni anglatadi. XIX asrning ikkinchi yarmida Germaniyada Karl Bens tomonidan yaratilgan birinchi benzinli avtomobil zamonaviy avtomobilsozlik tarixining boshlanishi hisoblanadi. Bu davrdan boshlab avtomobillar bosqichma-bosqich rivojlanib bordi.

2. Avtomobilsozlik sanoatining shakllanishi va rivoji

XX asr boshlarida AQSHda Genri Ford tomonidan ishlab chiqilgan konveyer tizimi orqali avtomobil ishlab chiqarish massaviy tus oldi. Bu yondashuv avtomobilni keng xalq ommasi uchun arzonlashtirdi va global avtomobil sanoatining asoslarini shakllantirdi. Bugungi kunda Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, AQSH, Xitoy kabi davlatlar avtomobil ishlab chiqarishda yetakchi hisoblanadi.

3. Avtomobilning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Avtomobillar nafaqat transport vositasi sifatida, balki iqtisodiy o‘rishning muhim omili sifatida ham xizmat qilmoqda. Ular logistika, tijorat, turizm, xizmat ko‘rsatish sohalarida keng qo‘llaniladi. Shuningdek, avtomobil bozoridagi harakatlar aksiyalar narxlariga, ish o‘rinlariga va mamlakatlar iqtisodiy salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

4. Zamonaviy avtomobillar: innovatsiyalar va ekologik masalalar So‘nggi yillarda avtomobilsozlikda ekologik xavfsizlik muammosi dolzarb masalaga aylangan. Shu sababli elektromobillar, gibridd avtomobillar, vodorod yoqilg‘ili mashinalar joriy etilmoqda. Tesla, Toyota, Hyundai kabi kompaniyalar bu yo‘nalishda innovatsion texnologiyalarni taklif etmoqda. Shuningdek, avtopilotli (avtonom) avtomobillar ustida ham izlanishlar olib borilmoqda.

5. Avtomobil transportining ekologiyaga ta’siri

Avtomobillar atmosferaga karbonat angidrid (CO_2), azot oksidi (NO_x) va boshqa zararli gazlarni chiqaradi. Bu esa global isish, havoning ifloslanishi, inson salomatligiga tahdid kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois, ko‘plab davlatlar avtomobil chiqindilariga qarshi qat’iy ekologik standartlar joriy qilmoqda.

6. Avtomobil va ijtimoiy-madaniy hayot.

Avtomobil bugungi kunda insonlarning kundalik hayotida muhim vositaga aylangan. U harakat erkinligini ta’minlaydi, turmush darajasini oshiradi va madaniy tajribalarni kengaytiradi. Shu bilan birga, haydovchilik madaniyati, yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish, xavfsizlik masalalari ham doimiy muhokama markazida turadi.

Xulosa

Avtomobil insoniyat taraqqiyotining yorqin ramzlaridan biri bo‘lib, bugungi kunda texnologik, iqtisodiy va madaniy rivojlanishning ajralmas qismidir. Kelajakda esa ekologik toza, intellektual boshqaruv tizimiga ega avtomobillar inson hayotini yanada qulay va xavfsiz etishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, Sh. (2019). Transport vositalari va texnologiyasi. Toshkent: TDPU nashriyoti.
2. Akbarov, N. (2021). Yangi avlod avtomobillari: imkoniyat va istiqbol. “Texnologiya” jurnali, 4-son.
3. Aliev, A. (2023). Avtomobil sanoatining iqtisodiy tahlili. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. www.tesla.com – Tesla kompaniyasining rasmiy sayti.
5. www.who.int – Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, ekologik ifloslanish bo‘yicha hisobotlar.

BOLALARNI TA'LIM JARAYONIDA PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH

Pardayeva Nasiba Dastonovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Ta'lim va tarbiya jarayonlarining o'zaro bog'liqligi hamda aloqadorligi, yahni ularni yaxlit holda tushunish zaruriyati mboshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarining tizimga xos xususiyatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: pedagogika, bolalar bilan ishlash, boshlang'ich sinf, sinf muhiti, pedagogik maslahatlar, ruhiy holat, tushkunlik, tafakkur, psixik jarayonlar

KIRISH

O'zbekiston respublikasida ta'lim sohasida keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikada joriy etilgan ta'lim tizimi, uning turlari va shakllari orqali har bir fuqaroning ta'lim olishdagi konstitutsiyaviy huquqlari amalga oshirib kelinmoqda. Davlatimiz tomonidan ilmiy sohadagi rivojlanishlar keng qo'llab-quvvatlanmoqda. Ayniqsa bu o'rinda yosh avlodni kichik yoshdan boshlab sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim-tarbiya shakllarini hamda usullarini joriy etish va shu orqali bolalarni rivojlantirish borasidagi ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 8 –moddasida:

- Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik va estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

- Maktabgacha ta'lim-tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlashni nazarda tutadi - deb ko'rsatilgan.

Maktabgacha ta'limda bolani har tomonlama rivojlantirish, uning umumiy ta'limda erishiladigan sezilarli yutuqlariga asos bo'ladi. Bolaning erta rivojlanishi uning kelgusida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va tarbiya jarayonlarining o'zaro bog'liqligi hamda aloqadorligi, yahni ularni yaxlit holda tushunish zaruriyati mboshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarining tizimga xos xususiyatlarga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ayrim tadqiqotchilar ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiluvchi turli strukturaviy va funktsional bog'liq bo'lgan komponentlar majmuini ijtimoiy tizimning turlaridan biri hisoblangan pedagogik tizim sifatida

tahriflaydi. Demak, o‘zaro bog‘liq hisoblangan ta‘lim va tarbiya jarayonlari o‘quvchi shaxsining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur jarayonlar, birinchidan, ajdodlar tajribasining avlodlar tomonidan o‘rganilishi, ikkinchidan, o‘zlashtirilishi bo‘lib, ularning ijtimoiy hayotga qo‘shilishlarini tahminlab beruvchi yaxlit jarayon hisoblanadi. Demak, ta‘lim va tarbiya jarayonlari o‘quvchilarda shaxsiy xislatlar, insoniy fazilatlar, tushunchalar shakllanishiga hamda dunyoqarashining rivojlanishiga zarur shart-sharoitlar yaratib beradi. Demak, uzluksiz ta‘lim tizimining muhim bosqichlaridan biri sifatida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ta‘lim va tarbiya jarayonlari quyidagi tamoyillarga muvofiq tashkil etilishi o‘ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi:

- davlat ta‘lim standartlari talablarining bajarilishi majburiyligi;

- o‘quvchilarda fan asoslari bo‘yicha tizimli bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning muhimligi bo‘yicha shaxsiy tushunchalar va ehtiyojlarni rivojlantirishning zarurati;

- ta‘lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish va muvofiqlashtirishda uzluksizlik va uzviylikni tahminlash;

- ta‘lim-tarbiya jarayonlarida tizimli, korporativ, vaziyatli, reflektiv, tabaqalashgan va innovatsion yondashuv texnologiyalarini tatbiq etish asosida barcha uchun qulay ta‘limiy muhitni shakllantirish;

- ta‘lim va tarbiya jarayonlari ishtirokchilarining mazkur jarayon subhektlari sifatida faoliyat ko‘rsatishi zarurati, yahni ta‘lim va tarbiya jarayonlarida subhektsubhekt munosabatlarining qaror topishi;

- ta‘lim va tarbiya jarayonlari subhektlari faoliyatining maqsadga

- yo‘naltirilganligi, izchilligi va o‘zaro bog‘liqligi;

- ta‘lim va tarbiya jarayonlari o‘zaro bo‘g‘liq va aloqador bo‘lgan komponentlar majmui ekanligi;

- harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o‘zaro birligi;

- ta‘lim va tarbiya jarayonlari yaxlit tizim sifatida tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o‘zaro tahsir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

Mazkur tamoyillarning mazmun-mohiyati, ahamiyati, ularga amal qilish zaruriyati ta‘lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish hamda muvofiqlashtirishdan ko‘zlanayotgan maqsadning strategik ahamiyat kasb etishini ifodalaydi. Bu vazifalarni amalga oshirishdan ko‘zlanayotgan umumiy maqsad ham strategik xususiyatlarga ega bo‘lib, har bir vazifani alohida amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsadlar ham mazmun-mohiyatan bir-biri bilan uzviy bo‘g‘liq bo‘lgan strategik rejalar tizimini ifodalaydi. Umumiy maqsadga erishish yo‘nalishlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonlarining tizimga xos xususiyatlar kasb etishi ta‘lim va tarbiya jarayonlarni o‘zaro bog‘liq hamda aloqador tarzda

tashkil etish zaruratini belgilaydi. Demak, o'quvchi shaxsini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim – mustaqil ta'lim, tarbiya – o'zini o'zi tarbiya, ma'lumot – mustaqil ma'lumot, rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining tizimga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni yaxlit tizimning komponentlari sifatida inobatga olish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'yin faoliyati davrida bolaning aqliy fazilatlari va shaxsiy xususiyatlari jadal rivojlanadi va shakllanadi. O'yinda turli xil faoliyatlar mujasamlashadi, keyinchalik har bir faoliyat turi mustaqil ravishda o'z mahnosiga ega bo'ladi. O'yin faoliyati ruhiy jarayonlarning ham shakllanishiga tahsir qiladi. Ayrim o'yin turlari bolalarning barcha bo'g'inlariga mos kelishi mumkin, ya'ni jismoniy sifatlarni yaxlit holda tarbiyalashga qaratilgan o'yinlar ham borki, ularda turli jismoniy sifatlarning ketma-ket rivojlanishi mumkin. O'yinlardagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, dunyoqarashining kengayishi, uning katta yoshdagi odamlarning turmushiga chuqurroq kirib borishi bilan bog'liqdir. Jarayonli komponent. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'yinlar texnologiyasi vositasida ta'limga adaptatsiyalashdagi shart-sharoit, tashkiliy shakllar, metodlar va vositalar, bosqichlarni o'z ichiga oladi.

XULOSA

Boshlang'ich ta'lim o'quvchining turmush tarzi, tartibi, ijtimoiy holati, sinf jamoasi, oila muhitdagi ahvolini o'zgartiradi, uning asosiy vazifasi o'qishdan iborat bo'lib qoladi. Yangi bilim, ko'nikma, malakalar egallashni boshlaydi. Ta'lim o'quvchidan muayyan darajadagi uyushqoqlikni, intizomlikni, irodaviy zo'r berishlikni, faollikni, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni talab qiladi. Ixtiyorsiz xatti-harakatlar o'rnini anglashilgan rejali, maqsadga muvofiq aqliy mehnat egallay boradi. O'quvchi tengdoshlari bilan birgalikda muayyan bir sinf jamoasiga birlashtiriladi. Modomiki shunday ekan, sinf jamoasi va uning ahzolari bola oldiga ko'pchilik manfaatini himoya qilish, shaxsiy istaklarini umumjamoaga intilishlariga bo'ysundirish, o'zaro yordam, o'zaro hurmat, o'zaro talabchanlik, ijtimoiy javobgarlik va burch hislarini egallash vazifasini qo'yadi. Ta'lim jarayonida o'quvchi oldiga qo'yiladigan talablar tobora ortib, murakkablashib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.: O'zbekiston. 2018. – B. 40.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2909-son qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda.
3. Oxunjonova O. Ta'lim bosqichlarida sinonimlar mavzusini o'qitish metodikasi. , ped. f. n. dissertatsiya, -T.: 2009.
4. Palagina N.N. Voobrajenie u samogo istoka. - Bishkek: «Ilim», 2002.
5. Palagina N.N. Razvitie voobrajeniya u detey vtorogo goda jizni // Doshk. vosp. – 2003. - № 6. - S. 241.
6. Palagina N.N. Diagnostika urovnya voobrajeniya detey rannego vozrasta // Voprosy psixologii. – 1994. - № 5. - S. 12 –20.

BOLALARDA EMOTSIONAL STRESSLARNI KELIB CHIQISHI VA BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Usvaliyeva Hamidaxon Usmonovna

Buvayda tum6 4- maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Emotsiyalami xususiyatlariga ta'sir qiladigan muhim omil bu vaqtdir. Qisqa vaqtda intensiv sodir bo'ladigan emotsiyalar affekt xislardir, uzoq vaqtda kuchsiz namoyon bo'ladigan esa kayfiyat hisoblanadi.

Kalit so'zlar: o'smirlar, axborot vositalari, globallashuv jarayoni, muomala, emotsional soha, stress, psixika, ruhiy holat, tushkunlik

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichi axborot asri hisoblanadi. Globallashuvning oqibati va bir vaqtning o'zida uni ta'minlaydigan omil sifatida axborot oqimini haddan ziyod kengayib ketganini e'tirof etishimiz mumkin. Axborotlar sport, shou biznes va san'at olami yangiliklari bilan cheklanmay siyosiy, ilmiy, badiiy, rasmiy, norasmiy sohalaridagi ma'lumotlarni ham taqdim qilishi bilan birga ularni oson qo'lga kiritish imkoniyati ham paydo bo'lgan. Yoshi, kasbi, qiziqishlaridan qat'iy nazar har bir inson axborotlar olamiga kirib boradi, ularni qabul qiladi, o'zlashtiradi, muomalada bo'ladi.

Mana shu keng qo'lamdagi axborotlari istemolchilarini katta qatlami sifatida o'smirlarni ko'rsatish mumkin. Sir emaski, zamonaviy o'smir o'z rivojlanish mohiyatiga ko'ra murakkab dunyoda yashamoqda.

Butun dunyo miqyosida kuzatilayotgan tezkor o'zgarishlar va taraqqiyot psixologik amaliyot sohasiga yangi vazifalarini kirib kelishiga olib kelmoqda. Insonda kuzatiladigan stresslarni tabiati va kelib chiqish sabablariga bo'g'liq xolatda yoritish maqsadga muvofiq.

O'smir shaxsning dinamik rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy strukturalar tizimi jumladan, oila, maktab, norasmiy uyushmalarda ham globallashuv ta'sirida keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali olinadigan ma'lumotlar ham o'smirlarning emotsional-irodaviy jabxalari hamda qiziqishlar tizimiga ta'sir etib ularning xulq-atvori va psixikasida turli buzilishlarga sabab bo'lmoqda. Shunday buzilishlardan biri stress holati bo'lib, tan olish kerakki, to hozirga qadar mazkur tushunchaning mohiyati munozaralidir.

Emotsiya bu - inson tomonidan turli voqea-hodisa va faktlarga bildiradigan subektiv munosabati. Emotsiyalar somatik sohada (mimika va jest) va fiziologik sohada (yurak urishi va nafas olish) turli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Emotsiyalar ma'lum qonuniyatlar asosida yuzaga keladi: emotsiyam kuchi va sifati, uni ijobiy yoki salbiyligi bu emotsiyani keltirib chiqargan ehtiyojga bogliq.

Emotsiyalami xususiyatlariga ta'sir qiladigan muhim omil bu vaqtdir. Qisqa vaqtda intensiv sodir bo'ladigan emotsiyalar affekt xislardir, uzoq vaqtda kuchsiz namoyon bo'ladigan esa kayfiyat hisoblanadi. Ma'lumki, har bir paydo bo'lgan muammoli vaziyat stressni keltirib-chiqarishi mumkin. Stress insonda nerv tizimining qattiq emotsional zo'riqishi oqibatida yuzaga keladigan, kuchli va uzoq davom etuvchi psixologik tanglik holatidir. Stressni insonga safarbar qiluvchi ijobiy ta'siri eustress deb nomlanadi, salbiy ta'siri esa distress deyiladi. Eustress insonga ruxiy kuch beradi, faoliyatga undaydi. Distress odamga salbiy tasir qiladi. Uning oqibati aqliy, jismoniy, emotsional va ruhiy zo'riqishga organizmning holdan toyishiga va qon bosimining oshishi, yurak faoliyatining buzilishi, oshqozon yallig'lanishiga olib kelishi mumkin. Stresslar doimo subektiv bo'ladi. O'smirlarda stressni paydo bo'lishi va rivojlanishi bolalik davridagi ijtimoiylashuvga bog liq.

Oilaning konfliktliligi, salbiy muhitning bo'lishi ham ijtimoiylashuvga tasir ko'rsatadi. Oiladagi kechgan ijtimoiylashuv natijasida o'smir otish davrini boshidan okazayotganligi bois stresslarga beriluvchan bo'lib qoladi. Stresslarni bir necha turlarini ko'rsatish mumkin, ammo ulardan so'nggi davrlarda ko'p uchraydigan turi bu informatsion stress hisoblanadi. Informatsion stress emotsional stress turlaridan biri hisoblanadi.

Atrofimizda fan va texnika taraqqiyoti va uni insonga bo'lgan ta'siri jamiyat va tabiatning tasiridan kuchli va ustun bo'lib bormoqda. Insoniyat tomonidan to'plangan va yaratilgan axborot hajmi kengaymoqda va har o'n yillikda yanada kengayib borishi kuzatilmoqda, ammo inson miyasi va uni tashkil etadigan hujayralarning soni o'zgarmagan, qolaversa ta'limning davomiyligi ortib bormoqda va shuning o'zi informatsion stress ortishi xavfini tug'diradi. Miyaning o'z imkoniyatlari axborotni qabul qilishi keng, axborot hajmini ortishi xafli, ammo qisqa muddatda katta hajmdagi axborotni qayta ishlash zaruriyati paydo bo'lsa bu kuchli asab zo'rqishini olib keladi va infarmatsion stressni keltirib chiqaradi, ya'ni miyaga kirib turgan axborot hajmi va tezligi, bioiogik va ijtimoiy imkoniyatlarga to'g'ri kelmasligi ham infarmatsion stress yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu yerda axborot hajmi bir omil bo'lsa, ikkinchidan vaqt kamligi va unga shaxs motivatsiyasi ijtimoiy sabablar ham qo'shilsa miyani o'z o'zini himoyalash mexanizmi ishlamay qoladi, va inson o'zini informatsion stresslardan muxofaza qilaolmay qoladi. O'smirlar bunday holatda eng zaif tasirchan guruh sifatida namoyon boladi.

O'smirlarda informatsion stressnig salbiy o'qibati sifatida: yolg'izlikka moyillik, diqqatning tarqoqligi va parishonxotirlik, doimiy charchash, befarqlik va holsizlik, uyqu rejimining buzilishi, ovqatlanishning izdan chiqishi, sababsiz agressiyani namoyon etish, o'z-o'zini past baholashi, o'z kuchiga nisbatan ishonchsizlik kabi holatlarni ko'rsatish mumkin. Bu esa o'z navbatida pedagoglar, murabbiylar, ota-onalar va yoshlar tarbiyasi bilan shugullanayotgan barcha insonlar oldida farzandlarimizni informatsion va boshqa stresslrdan ximoyalash kabi muxim vazifalarni qoymoqda. Bu vazifani amalga oshirish yo'llarini aniqlash uchun Maxatma Gandining fikrini keltirish o'rinlidir.

XULOSA

M. Gandiga “Globallashuv jarayoniga qanday qaraysiz?” degan savolni berishganda, u shunday ma’noda javob bergan ekan: “Men tashqaridagi bo‘rondan qo‘rqib, derazamni yopib qo‘ya olmayman, chunki menga toza havo kerak. Shu bilan birga, toza havo kerak ekan deb derazamni katta ochib ham qo‘ya olmayman, chunki mening uyimni changto‘zon bosib ketishini xohlamayman”. Globallashuv ta’siri natijasida kelib chiqayotgan salbiy holatlarni sun’iy to‘siqlar bilan chegaralab bolmaydigan jarayondir. Shu sababdan har bir inson ozida shaxsiy psixologik xafsizlik imkoniyatlarini oshirishi maqsadga muvofiq. O‘zida muxofaza imkoniyatlarini shakllantiribgina qolmay o‘smir yoshidagi farzandiga ham to‘g‘ri tarbiyaviy tasir

qo‘rsatishi lozim. Bu borada axolini psixologik savodxonligini oshirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Qolaversa psixologik amaliyot sohasida axborotlarni qabul qilish va saralashga to‘g‘ri yondoshish masalalariga oid xizmat ko‘rsatishni ham yo‘lga qo‘yish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. M.V.Voxidov Umumiy psixologiya. Toshkent 1992 yil.
2. Tigranyan R.A. Stress i yego znachenie dlya organizma. –M., 1998
3. Xaydarov F., Jo‘raev N. Stress yoki ruhiy muvozanatni saqlash osonmi? –T., 1997
Abduazimov O. Ommaviy axborot vositalari – fuqarolik jamiyatini barpo etish omili. –Toshkent: Akademiya, 2008 98 b.
4. Kenjaboyev A.T. Axborotlashtirish milliy tizimini shakllantirish muammolari. – Toshkent: Ibn-Sino, 2004. – 252 b.
5. Internet materiallari

BOLALARDAGI SALBIY XULQ-ATVORNING KELIB CHIQISHIGA SABAB BO'LVUCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Umarova Manzuraxon Sirojiddinovna

Farg'ona viloyati Quvasoy shahar MMTB ga qarashli

1-IDUM amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Deviant xulq-atvorning eng yaxshi profilaktikasi - bu tarbiyaning vositalari, shakllari va usullarini aniq belgilab olgan holda voyaga yetmaganlar ongiga maqsadga qaratilgan tashkiliy ta'sir ko'rsatishdir. Huquqiy tarbiyani oldini olish imkoniyatlari tiyishning boshqa vositalariga qaraganda ancha samaraliroqdir. Chunki huquqiy profilaktika choralari odatda, birmuncha kechikadi va qilmish sodir etilgandan keyin amal qila boshlaydi.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, deviant xulq-atvor, diagnostika, ijtimoiy funktsiya, jinoyatchilik, ruhiy holat, o'smir, profilaktika, psixik jarayonlar

KIRISH:

Ijtimoiy normalar jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi ekanligi, ijtimoiy normalar shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan ijtimoiy muhit bilan uyg'unlashtiruvchi qoidalar majmui ekanligi, globallashuv davrida ijtimoiy normalar tizimidagi jiddiy o'zgarishlar va tendensiyalarning mohiyati, atvorlar og'ishiga ta'sir etuvchi zamonaviy omillar – ni o'rganish tamoyillarining roli. – internet, virtual dunyo, axborot oqimining tahlili, uning sotsiologik jihatlarini o'rganish va yoshlar muammolarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, globallashuv jarayonida ma'naviy hayotimizni izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xavflar va ularni oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish. Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirish bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va ijtimoiy oqibatlariga ko'ra mohiyatan turli jihatlariga ega. Birinchi farq uzoq davom etadigan ijtimoiy zararli odatlar deviant xulq-atvor turmush tarzining ajralmas qismiga aylanadi. Doimiy oilaviy kelishmovchilik, oila va atrof-muhitdan qoniqmaslik, uydagi tushunmovchilik va boshqalar. – bularning barchasi bolaning ruhiyatini jarohatlaydi va u mavjud vaziyatni o'zgartirishga harakat qiladi. Bu o'rinda kamchiliklar, jumladan, nizolar rivojlanishining oldini oluvchi va unga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ijtimoiy institutlarda salbiy rol o'ynaydi.

Voyaga yetmaganlarning deviant xulq-atvori katta yoshdagilarning og'ma xulq-atvori qonuniyatlariga muvofiq emasligini qayd etish zarur. Jumladan, kriminologiya umum tomonidan qabul qilingan xulq-atvor normalarining jinoyatchilar tomonidan buzilishini ularda rasman ma'qullanadigan yoki umumiy e'tirof etilgan xulq-atvor normalarining jinoyatchilar tomonidan buzilishini ularda rasman ma'qullanadigan yoki umumiy e'tirof etilgan xulq-atvor normalariga zid bo'lgan maxsus qadriyatlar tizimi

mavjudligi bilan izohlanadi. Va shu sababli jinoyatchilikni, eng avvalo, professional jinoyatchilikni tahlil qilish asosial submadaniyat nazariyasiga asoslanadi. Biroq, voyaga yetmaganlarga tatbiqan bunday yondashuv hamisha ham to'g'ri emas. Masalan, ko'pincha o'smir sodir etilgan qilmishni inkor etmagan holda, o'z aybiga iqrar bo'lmaydi yoki o'zi prinsip jihatidan inkor etmaydigan huquqiy taqiqni buzadi. Ayni vaqtda, ayrim ekspertlar diqqat-e'tiborni hozirgi vaqtda deviant xulq-atvor guruhiga ko'proq moddiy jihatdan o'ziga to'q oilalarning bolalari va o'smirlari tushib qolishiga qaratadilar.

Umuman olganda, "bugungi kunda jamiyatning qaysidir qatlamlaridan biri, deviant xulq-atvordan himoyalangan, deb bo'lmaydi, hat bir o'smir ta'sirga va bog'liqlikka duch keladi. Moddiy jihatdan yetarlilik, ota-onalarning yuqori ijtimoiy mavqeyi bolalarning ijtimoiy normalarga rioya qilishning kafili bo'la olmaydi".

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik usulidan foydalanildi. Voyaga yetmaganlar deviant xulq-atvor profilaktikasi obyektiv ochib berildi. Ibn Sino yashagan davr tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi. Giddens E. Sotsiologiya. kitobi mantiqiy izchillik jihatdan tadqiq qilindi. Voyaga yetmaganlarning xulq-atvori profilaktikasi ishida ommaviy axborot vositalari orqali tashviqiy-ma'rifiy ishlarni olib borish muhimdir. Jamoatchilik fikri so'rovi ma'lumotlari bo'yicha televideniye o'smirlar va yoshlar uchun axborot olishning afzalrok manbai hisoblanadi. Shu munosabat bilan ijtimoiy reklamaning roli o'sadi.

Ijtimoiy reklama o'z takliflari bilan mehnatni rag'batlantiradigan, ijobiy maqsadlarga erishish uchun inson faoliyati motivatsiyasini kuchaytiradi. Reklama ijtimoiy qadriyatlarni yoyadi va targ'ib qiladi. U mamlakatlar va xalqlarning yashash tarzini, andozalarini shakllantirishga ko'maklashadi... Reklamaning ijtimoiy funksiyasi turmush tarzi targ'ib qilinishini ham nazarda tutadi.

Oldini olish bilan bog'liq huquqiy choralar ishlashil uchun u bolaning ongiga qo'yilishi, uning e'tiqodi, tajribasining bir qismiga aylanishi kerak. Buni aniq maqsadga qaratilgan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'li bilan erishish mumkin. Bizga ma'lumki jamiyatimizda sodir qilinayotgan ko'plab jinoyatlar, jumladan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatlar va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganishda voyaga yetmagan jinoyatchilarning ma'naviy-ahloqiy shakllanishiga ta'sir etuvchi salbiy holatlarni tahlil qilish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, oilada yoki ko'cha-ko'yda turli xil ahloqsiz xatti-harakatlarning guvohi bo'lgan o'smir, ahloqsizlik jinoyatlarini ham sodir qilishga qo'l uradi. Bunday jinoyatlar qatoriga voyaga yetmagan o'smirlar tomonidan nomusga tegish hollarini ko'rishimiz mumkin. Xo'sh, shu o'rinda bir savol tug'iladi, bunday jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, tub mohiyati nimada? Shu o'rinda biz ushbu jinoyatlarning sodir etilishidagi shartsharoitlarga, sabablarga to'xtalib o'tamiz. Voyaga yetmaganlar tarbiyasi bilan juda ko'pchilik shug'ullanadi. Bular - ota-onalar, oilani katta yoshdagi boshqa a'zolari, maktabgacha bo'lgan, maktab o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari muassasalaridagi o'qituvchilar jamoat

tashkilotlari va boshqalardir. Darhaqiqat, ana shu voyaga yetmaganlar tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi shaxslarning ular tarbiyasidagi ta'siri kelajakda o'z ta'sirini o'tkazadi. Oilalardagi ota yoki ona ichuvchi yoki ma'naviy ahloqsizlik bilan ajralib turadi. Bunda nazarimizda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatchilikka qarshi kurash hamda uning oldini olish birinchi navbatda oila ahloqini qadriyatlarimizga moslashtirishdan boshlashga to'g'ri keladi. Shu o'rinda turli xil huquqshunos olimlarning bu boradagi turlicha qarashlari mavjud bo'lib, bularning barchasi voyaga yetmaganlar tomonidan ahloqsizlik xatti-harakatlarini sodir qilishga oilani roli muhimligi haqida so'z yuritiladi. Jumladan, V.Ya.Rubalskaya tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, 47 % voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi ota onaning salbiy ta'siri yoki befarqligining, 14,8 % oilada hamjihatlik yo'qligining, 38,3% ota yoki onani yo'qligining, 23,5 % kattalarning loqaydligi tufayli jinoyat sodir etishning asosini tashkil etadi.

O'smir yoshdagilarga xos xususiyat shundaki, tashqi jihatdan va o'z da'volariga ko'ra bu katta yosh, ichki xususiyatlari va imkoniyatlariga ko'ra esa, ular hali bola. O'smirlarning erkalashga, o'ziga e'tibor berilishiga moyilligi, o'yin qaroqligi mana shu bilan bog'liq. Shu bilan birga o'smirlarda o'zining katta yoshli bo'layotganligini his etish bilan birgalikda ong, o'z qadrqimmatini his etish, jinsiy mansubligini anglash uyg'onadi va faol shakllanadi. O'smirlik yoshi o'zida har xil ruhiy jarohat yetkazadigan omillar ta'siriga tutish xavfi yuqori darajada bo'lgan shart-sharoitlar jamini ham ifodalaydi. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar ma'lumotlar buyicha ota-onalar o'rtasidagi urush-janjallar, o'smirning nuqtainazariga ko'ra ularda o'smirni va atrofdagilarni kamsitadigan nuqsonlarning mavjudligi, o'smirga nisbatan haqoratlovchi munosabat bo'lish, unga ishonmaslik yoki uni hurmat qilmaslik mana shunday kuchli ta'sir ko'rsatadigan omillardandir.

XULOSA

Bularning barchasi bolalar va o'smirlarning ijtimoiylashuvi jarayonini qiyinlashtiradi va mana shu asosda ularning hulq-atvorida har xil chetga chiqishlarni keltirib chiqaradi. O'smir huquqlari o'zida butun insoniyatning qadr-qimmatini mujassam etadi. Bu degani bolalik - inson shaxsining rivojlanishida noyob, muhim davr demakdir. Inson huquqlari avvalo, bolalar huquqlaridan boshlanadi. Har qanday jamiyat va barcha insoniyatning kelajagi o'ta yuqori darajada yosh avlodning moddiy va jismoniy rivojlanish darajasiga, uning inson huquqlarini shaxs va jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini tushunishiga, shuningdek, o'z taqdiri hamda o'z harakatlari uchun ma'suliyatiga bog'liq. Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat poydevori qurilmoqda. Bunda davlat qurishni huquqiy savodxon, huquq madaniyatini mustahkam egallagan yosh avlod amalga oshiradi. Buyuk davlatni qurish uchun barkamol inson tarbiyalanmog'i zarur. Shu sababli yoshlarni huquqiy davlat tizimi va mohiyatini chuqurroq anglashi, qonun asoslarini bilishi, qonun hurmat qilishi, ularga so'zsiz bo'ysunishi madaniyatiga ega bo'lishi ruhida tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdurasulova. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari. Qonun himoyasida|| T. №1. 2001y. 23 bet.
2. Каримова Л.И. Социальная психология и реклама: Учебное пособие для вузов. Т.: Издательскополиграфический творческий дом им. Г.Гуляма, 2004. С. 20.
3. Giddens E. Sotsiologiya. Toshkent – Sharq, 2002.
4. B.A.Aliyev., G‘.Rafiqov., T.Sultonov., M.Mullajonova., B.Rahmonov. Sotsiologiya. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2005,120-127 b 5. [http// www.sociologu.ru](http://www.sociologu.ru).
5. Internet materiallari

BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKNI OLDINI OLISHNING MUHIM VAZIFALARI

Choriyeva Xolida Jumanazarovna
Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi
105- maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Dunyo bo'ylab juda ko'p o'quvchilar uchun zo'ravonlik/bulling har kungi tajribaga aylanib bo'ldi, lekin biz birgalikda vaziyatni o'zgartirishimiz mumkin. Agar siz, o'quvchi, ota-ona yoki o'qituvchi bo'lsangiz, bolalar va yoshlar qo'rquvsiz yashashi va o'rganishi uchun xavfsiz muhit yaratish uchun choralar ko'rishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: oila, jamoa, manfaatlar, himoya qilish, psixik jarayonlar, bolalar, oilaviy zo'ravonlik, ruhiy holat, tushkunlik

KIRISH

Oilaviy zo'ravonlik nazoratdan chiqib, muammo kattalashgach, qilingan murojaatlar ko'pincha uchastka noziri yoki mahalla fuqarolar yig'inida tezda yopiladi, sabablar o'rganilmaydi, faqat o'sha vaziyatning o'zigagina taalluqli, vaqtinchalik choralar bilan cheklanib qolinadi. Natijada muammo chuqurroq ildiz otib boraveradi. Achinarlisi ko'pincha jabrlanuvchining o'zi murojaat qilmaydi yoki ishni javobgarni jazolashgacha olib bormay, da'vosini qaytarib oladi. Jazolanmagan jinoyatlar esa takrorlanishi sir emas. Boshqarib bo'lmaydigan, kishi hayotiga xavf tug'diradigan, uni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazadigan oilaviy zo'ravonlik katta ijtimoiy muammoga aylanib bormoqda.

Maktablardagi zo'ravonlik/bulling bolalar hayotiga, ularning kelajagiga va ular yashaydigan jamoalarning kelajagiga jiddiy va uzoq muddatli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Dunyo bo'ylab juda ko'p o'quvchilar uchun zo'ravonlik/bulling har kungi tajribaga aylanib bo'ldi, lekin biz birgalikda vaziyatni o'zgartirishimiz mumkin.

Agar siz, o'quvchi, ota-ona yoki o'qituvchi bo'lsangiz, bolalar va yoshlar qo'rquvsiz yashashi va o'rganishi uchun xavfsiz muhit yaratish uchun choralar ko'rishingiz mumkin. Farzandingiz bilan sog'lom do'stlikni tashkil etadigan narsalar haqida gaplashing va nima bo'lmasin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar ko'pincha bolalarini qaqshatgan yoki boshqa birovni qiynab qo'yganini bilishlari mumkin bo'lgan oxirgi ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin, ammo siz ularning farzandlaringiz bilan har kuni ijtimoiy hayotlari haqida gaplashib, bu kurashni buzishingiz mumkin. Ular kim bilan tushlik qilishganligi, nimalar qilgani va avtobusda yoki maktabdan uyda nima sodir bo'lganligi haqida ochiq-oydin savollarni so'rang.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg'unlikni

vujudga keltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda yoshlar, o'quvchilarning qobiliyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlari o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Kishi dunyoga kelgandan so'ng, avvalo, uning ota-onasi, farzandini unib-o'sishini, kamol topishini istaydi. Kelajakda esa o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib shu yurtning biror koriga nafi tegadigan barkamol avlod sifatida ulg'ayadi.

Zo'ravonlikning eng keng tarqalgan shakllari quyidagilardir: 1. Jismoniy. U o'z-o'zidan jarohat va jarohatlar shaklida namoyon bo'ladi, bu ko'pincha o'lim sababidir. Ba'zi shaxslar o'z manfaatlarini himoya qilish yoki har qanday harakat uchun majburlash uchun foydalanadilar. Jinsiy zo'ravonlikning asosiy yo'nalishi jinsiy aloqaga majburlashdir. 3. Ruhiy (ma'naviy, hissiy). U doimiy og'zaki tahdidlar, haqoratlar, jabrlanuvchini depressiv, tashvishli davlatga olib boradi va o'zining axloqiy tamoyillari va tamoyillariga qarshi harakatga keltirib chiqaradi. 4. Siyosiy. Insonlarni hokimiyatga, avtoritarizmga majbur qilish. Siyosiy zo'ravonliklarning kuchayishi genotsidga aylanishi mumkin. 5. Bosh sahifa. Oiladagi zo'ravonlik - bu shaxsning boshqasiga salbiy ta'sirining eng keng tarqalgan shakllaridan biri. Ko'p hollarda qurbonlar ayollar va bolalardir - jamiyatning zaif a'zolari. 6. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik. O'zini boshqa shakllarda namoyon qilishi mumkin (jismoniy, hissiy, jinsiy). 7. Ma'lumot (televizor). Televizion dasturlarda, shuningdek, onlayn-jamiyatlarda zo'ravonlik qo'llanilgan zo'ravonliklar.

Bunga turli mavzulardagi filmlar va noto'g'ri, noto'g'ri ma'lumot beriladigan yangiliklar dasturlari kiradi. 8. Qurolli zo'ravonlik. Har qanday qurolga tahdid soladigan shaxsga ta'sir. Biz ko'rib chiqmoqchi bo'lgan zo'ravonlik turi oiladagi zo'ravonlik: Oiladagi zo'ravonlik bu erxotin yoki boshqa yaqin munosabatdagi kishilardan birining ikkinchisiga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki moliyaviy zo'ravonlik ko'rsatishidir. Odatda, bu turdagi zo'ravonlik ostida bir tomonning oiladagi boshqa a'zolar hayoti ustidan nazoratni ushlab turishga bo'lgan intilishi yotadi. Uydagi zo'ravonlikning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u o'zini qayta-qayta takrorlaydi. Oddiy bir martalik mojaroni jismoniy, jinsiy, ruhiy takrorlanadigan zo'ravonlikdan ajratib turadigan takrorlashdir.

Oilaviy zo'ravonlik sabablari nimada? Har bir oilaviy zo'ravonlikning o'ziga yarasha sabablari bor. Ammo ularga olib keluvchi omillar qator umumiylikka ega. Uydagi zo'ravonlikning rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar quyidagilardir: • Uning bolalik davridagi sheriklarining ota-onasining tajovuzkor xatti-harakatlari. Bunday holatda, u o'zini tutish modelini ko'chirib, uni oilasida ko'paytiradi. • Spirtli ichimliklarni yoki giyohvand moddalarni ichish. Spirtli ichimliklar va preparatlar odamning ruhiy holatini kuchaytiradi. • Madaniyatning past darajasi, axloqiy tushunchalar yo'qligi. • Hamkorlardan birining kam haq-hurmati. Bu oilada tajovuzkor xatti-harakatga olib keladigan sabablarning kichik ro'yxati. Darhaqiqat, ularning aksariyati bor: odamlarning xatti-harakati televidenie tomosha qilish va zo'ravonlik norma (turli mazhablar, jamoalar)

bo'lgan odamlar bilan muloqotda bo'lishiga ta'sir qilishi mumkin. O'zbekiston sharoitida oilaviy zo'ravonlikni xarakterlovchi quyidagi asosiy xususiyatlar farqlanadi: a) zo'ravonning jismonan kuchliligi (ko'pincha erkakning ayolga, ota-onaning farzandga nisbatan zo'ravonligi); b) zo'ravonlikning bir shaxsga nisbatan ko'pchilik bo'lib sodir etilishi (uchinchi shaxslarning aralashuvi); v) jabrlangan shaxsning muammo bilan yolg'iz qolishi (huquqiy savodsizlik, ijtimoiy yolg'izlik); g) jabrlangan shaxsga huquqiy, psixologik, tibbiy yordam berish mexanizmining zaifligi; d) sabablar emas, vaziyatlar bilan shug'ullanish (vaqtinchalik yarashtirib qo'yish, muammoni lokal hal qilish, tub sabablarni o'rganmaslik). Oilada zo'ravonlik va kamsitishlarga uchrayotgan ayollarning asosiy qismi hayotida moddiy va maishiy qiyinchiliklar mavjudligi, turmush o'rtog'ining ichkilikka ruju qo'yganligi va ro'zg'orga mas'uliyatsiz ekanligini bildirishgan. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qiyin iqtisodiy va maishiy sharoitda oiladagi ichki muhit ham zo'ravonlikka olib kelishi, bu esa, o'z navbatida, o'z joniga qasd qilishga moyil xulq-atvorni yuzaga keltirishi mumkin.

Oilaviy mojarolarni hal qilishga mahalla vakillarining jalb qilinishi yaxshi amaliyot, chunki oiladagi ichki muammolar, dastlab, mahalla vakillari orasida muhokama qilinsa va tomonlarga to'g'ri va yetarli nasihat qilinsa, muammo kuchayishining oldi olinishi va natijada zo'ravonlikka chek qo'yilishi mumkin. Ammo amaliyotda bu tizim kutilganidek samarali ishlayapti, deb bo'lmaydi. Ko'p holatlarda mahalla oqsoqollari masalaga yuzaki yondashib, muammoni hal qilish yoki jabrlanuvchini himoya qilish o'rniga, barcha aybni jabrlanuvchiga yuklaydi. Hisobotda keltirilishicha, ayrim mahalla vakillari orasida "Axir u ayolning eri-ku, qanaqasiga bu qilmish jinoyat bo'ladi?" qabilida nosog'lom fikrlash mavjudligi aniqlangan. Aksar hollarda, mahalla vakillari jabrlanuvchiga tegishli huquqiy yordam olish bo'yicha yo'lyo'riq ko'rsatish o'rniga, erini kechirishga, sabrli bo'lishga va o'z ayblarini tuzatib yashashga undaydi. Sabablarni mushohada qilganda, mentalitetga xos xususiyatlarni e'tibordan qochirmaslik lozim.

O'zbek oilalarida shaxsiy hayot, oilaviy sir – muqaddas va xalqimiz bu ma'noda ancha konsertiv hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda ko'pchilik holatlarda oiladagi zo'ravonlik oiladan tashqariga chiqmaydi. O'zbek oilalari odatda ko'p a'zolik, ya'ni nafaqat er va xotin, balki ularning qarindoshlari ham munosabatlar zanjirida muhim rol o'ynaydi. Qaynona, qaynota va boshqa qarindoshlarning oiladagi kelinga zulm qilishi, uning so'zsiz bo'ysunishini, hech qanday imtiyozlar talab qilmasligini istashi yoki ota-onaning farzandga, kelinlarning betob qaynona yoki qaynotaga bosim o'tkazishi kabi holatlar kuzatiladi. Afsuski, ana shu vaziyatlar aksar hollarda jabrlanuvchining o'z joniga qasd qilishiga yoki oxirgi, kritik nuqtaga yetib borguncha zulmga bardosh berib, jiddiy tan jarohatlari, ruhiy zarbalar olishiga, sog'lig'ini tiklanmas darajada yo'qotishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, jamiyatda birovning ichki ishiga aralashmaslik, o'z tinchini o'ylash, muammoga beparvolik va toqatlilik holatlar mavjud.

XULOSA

Shunday qilib, shuni ta'kidlashni istardimki, bolalarga nisbatan zo'ravonlik natijasida ijtimoiy yo'qotishlar, birinchi navbatda, inson hayotini yo'qotish; ikkinchidan, ruhiy va jismoniy salomatlik buzilishi, ta'lim va kasbiy saviyaning pastligi, zo'ravonlik qurbonlarining jinoiy xulq-atvori tufayli jamiyatning samarali a'zolarini yo'qotish; uchinchidan, jismonan va ma'naviy jihatdan sog'lom bolalarni tarbiyalashga qodir ota-onalardan ayrilish; to'rtinchidan, bu jamiyatda shafqatsizlikning ko'payishi, chunki sobiq qurbonlarning o'zlari ko'pincha zo'rlovchilarga aylanadi. Aksariyat o'smirlar o'z atrofidaqilar tomonidan o'zlariga nisbatan har xil zo'ravonliklarga duchor bo'lishlarini, bunday vaziyatlarda yetarlicha javob berish ko'nikmalariga ega bo'lmasliklarini inobatga olsak, maktab psixologik xizmati, o'qituvchilar, huquq-tartibot idoralari xodimlarining maxsus tashkil etilgan faoliyati zarurligi ayon bo'ladi va ota-onalar, zo'ravonlikka qarshi turish va travmatik tajribalar oqibatlarini kamaytirish va bartaraf etish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari ola suriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/oiladagi-gender-zo-ravonlik-va-maktabda-oquvchilar-orasidagi-bulling-zo-ravonlik-sabablari-oqibatleri-va-ularning-oldini-olish/viewer>
2. Toshpo'latov , A. (2023). SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 170–178. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/ejsspc/article/view/16154>
3. Internet materiallari

PSIXOLOGIYADA SHAXSLARDAGI STRESS HOLATLARINI TALQIN QILINISHI HAMDA BARTARAF ETISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI

Adizova Madina Botirovna

*Buxoro viloyati Vobkent tumani 21- umumta'lim maktabining
amaliyotchi psixologi*

ANNOTATSIYA

Ayni kunlarda jadal rivojlanayotgan texnik –informatics progress asrida inson kuchli zarbalar ta'sirida qoldi va endi ruhiyatni, psixik salomatlikni asrash trendga aylanmoqda. Psixoemotsional holatlarning inson psixik va tibbiy salomatligiga salbiy ta'sirlarini kamaytirish va buning oldini olish choralarini ishlab chiqish va hayotga keng tatbiq etish masalasini ko'ndalang qo'ymoqda.

Kalit so'zlar: Ruhiy zo'riqish, salomatlik, muhit, psixologik jarayonlar, psixostress, eustress, distress, psixodiagnostika, prognoz, ruhiy holat, tushkunlik, psixik jarayonlar

KIRISH

Stress vaziyatida organizmning yurak-qon tomir, nerv, hazm, nafas, endokrin kabi tizimlarida bir qancha o'zgarishlar kuzatiladi.

Bu holat:

- qon bosimining ortib ketishigipertoniya;
- yurak urishining tezlashuvi- taxikardiya;
- hazm traktidagi o'zgarishlar:ishtaxasizlik-anoreksiya,
- oshqozon-ichak sekretsiasining buzulishi;
- nafas harakatlaridagi o'zgarishlar;
- asabiy odatlar (qo'llar titrashi, qaltirash, ko'z, qovoqlar uchishi, barmoqlarni qirsillatish); -yomon uyqu bo'lishi kabilar kuzatiladi.

Keyingi yuqori o'rinlarda bolalarda xavotirlanish hissining yuqoriligi aniqlanmoqda. Bu esa bolalardagi xavotirlanish hissini kamaytirish uchun ular bilan maxsus treninglar tashkil etish, motivlashtirish, psixoprofilaktik usullarni qo'llash kerakligini talab qiladi. Keyingi o'rinlarda talabalarning o'zlaridagi zararli odatlar va ular bilan kurashish jarayonidagi qiyinchiliklar ko'rsatilmoqda.Bu o'rinda ularga zararli odatlarning salbiy ta'sirlarni va ularning oqibatlarini ko'rsatib berish, zararli odatlarga bo'lgan kurashda kishining ruhiy holati va psixokorreksion usullarni qo'llash muhimdir.

Keltirib o'tilgan stressing salbiy ta'sirlari, aniqlangan diagnostik tahlillar stress moyillikni prognoz qilish, psixodiagnostikasini amalga oshirish va olingan natija va prognoz bo'yicha korreksion va profilaktik ishlarni ishlab chiqish, amalga oshirish muhim ekanligini ta'kidlaydi. Uzoq muddat davom etuvchi ekstremal holatlar, distressning

organizmga ta'sirlari natijasida o'zida antistress kayfiyatini olmagan insonlarda turli fiziologik tizimlarida salbiy o'zgarishlarni, kasalliklarni chaqirishi o'z tasdig'ini topgan.

Distressning salbiy oqibatlarini: -yurak –qon tomir kasalliklari; -nerv tizimi kasalliklari; -hazm tizimidagi kasalliklar va Psixodiagnostik tahlil natijalari psixokorreksion va psixoterapevtik ishlarni tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi, aks holatlarda jiddiy kasalliklarga duch kelish tabiiy. Bunday holatlarga tushishi mumkin bo'lgan shaxslar sonini bilish va ular bilan profilaktikani ham tashkil etish muhim. Stress psixologiyasi va psixofiziologiyasi ustida ko'p ilmiy izlanishlar olib borgan olim Y.V.Shcherbatyx o'zining ilmiy asarlarida shaxsning stressga bo'lgan munosabatini, stress holatiga chidamliligini

(labilligini), moyilligini, stress vaziyatida o'zini o'zi boshqara olish darajasini aniqlashning qator usullarini keltirib o'tadi. Jumladan : -birxil stress omillaridan foydalanish, bu o'z navbatida shaxsda stress jarayonining kechish tarzini va bu vaziyatga shaxsning chidamlilik darajasini prognoz qilish imkonini beradi;

-laboratoriya sharoitida o'lchangan sinov stressorlaridan foydalanish (stimullar bilan ta'sirlashga asoslangan); Stress holatlarini reaksiyalarini prognoz qilish, tog'ri diagnostikasini amalga oshirish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Diagnostik tahlillarda psixoemotsional, ekstremal vaziyatlarda o'z boshqaruvini yo'qotishi, psixik, fiziologik buzilishlar bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslarni oldindan aniqlash mumkin bo'ladi. Bu esa ham tibbiy, ham psixik tomondan buzilishlarni oldini olish-profilaktikasini amalga oshirish imkonini beradi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, distressni davolash uchun alohida dorilar mavjud emas, lekin bunda bizga jismoniy harakatlar yordam beradi, ayniqsa sport bilan shug'ullanish, yaqin qarindoshlar bilan uchrashuvlar, dildan suhbatlashish, yoqtirgan badiiy filmlarni tomosha qilish, teatr va sayoxatlarga borish ham tavsiya etiladi. O'zo'zini boshqa ishlarga jalb e'tish, o'ziga vaqt ajratish, turli nohushliklar va muammolarni esdan chiqarish, ovqatlanish tartibiga rioya qilish kabilar, kishini har qanday salbiy stress ta'sirlaridan saqlaydi.

Ayni kunlarda jadal rivojlanayotgan texnik –informatcion progress asrida inson kuchli zarbalar ta'sirida qoldi va endi ruhiyatni, psixik salomatlikni asrash trendga aylanmoqda.

Psixoemotsional holatlarning inson psixik va tibbiy salomatligiga salbiy ta'sirlarini kamaytirish va buning oldini olish choralarini ishlab chiqish va hayotga keng tatbiq etish masalasini ko'ndalang qo'ymoqda. Inson hayotida yuzga keluvchi psixoemotsional holatlar ichida stressing o'rni o'zgachadir. Ko'plab insonlar boshidan kechirayotgan doimiy stressga, oilaviy, ishhonadagi muammolar, shuningdek, hayotning iqtisodiy muammolari bilan ham bog'liqligini taxmin qilish mumkin. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan bu stress omillari mikroijtimoiy stressorlar asosida rivojlanib kelmoqda. Stress - so'zi inglizcha so'zdan kelib chiqib - “zoriqish”, “keskinlik”, “bosim” -ma'nolarni

bildiradi. Stress tushunchasini birinchi bo'lib Kanadalik fiziolog Gans Selye fanga olib kirgan.

U stressing shaxs faoliyatiga ijobiy va salbiy ta'sirlarini va stress vaziyatida moslashuv(adaptatsiya) jarayonlarini tadqiq etgan. G.Selye stressga sabab bo'luvchi omillarni - stressorlar nomi ostida birlashtirgan. Stress bu kishining turli stressorlar ta'siri natijasida haddan tashqari zo'riqish holatidir. Ushbu stressorlar turli xil fiziologik (jismoniy zo'riqish, og'riq, turli patalogik jarayonlar, fiziologik buzilishlar) va psixik (hissiy zarbalar, bezovtalik, ziddiyatlar, qo'rquv) stressorlar bo'lishi mumkin. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib emotsional holatlarning psixologik, fiziologik, tibbiy ta'sirlarini o'rganish amalga oshirila boshlandi. Jumladan stress holatining psixologik jihatlarini o'rganish ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'ldi. Bu borada V.Yu. Shcherbatykh, A.O.Proxorov, B.G.Ananov, K.K.Plantov, F.Y.Vasilyuk kabi olimlar stressning psixologik jihatlarini tadqiq etganlar. Stressning kichik miqdori foydali ekanligi, bu shaxs faollanishi uchun muhim turtki bo'lishi ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra tasdiqlangan. Bunday stress inson uchun foydali stresslar eustress deb nomlanadi.

XULOSA

Zero, ko'p miqdordagi, ta'siri kuchli , uzoq vaqt davom etuvchi omillar insonda distress holatini yuzaga keltiradi. Distress holati esa insonning psixik va tibbiy salomatligiga salbiy ta'sir qiladi, shaxs faoliyatida sezilarli o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Xususan, yuzaga kelgan distress holati o'zining bir qancha alomatlari bilan namoyon bo'ladi. Zero, shaxsning intellektual faoliyatida bir qancha o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bu holatda: diqqat jamlanishining qiyinlashuvi, e'tiborni muhim narsaga jalb qila olmaslik, fikrlar tarqoqligi va bu esa o'z navbatida qaror qabul qilishning qiyinlashuviga , natijada ish ko'lamiga, shaxs faoliyati unumdorligining keskin pastlashuviga sabab bo'ladi. Bundan tashqari distress holati xotira jarayonlariga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, natijada esda saqlash , saqlangan ma'lumotni qayta esga tushirishning qiyinlashuviga olib keladi. Distress holati insonning psixik muvozanatini buzibgina qolmasdan uning tibbiy ta'sirlari fiziologik tizimlarda ham sezilarli alomatlari bilan namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. T.: Toshkent-2010.
2. Jalolova M.O. "O'smirlik davrida stress holatlari diagnostikasi va korreksiyasi". Magistrlik dissertatsiyasi, Andijon-2017.
3. G'oziyev. E.G'. Umumiy psixologiya. T.: -2003.
4. Ziyo.net materiallari

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILARDA O'ZINI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK TA'SIRI

Masharipova Ilmira Nurullayevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqa'la tumani

54-umumta'lim maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Yoshlar bizning kelajagimiz ularni qanday tarbiyalab bersak, yurtimiz kelajagi ham shunday bo'ladi. Bu borada prezidentimizning "Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirish lozim mamlakatimizning mard fidoiy kishilari yurtiga mehr-shavqat, muhabbat, barqaror bo'lgan tafakkur va ijod qaynagan muqaddas makonga aylanishiga aminman" degan fikrlari ta'lim-tarbiya sohasini mamlakatning rivojlanishidagi ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: o'z-o'zini qadrlash, o'z-o'zini hurmat, qadriyatlar, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini o'rganishning, avtoritar, liberal, demokratik tarbiya uslubi, psixologik jihatlar, ruhiy holat

KIRISH

Ko'rib turganingizdek, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda qadriyatlar tizimini tarkib topishi ularda o'ziga va o'zgalarga nisbatan munosabatlar tizimini qaror topishi bilan izohlanadi. O'z-o'zini hurmat qilish hayotning deyarli barcha sohalariga ta'sir qiladi va umuman insonning hayot darajasi va sifatini belgilaydi. Albatta, o'z-o'zini hurmat qilish hayot davomida o'zgarishi mumkin, ammo uning asoslari erta yoshda qo'yiladi. Shuning uchun bolaning o'zini o'zi qadrlashini shakllantirishga uning hayotining birinchi yillaridanoq jiddiy e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, bolaning o'zini o'zi qadrlashiga eng yaqin odamlar eng katta ta'sir ko'rsatadi

Odam oilada nimani qo'lga kiritisa, u keyingi hayoti davomida saqlab qoladi. Oilada shaxsning poydevori qo'yiladi. Bolalarni tarbiyalash murakkab, lekin ayni paytda manfaatli. Ota-onalar farzandining muvaffaqiyatli rivojlanishida ularning roli qanchalik muhimligini tushunishlari kerak.

Yosh o'quvchining o'zini o'zi qadrlashini shakllantirishda, M. Fennelning fikriga ko'ra, oilaviy tarbiya uslubi, oilada qabul qilingan qadriyatlar katta ahamiyatga ega. Bunday holda, o'z-o'zini hurmat qilish darajasi yosh avlodning neyropsixik salomatligi ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Oila, birinchi navbatda, bolaga ob'ektiv ravishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni engishga yordam beradi.

Bolalikda o'z-o'zini hurmat qilish - bu ota-onaning bahosini bolaning dastlabki o'zlashtirishi. Keyinchalik, o'z-o'zini hurmat qilish farqlana boshlaydi. Rag'batlantirish,

muayyan xatti-harakatni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, o'zo'zini ijobiy baholashni shakllantirishga harakat qilish, jazolash va e'tibor bermaslik - rag'batlantirilgan variantni topishga harakat qilish va hozirgi paytda o'zini salbiy baholash. Harakatlarga qo'shimcha ravishda, so'zlar ham muhimdir, chunki ota-onalarning bolaga bo'lgan umidlari yoki umidlarini aks ettirgan gaplari ham bolalar xotirasida saqlanadi. O'z-o'zini hurmat qilishning pastligi bolaning qobiliyatlarini to'liq ochishga imkon bermaydi. O'z-o'zidan haddan tashqari yuqori fikrda bo'lish xavfli bo'lishi mumkin: bola o'ziga mavjud bo'lmagan fazilatlarni va haqiqiy bo'lmagan istiqbollarni bog'laydi, keyin esa hayot hamma narsani o'z o'rniga qo'yishni boshlaganda azoblanadi. Maqto'v va tanqid ham o'rtacha nisbatga ega bo'lishi kerak: bola qilgan hamma narsani so'zsiz maqtash mumkin emas, lekin ketma-ket hamma narsa uchun ta'na qilishning hojati yo'q. Agar tanqid maqto'vdan oshsa, bola ota-onasi bilan muloqot qilishdan qocha boshlaydi. Va bolani tanqid qilganda, siz uni maqtash mumkin bo'lgan narsani topishingiz kerak. Bundan tashqari, suhbat oxirida siz bolaning tanqidni tushunib, hamma narsani tezda tuzatganiga samimiy umid bildirishingiz kerak.

Ota-onalarning yana bir xatosi - bu o'z farzandining o'ziga xosligini tushunmaslik yoki tan olmaslik. Aksariyat ota-onalar farzandlarining his-tuyg'ulari, istaklari va fikrlariga kam e'tibor berishadi. Ba'zi ota-onalar, M. Fennelning so'zlariga ko'ra, pul va moddiy boylikni juda qadrlashadi. Bunday oilada bola bu qadriyatlar bilan o'zini namoyon qiladi va undan doimiy kurash va intrigalarni talab qiladigan yig'ma turmush tarzi kishaniga tushadi. Moddiylik bolaning o'zini qadrlash tuyg'usini yo'q qilar ekan, u o'zini pastlik tuyg'ularining o'rnini to'ldirib, boylikka intiladi. Haddan tashqari bo'ysunuvchi, g'amxo'r yoki befarq ota-onalar o'z farzandlarini hissiy nogironga aylantiradilar. Hayotiy vaziyatlarga ishonch va qadr-qimmat bilan qarshi turish motivatsiyasidan mahrum bo'lgan bola, ishni kechiktiradi va eng kam qarshilik yo'lini tanlaydi. O'z-o'ziga ishonchning yo'qligi pastlik tuyg'usini keltirib chiqaradi va bu, o'z navbatida, o'zini past baholashga asos bo'ladi.

Ayniqsa, agar ular ikkita yoki undan ko'p bo'lsa, bolalar bilan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishingiz kerak. Shunday ota-onalar borki, o'z farzandlarini ochiqchasiga qiyoslab, birini boshqasiga o'rnak qilib ko'rsatadilar. Shunday qilib, bola o'zini hamma hayratga soladigan bir xil yoshdagi bolalarga qiyoslaydi va uning xayoliy kamchiliklaridan azob chekadi. Bola boshqalarning kuchliroq, o'ziga ishongan va mashhurroq ekanligiga ishonadi, buning natijasida halokatli pastlik hissi paydo bo'ladi. Bu bolaning o'zini o'zi qadrlashida namoyon bo'lib, unga hasad tuyg'usini, ota-ona sevgisiga shubha va doimiy ravishda ulug'lanadiganlarga nisbatan ochiq dushmanlikni keltirib chiqaradi.

Darhaqiqat, o'z-o'zini hurmat qilish - bu haqiqiy "men" va ideal "men" o'rtasidagi farq va bolalar o'zlari uchun ideallarni yaratishni yaxshi ko'radilar. Ba'zan ular kitoblar yoki filmlar qahramonlari kabi bo'lishni xohlashadi, lekin muammo shundaki, bunga

erishib bo'lmaydi. Natijada, ideal va bola o'rtasidagi tafovut shunchalik kattaki, o'z-o'zini hurmat qilish ba'zan nolga tushadi.

Va shunga qaramay, A.N.Ganicheva, ota-onalar bolaning idealga intilishini mamnuniyat bilan qabul qilishlari kerak, aks holda u o'zini qoniqtiradigan va unchalik ma'lumotli bo'lmagan shaxs bo'lib o'sadi. Ammo, birinchi navbatda, siz unga mashaqqatli mehnat orqali faqat asta-sekinlik bilan idealga yaqinlashishingiz mumkinligini tushuntira olishingiz kerak. Bolaga tushuntiring, agar ideallar erishib bo'lmaydigan bo'lib tuyulsa, agar siz o'zingizning haqiqiy shaxsingizni o'zgartira olmasangiz, unda siz o'zingiz haqidagi g'oyalarni o'zgartirishingiz kerak - ideal. Va, eng muhimi, o'zingizni, qanday bo'lsangiz, o'zingizni sevishingiz kerak.

Bolalarning o'z-o'zini hurmat qilishiga yordam berish uchun ularni qo'llabquvvatlash, ularga samimiy g'amxo'rlik ko'rsatish va imkon qadar tez-tez ularning harakatlari va ishlariga ijobiy baho berish kerak. A.N.Bukin ta'limning uchta asosiy uslubini ajratib ko'rsatadi: avtoritar, liberal, ular orasida u demokratik yoki obro'li tarbiya uslubini eng muvaffaqiyatli deb biladi, chunki u bolaning shaxsiyatiga etarli darajada talabchanlik bilan, bu bolalarga yuqori, ammo oshirib yuborilmagan o'zo'zini hurmat bilan o'sishiga imkon beradi.

Avtoritar yoki diktator tarbiya uslubida ilqlik yo'q. U qat'iy tartib-intizom bilan ajralib turadi, "ota-ona - bola" rejimidagi muloqot "bola - ota-ona" rejimidagi muloqotdan ustun turadi. Bunday ota-onalarning farzandlariga nisbatan umidlari juda katta. Avtoritar ota-onalar, qoida tariqasida, bolaga ozgina mehr ko'rsatadilar, ko'rsatmalar va buyruqlar beradilar, shu bilan birga bolalarning fikriga e'tibor bermaydilar va murosaga kelish imkoniyatini tan olmaydilar. Bunday oilalarda itoatkorlik, hurmat va urf-odatlariga sodiqlik yuksak qadrlanadi. Ota-onalar har doim to'g'ri ekanligiga ishonishadi va itoatsizlik ba'zan jismonan jazolanadi. Avtoritar ota-onalar ham o'z farzandlaridan yoshiga nisbatan ko'proq etuklikni kutishadi. Bolalarning faolligi juda past, chunki ta'limga yondashuv ota-onaga va uning ehtiyojlariga qaratilgan. Ushbu ta'lim uslubi, A.N. Bukin, bolaning rivojlanishida bir qator kamchiliklarga olib keladi. Bunday bolalar ko'pincha tengdoshlarining kuchli ta'siri ostida qoladilar. Ko'pincha umidlaridan hafsalasi pir bo'lib, ular o'zlarini ota-onalaridan uzoqlashtiradilar va ko'pincha ularning qadriyatlari va tamoyillariga qarshi norozilik bildiradilar. O'zini past baholagan bolalar o'zlaridan norozi. Bu oilada sodir bo'ladi, unda ota-onalar doimo bolani ayblashadi yoki unga ortiqcha vazifalar qo'yadilar. Bola ota-onaning talablariga javob bermasligini his qiladi.

Ruxsat beruvchi yoki liberal uslub ota-ona va bolaning iliq munosabatlari, past intizom, ota-ona munosabatlaridan ustun bo'lgan bola va ota-ona muloqoti bilan tavsiflanadi va liberal ota-onalar o'z farzandlaridan katta umidlarga ega emaslar. Liberal ota-onalar g'amxo'r, ehtiyotkor, ular o'z farzandlari bilan juda yaqin munosabatlarga ega. Eng muhimi, ular bolalarga o'zlarini, shaxsiyati va individualligining ijodiy tomonlarini ifoda etish va ularni xursand qilish imkoniyatini berish haqida qayg'uradilar. Ularning

fikriga ko'ra, bu ularga to'g'ri va yomonni ajratishga o'rgatadi. Liberal ota-onalar uchun o'z farzandlari uchun maqbul xatti-harakatlar uchun aniq chegaralarni belgilash qiyin. Ular bir-biriga mos kelmaydigan va ko'pincha cheklanmagan xatti-harakatlarni rag'batlantiradilar. Agar oilada ma'lum qoidalar yoki standartlar mavjud bo'lsa, unda bolalar ularga to'liq rioya qilishga majbur emas. Bunday ota-onalar farzandlariga katta umid bog'lamaydilar, oilalaridagi tartib-intizom minimal, farzandlari taqdiri uchun mas'uliyatni sezmaydilar.

Demokratik yoki obro'li tarbiya uslubi ota-onalar va bolalar o'rtasidagi iliq munosabatlar, mo'tadil intizom talablari va bolalar kelajagiga umid qilish, shuningdek, tez-tez muloqot qilish bilan tavsiflanadi. Liberal ota-onalardan farqli o'laroq, ular qat'iy, talablarida izchil va adolatli.

Vakolatli ota-onalar bolalarning ma'lum bir guruh qoidalariga rioya qilishlari kerak bo'lganda mustaqil bo'lishini ta'minlash uchun oqilona va muammoga yo'naltirilgan strategiyalardan foydalangan holda tartib-intizom yaratadilar. Ular bolalardan ma'lum xatti-harakatlar standartlariga rioya qilishni va ularning bajarilishini nazorat qilishni talab qiladilar. Ota-onalar o'z farzandlari bilan tushunishga majburlash uchun emas, balki aql, muhokama va ishontirishdan foydalanadilar. Ular o'z farzandlarini birdek tinglaydilar va ularga o'z talablarini bildiradilar. Bolalarning muqobil varianti bor, ular rag'batlantiriladi, ularga o'z echimlarini taklif qilish va o'z harakatlari uchun javobgarlikni olish imkoniyati beriladi. Natijada, bunday bolalar o'zlariga va o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga ishonishadi. Agar ota-onalar o'z farzandlarining fikrini qadrlashsa va hurmat qilsalar, bu ikkala tomon uchun ham foydalidir.

Vakolatli ota-onalar o'z farzandlari uchun maqbul chegaralar va xatti-harakatlar standartlarini o'rnatadilar. Ular har doim kerak bo'lganda yordam berishlarini aytishadi. Agar ularning talablari qondirilmasa, ular bunga tushunish bilan munosabatda bo'lishadi va bolalarini jazolashdan ko'ra kechirishlari mumkin.

Muvaffaqiyatli o'zaro munosabatlar, g'amxo'rlik va bolalarga qo'yilgan haqiqiy umidlar tufayli ular rivojlanish uchun yaxshi imkoniyatlarga ega bo'lishadi. Bundan tashqari, bunday ota-onalar farzandlarini maktabda muvaffaqiyatga erishishga undaydilar, bu esa ularning maktabdagi natijalariga ijobiy ta'sir qiladi.

Demokratik uslub qo'llaniladigan oilalarda bolalar yuqori, ammo ortiqcha baholanmagan o'z-o'zini hurmat qilish bilan o'sadi, bolaning shaxsiyatiga e'tibor (uning qiziqishlari, didi, do'stlari bilan munosabatlari) etarli talablar bilan uyg'unlashadi. Bu erda ular kamsituvchi jazolarga murojaat qilmaydilar va bola bunga loyiq bo'lsa, bajonidil maqtashadi. O'zini past baholaydigan bolalar (juda ham past bo'lishi shart emas) uyda ko'proq erkinlikka ega, ammo bu erkinlik, aslida, nazoratning etishmasligi, ota-onalarning bolalarga va bir-biriga befarqligi oqibatidir.

Shunday qilib, maktabdagi ish faoliyati ota-onalar tomonidan bolani shaxs sifatida baholashning muhim mezonidir. Bolada ota-onasi birinchi navbatda g'amxo'rlik qiladigan

fazilatlar - obro‘-e‘tiborni saqlash - birinchi o‘ringa chiqadi. Ota-onalar ta‘lim bilan emas, balki uning maktab hayotidagi kundalik lahzalar bilan shug‘ullansalar yoki ular umuman ahamiyat bermasalar - maktab hayoti muhokama qilinmaydi yoki rasmiy ravishda muhokama qilinmasa, yosh o‘quvchining o‘z-o‘zini anglashidagi e‘tibor o‘zgaradi. Bu yoshdagi shaxsning yana bir xususiyati tashvish bo‘lishi mumkin. Ota-onalar tomonidan o‘qishdan doimiy norozilik bilan yuqori tashvish barqaror bo‘ladi. Xavotirning kuchayishi va o‘z-o‘zini hurmat qilishning pastligi tufayli ta‘lim yutuqlari pasayadi va muvaffaqiyatsizliklar tuzatiladi. O‘zo‘zidan shubhalanish bir qator boshqa xususiyatlarga olib keladi - kattalarning ko‘rsatmalariga o‘ylamasdan amal qilish istagi, faqat naqsh va naqshlarga muvofiq harakat qilish, tashabbus ko‘rsatishdan qo‘rqish, bilim va harakat usullarini rasmiy ravishda o‘zlashtirish.

Ota-onalar farzandlarining hayotiga eng katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun bolalarning nima haqida o‘ylashlari, qanday o‘rganishlari va qanday ta‘lim olishlari kerakligini tushunishlari o‘sib borayotgan bolalarning kelajakdagi xatti-harakatlarini shakllantirishda juda muhimdir. Bolalarni tarbiyalash kattalar shaxsini boyitadi, uning ijtimoiy tajribasini oshiradi. Ular bolaga yangi xulq-atvor namunalarini beradi, ularning yordami bilan u atrofidagi dunyoni o‘rganadi, u o‘zining barcha harakatlarida ularga taqlid qiladi. Bu tendentsiya bolaning ota-onasi bilan ijobiy hissiy aloqalari va onasi va otasi kabi bo‘lish istagi bilan tobora kuchayib bormoqda. Ota-onalar ushbu bolaning shaxsiyati va o‘zini o‘zi qadrlashi ko‘p jihatdan ularga bog‘liqligini tushunganlarida, ular o‘zlarini shunday tutadilarki, ularning barcha harakatlari va umuman xatti-harakatlari bolada ushbu fazilatlarning shakllanishiga yordam beradi. va insoniy qadriyatlarni shunday tushunishki, ular unga topshirishni xohlashadi. Bunday tarbiya jarayonini juda ongli deb hisoblash mumkin, chunki o‘z xatti-harakatlarini, boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatini doimiy nazorat qilish, oilaviy hayotni tashkil etishga e‘tibor bolalarni har tomonlama rivojlanishiga yordam beradigan eng qulay sharoitlarda tarbiyalashga imkon beradi. Bolaning o‘zini o‘zi qadrlashini shakllantirishga oilaning ijobiy ta‘sirini maksimal darajada oshirish va salbiy ta‘sirini minimallashtirish uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan oila ichidagi psixologik omillarni esga olish kerak:

Oilaviy hayotda faol ishtirok eting;

Farzandingiz bilan suhbatlashish uchun doimo vaqt toping;

Bolaning muammolari bilan qiziqing, uning hayotida yuzaga keladigan barcha qiyinchiliklarni o‘rganing va uning qobiliyatlari va iste‘dodlarini rivojlantirishga yordam bering;

Bolaga hech qanday bosim o‘tkazmang, bu bilan unga mustaqil ravishda qaror qabul qilishga yordam bering;

Bola hayotining turli bosqichlari haqida tasavvurga ega bo‘ling;

Bolaning o‘z fikriga bo‘lgan huquqini hurmat qiling;

Egalik instinktlarini jilovlay olish va bolaga hozirgi paytda hayot tajribasi kamroq bo'lgan teng huquqli sherik sifatida munosabatda bo'lish;

XULOSA

Boshqa barcha oila a'zolarining martaba va o'z-o'zini takomillashtirish istagini hurmat qiling. Shunday qilib, oilaning yosh o'quvchining o'zini o'zi qadrlashiga ta'sirini ortiqcha baholash qiyin, chunki inson oilada nima olgan bo'lsa, u kelajakdagi hayoti davomida saqlab qoladi. Shuning uchun ota-onalar bolaning o'zini o'zi qadrlashi uchun to'g'ri oilaviy tarbiya qanchalik muhimligini tushunishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletshin M.G., Mavlonov M.M, To'ychieva S.M. "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2009 .
2. Dusmuxamedova Sh.A., Tillashayxova X.A., Baykunosova G.Yu., Ziyavitdinova G.Z., «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya» - Darslik Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU, 2020y.
3. G'oziyev E. "Ontogenez psixologiyasi".-T.: Noshir. 2010
4. Asper K. Ichki bola va o'z-o'zini hurmat qilish. - M.: Dobrosvet, 2008 yil.
5. Boryakova N.Yu. Bolalarni ta'lim va tarbiyalashning pedagogik tizimlari. M.: Astrel, 2008 yil.

OBSTACLES IN RENDERING ENGLISH SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL WRITINGS INTO UZBEK

Supervisor: I.A. Egamberdiyeva

Associate professor of ASIFL

Sheraliyeva Nozima - Student of ASIFL

Annotation: This article analyzes the main challenges encountered in translating scientific and technical articles from English into Uzbek. It highlights issues such as terminological accuracy, grammatical equivalence, stylistic features, and contextual consistency. The article also discusses strategies that translators can use to overcome these difficulties, emphasizing the importance of both linguistic and subject matter expertise. The findings provide practical recommendations for improving translation quality in the field of science and technology.

INTRODUCTION

In today's globalized world, the exchange of scientific and technical information has significantly increased. Most scientific articles and technological innovations are published in English. Translating such materials into Uzbek not only improves access to knowledge but also contributes to the development of science in the country. However, translating texts in this domain presents specific challenges, including maintaining terminological precision, ensuring grammatical consistency, preserving the scientific style, and adapting to contextual differences. This article examines these issues and explores possible solutions in the context of translating English scientific and technical texts into Uzbek.

MAIN PART

Translating scientific and technical texts requires both linguistic competence and specialized knowledge. These texts are typically written in a formal, academic style with an emphasis on clarity and accuracy. The main translation difficulties include:

1. Terminological Challenges

Scientific texts contain a large number of specialized terms, many of which lack exact equivalents in Uzbek. Terms like “nanotechnology”, “quantum computing”, and “biodiversity” often require either descriptive translation or transliteration.

2. Grammatical Complexity

Scientific English frequently uses complex grammatical structures, such as passive voice, modal verbs, and long noun phrases. Translators must render these structures into natural and readable Uzbek while preserving meaning.

3. Stylistic Adaptation

The formal tone and style of English scientific writing must be adapted to the stylistic norms of Uzbek academic writing. This may involve simplifying certain expressions or providing explanatory notes.

4. Contextual Differences

Some terms or concepts may carry different implications depending on the scientific or cultural context. Translators must understand both the linguistic and conceptual background of the source text.

To overcome these challenges, translators should make use of specialized dictionaries, consult experts in relevant fields, and continuously improve their subject-matter knowledge. Collaborating with scientific editors can also enhance translation accuracy.

CONCLUSION

Translating English scientific and technical articles into Uzbek is a complex but essential task. The process requires both linguistic skills and subject-specific understanding. As discussed, challenges include terminological ambiguities, grammatical differences, stylistic adaptation, and contextual interpretation. Addressing these issues through careful research, the use of reliable resources, and professional collaboration ensures high-quality translations that contribute to knowledge dissemination and academic development. This article offers practical insights for students and translators working in this specialized field.

References:

1. Akhmedova, D. (2020). Theory and Practice of Translation. Tashkent: National Encyclopedia Publishing.
2. Ganiyeva, M. (2022). Fundamentals of Specialized Translation. Tashkent: Science and Technology Publishing.
3. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.
4. Baker, M. (1992). In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge.
5. Komissarov, V.N. (2002). Modern Translation Studies. Moscow: ETS Publishing.
6. Crystal, D. (2003). The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press.
7. Al-Khuli, M.A. (2001). English for Specific Purposes and Translation. Jordan: Dar Al-Falah.

LOGISTIKA(YUK TASHISH)KOMPANIYASI UCHUN TRANSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH USULINI TANLASH

Muratov Rinat Nurgali o'g'li

*Andijon davlat texnika insitituti. Transport va Logistika yo'nalishi
4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi logistika kompaniyasi uchun transport infratuzilmasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Transport infratuzilmasining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlariga nazariy va amaliy yondashuvlar qo'llaniladi. Maqolada soha bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar, xorijiy tajriba va zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati batafsil yoritiladi. Tadqiqot davomida omillarni jadvallar va statistik ma'lumotlar orqali tahlil qilish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Transport infratuzilmasi, iqtisodiy omillar, ekologik barqarorlik, innovatsion texnologiyalar, logistika tizimi, avtomobil yo'llari, islohotlar, investitsiyalar, daryo porti

Kirish

Respublika transport-logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini yanada rivojlantirish, tranzit salohiyatini oshirish, istiqbolli transport yo'laklarini shakllantirish, eksport-import operatsiyalari qiymatida transport xarajatlarini kamaytirish hamda tashqi bozorlarga yuklarni yetkazib berish muddatlarini qisqartirish maqsadida quyidagi qarorda keltirilib o'tilgan:

“O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida,gi Prezident qarori (PQ-28-son, 27.01.2025-y.) qabul qilindi. Qarorga ko'ra, O'zbekistonning transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha “yo'l xaritasi” tasdiqlandi.

Quyidagilarni nazarda tutuvchi asosiy maqsadli ko'rsatkichlar va indikatorlar belgilandi, jumladan:

- a) avtomobil, temir yo'l va havo transportida xalqaro yuk tashish umumiy hajmini kamida 2 baravarga oshirish;
- b) transport va logistika xizmatlari eksportini 2 baravargacha oshirish;
- c) konteynerlarda yuk tashish ulushini kamida 1,5 barobarga oshirish;
- d) Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksida (LPI) O'zbekistonning o'rnini 55-pog'onadan past bo'lmagan darajagacha ko'tarish;
- e) Yuklarni xalqaro tashishni tashkil etishda transport-ekspeditorlik xizmatlariga QQS nol stavkada qo'llash;

2025-yil 1-iyundan Davlat chegarasi orqali avtomobil o'tkazish punktlarida avtotransport vositalarining elektron navbat tizimi joriy etiladi. Xalqaro avtomobil transporti ittifoqi bilan hamkorlikda Xalqaro avtomobil transporti sohasida kadrlar

tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha mintaqaviy o'quv markazi tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Hozirgi kunda Respublikamizda asosan temir yo'l, avtomobil va aviatsiya sohlari keng rivojlanib bormaqda va bularga dastur ishlab chiqildi. Dasturni amalga oshirish bo'yicha quyidagi talablar qo'yilgan. Umuman transport infratuzilmasini rivojlantirish sohasida — temir yo'l, avtomobil va aviatsiya transportini yanada rivojlantirish hamda ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yuk tashish bo'yicha ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasi va sifatini oshirish, xalqaro logistika markazlarini barpo etish, xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llarini, yo'l bo'yidagi zarur infratuzilmani qurish va yuk tashishda transportlarning o'tkazish qobiliyatini ko'paytirish bo'yicha quyidagilarni ko'rib chiqamiz.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida transport infratuzilmasini takomillashtirish mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida ko'rilmogda. Respublikada mavjud bo'lgan asosiy transport turlariga avtomobil, temiryo'l, havo, daryo hamda quvur transporti kiradi. Ularning har biri o'zining o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligi bilan ajralib turadi.

Daryo transporti - Daryo transporti transport turlari ichida eng tejamkor vositalardan biri hisoblanadi. Bu turdagi transport asosan og'ir va katta hajmdagi yuklarni iqtisodiy jihatdan foydali tarzda uzoq masofalarga yetkazish imkonini beradi. Uning asosiy afzalligi – tashish xarajatlarining nisbatan pastligi bo'lsa, kamchiligi esa tashish vaqti uzoqroq bo'lishi hamda ob-havo sharoitlariga bog'liqligidir. Shu sababli, odatda daryo transporti uzoq muddatda yetkazilishi rejalashtirilgan yuklar uchun qo'llaniladi. Daryo transporti yuk tashishning iqtisodiy jihatdan tejamkor turlaridan biri bo'lib, ayniqsa og'ir yuklar uchun foydalidir. O'zbekistonda bu transport turi asosan Surxondaryo viloyatidagi Termiz daryo porti orqali amalga oshiriladi. Port Afg'oniston bilan yuk va gumanitar yordam almashishda muhim logistika nuqtasiga aylangan. Daryo transporti odatda ob-havo sharoitlariga bog'liq bo'lsa-da, katta hajmdagi yuklarni arzon va xavfsiz yetkazib berish imkonini beradi.

O'zbekiston sharoitida daryo transporti asosan Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritadi. Viloyatdagi Termiz daryo porti – mamlakatdagi eng muhim daryo transporti infratuzilmasi bo'lib, bojxona nazorati zonasi maqomiga ega. Port hududida 6 ta yopiq omborxona mavjud bo'lib, ular bir vaqtning o'zida 30 ming tonnagacha yukni saqlash imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, ochiq maydoni ham mavjud bo'lib, 3 mingga yaqin 20 va 40 futli konteynerlar joylashtirilishi mumkin.

Termiz daryo porti 1953-yilda tashkil etilgan bo'lib, u orqali gumanitar yuklarni yuklash va tushirish, omborlarda saqlash, shuningdek, daryo floti yordamida yuklarni Afg'onistonning Sherxon va Hayraton portlariga yetkazib berish ishlari amalga oshiriladi. Port tarkibiga daryo uchastkasi, kemalarni ta'mirlash ustaxonalari va boshqa texnik

obyektlar kiradi. Portning yillik yuk o'tkazish quvvati 600 ming tonnani, yuk ortish va tushirish quvvati esa 900 ming tonnani tashkil etadi.

Quvur transporti Quvur transporti neft, gaz va boshqa suyuq yoki gazsimon mahsulotlarni tashishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston quvur tarmoqlari orqali ichki ehtiyojlarni qondiribgina qolmay, qo'shni davlatlar bilan energetika sohasidagi hamkorlikni amalga oshiradi. Gaz va neft quvurlari orqali resurslar yer osti va suv osti orqali uzatiladi. Tashish xarajatlari nisbatan past bo'lib, quvurlar yuqori xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlaydi. Quvur transportining infratuzilmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Quvur liniyalari: neft, gaz va boshqa mahsulotlarni uzatish uchun yer osti yoki suv osti yo'llari.

Nasos stansiyalari: suyuq yoki gazsimon mahsulotlarni bosim ostida uzatishni ta'minlaydi.

Monitoring va nazorat tizimlari: quvurlar holatini kuzatish va avariya holatlarining oldini olish uchun zarur.

Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish punktlari: quvurlarni doimiy ishlashini ta'minlash.

Bu infratuzilma neft-gaz sohasining barqaror ishlashida juda muhim bo'lib, O'zbekiston energetika eksporti uchun ham poydevor hisoblanadi.

Quvur orqali tashish – yuk tashishning yana bir iqtisodiy samarador usuli bo'lib, ayniqsa neft, gaz kabi suyuq va gazsimon mahsulotlar uchun keng qo'llaniladi. O'zbekistonda quvur transporti tizimi, asosan, gaz quvurlari va neft quvurlari tarmoqlaridan iborat. Bu quvurlar nasos stansiyalari orqali boshqariladi va oqimlarni muvofiqlashtirib turadi. Asosiy yuk turini tabiiy gaz va neft mahsulotlari tashkil etsa-da, so'nggi yillarda boshqa mahsulotlarni ham quvur orqali tashish amaliyoti rivojlanmoqda. Quvur tarmoqlari ko'pincha yer osti yoki suv ostidan o'tkaziladi va ular orqali yuklar bosim orqali xavfsiz va barqaror tarzda manzillarga yetkaziladi. Neft va gaz quvurlari ko'pincha yirik korporatsiyalar mulkiga kiradi, bu esa ularga yirik investitsiyalarni jalb qilish va xavfsizlikni yuqori darajada ta'minlash imkonini beradi. Biroq boshqa turdagi mahsulotlarni quvur orqali tashish texnologiyasi hali to'liq shakllanmagan bo'lib, bu yo'nalishda hali katta salohiyat mavjud.

Investitsiyalar: O'zbekiston transport infratuzilmasiga kiritilgan

Avtomobil transporti. Avtomobil transporti - bu tovarlar, xomashyo, tayyor mahsulotlar yoki boshqa yuklarni bir joydan ikkinchi joyga **samarali, tejamkor va o'z vaqtida yetkazib berish** jarayonini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish bilan shug'ullanuvchi sohadir. Transport tizimining samaradorligi har bir davlat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, avtomobil yo'l-infratuzilmasi — bu tovarlar, xizmatlar va odamlarni harakatlantirishda eng keng tarqalgan va moslashuvchan transport vositalarini ta'minlovchi tizimdir. Avtomobil yo'llari tarmog'i

temir yo'llarga nisbatan ancha zichroq va keng qamrovli bo'lib, bu orqali ko'plab korxonalar, qishloq xo'jaligi ob'ektlari va aholining turar joylari o'zaro bog'lanadi. Shu sababli, yo'l infratuzilmasining mavjudligi mintaqaviy va mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yo'l-transport infratuzilmasining asosiy elementlari — yo'llar, ko'priklar, tunnel va transport tugunlari (avtomobil bekatlari, intermodal terminal va boshqalar) hisoblanadi. Ushbu elementlar o'rtasidagi integratsiya transport jarayonlarining samaradorligini oshiradi hamda turli transport turlarini bir-biriga uzluksiz bog'laydi. Avtomobil yo'llarining sifati faqat ularning uzunligi bilan emas, balki qattiq qoplama, yo'l kengligi, texnik xizmat ko'rsatish darajasi, va xavfsizlik standartlari bilan belgilanadi. Shuningdek, yo'l tarmog'ining zichligi transport vositalarining harakat erkinligi va manzillarga yetib borish tezligini ta'minlaydi. Xalqaro tajribada avtomobil yo'llarining davlatga yoki xususiy sektorga tegishligi farqlanadi. Pullik yo'llar tizimi infratuzilmaga qo'shimcha mablag'lar jalb qilish, xizmat sifatini oshirish hamda yo'l xarajatlarini muvozanatlashtirish uchun samarali mexanizm sifatida foydalaniladi. Natijada, avtomobil yo'l-infratuzilmasi nafaqat milliy transport tizimining asosini tashkil etadi, balki iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismidir.

Investitsiyalar: O'zbekiston transport infratuzilmasiga kiritilgan investitsiyalar, ayniqsa, avtomobil yo'llari va temir yo'llarni yangilash borasida joriy yilgi ma'lumotlarga asoslanadi. 2023-yilda 1,5 trillion so'm miqdorida investitsiya kiritilishi transport tarmoqlarining modernizatsiyasi uchun katta imkoniyatlarni yaratdi. Bu investitsiyalar asosan avtomobil yo'llari va temir yo'l infratuzilmasini yangilash, yangi logistika markazlarini qurish va xalqaro transport yo'laklarining rivojlanishiga yo'naltirilgan

Ko'rsatkich	2020-yil	2023-yil	O'sish (%)
Avtomobil yo'llari uzunligi	184,000 km	190,000 km	3,20%
Tashqi savdo yuklari hajm	120 mln tonna	145 mln tonna	20,80%

Logistika tizimi: Samarali logistika tizimining ahamiyati naqadar katta bo'lganini ko'rsatish uchun O'zbekistonning xalqaro savdo hajmi va uning transport yo'llari orqali o'tishi ko'rsatiladi. Masalan, temir yo'l transportining import va eksport uchun muhimligi, shuningdek, xalqaro logistik markazlarining o'rni haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ushbu tizimlarni rivojlantirish O'zbekistonni Yevropa, Osiyo va boshqa mintaqalarga yuqori tezlikda yetkazib berish xizmatlarini taqdim etishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: 1.

1. "O'zbekiston transport infratuzilmasining rivojlanishi va uning istiqbollari" (2023) — O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Toshkent.
2. "O'zbekiston temir yo'l tizimining bugungi holati va rivojlanish istiqbollari" (2022) — O'zbekiston temir yo'llari, Toshkent

3. Rustamov, D. (2020). Transport va logistika infratuzilmasi. Toshkent: Toshkent axborot texnologiyalari universiteti. Transport turlarini o'zimga kerak bo'lgan qismini keltirib o'tdim.

4. **Qo'ldoshev, A.** (2017). Transport infratuzilmasi va uning rivojlanishi. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish akademiyasi.

HORIJIY MAMLAKATLARDA LOGISTIKANING MAVJUD TURLARI VA HOLATI

Muratov Rinat Nurgali o'g'li

Andijon davlat texnika insitituti. Transport va

Logistika yo'nalishi 4-kurs talabasi

@email: muratovrinatbek@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xalqaro logistika kompaniyasi uchun transport infratuzilmasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Transport infratuzilmasining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlariga nazariy va amaliy yondashuvlar qo'llaniladi. Maqolada soha bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar, xorijiy tajriba va zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati batafsil yoritiladi. Tadqiqot davomida omillarni jadvallar va statistik ma'lumotlar orqali tahlil qilish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Transport infratuzilmasi, xorijiy infratuzilma, ekologik barqarorlik, innovatsion texnologiyalar, logistika tizimi, avtomobil yo'llari, islohotlar, investitsiyalar, infratuzilma turlari xorijiy mamlakatlarda.

Kirish

Bugungi kunda infratuzilma tushunchasi xalqaro miqyosda keng talqin qilinadi. Turli mamlakatlarda bu atama jamiyatning normal faoliyat yuritishi va iqtisodiyotning barqaror ishlashi uchun zarur bo'lgan asosiy jismoniy va institutsional tizimlar majmuasi sifatida ko'riladi.

Infratuzilma — bu iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning faoliyat yuritishini ta'minlovchi xizmatlar va inshootlar yig'indisidir. U yo'llar, ko'priklar, elektr tarmoqlari, suv ta'minoti, aloqa tarmoqlari kabi texnik vositalarni, hamda bu tizimlarni boshqaruvchi tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Umuman olganda, infratuzilma – bu jamiyatga zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni uzluksiz yetkazib berish uchun xizmat qiluvchi jismoniy va tashkiliy tizimlarning o'zaro bog'liq tarmog'idir.

Xalqaro tajribada infratuzilma turlari

Dunyo tajribasida infratuzilma odatda ikki toifaga ajratiladi:

“Qattiq” infratuzilma (Hard Infrastructure) – bu jamiyatning moddiy, jismoniy asoslari: transport tarmoqlari, elektr va gaz ta'minoti, suv infratuzilmasi va boshqalar.

“Yumshoq” infratuzilma (Soft Infrastructure) – bu davlat boshqaruvi, sog'liqni saqlash, ta'lim, huquq-tartibot va moliya kabi institutlarning tizimli faoliyatini bildiradi.

Qattiq infratuzilma turlari

1. Transport infratuzilmasi

Transport tizimi harakatlanish, yuk tashish va iqtisodiy integratsiyani ta'minlovchi asosiy infratuzilmadir. Quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Avtomobil yo'llari va magistrallar (ko'priklar, tunnellar, yo'l belgilar, chiroqlar)

Shahar transporti tizimi (avtobus, tramvay, metro, trolleybus)

Temiryo'l tarmoqlari, stansiyalar, signalizatsiya va boshqaruv tizimlari

Suv transporti (kanallar, portlar, mayaklar)

Aeroportlar va havo harakatini nazorat qilish tizimlari

Velosiped yo'laklari, piyodalar uchun trotuarlar

Paromlar va suv yo'llari orqali tashish inshootlari

2. Energetika infratuzilmasi

Energiya yetkazib berish tizimlari iqtisodiy faoliyatni barqaror yuritishda hal qiluvchi rol o'ynaydi:

Elektr uzatish va ishlab chiqarish tarmoqlari

Neft va gaz quvurlari tizimi

Ko'mirni tashish, bug' va issiqlik energiyasi inshootlari

Transport vositalari uchun zaryadlash stansiyalari

3. Suv resurslari infratuzilmasi

Toza suv ta'minoti va ekologik xavfsizlikni saqlashda muhim hisoblanadi:

Ichimlik suvi tizimi

Kanalizatsiya va toza chiqindi suvlarni tozalash

Irrigatsiya va drenaj tizimlari

To'g'onlar, suv toshqinini oldini olish vositalari

Qorlarni tozalash va qirg'oqbo'yi xavfsizlik tizimlari

4. Aloqa va telekommunikatsiya infratuzilmasi

Zamonaviy jamiyatlar uchun axborot uzatish vositalari infratuzilmasi zarur:

Telefon, mobil aloqa, internet tarmoqlari

Pochta va logistik xizmatlar

Televizion va radio stansiyalar, kabel televideniyesi

Sun'iy yo'ldosh tizimlari va dengizosti aloqa kabellar.

5. Qattiq chiqindilarni boshqarish infratuzilmasi

Shaharsozlik va ekologik xavfsizlik uchun chiqindilarni boshqarish tizimi muhim rol o'ynaydi:

Maishiy va qayta ishlanadigan chiqindilarni yig'ish va saralash

Poligonlar, yoqish inshootlari, xavfli chiqindilarni utilizatsiya qilish stansiyalari

6. Monitoring va nazorat tizimlari

Tabiiy xavflar va atrof-muhit holatini nazorat qilish tizimlaridan iborat:

Meteorologik, seysmik va suv oqimlarini kuzatish stansiyalari
Global joylashuv tizimi (GPS), yoʻldosh kuzatuvlari
Geodeziya va geoaxborot tizimlari (GIS)

Yumshoq infratuzilma turlari

1. Boshqaruv va xavfsizlik tizimlari

Huquqni himoya qiluvchi organlar (politsiya, sud, prokuratura)
Tez yordam va favqulodda xizmatlar (oʻt oʻchirish, tibbiy xizmatlar)
Harbiy infratuzilma (armiya, harbiy aloqa tizimlari, strategik zahiralari)

2. Iqtisodiy infratuzilma

Banklar, sugʻurta kompaniyalari, fond birjalari
Biznes va sanoat logistika obyektlari (omborlar, erkin iqtisodiy zonalar)
Qishloq xoʻjaligi va baliqchilik infratuzilmalari

3. Ijtimoiy infratuzilma

Sogʻliqni saqlash tizimi (kasalxonalar, dorixonalar, sugʻurta tashkilotlari)
Taʼlim va ilmiy-tadqiqot muassasalari (maktablar, kollejlari, universitetlar)
Ijtimoiy himoya tizimlari (nafaqalar, davlat subsidiyalari)

4. Madaniy va hordiq infratuzilmasi

Sport inshootlari (stadionlar, sport markazlari)
Madaniyat markazlari (teatrlar, muzeylar, kutubxonalar)
Turizm va mehmonxona xizmatlari (dam olish maskanlari, restoranlar, kongress zallari)

Infratuzilma aktivlarini boshqarish (Infrastructure Asset Management)

Infratuzilma aktivlarini boshqarish – bu mavjud obyektlar (masalan, temiryoʻllar, yoʻllar, koʻpriklar, kanalizatsiya, suv tozalash inshootlari)ni uzoq muddatli, samarali va xavfsiz holatda saqlash uchun amalga oshiriladigan kompleks strategiyalar toʻplamidir. Bu jarayon infratuzilma resurslarining investitsiyaviy, texnik va xizmat koʻrsatish jihatidan eng maqbul darajada ishlatilishini taʼminlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda logistika global iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Zamonaviy xorijiy davlatlarda logistika faqatgina yuk tashish bilan cheklanmay, balki mahsulotlar harakatining har bir bosqichini puxta rejalashtirish, nazorat qilish va optimallashtirishni oʻz ichiga oladi. Bu soha mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari, ichki ishlab chiqarish jarayonlari va isteʼmol bozoriga xizmat qiladi.

Xalqaro logistikaning asosiy turlari:

Uchinchi tomon logistika (3PL – Third-Party Logistics)

Ushbu modelda korxonalar oʻz yuk tashish, saqlash va tarqatish kabi logistika funksiyalarini tashqi mutaxassislarga (logistika provayderlariga) topshiradi. 3PL kompaniyalari, odatda, transport xizmatlari, omborxona logistikasi, bojxona rasmiylashtiruv va tarqatish bilan shugʻullanadi. Bu yondashuv orqali ishlab chiqaruvchi

kompaniyalar logistika masalalariga resurs sarflamay, o'zlarining asosiy faoliyat sohalariga to'liq e'tibor qaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu model AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llaniladi.

Zaruratga qarab yetkazib berish (Just-in-Time, JIT)

Just-in-Time yondashuvi mahsulotlarni aniq kerakli vaqtda ishlab chiqarish va iste'molchiga yetkazib berishga asoslangan. Bu tizim ortiqcha ombor xarajatlarini kamaytiradi, zaxiralarni minimallashtiradi va ishlab chiqarish jarayonida tejamkorlikni oshiradi. Biroq, ta'minotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kechikishlar bu modelning zaif jihati sanaladi. Yaponiya avtomobil sanoati, ayniqsa Toyota, ushbu tizimni jahon miqyosida ommalashtirgan.

Markazlashtirilgan taqsimot modeli (Hub-and-Spoke)

Bu tizimda logistika jarayoni asosiy markaz (hub) orqali boshqariladi. Ya'ni, barcha mahsulotlar avval markaziy omborga yuboriladi, so'ngra u yerdan boshqa hududlarga tarqatiladi. Bunday markazlashtirish yuk tashish xarajatlarini optimallashtirishga, xizmat ko'rsatish tezligini oshirishga yordam beradi. AQSh va Yevropa davlatlarida katta logistika kompaniyalari aynan shu tizim orqali ishlaydi.

Ekologik yondashuv – yashil logistika

Global isish va ekologik muammolar ortib borayotgan bir paytda "yashil logistika" konsepsiyasi dolzarblik kasb etmoqda. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, elektromobillar, ekologik omborxona tizimlari, CO₂ chiqindilarini kamaytiruvchi tashish strategiyalari bu yo'nalishning asosiy yo'nalishlaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR: 1.

1. "O'zbekiston transport infratuzilmasining rivojlanishi va uning istiqbollari" (2023) — O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Toshkent.
2. "O'zbekiston temir yo'l tizimining bugungi holati va rivojlanish istiqbollari" (2022) — O'zbekiston temir yo'llari, Toshkent
3. Rustamov, D. (2020). *Transport va logistika infratuzilmasi*. Toshkent: Toshkent axborot texnologiyalari universiteti. Transport turlarini o'zimga kerak bo'lgan qismini keltirib o'tdim.
4. **Qo'ldoshev, A.** (2017). *Transport infratuzilmasi va uning rivojlanishi*. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish akademiyasi.

AVTOMOBIL TRANSPORTIGA ORTISH TUSHIRISH PAYTIDA TEXNIKA XAVFSIZLIGI

Muratov Rinat Nurgali o'g'li

Andijon davlat texnika insitituti. Transport va

Logistika yo'nalishi 4-kurs talabasi

@email: muratovrinatbek@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada avtomobil transportiga ortib tushirish paytida texnika xavfsizligi oshirish bo'yicha tahlil qilib chiqildi. Avtomobil transportida ortib tushirish jarayonida zamonaviy va xorijiy texnologiyalarning ahamiyati batafsil yoritib o'tildi. Mavzu doirasidan nazariy va amaliy bilimlarga yondashgan holda keltirib o'tilgan. Tadqiqot davomida omillarni jadvallar va statistik ma'lumotlar orqali tahlil qilish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: Xavfsizlik madaniyati, texnika xavfsizligi, qonuniy asoslar va meyoriy baza, innovatsion texnologiyalar, logistika tizimi, islohotlar, investitsiyalar, yuklarni turlari va xususiyatlari.

Kirish

Zamonaviy dunyoda transport tizimi iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, yuklarni tez va xavfsiz tashish muhim masala hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida avtomobil transporti yuk tashish hajmining katta qismini tashkil etadi. Biroq, transport faoliyati jarayonida eng xavfli bosqichlardan biri yuklarni ortish va tushirish operatsiyalaridir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, transport sohasidagi baxtsiz hodisalarning katta qismi aynan yuk ortish-tushirish jarayonlarida yuz beradi.

Texnika xavfsizligini ta'minlash nafaqat xodimlarning sog'ligi va hayotini himoya qilish, balki transport vositalarining uzoq muddatli xizmat qilishi, yuk sifatini saqlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun ham zarur. Shuning uchun har bir transport korxonasi va individual haydovchi ushbu sohada chuqur bilimga ega bo'lishi va amalda qo'llashi kerak.

Xavfsizlik madaniyatining asoslari

Transport xavfsizligi nafaqat qoidalar to'plamidan iborat emas, balki barcha ishtirokchilarning ongida shakllangan mas'uliyat hissi va xavfsizlik madaniyatidir. Ushbu madaniyat quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Birinchidan, har bir xodim o'z xavfsizligi va hamkasblarining xavfsizligi uchun shaxsiy javobgarlikni his qilishi kerak. Bu degani, har kim o'z ishini bajarishda nafaqat texnik ko'rsatmalarga rioya qilishi, balki atrofdagi odamlarning xavfsizligini ham hisobga olishi zarur.

Hozirgi kunda inson va tabiat munosabatlarini uygʻunlashtirish va tabiatga antropogen taʼsirni kamaytirish insoniyat xayoti uchun juda muhim masalaga aylandi. Eramizgacha 500 yil boʻlgan qadimgi Xitoy solnomalarida shunday bitik uchraydi: “Agar siz bir yil haqida fikrlasangiz – yerga urugʻ eking, agar 10 yil haqida qaygʻursangiz – daraxt eking, agar 100 yil haqida qaygʻurar ekansiz – insonni tarbiyalang”. Demak, har qanday

ezgulikka yo'naltirilgan ishimizda tarbiyaga e'tiborli bo'lishimiz qadimdan ta'kidlab kelingan.

Maktab ta'limidagi tabiiy fanlar o'quvchilarga dunyoning hozirgi ilmiy manzarasini ochib beradi. Shu bois tabiat haqidagi fanlar o'quvchi dunyoqarashining tabiiy-ilmiy asosini tashkil etadi. Fanlararo aloqadorlik o'quvchilarning umumlashgan ilmiy tushunchalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bilimlar integratsiyasi ta'limga o'zgacha yondashishni taqozo qiladi. Chunonchi, o'quv materialini umumlashgan tizimda bayon qilish, ta'lim-tarbiya jarayonida muammoli, modulli, shaxsga yo'nalgan texnologiyalardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Tabiiy fanlar uchun jonli va jonsiz tabiat tuzilishi, ulardagi energiya almashinuvi, ichki energiya haqidagi tushunchalar tizimi hisoblanadi. Biologiya, kimyo, fizika o'quv fanlarini birlashtiruvchi tushunchalar materiya, uning harakat shakllari, tashkiliy darajasi, hujayraviy tuzilishi muhim ahamiyatga ega. Bu fanlarni o'qitishda fanlararo aloqadorlikni tizimli amalga oshirish "Tabiat-inson-texnikajamiat" yaxlitligi o'quvchilarning anglab olishlariga zamin hozirlaydi. Buning asosida o'quvchilarda tabiat haqida tizimli va yaxlit tushuncha hosil bo'lib, unda hamma narsa o'zaro aloqadorlikda, shuningdek, modda va energiya aylanishi asosida o'z-o'zini doimiy yaratishi va takomillashtirish jarayonlarini amalga oshiradi. Demak, Yerdagi hayot uchun normal biofizik va biokimyoviy sharoit saqlanadi. Shu asosda fanlararo aloqadorlik ta'lim jarayonida hozirgi zamon fanlarida yuz berayotgan xususiyatlar: integratsiya, ijtimoiylashuv, insonparvarlashuvlarning mazmun-mohiyatini tushunishga zamin tayyorlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ong, ekologik tafakkur va ekologik madaniyatni shakllantirishda xulq-atvor sifatlarining shakllanishi va mustahkamlanishida muhim o'rin tutuvchi boshlang'ich ta'lim muayyan imkoniyatlarga ega. Shu sababli boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarni O'rta Osiyo mutafakkirlarining ekologik qarashlari bilan tanishtirishga e'tiborning qaratilishi ijobiy natijalarni beradi. O'quvchilar ongida O'rta Osiyo buyuk mutafakkirlarining ekologik meroslariga asoslangan bilimlarni hosil qilish ularda atrof-muhitga, tabiatga mas'uliyatli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini tarbiyalaydi.

XULOSA. Bolalarga biologiya, tabiatshunoslik fanlaridan bilim berishda, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda xilma-xil zamonaviy metod, usullardan foydalanish yuqori natija beradi. Ayniqsa, darslarni interfaol usullarda tashkil etish, integrasion ta'lim texnologiyalardan foydalanish o'qituvchidan ko'p mehnat talab qilsa-da, o'quvchilarni aniq, tez, lo'nda javob berish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, ijodiy faoliyatga yo'naltiradi.

Ta'lim muassasalarining har bir bosqichida tabiatni asrash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish to'g'risida nazariy bilim va ko'nikmalar paydo qilinsada, buni amaliyotda, jamiyat a'zolari orasida qo'llanmasa bu o'zining samarasiga ega bo'lmaydi. Buning uchun har bir mahoratli pedagog oila, mahalla va maktab hamkorligini to'g'ri

yo'lga qo'yishi lozim. Shunda o'quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishga ega bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bo'rieva M. Yoshlarda tabiatni muhofaza qilish hissini tarbiyalash //Xalq ta'limi. – Toshkent. – 1992. -2-son. 260-b.
2. Suyarov K. va boshqalar. Tabiiy fanlar.-2-sinf uchun darslik. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.- 120 b.
3. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich sinflarda fanlararo ekologik tarbiya. Zamonaviy ta'lim. - 2018. 11-son. - B. 558.
4. Mamanazarovna, D. M., & Ergashovna, J. B. (2024, February). Boshlangich sinflarda tabiiy fanlar darslarida amaliy ishlarni tashkil etishning metodik asoslari. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 2, pp. 138-141
5. Matkarimov, J. S. (2024). PREZI SAYTIDA TAQDIMOT TAYYORLASHNING DASTLABKI TUSHUNCHALARIGA OID. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(12), 42-46.
6. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG 'ULOTLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI DASTURLARINI QO 'LLASH.
7. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG 'ULOTLARIDA ZAMONAVIY KOMPYUTER DASTURLARINI QO 'LLASH.
8. Solaydinovich, M. J. (2024). THE VIEWS OF UZBEK AND FOREIGN SCIENTISTS ON THE FORMATION OF NATURAL SCIENCES. Multidisciplinary and Multidimensional Journal, 3(3), 44-48.

HAYVONOT OLAMINING XILMA-XILLIGI

***Latipova Xulkaroy, Yusupova Moxinabonu,
Mirzamatova Dilobar, Qosimova Mohiraxon,
Rahimova Hilola,***

*Andijon davlat pedagogika instituti
pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
305- guruh talabalari*

ANNOTATSIYA

Hayvonlar dunyosi biologik xilma-xilligining muhim qismini tashkil etuvchi tirik organizmlardir. Ushbu maqolada biz hayvonot dunyosining umumiy xususiyatlarini, uning xilma-xilligi va ekotizimlardagi ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: hayvon, biologik xilma-xillik, ko'p hujayralilik, organism, anatomik tuzilma, geterotrof oziqlanish, sutemizuvchilar, sudralib yuruvchilar.

АННОТАЦИЯ

Животные живые организмы, составляющие важную часть биоразнообразия животного мира. В данной статье мы рассмотрим общую характеристику животного мира, его разнообразие и значение в экосистемах.

Ключевые слова: животное, биоразнообразие, многоклеточность, организм, анатомическое строение, гетеротрофное питание, млекопитающие, рептилии.

ANNOTATION

Animals are living organisms that make up an important part of the biodiversity of the animal world. In this article, we will consider the general characteristics of the animal world, its diversity and importance in ecosystems.

Keywords: animal, biodiversity, multicellularity, organism, anatomical structure, heterotrophic nutrition, mammals, reptiles.

KIRISH. Hayvonlar, hayvonot dunyosi — organik olam sistemasidagi yirik bo'limlardan biri. Hayvonlarning bundan 1-1,5 milliard yil ilgari okean suvida mikroskopik, xlorofillsiz amyobasimon xivchinlilar shaklida paydo bo'lganligi taxmin qilinadi. Hayvonlarning eng qadimgi qazilma qoldiqlari yoshi 0,8 milliard yildan oshmaydi. Ko'p hujayrali hayvonlar — bo'shliqchlilar, chuvalchanglar, tuban bo'g'im-oyoqlilarning dastlabki qoldiqlari so'nggi kembriy qatlamlaridan boshlab (mil.dan 690-570 million yil avval) uchraydi. Kembriy davri boshlarida (mil.dan 570-490 million yil avval) tashqi mineral skeletli (chig'anoqli yoki xitinli) dengiz umurtqasizlarining ko'pchilik guruxlari (trilobitalar, jabraoyoqlilar, mollyuskalar, arxeotsiatlar) rivojlangan.

Hayvonlar — geterotrof organizmlar, ya'ni ular tayyor organik moddalar bilan oziqlanadi. Hayvonlarda metabolism faol kechishi tufayli ularning o'sishi cheklangan.

Evolyutsiya jarayonida har xil organlar funksional sistemasi: muskul, ayirish, nafas olish, qon aylanish, jinsiy va nerv sistemalarining shakllanishi hayvonlar uchun xos bo'lgan eng muhim xususiyatlardan hisoblanadi. Hayvonlar hujayrasi qattiq selluloza qobiqning bo'lishi bilan o'simliklardan farq qiladi. Biroq hayvonlar bilan o'simliklar o'rtasidagi farq nisbiy.

Hayvonlar biologik resurslarning ajralmas bir qismi bo'lib, tabiatda moddalar va energiya almashinuvida muhim rol o'ynaydi. Hayvonlar o'simliklar bilan uzviy aloqada bo'lib, geografik qobiqda kimyoviy elementlarning migrasiyada qatnashadi. Hayvonlar o'simliklar tomonidan quyosh nuri ta'sirida hosil qilgan organik moddalar va bir-birlari bilan oziqlanib, biologik hamda tabiatda moddalarning almashinuvida ishtirok etadi. Yirik mavjudotlarning bir-biri bo'lgan ozuqa aloqasi – bu energiyaning bir organizmdan ikkinchi organizmga o'tkazuvchi mexanizmdir.

Hayvonlar eukariotik organizmlar tipi animalliaga tegishli. Bu mavjudotlar harakatlanish, ko'p hujayralilik, geterotrof oziqlanish va asosan jinsiy ko'payish kabi umumiy xususiyatlarga ega. Hayvonlar turli xil anatomik tuzilmalar, yashash joylari va xatti-harakatlari bilan juda xilma-xillikni namoyish etadilar.

Hayvonlarning xususiyatlari.

1. Ko'p hujayralilik: Hayvonlar bir nechta hujayradan tashkil topgan ko'p hujayrali organizmlardir. Hujayralar turli tuzilish va funktsiyalarga ega bo'lishi mumkin, bu organizmga murakkab tuzilish beradi.

2. Harakat qilish qobiliyati: Hayvonlar odatda harakat qilish qobiliyatiga ega. Har xil turdagi hayvonlar turli xil harakat usullaridan foydalanadilar. Ba'zilar yurish, yugurish yoki suzish kabi harakatlar bilan harakat qilishadi, boshqalari esa uchish yoki emaklash kabi turli usullarni afzal ko'radilar.

3. Geterotrof oziqlanish: Hayvonlar o'zlari oziq-ovqat ishlab chiqara olmaydilar va ular tashqaridan organik moddalar olib oziqlanadilar. Ular ovqatni hazm qiladi va energiya bilan ta'minlash uchun foydalanadi. Oziq-ovqat manbalari o'simliklar, boshqa hayvonlar yoki hatto o'lik organik moddalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Hayvonlarning xilma-xilligi. Hayvonlar aql bovar qilmaydigan xilma-xillikka ega. Dengizlarda, quruqlikda va havoda yashaydigan ko'plab hayvonlar turlari mavjud. Ular sudralib yuruvchilar, qushlar, sutemizuvchilar, baliqlar, hasharotlar va umurtqasizlar kabi turli guruhlariga bo'lingan. Har bir guruh o'ziga xos xususiyatlarga, moslashishga va yashash joylariga ega bo'lgan ko'plab turlarni o'z ichiga oladi.

Hayvonlar ekotizimlarda va tabiiy muvozanatni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Oziq-ovqat zanjirining bir qismi sifatida ular boshqa organizmlar uchun oziq-ovqat manbalari bo'lib, o'simliklar populyatsiyasini nazorat qilishda samaralidir. Shuningdek, ba'zi hayvonlar o'simliklarni changlatish orqali o'simliklarning ko'payishiga yordam beradi.

Odamlar uchun hayvonlar ham muhimdir. Ko'pgina hayvonlar turlari oziq-ovqat, to'qimachilik, dori-darmonlar va uy hayvonlari sifatida ishlatiladi. Tabiatning bir qismi sifatida hayvonlar odamlarning hayot sifatini yaxshilaydi va iqtisodiy ahamiyatga ega.

XULOSA. Hayvonlar tabiatdagi biologik xilma-xillikning muhim qismidir. Ular ko'p hujayralilik, harakatlanish va geterotrof oziqlanish kabi xususiyatlarga ega. Hayvonlar xilma-xilligi va ekotizimlardagi roli bilan tabiiy dunyoning ajralmas qismidir. Ular tabiatda ham, odamlar uchun ham muhim ahamiyatga ega va ekotizimlar muvozanatini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Amirqulov N. Umumiy ekologiya. Toshkent, 2002 y.
2. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish. Toshkent, 1991 y.
3. To'raqulov Yo.H. va boshqalar. Umumiy biologiya. Toshkent, 1996 y.
4. Hamdamov I.H. Tabiat ilmining zamonaviy konsepsiyasi. Ma'ruza matni. Samarqand, 2000 y.
5. Matkarimov, J. S. (2024). PREZI SAYTIDA TAQDIMOT TAYYORLASHNING DASTLABKI TUSHUNCHALARIGA OID. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(12), 42-46.
6. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG 'ULOTLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI DASTURLARINI QO 'LLASH.
7. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG 'ULOTLARIDA ZAMONAVIY KOMPYUTER DASTURLARINI QO 'LLASH.
8. Solaydinovich, M. J. (2024). THE VIEWS OF UZBEK AND FOREIGN SCIENTISTS ON THE FORMATION OF NATURAL SCIENCES. Multidisciplinary and Multidimensional Journal, 3(3), 44-48.
9. www.arxiv.uz
10. www.wikipedia.org

BOSHLANG'ICH SINFLARDA QUYOSH SISTEMASI

*Rustamjonova Asila, Karimjonova Husnigul,
Shokirova Maftuna, Karimova Nodira,
Andijon davlat pedagogika instituti
pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
305- guruh talabalari
Matkarimov Joxongir Solaydinovich,
Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Uchar likopcha va boshqa olamlardan kelgan o'zga sayyoraliklar haqida eshitgan bo'lsangiz kerak. Bunday xabarlarining haqiqatga yaqinligi shubha ostiga olinsa-da, ammo bunday hodisalar ehtimoli shubhasizdir.

Ushbu maqolada quyosh sistemasi va boshlang'ich sinf o'quvchilariga quyosh sistemasi haqida tushunchalarini berish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: sayyora, quyosh, quyosh tizimi, asteriod, kometalar, meteor, yulduz, koinot.

АННОТАЦИЯ

Вы, вероятно, слышали о летающих тарелках и пришельцах из других миров. Хотя достоверность таких сообщений подвергается сомнению, возможность таких событий неоспорима.

В этой статье обсуждается Солнечная система и то, как дать ученикам начальной школы представление о Солнечной системе.

Ключевые слова: планета, солнце, Солнечная система, астероид, кометы, метеор, звезда, вселенная.

ANNOTATION

You have probably heard about flying saucers and aliens from other worlds. Although the veracity of such reports is questioned, the possibility of such events is undeniable.

This article discusses the solar system and how to give elementary school students an understanding of the solar system.

Keywords: planet, sun, solar system, asteroid, comets, meteor, star, universe.

KIRISH. Gap shundaki, Quyosh tizimi biznikiga o'xshash, millionlab boshqa shunday tizimlar mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan, ulkan koinotning atigi zarradek bir qismidir. Quyosh tizimi tushunchasi quyosh va uning tortishish ta'siri ostida uning atrofida aylanadigan barcha jismlarni o'z ichiga oladi. Bunday tizim Quyoshning tortishish kuchi ta'siridagi sayyora, sun'iy yo'ldosh, asteroid va kometalardan iborat.

Yer jami to'qqizta sayyoradan biridir. Sayyoralar o'lchami va boshqa ko'plab parametrlari bo'yicha bir-biridan juda farq qiladi hamda Quyoshdan turli masofalarda joylashgan.

Merkuriy eng kichik va Quyoshga eng yaqin sayyoradir. U Quyosh atrofida atigi 88 kun ichida to'liq aylanib chiqadi.

Undan keyin Quyoshdan 108 million kilometr uzoqlikda joylashgan va uning atrofida 225 kun ichida aylanib chiqadigan Venera turadi.

Yer Quyoshdan uzoqligi bo'yicha uchinchi sayyora bo'lib, undan 149,5 million kilometrlik masofada joylashgan.

Keyin Quyoshdan taxminan 228 million km uzoqlikda joylashgan Mars keladi va uning aylanish davri 687 kunni tashkil etadi. Navbatdagisi Quyosh tizimining eng katta sayyorasi Yupiter bo'lib, u to'liq aylanishni deyarli 12 yil ichida, undan keyingi Saturn esa 29,5 yil ichida amalga oshiradi.

Oxirgi uchta sayyora — Uran, Neptun va Pluton Quyoshdan shunchalik uzoqki, ularni hatto oddiy ko'z bilan ko'rib ham bo'lmaydi.

Quyosh fazodagi son-sanoqsiz yulduzlarning biri bo'lib, yulduzlar to'plami - galaktika jismlaridan hisoblanadi. Olamda mavjud barcha koinot sistemalari singari quyosh sistemasi ham o'z doirasiga ega. U Quyosh va Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun, Pluton va ulardan bir necha o'n ming marta kichik sayyoralar (asteriod)dan, kometalar, meteor jismlardan tarkib topgan. Katta-kichikligi, Quyoshdan uzoq-yaqinligi, Quyosh atrofini bir marta aylanib chiqishga ketgan vaqt, ulardagi bir sutka qancha vaqt davom etishi bilan ham bir-biridan farq qiladi.

Sistema tarkibidagi barcha planetalar quyosh atrofida aylanadi. Quyosh o'z o'qi atrofida 24 soatda bir marta aylanadi. Sayyoralar va ularning yo'ldoshlarini quyosh atrofida aylanishi tabiatning umumiy qonuniyatlari asosida sodir bo'ladi. Quyosh gaz holidagi o'ta qizigan jismdan iborat bo'lib, uning diametri 1 mln. 391 ming kilometr ga teng. Quyosh sistemasi tarkibiga kiradigan planetalar o'rtasida quyosh nihoyatda katta va u quyosh sistemasi umumiy massasini 99,86 foizini tashkil etadi. Sistema tarkibidagi eng katta sayyora Yupiter quyosh sistemasi umumiy massasining 0,093 foiziga to'g'ri keladi.

Boshlang'ich ta'lim - bu yosh ongni koinot mo'jizalari bilan tanishtirishning hal qiluvchi bosqichidir. Ushbu bosqichda Yer va Quyosh tizimi tushunchalarini o'rgatish fundamental ilmiy tamoyillarni tushunish uchun asos yaratadi va kosmosga qiziqish tuyg'usini uyg'otadi. Ushbu maqolada biz o'qituvchilarga ushbu tushunchalarni qiziqarli va tushunarli tarzda etkazish uchun samarali strategiyalarni ko'rib chiqamiz.

Atrofidagi dunyoga tabiiy qiziqishga ega, bu Yer va Quyosh tizimi bilan bog'liq tushunchalarni tanishtirish uchun qulay vaqt. Biroq, o'qituvchilar o'zlarining o'qitish usullarini yosh auditoriyaning rivojlanish bosqichi va kognitiv qobiliyatlariga moslashtirishlari kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga Yer va Quyosh sistemasi haqidagi bilimlarni o'rgatishda amaliy mashg'ulotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Quyosh tizimining masshtabli modellarini yaratishdan tortib, oddiy materiallar yordamida sayyora orbitalarini simulyatsiya qilishgacha, amaliy tajribalar nafaqat o'rganishni qiziqarli qiladi, balki tushunchalarni yaxshiroq tushunish va saqlashni osonlashtiradi.

XULOSA. Boshlang'ich ta'limda yer va quyosh tizimi tushunchalarini o'rgatish shunchaki faktlarni berish emas, balki kashfiyot va kashfiyotga bo'lgan ishtiyoqni yoqishdir. Amaliy ta'lim, ko'rgazmali qurollar, hikoyalar, ochiq havoda tajribalar, fanlararo yondashuvlar va qiziqishga asoslangan tadqiqotga e'tibor berish orqali o'qitish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Sharipova, D.P.Xodiyeva, M.K.Shirinov Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Darslik Toshkent 2018-yil
2. Nuriddinova M.I. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi". Toshkent: Cho'lpon. 2005 yil.
3. D.Yormatova, Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi. Toshkent: "Aloqachi" nashriyoti, 2008. 312 bet.
4. Astronomiya 11-sinf darslik / Mamadazimov M/ Toshkent 2018 yil.
5. Matkarimov, J. S. (2024). PREZI SAYTIDA TAQDIMOT TAYYORLASHNING DASTLABKI TUSHUNCHALARIGA OID. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(12), 42-46.
6. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG'ULOTLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI DASTURLARINI QO'LLASH.
7. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG'ULOTLARIDA ZAMONAVIY KOMPYUTER DASTURLARINI QO'LLASH.
8. Solaydinovich, M. J. (2024). THE VIEWS OF UZBEK AND FOREIGN SCIENTISTS ON THE FORMATION OF NATURAL SCIENCES. Multidisciplinary and Multidimensional Journal, 3(3), 44-48.

GIDROSFERA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT. DUNYO OKEANLARI.

To'ychiyeva Dilnoza, Shabbozova Zarnigorbibi,

Alijonova Zuhaxon, Xamidova Muhlisa

Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich 305-guruh talabalari

Matkarimov Joxongir Solaydinovich

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gidrosfera tushunchasi, uning tarkibi, Yer yuzasidagi suvlarning taqsimlanishi va ahamiyati yoritilgan. Gidrosferaning inson hayoti, iqlim, biologik muhit va global ekologik jarayonlardagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, gidrosferani muhofaza qilish zarurati va suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalari ham ko'rib chiqilgan. Maqola o'quvchilarga gidrosfera haqida umumiy bilim berish hamda ekologik ongni shakllantirishga xizmat qiladi.

Annotation: This article provides an overview of the concept of the hydrosphere, its composition, the distribution of water on Earth, and its significance. It analyzes the role of the hydrosphere in human life, climate regulation, the biological environment, and global ecological processes. The article also addresses the importance of protecting the hydrosphere and the rational use of water resources. It aims to provide readers with general knowledge about the hydrosphere and promote environmental awareness.

Аннотация: В статье дается обзор концепции гидросферы, ее состава, распределения воды на Земле и ее значения. В ней анализируется роль гидросферы в жизни человека, регулировании климата, биологической среде и глобальных экологических процессах. В статье также рассматривается важность защиты гидросферы и рационального использования водных ресурсов. Она направлена на предоставление читателям общих знаний о гидросфере и повышение экологической осведомленности.

Kalit so'zlar: gidrosfera, iqlim ,dunyo okeanlari, Yer , suv , Yer sharida sunning aylanishi,dunyo okeaning tabiiy resurslari, global,ekologiya, suv resurslari.

Gidrosfera- bu Yer yuzasida mavjud bo'lgan barcha suvning umumiy nomlanishi, jumladan, okeanlar, dengizlar, daryolar, ko'llar, muzliklar, nam tuproqlar va yer osti suvlar. Gidrosfera Yerning muhim qismi bo'lib, hayot uchun zarur bo'lgan suv resurslarini tashkil qiladi. U okeanlar, dengizlar, daryolar, ko'llar, yer osti suvlari, muzliklar va atmosfera bug'laridan tashkil topgan. Gidrosfera Yer yuzasining qariyb 71 foizini egallaydi va hayotning mavjud bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Gidrosferaning tarkibi: Gidrosferadagi suvlarning katta qismi — taxminan 97,5 foizi sho'r suv bo'lib, asosan okean va dengizlarda joylashgan. Qolgan 2,5 foizi chuchuk

suv hisoblanadi. Ammo bu chuchuk suvlarning ham asosiy qismi muzliklarda (taxminan 69%) va yer ostida (taxminan 30%) jamlangan. Faqatgina 1% chuchuk suv daryolar, ko'llar va atmosferada mavjud bo'lib, insonlar va tirik organizmlar uchun bevosita foydalanishga yaroqlidir.

Gidrosferaning roli. Gidrosfera turli biologik, fizik va kimyoviy jarayonlarda faol ishtirok etadi:

Iqlimga ta'siri: Suv bug'lanishi va yog'in-shamol jarayonlari global iqlim tizimining ajralmas qismlaridir.

Tiriklik uchun zarurlik: Barcha tirik organizmlar suvga muhtoj. Suv moddalar almashinuvi, oziqlanish va yashash uchun asosiy manbadir.

Yer yuzasining shakllanishi: Daryo va yomg'ir suvlari tog'larni yemirib, vodiy va tekisliklar hosil qiladi.

Inson faoliyati: Qishloq xo'jaligi, sanoat, energetika va ichimlik suvi bilan ta'minlashda gidrosferaning ahamiyati beqiyos.

Gidrosferani muhofaza qilish zarurati. Zamonaviy davrda gidrosferaga inson faoliyati sababli katta zarar yetmoqda. Suv resurslarining ifloslanishi, ortiqcha foydalanish, plastik chiqindilar va global isish oqibatida gidrosfera muvozanati buzilmoqda. Shu sababli, suv resurslarini tejash, qayta ishlash va tabiiy muhitni muhofaza qilish dolzarb masalaga aylangan.

Dunyo okeanlari — Yer sayyorasining eng katta va eng muhim tabiiy resurslaridan biridir. Ular sayyoramiz yuzasining qariyb 71 foizini egallaydi va global iqlimni boshqarishda, kislorod ishlab chiqarishda hamda biologik xilma-xillikni ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Okeanlar nafaqat tabiiy go'zallik va boylik manbai, balki insoniyat hayoti uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Okeanlarning tasnifi. Dunyo bo'yicha beshta asosiy okean mavjud:

1. Tinch okeani – Yer yuzidagi eng katta va eng chuqur okean. U Osiyo, Avstraliya, Amerika va Antarktida bilan chegaradosh.

2. Atlantika okeani – Ikkinchi eng katta okean bo'lib, Yevropa va Afrikani Amerikadan ajratib turadi.

3. Hind okeani – Asosan janubiy Osiyo, Afrika va Avstraliya bilan chegaradosh bo'lib, issiq suvlariga ega.

4. Shimoliy Muz okeani – Yer yuzidagi eng kichik va eng sovuq okean. U asosan muzlar bilan qoplangan.

5. Janubiy (Antarktika) okeani – Antarktida atrofini o'rab turgan, nisbatan yaqinda rasman okean sifatida e'tirof etilgan suv havzasi.

Okeanlarning ahamiyati.

1. Iqlimni tartibga solish – Okeanlar quyosh energiyasini yutib, issiqlikni saqlaydi va global iqlimni barqarorlashtiradi.

2. Biologik xilma-xillik – Okeanlar millionlab tirik organizmlar, shu jumladan baliqlar, dengiz sutemizuvchilari, o‘simliklar va planktonlar yashash joyidir.

3. Kislorod manbai – Okeanlardagi fitoplanktonlar fotosintez orqali kislorod ishlab chiqaradi, bu esa insoniyat uchun zarur.

4. Transport va savdo – Deyarli barcha xalqaro savdo yuklarining asosiy qismi okeanlar orqali amalga oshiriladi.

5. Turizm va dam olish – Ko‘plab sohilbo‘yi hududlar sayyohlarni jalb etuvchi maskanlarga aylangan.

Ekologik muammolar.Afsuski, okeanlar bugungi kunda bir qator ekologik muammolarga duch kelmoqda:

Plastik ifloslanish – Har yili millionlab tonna plastik chiqindilar okeanlarga tushadi. Iqlim o‘zgarishi – Okean suvlari isiydi va kislorod darajasi kamaymoqda. Neft to‘kilishi – Dengizdagi texnogen avariylar natijasida okeanlar ifloslanadi. Biologik resurslarning kamayishi – Haddan tashqari baliq ovlash natijasida dengiz hayvonlari soni keskin kamaymoqda.

Xulosa.Gidrosfera — hayot manbai va sayyoramizdagi eng muhim tabiiy tizimlardan biridir. Uning tabiiy holatini saqlash va undan oqilona foydalanish bugungi va kelajak avlodlar uchun zarur. Har bir inson suvning ahamiyatini chuqur tushunib, tabiatni asrashga o‘z hissasini qo‘shmog‘i lozim. Dunyo okeanlari insoniyat hayoti, global ekotizim va sayyoramiz iqlimi uchun beqiyos ahamiyatga ega. Ularni asrash, muhofaza qilish va barqaror foydalanish har bir insonning vazifasidir. Zero, okeanlar sog‘lom bo‘lsa — Yer sayyorasi ham sog‘lom bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев Н.А., Рахматов А.Р. Жаҳон табиий ресурслари ва экологик муаммолар. – Тошкент: «Fan va texnologiya», 2018.
2. Хожиев Ш. Экология асослари. – Тошкент: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, 2019.
3. Giesen, W. et al. Hydrosphere and the Environment. – Springer Science & Business Media, 2013.
4. U.S. Geological Survey (USGS). The Water Cycle (Hydrologic Cycle). – <https://www.usgs.gov>
5. Gleick, P.H. Water in Crisis: A Guide to the World's Fresh Water Resources. – Oxford University Press, 1993.
6. Алиев А. Жамият ва табиат ўртасидаги мувозанат. – Самарқанд: «Зарқалам», 2020.
7. Hasanov, I. (2020). Tabiiy geografiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
8. National Geographic Society. (2023). Oceans. <https://www.nationalgeographic.org/encyclopedia/ocean/>

9. World Ocean Review. (2021). Living with the oceans – A report on the state of the world's oceans. <https://worldoceanreview.com>
10. NOAA (National Oceanic and Atmospheric Administration). (2022). Ocean Facts. <https://oceanservice.noaa.gov/facts/>
11. Anderson, J. (2019). Introduction to Oceanography. OpenStax CNX.
12. Matkarimov, J. S. (2024). PREZI SAYTIDA TAQDIMOT TAYYORLASHNING DASTLABKI TUSHUNCHALARIGA OID. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(12), 42-46.
13. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG 'ULOTLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI DASTURLARINI QO 'LLASH.
14. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG 'ULOTLARIDA ZAMONAVIY KOMPYUTER DASTURLARINI QO 'LLASH.
15. Solaydinovich, M. J. (2024). THE VIEWS OF UZBEK AND FOREIGN SCIENTISTS ON THE FORMATION OF NATURAL SCIENCES. Multidisciplinary and Multidimensional Journal, 3(3), 44-48.

O‘SIMLIKLAR DUNYOSI. NOYOB O‘SIMLIKLARNING YO‘Q BO‘LIB KETISHIGA SABAB

*Tilavoldiyeva Sarvinozxon, Qaxxorova Diyoraxon,
Yoqubova Husnidaxon, Mo‘minova Fotimaxon*

*Andijon davlat pedagogika instituti
pedagogika fakulteti boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi
305- guruh talabalari*

*Matkarimov Joxongir Solaydinovich,
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA

Keyingi vaqtlarda tabiatda turli tabiiy va antropogen jarayonlarning keng miqyosda rivojlanishi munosabati bilan tabiatdan foydalanish mexanizmi yanada chuqurroq va atroflicha tahlil qilina boshlandi.

Ushbu maqolda o‘simliklar dunyosi va o‘simliklar hamda noyob o‘simliklarning yo‘q bo‘lib ketishiga bo‘layotgan sabablar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘simlik, tabiat, antropogen jarayon, kislorod, fotosintez, flora, sintez.

АННОТАЦИЯ

В последнее время в связи с масштабным развитием различных естественных и антропогенных процессов в природе все глубже и всесторонне стал анализироваться механизм природопользования.

В данной статье рассматривается растительный мир и причины исчезновения растений и редких растений.

Ключевые слова: растение, природа, антропогенный процесс, кислород, фотосинтез, флора, синтез.

ANNOTATION

In recent times, in connection with the large-scale development of various natural and anthropogenic processes in nature, the mechanism of using nature has begun to be analyzed more deeply and comprehensively.

This article discusses the plant world and the reasons for the extinction of plants and rare plants.

Keywords: plant, nature, anthropogenic process, oxygen, photosynthesis, flora, synthesis.

KIRISH. O‘simliklar dunyosi yerdagi hayotning birlamchi manbaidir. Ular yiliga 380 mlrd. tonna organik modda hosil qiladi, buning 325 mlrd. tonna dengiz va okean o‘simliklaiga, 38 mlrd. tonna o‘rmonlarga, 6 mlrd. tonna o‘tloqlarga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari o‘simliklar, ya‘ni yashil o‘simliklar tufayli fotosintez jarayoni ro‘y beradi,

Yerdagi hayotning yashashi uchun zarur bo'lgan kislorodni ishlab beradi. Agar fotosintez jarayoni bo'lmasa, havodagi karbonat angidridning miqdori ko'payib kishilar va hayvonlar nobud bo'lar edi. Biroq atmosferadan, suv yuzasidan va tuproqdan kelayotgan o'sha SO₂ gazi o'simliklar tomonidan yutilib, fotosintez natijasida yashil o'simliklar atrofga kislorodni chiqarib turadi. Shunday qilib, fotosintez orqali yer sharidagi suv 5,8 mln. yilda, atmosferadagi kislorod 5800 yilda, SO₂ 7 yilda bir marta yangilanib turadi.

Insonning kundalik hayotida o'simliklarning ahamiyati juda katta. Chunki o'simliklar muhim tabiiy geografik omil sifatida yer yuzasida suv oqimiga, bug'lanishga, tuproqda nam saqlashga, atmosferaning quyi qismidagi havo oqimiga, shamol kuchi va yo'nalishiga, hayvonlarning hayotiga ham ta'sir etadi.

O'simliklar shahar, qishloq mikroiklimiga ta'sir etib, havosini tozalab, uni kislorod bilan boyitib turuvchi sanitarlik vazifasini bajaradi.

O'simliklardan har xil kiyim bosh, ichimliklar tayyorlashda keng foydalaniladi. O'simliklar chorva mollari uchun asosiy ozuqa manbai, insonlarsha estetik zavq beradi.

O'simliklar jamiyat uchun (agar undan oqilona foydalanib, muhofaza qilib, kayta tiklab turilsa) behisob oziq-ovqat manbai, texnika xom ashyosi, tibbiyotda dori-darmon tayyorlash, qurilish va boshqa sohalar uchun, qurilish va boshqa sohalar uchun hom ashyo resursidir.

O'simliklar – bu qayta tiklash mumkin bo'lgan tabiiy resurs hisoblanib, yer shari geografik qobig'ida muhim rol o'ynaydi. Chunki o'simliklar sayyoramiz yuzasining qoplab olib, tuproq hosildorligini oshirishda, atmosferani toza saqlashda, daryolarning gidrologik rejimini tartibga solib turishda, inson va hayvonot dunyosi uchun ozuqa moddalar yetkazib berishda va inson hayoti uchun normal gigiyenik sharoit yaratishda muhim vazifani bajaradi.

Yer sharida o'simliklar turi juda ko'p bo'lib, ularning juda oz qismidan kishilar xo'jalik faoliyatlarida foydalanmoqdalar. Yer sharidagi 300 ming o'simlik turidan faqat 6000 turini inson kundalik hayotida foydalansa, shuning 1500 turi esa dorivor o'simliklarga to'g'ri keladi.

O'zbekiston o'simliklar dunyosi xilma-xil bo'lib, xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika institutida olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, o'lkada 166 oilaga mansub 4500 ga yaqin yuksak o'simlik turlari borligi ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston florasida paydo bo'lishi, tarqalishi, tur, turkum va oilalarining umumiy o'xshashligi jihatidan Markaziy Osiyodagi boshqa mamlakatlar, xususan, Eron, Afg'oniston o'simliklar dunyosiga juda yaqin turadi. O'zbekiston florasida uzoq tarixga ega. Paleobotanik tadqiqotlar respublika xududida quruqlikdagi yuksak o'simliklarning (ksilofitlardan tortib) barcha evolyutsion davrlarga oid o'simlik qoldiqlari borligini ko'rsatdi. Hatto hozirgi Qizilqum cho'llaridan bir vaqtlar bu yerlarda o'sgan xurmo, chinor, terak kabi daraxt va butalarning qoldiqlari topilgan.

O'zbekistonda o'simliklar o'smaydigan joy yo'q.

Ularni tekislikdagi qumli cho'llardan tortib, qorli baland tog'largacha bo'lgan turli rel'yef va tuproq sharoitida uchratish mumkin. O'zbekiston o'simliklarning tarqalishini yoritish uchun tavsiya etilgan 4 tik mintaqa asos qilib olindi. Har bir mintaqa o'ziga xos rel'yef, iqlim, tuproq va o'simliklar dunyosiga ega.

Ayni vaqtda sayyoramizda o'simliklar 350 baravar tez yo'qolib bormoqda.

Tadqiqot doirasida Avstraliya, Ispaniya, AQSh, Fransiya va JAR yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari botaniklari o'simlik turlarining asosiy yo'qolish sabablarini o'rganishdi.

Unda sayyoramizning bioxilma-xillik nuqtai nazaridan boy va kambag'al hududlaridagi yo'qolayotgan turlar tekshirildi. Dunyoning bio xilma-xillik yuqori bo'lgan hududlarida o'simliklar turi yo'qolib ketmoqda va bu jarayon jadalroq kechmoqda.

«O'simlik turlarining yo'qolishi ekotizim uchun halokatli oqibatlariga, o'simlik turlari bilan bog'liq hasharot va boshqa tirik organizmlarning qirilib ketishiga olib keladi», — deya noxush xulosa chiqargan olimlar.

«Current Biology» jurnalida chop etilgan maqolada tadqiqotchilar shunday xulosa chiqarishadi: bunday qirilib ketishga atrof-muhit, jumladan, sayyoramiz hayotining zamonaviy bosqichlarida qishloq xo'jaligi va urbanizatsiya buzilishlari sabab bo'lmoqda.

Hozirgi kunda O'zbekiston yoki uning boshqa hududlarida kamyob, yo'qolib borayotgan, endem va muhofaza chora-tadbirlariga muhtoj bo'lgan o'simlik turlarini saqlab qolishning yangi usullari va mexanizmlari ustida yangi zamonaviy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlarning bir qismi ayrim tabiiy-geografik hududlarning floristik tarkibini o'rganish, floralarning yangi zamonaviy konspektini tuzishga qaratilgan bo'lsa, qolgan qismi flora tarkibidagi kamyob va yo'qolib borayotgan turlar populyatsiyalarining zamonaviy holatini aniqlashga va ularni muhofaza etish chora tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Keyingi paytda rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri alohida ahamiyatga ega botanik hududlarni tanlash va ularda izlanishlar olib borish keng ko'lam yozib bormoqda. Bunday hududlar alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, ya'ni oddiy qilib aytganda qo'riqxonalaridan farq qilishi mumkin. Ular ekologik balansni ushlab turishda, qo'riqxonalar qamrab olmagan hududlardagi kamyob, endem va yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvon turlarini saqlab qolishda va shu orqali mahalliy bioxilma-xillikdagi yo'qolishlarni oldini olishga ham xizmat qiladi.

XULOSA. Aholining tabiatga noto'g'ri munosabati ham o'simliklarning kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda qizil lola, sallagul, shirach va shunga o'xshash nafis gulli o'simliklarning juda kamayib ketganligining guvohi bo'lib turibmiz.

Bunday qirilib ketishga atrof-muhit, jumladan, sayyoramiz hayotining zamonaviy bosqichlarida qishloq xo'jaligi va urbanizatsiya buzilishlari sabab bo'lmoqda.

O'simlik dunyosini muhofaza qilish jarayonida keng omma ishtirok etgan taqdirdagina ijobiy natijalarga ega bo'lish mumkin. Shundagina, biz kelgusi avlodlar uchun nabotot olamining bebaho boyligini saqlab qoldirgan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekistonning o'simliklar dunyosi. Toshkent, O'qituvchi, 1997 y.
2. Sahobiddinov S. S. O'simliklar sistemikasi. T., 1996 y.
3. Yoziyev L. H. Botanika. Qarshi, 2003 y.
4. Hamdamov I. H., Abilova S. A. Tabiiy fanlar konsepsiyasi. T., 2007 y.
5. Matkarimov, J. S. (2024). PREZI SAYTIDA TAQDIMOT TAYYORLASHNING DASTLABKI TUSHUNCHALARIGA OID. INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES, 1(12), 42-46.
6. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG 'ULOTLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI DASTURLARINI QO 'LLASH.
7. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG 'ULOTLARIDA ZAMONAVIY KOMPYUTER DASTURLARINI QO 'LLASH.
8. Solaydinovich, M. J. (2024). THE VIEWS OF UZBEK AND FOREIGN SCIENTISTS ON THE FORMATION OF NATURAL SCIENCES. Multidisciplinary and Multidimensional Journal, 3(3), 44-48.

IBTIDOIY DINIY E'TIQODLAR BILAN BOG'LIQ BO'LGAN ORNAMENTLAR VA TASVIRLAR

R.Po'latova

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzey hodimi

Dualizm insonning eng ilk diniy e'tiqodlaridan biri sifatida. Dualizm – insonning ilk diniy e'tiqodlaridan biri bo'lib, lotincha “dualis” – ikki yoqlama degan ma'noni anglatadi. Dualizm – bir-biri bilan birlashtirib bo'lmaydigan holatlar, tamoyillar, fikrlash tarzi, dunyoqarash, intilish va gneseologik tamoyillar yonma-yon mavjudligini targ'ib qiluvchi ta'limot. Dualizm termini nemis faylasufi X.Volf (1679-1754) tomonidan muomalaga kiritilgan. Dualizm quyidagi juft tushunchalarni ifodalaydi: g'oyalar dunyosi va voqeiy dunyo (Platon), xudo va iblis (yaxshilik va yomonlik tamoyili), xudo va dunyo, ruh va materiya, tabiat va ruh, jon va tan, ob'yekt va sub'yekt, bilim va e'tiqod, foniy va boqiy dunyo, tabiat saltanati, ilohiy marhamat saltanati va boshqalar. Dualizm falsafiy, diniy, antropologik, etika shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Qadimgi davrda O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi dinlarida ham dualizm namoyon bo'ladi.

O'rta Osiyo yerlarida diniy tushunchalarning rivojlanishi va san'atning unga xizmati, diniy e'tiqod va tushunchalar tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, u bizni uzoq o'tmishga yetaklaydi. Bu yerlarda qadim zamonlardayoq diniy tushunchalar sehrgarlik, totemizm, animizm tasavvurlari paydo bo'lgan. Diniy tasavvurlar, o'lganlar ruhi 21 tushunchalari aniq ashyoviy dalillarda o'z aksini topgan. Jumladan, Teshiktosh g'ori Termiz yaqinidagi Boysun tog'larida qadimgi odamlar yashagan manzildan arxeologlar turli tosh qurollar bilan birga 8-9 yoshli o'g'il bolaning suyak qoldiqlari va uning atrofiga aylantirib qo'yib chiqilgan tog' echkisining shohlarining topilishi muhim voqea bo'ldi. Bu topilma O'rta Osiyo yerlarida o'rta paleolit davrdayoq ko'mish marosimi va u bilan bog'liq diniy tushunchalar shakllana boshlagandan dalolat beradi. O'lgan odam yoniga turli buyumlar qo'yish, marhum ko'milganda uning yoniga hayotlik paytida ishlatgan, sevgan buyumlarini ham birga qo'shib ko'mish odati jamiyat rivojlanib borgani sari an'anaga aylangan. Diniy tushunchalar keng mushohadali falsafiy tus olib, ko'p xudolikdan yakka xudolikka e'tiqod qilish boshlandi. Shunday yirik dinlardan biri Zardushtiylik dini edi.

Dualizm bilan bog'liq bo'lgan ornament va tasvirlar, dualizm ta'limotida ranglarning muhimligi.

Mil.avvalgi VII asr shakllangan bu diniy ta'limot odamlarning turmush tarzi, urf-odatiga ta'sir etdi, san'at va madaniyatning xarakterida o'z ifodasini topdi. Zardushtiylik bilan bog'liq me'morchilik majmualari, odamlar yurish-turish, kiyinishda shu din talabi va ta'siri bo'ldi. Zardushtiylik dini me'morchilik, amaliy va tasviriy san'atda ham o'z aksini topgan. Bu dinga binoan suv, havo, yer va olov muqaddas sanaldi. Olov tozalovchi, poklovchi ilohiy kuch hisoblanib, muqqadas olov uylari qurilgan. Bu uylarda olov doim

yonib turishi uchun uni qo'riqlab, yaxshi hid tarqatuvchi giyohlar sepib turishgan. Olov uylari - ibodatxonalar qurilishi, uning ichki bezagi, marosim bilan bog'liq turli buyum va anjomlar ishlandi.

Samarqand yaqinida ochilgan arxeologik topilma asosida olov uyi ko'rinishi qaytadan tiklandi, u yuqoriga kichrayib boruvchi to'rtburchak shakllardan tashkil topgan bo'lib, tepasida tutun chiqishi uchun joy bo'lgan, uyning pastki qismida muqaddas olov yonib turgan.

Har bir shahar va qishloqda shunday olov uylari bo'lib, ularda muqaddas olov saqlangan. Jarqo'rg'ondan topilgan olov uyi zardushtiylikning ilk ibodatxonasi hisoblanadi. Undan keyingilari Xorazmdagi Jonbosqal'a, Buxoro va Samarqandda qurilgan bo'lib, buni arxeologik topilmalar isbotlaydi.

Toshkent viloyati hududidan ham olov uylari topilgan bo'lib, hozirgi Oqqo'rg'on tumanidagi Qanqa (Toshkentning markazi bo'lgan)da arxeologlar tomonidan ochilgan to'rt minorali qo'rg'onda saroy ibodatxonasi - kapella va olov mehrobi bo'lganligi aniqlangan. Bu ibodatxona o'rtasida supa bo'lib, unga marhum suyagi solingan loydan ishlangan ossuariylar qo'yilgan. Shu supa ortida esa eshik bo'lib, undan kichik xonaga kirilgan. Bu xonada muqaddas olov saqlangan, marosim kunlari u ibodatxona markazidagi mehrobga yoki muqaddas supaga olib chiqib qo'yilgan. Ibodatxona kompleksining xo'jalik xonalari bo'lib, u yerda turli buyumlar, jumladan, taqinchoqlar saqlangan. Odamlar shu joyda marhum bilan xayrlashgan holda muattar hidli gullar sochganlar. Marosimning ajralmas qismi qurbonlik qilish va marosim oshi berish bo'lgan. Mazkur ibodatxona taxminan yangi eraning 1000 yillar o'rtasida qurilgan, uning katta xonasining devorlari rasmlar bilan bezatilgan.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, odamlar o'lgandan keyin uning jasadini yerga ko'mish gunoh hisoblangan. Shuning uchun odam o'lgandan keyin uning jasadini maxsus tepalikka olib borib qo'yishgan. Bu tepalik odamlar yashaydigan joydan uzoqda joylashgan bo'lib, tepalikda esa turli itlar, burgut, yovvoyi qushlar odam go'shtini yeb uni suyakdan ajratib bergan. Yomg'ir esa suyakni yanada tozalagan. Quyosh esa uni obdon quritgan. Shundan so'ng tepalik atrofida yashovchi odamlar suyaklarni yig'ib, sopoldan yasalgan idishchalarga solib, ko'p hollarda uni o'z uyiga ko'mishgan. Bu idishchalarni ostadonlar yoki ossuariylar deb atashgan. Bu ostadonlar shakli turli-tuman bo'lib, asosi to'rtburchak shaklida, qopqog'i esa turli shakllarda, hatto odam boshi yoki qomati shaklida, ba'zan xumga o'xshatib, ba'zan o'tirgan odam shaklida yasalgan. Ostadonlarning yuzlariga esa bo'rtma tasvirlar yoki rasm chizilgan. Bu tasvirlarda o'sha davrlardagi odamlar urf-odati, masalan, aza tutish voqealari aks ettirilgan. Bunday ostadonlar O'rta Osiyo hududidan ko'plab topilgan. Shunday ostadonlardan biri Samarqand viloyatining Mullaqo'rg'on hududidan topilgan. Bu ostadonning tashqi tomonida bo'rtma tasvir bo'lib, unda yonib turgan olovga ikki tomondan odamlar o'tin, yoqimli is tarqatadigan giyohlar tashlab turgan payti tasvirlangan. Ular og'izlarini maxsus bog'lagich bilan berkitib

olganlar. Chunki olov muqaddas hisoblangani uchun unga hatto odamning nafasi ham tegmasligi kerak bo'lgan. Olovning alangalari 23 chiroyli va tartibli qilib ishlangan shakli keyinchalik bezak san'atida keng ishlatila boshlangan, bu shaklni antifiks deb atashgan. Toshkent shahrining Chilonzor tumani hududidagi Oqtepa ham shu davrning muhim yodgorligidir. Oqtepa ibodatxonasi ikki qavatli qilib qurilgan bo'lib, burchaklarida minoralari bo'lgan. Undan katta marosim va tantanalarni o'tkazish uchun foydalanishgan. Ibodatxona VIII asrda arablar bosqinidan keyin tashlandiq holga kelib qolgan. Ammo arxeologik tahlillar shuni ko'rsatadiki, otashparastlar bu yerdan uzoq vaqt foydalanishgan va ostadonsiz ko'mish marosimlarini o'tkazishgan.

Yerqo'rg'onda (O'zbekiston janubi) ham shahar ibodatxonasi majmuasi bo'lib, mil.avv. 1000 yillarning 2-choragiga to'g'ri keladi. Bu ibodatxona ma'buda Anaxitaga bag'ishlab qurilgan. Arxeologik qazishlar davomida bu yerdan otashparastlikning zarur anjomlari olov mehrobi va turli sopol buyumlar topilgan.

Qo'rg'ontepalar: Jonbosqal'a, Sopollitepa, Jarqo'ton ornamenti va tasviriy san'ati. Mil.avv VIII-VII asrlarda Yaqin va O'rta Sharqda bo'lgani kabi O'rta Osiyo yerlarida ham qo'rg'ontepalar qurilishi zaminida shahar va shahar-davlatlar rivojlanib bordi. Bunday qal'alar tabiiy yoki sun'iy tepaliklar ustiga, tezoqar suvlar o'rtasidagi katta maydonlarda qurilib, atrofi qalin va pishiq devor bilan aylantirib o'rab olingan. Qal'alar zaminida dastlabki shahar-davlatlar paydo bo'ldi. Shunday qal'alar zaminida keyinchalik Xorazm, Baqtriya kabi davlatlar shakllanib borgan.

O'rta Osiyoning janubiy tomonlarida miloddan avv. IV-III asrlarda shakllana boshlagan qal'a devorlari qalin va pishiq ishlangan. Shaharga kirish darvozalariga ham katta e'tibor berilgan. Darvoza ikki chekkasida minoralar bo'lib, ular plyastrlar bilan pardozlangan. Qurilishda ko'pxonali uylar paydo bo'lgan, devorlari katta-katta xom g'ishtdan ishlangan, devor va pollariga esa rang berib pardozlana boshlangan, uncha katta bo'lmagan arka(ravoq)lar yordamida tepa tomonini yopishga harakat qilingan, ayrim uy devorlariga tasvir tushirishga intilish seziladi.

Xorazmdagi Jonbosqal'a - eramizdan avalgi IV-III ming yilliklarda odamlar yashagan manzillardandir. Bu yerdagi turar joylar tartib bilan qurilgan bo'lib, uy qurilishida sinch, yog'och va qamichdan foydalanilgan.

Xorazmdagi yodgorliklardan yana biri Qo'yqirilganqal'a manzilgohi bo'lib, uning qoldiqlari bizning zamonamizgacha yetib kelgan. Qal'a qalin devor bilan o'ralib, atrofi esa suv to'ldirilgan zovurdan iborat bo'lgan. Arxeologik qazish ishlari jarayonida bu yerdan har xil xumlar, haykallar va ko'plab ostadonlar topilgan. Ostadonlar ichida odamga o'xshatib yasalganlari ham bo'lib, uning ichida o'lgan odamning suyaklari saqlangan. Qal'a xonalarining devorlari rasmlar bilan bezatilgan.

Uylar qurilishidagi o'zgarishlar Kuchuktepa (Termiz yaqinida) yodgorligida ham namoyon bo'ladi. Olimlarning fikricha, bu manzilgoh mil. avv. X-VII asrlarga oid bo'lib hisoblanadi. Balandligi 4 metrdan iborat bo'lgan uylar ko'p xonali qilib qurilgan va ular

yo'laklar (karidorlar) bilan tutashtirilgan. Manzilgoh atrofi mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, uning qurilishida paxsa va xom g'ishtdan foydalanilgan.

O'rta Osiyo hududidagi qadimgi davlatlardan biri Baqtriya shaharlari ham qurilishi jihatdan ancha mustahkam va hashamatli bo'lgan. Davlat poytaxti Baqtra mustahkam devor bilan o'ralgan qo'rg'onni (akropolni) tashkil etgan. Baqtriyaning Qiziltepa (Sho'rchi, Surxondaryo vil.) shaharchasi mill.avv. VII-VI asrlarga oid bo'lib, to'rtburchak shaklida qurilgan, atrofi qalin devorlar bilan, uning atrofi esa zovur bilan o'rab chiqilgan. Mudofaa devorlari shinakli qilib qurilgan va to'rt tomonida yarim dumaloq minoralar o'rnatilgan. Turar joy va yashash qo'rg'onlari kvadrat yoki to'rtburchak shaklida bo'lib, ichki hovlilarning barchasi yog'och ustunli ayvonlardan iborat bo'lgan.

Ilk shaharsozlik manzilgohlaridan Sopollitepa va Jarqo'ton me'morchiligi haqida alohida to'xtalib o'tish joiz. Sopollitepa manzilgohi Ozbekistonning janubida joylashgan bo'lib, 1969-1973 yillarda arxeolog A.Asqarov boshchiliga qazishma ishlari olib borilgan.

Sopollitepa qal'asi kvadrat shaklida bo'lib, uch qator mudofaa devori bilan o'rab olingan. Devorlarning qalinligi o'rtacha 1,5 metr, ba'zi joylarda 2 metrgacha boradi. Qal'aning ichkarisida ichki mudofaa devorlariga yopishtirilib qalin uylar qurilgan. Qal'a ichkarisida qurilgan uylarni 8 kvartalga bo'lib turuvchi 6 ta ko'cha borligi aniqlangan. Xonalar va mudofaa devorlari yirik xom g'ishtlardan qurilib, uylarning devorlari va poli bir necha bor somon suvoq qilingan. Deyarli hamma uyda devor ichiga joylashtirib 25 qurilgan mo'rili o'choq, o'choq qarshisida supa, ba'zi xonalarda sandal o'txonalari borligi aniqlangan. Xona devorlarining ba'zi joylarida ganch suvoq izlari ham saqlangan. Ko'pchilik uylarning ichida odam ko'milgan. Qal'a maydonida olib borilgan qazishlar vaqtida 130 dan ortiq qabr ochilgan. Qabrlar, asosan, katakomba tarzida qurilgan bo'lib, ulardan sopol idishlar, bronza, kumush, oltin va turli qimmatbaho toshlardan ishlangan bezaklar, bronza mehnat qurollari va pardoziy buyumlari, tabiiy ipakdan tikilgan kiyim qoldiqlari topilgan. Qal'a maydonidan 20 ga yaqin sopol pishiradigan xumdon qazib olingan. Xumdonlar bir va ikki qismli bo'lib, ularda pishirilgan idishlar chinnidek jaranglaydi. Sopollitepadan idishlarning 40 dan ortiq turi, jumladan, vaza, qadah, ko'za, xurmacha, choynak, piyola, kosa, shokosa, tog'ora, xum, lagan, barkash kabilar qazishlar jarayonida aniqlangan. Idishlar nafis, yengil bo'lib, o'tkir did bilan ishlangan. Xonalarni qazish vaqtida minglab tosh yorg'uchoqlar, o'g'irlar, urchuq va paykonlar, yog'och taroq, qoshiq va idishlar, tosh va bronzadan yasalgan oila muhrlari topilgan. Xulosa qilib aytganda, Sopollitepa topilmalari qadimgi ajdodlarimizning madaniyati, san'ati va me'morchiligi tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar beruvchi noyob manbalardir.

O'rta Osiyo qadimgi odamlarining san'ati va me'morchiligini tadqiq qilishda Jarqo'ton manzilgohi ham alohida o'rin egallaydi. 1973 yildan boshlab arxeolog A.Asqarov boshchiligidagi ekspeditsiya a'zolari tomonidan qazib o'rganilgan. Jarqo'tonda turar joy qoldiqlari, ibodatxona, kulolchilik mahallasi, metall eritadigan ustaxonalar, 1000 dan ortiq qabrlar ochib o'rganilgan. Erkaklar o'ng yonboshi, ayollar chap yonboshi bilan

g'ujanak holda ko'milgan. Jarqo'tondan toshdan yasalgan omoch tishi, ko'plab sopol idish (xumcha, ko'zacha, tog'ora, kosa, piyola, tog'oracha, lagan)lar, jez igna, bigiz, xanjar, sopol andava, chaqmoqtoshdan ishlangan paykonlar, jez taqinchoqlar (rangli toshlar qadalgan ko'plab to'g'nog'ich, bilaguzuk, zirak, oyna) qimmatbaho toshlar va suyakdan yasalgan munchoqlar, jez surmadon, qabila muhr-tamg'alari, ip mato qoldig'i topilgan.

Bu manzilgohning eng mashhur yodgorligi ibodatxona bo'lib hisoblanadi. Jarqo'ton ibodatxonasi O'rta Osiyo va O'rta Sharqdagi eng qadimgi otashkada hisoblanadi. Ibodatxonada doira shaklidagi 6 sajdagoh, 5 muqaddas quduq, tabarruk ashyolar saqlanadigan maxsus xona va boshqa xo'jalik xonalari bo'lgan. Arxeologik qazishlar 26 natijasida kohinlar yashaydigan supali xonalar, muqaddas olov va kul saqlanadigan otashgohlar, muqaddas ichimlik (saoma - xaoma) tayyorlanadigan xonalar ochilgan. Jarqo'tondan sirlangan, bezakli sopol idishlar, loydan ishlangan odam haykalchalari, afsonaviy qush Geruda – Xumo tasvirlangan idish, sopol quvurlar va boshqalar topilgan.

Gliptika san'ati. Gliptika (yun. qlypho — kesaman) — qimmatbaho, yarim qimmatbaho toshlarga naqsh yoki tasvir o'yish san'ati, amaliy bezak san'ati turi hisoblanadi. Gliptika asari gemma qadimdan muhr (egalik belgisi), tumor va taqinchoq vazifasini o'tagan. Mil. av. 4- mingyillikda Mesopotamiya, Qadimgi Misr, G'arbiy Osiyoda vujudga kelgan, Yunoniston, Qadimgi Rimda yuksak taraqqiy etgan. Gemma tasvirlari (hayvon va qushlar, xudo va qahramonlar qiyofasi, afsonaviy sahnalar) ixcham kompozitsiyasi bilan ajralib turadi. O'rta asrlarda gliptika asosan, Sharqda rivojlangan. Vizantiyada qadimiy an'analar saqlangan holda tekis yuzali, keyinchalik uslublashtirilgan shakllarga aylangan nafis chizmaga moyillikka xos.

Musulmon sharqida yozuvli gemma (lotincha, qimmatbaho tosh, marvarid ma'nosini anglatib, gemmalar uchun yumshoq toshlar bilan bir qatorda qattiq toshlar ham ishlatilgan)lar eng tarqalgan, husnixatli nozik matnlar xitoy muhrlarini bezagan. Yevropada Uyg'onish davrida gliptika yanada rivojlangan, qadimiy gliptikadan nusxa ko'chirish bilan birga zamondoshlarning portretlari ham yaratilgan. Italiya gliptika ustalari V.Belli, J.Bernardilar tomonidan insonlar tasviri mahorat bilan yaratilgan.

O'rta Osiyodan topilgan arxeologik topilmalar (O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanayotgan gliptika namunalarida hukmdorlarning tasvirlari, shuningdek, o'simlik, hayvonlarning shakllari ishlangan tamg'alar bo'lib, yunon gliptikasiga taqlidan tayyorlangan. Bunday gliptika asarlari Kavkaz, Eron, Afg'oniston, Shimoliy Hindistondan ham topilgan. Islom dini tarqalganidan keyin tasvirlar o'rnini naqsh va yozuvlar egallagan. O'zbekiston hududidan uzuk ko'zi yoki munchoq sifatida ishlangan qadimiy gliptika namunalari (Afrosiyob, mil. avv. 6-5 asrlar, jumladan, toj kiygan erkak tasviri) topilgan. O'rta Osiyoda ilk o'rta asrlar davrida mahalliy gliptik ustalar tomonidan hukmdorlar, amaldorlar va ayollar uchun turli qimmatbaho toshlarga ishlov berilib, buyumlar 27 yasalgan va ular ko'pincha suviner sifatida saqlangan. Keyinchalik qimmatbaho toshlarni qazib olish ko'paygach, bunday buyumlar kundalik turmush tarzida foydalanila

boshlangan. Toshlariga ishlov berish asosida tayyorlangan buyumlar asosan, taqinchoqlar bo'lib, ularning qiymati aholining turli qatlamlarini inobatga olib tayyorlangan. Arablar bosqinidan keyin gliptikada qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlarda Qur'on suralaridan oyatlar, muqaddas duolarni naqshinkor qilib yozish keng tarqalgan. Bu an'ana keyingi davrlarda ham davom ettirilgan. Ayollarning zebuziynat buyumlaridan tashqari qilich, xanjar, pichoqlarning soplariga va turli xil idishlarga naqshlar bilan bezatilgan qimmatbaho toshlarni o'rnatish ham taraqqiy eta boshlaydi.

Dastlabki tasviriy san'at va ornament ibtidoiy odamlarning diniy e'tiqodlarini ifodalash va uni targ'ib qilishga xizmat qilgan. Shu bilan birga kundalik mashg'ulotlari, ov jarayonlari va turli marosimlar tasviriy san'at naminalarida o'z aksini topgan. O'sha davr rassomlari sopol buyumlar, turar joy binolari va ibodatxonalarni oddiy naqshlar, hayvonlar, qushlar va odamlar tasviri bilan bezadilar. O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi ajdodlarimizning o'ziga xos madaniyatini o'rganishda ushbu topilmalar muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarov A A. Abdullayev V "Jarqo'ton". Tashkent. 1983.
2. Suleymanov R.X. :Древний Нахшеб". Tashkent, 2002.
3. Маршак Б.И. Самый ранний сюжет согдийской живописи. // Тўплам: Зарафшон воҳаси ва унинг тарихдаги ўрни». Ўзбекистон Республикасини 10 йиллигига бағишланган илмий-назарий 28 анжуман материаллари. 2001 йил 18-19 май, I қисм, Самарқанд, 2001.
4. Абдуразаков А.А. и др. Реставрация колонны из Еркургана. Реферативный сборник «Реставрация, иссл

THE ROLE OF TEACHER'S PERSONALITY IN STUDENT ENGAGEMENT

Otajonova R.B. – student of the UzSWLU

Аннотатсия: Ushbu maqolada o'qituvchining shaxsiy fazilatlari va xulq-atvori o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va faol ishtirokiga qanday ta'sir qilishi o'rganiladi. Tashabbuskorlik, empatiya, ijobiy munosabat va hazil tuyg'usi kabi jihatlar o'quv muhiti va o'quvchining motivatsiyasida katta ahamiyatga ega.

Аннотация: В статье анализируется влияние личности учителя на вовлечённость студентов в учебный процесс. Такими качествами, как харизма, открытость, чувство юмора, эмпатия и справедливость, учителя могут создавать благоприятную атмосферу и стимулировать активное участие обучающихся.

Abstract: This article explores how a teacher's personality traits influence student engagement in the classroom. Characteristics such as empathy, enthusiasm, humor, fairness, and positivity can create a supportive learning environment that encourages student motivation and active participation. The teacher's emotional and communicative presence plays a vital role in shaping student attitudes and performance.

Introduction

In the landscape of education, methods and materials are essential—but they are not the only forces that shape student success. Behind every effective lesson, there's often an inspiring and emotionally intelligent teacher whose personality leaves a lasting impression. The teacher's personality is not just a personal trait; it is a pedagogical tool that can either fuel or hinder student engagement.

Modern educational psychology emphasizes that how a student feels about their learning environment is directly tied to how much they engage. A kind, open-minded, enthusiastic teacher fosters curiosity and reduces anxiety, especially in language classrooms where learners often fear making mistakes. On the other hand, a teacher who lacks empathy or communicates poorly may unintentionally discourage participation.

Students are more likely to engage when they feel emotionally safe, respected, and inspired. When teachers show authenticity, use humor appropriately, and provide encouragement, they connect with students not just as learners, but as individuals. This emotional connection is a foundation for effective classroom engagement. In this article, we explore which personality traits most impact student involvement, with practical examples and strategies.

Empathy and Emotional Intelligence

Understanding student struggles, fears, and goals makes teachers more effective. A teacher who listens and responds thoughtfully builds trust.

Positivity and Enthusiasm

Enthusiastic delivery energizes the classroom. Students mirror the teacher's mood—if the teacher is passionate, students become more invested.

Sense of Humor

Humor breaks tension and fosters a relaxed learning environment. Jokes or playful language activities reduce anxiety and increase enjoyment.

Fairness and Respect

Treating all students equally and with respect builds a sense of justice and safety in the classroom.

Open-Mindedness and Adaptability

Teachers who are flexible and culturally sensitive better connect with diverse students and manage dynamic classroom situations.

Real-Life Examples and Applications

A teacher who remembers students' names and interests makes them feel valued. Using student-generated content (like stories or experiences) in lessons builds relevance and connection.

Teachers who admit their own mistakes show humility and make the classroom a place where imperfection is acceptable.

Impact on Student Motivation

When students admire or emotionally connect with their teacher, they are more likely to: Ask questions without fear.

Take academic risks (e.g., speaking in a foreign language).

Develop a genuine interest in the subject.

Attend class regularly and participate actively.

Conclusion:

While academic knowledge and pedagogy are crucial, the teacher's personality plays an equally important role in shaping student engagement. A warm, respectful, and enthusiastic teacher can transform a traditional classroom into a vibrant space of trust, curiosity, and motivation. Personality traits like empathy, fairness, and humor not only enhance communication but also create a supportive environment where students thrive. Educators must recognize their emotional impact and strive to cultivate positive personal qualities alongside professional skills.

References:

1. Hargreaves, A. (2001). Emotional Geographies of Teaching. Teachers College Record.
2. Dornyei, Z. (2001). Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge University Press.
3. Stronge, J. H. (2007). Qualities of Effective Teachers. ASCD.
4. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence. Bantam Books.
5. Pianta, R. C., & Hamre, B. K. (2009). Conceptualization, Measurement, and Improvement of Classroom Processes: Standardized Observation Can Leverage Capacity. Educational Researcher.

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILARDA O'ZINI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK TA'SIRI

Masharipova Gulmira Rasulovna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqa'la tumani
5-umumta'lim maktab amaliyotchi psixologi*

Masharipova Ilmira Nurullayevna

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqa'la tumani
54-umumta'lim maktab amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya: Yoshlar bizning kelajagimiz ularni qanday tarbiyalab bersak, yurtimiz kelajagi ham shunday bo'ladi. Bu borada prezidentimizning "Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirish lozim mamlakatimizning mard fidoiy kishilari yurtiga mehr-shavqat, muhabbat, barqaror bo'lgan tafakkur va ijod qaynagan muqaddas makonga aylanishiga aminman" degan fikrlari ta'lim-tarbiya sohasini mamlakatning rivojlanishidagi ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: o'z-o'zini qadrlash, o'z-o'zini hurmat, qadriyatlar, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini o'rganishning, avtoritar, liberal, demokratik tarbiya uslubi, psixologik jihatlar, ruhiy holat

KIRISH

Ko'rib turganingizdek, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda qadriyatlar tizimini tarkib topishi ularda o'ziga va o'zgalarga nisbatan munosabatlar tizimini qaror topishi bilan izohlanadi. O'z-o'zini hurmat qilish hayotning deyarli barcha sohalariga ta'sir qiladi va umuman insonning hayot darajasi va sifatini belgilaydi. Albatta, o'z-o'zini hurmat qilish hayot davomida o'zgarishi mumkin, ammo uning asoslari erta yoshda qo'yiladi. Shuning uchun bolaning o'zini o'zi qadrlashini shakllantirishga uning hayotining birinchi yillaridanoq jiddiy e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, bolaning o'zini o'zi qadrlashiga eng yaqin odamlar eng katta ta'sir ko'rsatadi

Odam oilada nimani qo'lga kiritisa, u keyingi hayoti davomida saqlab qoladi. Oilada shaxsning poydevori qo'yiladi. Bolalarni tarbiyalash murakkab, lekin ayni paytda manfaatli. Ota-onalar farzandining muvaffaqiyatli rivojlanishida ularning roli qanchalik muhimligini tushunishlari kerak.

Yosh o'quvchining o'zini o'zi qadrlashini shakllantirishda, M. Fennelning fikriga ko'ra, oilaviy tarbiya uslubi, oilada qabul qilingan qadriyatlar katta ahamiyatga ega. Bunday holda, o'z-o'zini hurmat qilish darajasi yosh avlodning neyropsixik salomatligi

ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Oila, birinchi navbatda, bolaga ob'ektiv ravishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni engishga yordam beradi.

Bolalikda o'z-o'zini hurmat qilish - bu ota-onaning bahosini bolaning dastlabki o'zlashtirishi. Keyinchalik, o'z-o'zini hurmat qilish farqlana boshlaydi. Rag'batlantirish, muayyan xatti-harakatni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash, o'zo'zini ijobiy baholashni shakllantirishga harakat qilish, jazolash va e'tibor bermaslik - rag'batlantirilgan variantni topishga harakat qilish va hozirgi paytda o'zini salbiy baholash. Harakatlarga qo'shimcha ravishda, so'zlar ham muhimdir, chunki otaonalarining bolaga bo'lgan umidlari yoki umidlarini aks ettirgan gaplari ham bolalar xotirasida saqlanadi. O'z-o'zini hurmat qilishning pastligi bolaning qobiliyatlarini to'liq ochishga imkon bermaydi. O'z-o'zidan haddan tashqari yuqori fikrda bo'lish xavfli bo'lishi mumkin: bola o'ziga mavjud bo'lmagan fazilatlarni va haqiqiy bo'lmagan istiqbollarni bog'laydi, keyin esa hayot hamma narsani o'z o'rniga qo'yishni boshlaganda azoblanadi. Maqto'v va tanqid ham o'rtacha nisbatga ega bo'lishi kerak: bola qilgan hamma narsani so'zsiz maqtash mumkin emas, lekin ketma-ket hamma narsa uchun ta'na qilishning hojati yo'q. Agar tanqid maqto'vdan oshsa, bola ota-onasi bilan muloqot qilishdan qocha boshlaydi. Va bolani tanqid qilganda, siz uni maqtash mumkin bo'lgan narsani topishingiz kerak. Bundan tashqari, suhbat oxirida siz bolaning tanqidni tushunib, hamma narsani tezda tuzatganiga samimiy umid bildirishingiz kerak.

Ota-onalarining yana bir xatosi - bu o'z farzandining o'ziga xosligini tushunmaslik yoki tan olmaslik. Aksariyat ota-onalar farzandlarining his-tuyg'ulari, istaklari va fikrlariga kam e'tibor berishadi. Ba'zi ota-onalar, M. Fennelning so'zlariga ko'ra, pul va moddiy boylikni juda qadrlashadi. Bunday oilada bola bu qadriyatlar bilan o'zini namoyon qiladi va undan doimiy kurash va intrigalarni talab qiladigan yig'ma turmush tarzi kishaniga tushadi. Moddiylik bolaning o'zini qadrlash tuyg'usini yo'q qilar ekan, u o'zini pastlik tuyg'ularining o'rnini to'ldirib, boylikka intiladi. Haddan tashqari bo'ysunuvchi, g'amxo'r yoki befarq ota-onalar o'z farzandlarini hissiy nogironga aylantiradilar. Hayotiy vaziyatlarga ishonch va qadr-qimmat bilan qarshi turish motivatsiyasidan mahrum bo'lgan bola, ishni kechiktiradi va eng kam qarshilik yo'lini tanlaydi. O'z-o'ziga ishonchning yo'qligi pastlik tuyg'usini keltirib chiqaradi va bu, o'z navbatida, o'zini past baholashga asos bo'ladi.

Ayniqsa, agar ular ikkita yoki undan ko'p bo'lsa, bolalar bilan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishingiz kerak. Shunday ota-onalar borki, o'z farzandlarini ochiqchasiga qiyoslab, birini boshqasiga o'rnak qilib ko'rsatadilar. Shunday qilib, bola o'zini hamma hayratga soladigan bir xil yoshdagi bolalarga qiyoslaydi va uning xayoliy kamchiliklaridan azob chekadi. Bola boshqalarning kuchliroq, o'ziga ishongan va mashhurroq ekanligiga ishonadi, buning natijasida halokatli pastlik hissi paydo bo'ladi. Bu bolaning o'zini o'zi qadrlashida namoyon bo'lib, unga hasad tuyg'usini, ota-ona sevgisiga shubha va doimiy ravishda ulug'lanadiganlarga nisbatan ochiq dushmanlikni keltirib chiqaradi.

Darhaqiqat, o'z-o'zini hurmat qilish - bu haqiqiy "men" va ideal "men" o'rtasidagi farq va bolalar o'zlari uchun ideallarni yaratishni yaxshi ko'radilar. Ba'zan ular kitoblar yoki filmlar qahramonlari kabi bo'lishni xohlashadi, lekin muammo shundaki, bunga erishib bo'lmaydi. Natijada, ideal va bola o'rtasidagi tafovut shunchalik kattaki, o'z-o'zini hurmat qilish ba'zan nolga tushadi.

Va shunga qaramay, A.N.Ganicheva, ota-onalar bolaning idealga intilishini mamnuniyat bilan qabul qilishlari kerak, aks holda u o'zini qoniqtiradigan va unchalik ma'lumotli bo'lmagan shaxs bo'lib o'sadi. Ammo, birinchi navbatda, siz unga mashaqqatli mehnat orqali faqat asta-sekinlik bilan idealga yaqinlashishingiz mumkinligini tushuntira olishingiz kerak. Bolaga tushuntiring, agar ideallar erishib bo'lmaydigan bo'lib tuyulsa, agar siz o'zingizning haqiqiy shaxsingizni o'zgartira olmasangiz, unda siz o'zingiz haqidagi g'oyalarni o'zgartirishingiz kerak - ideal. Va, eng muhimi, o'zingizni, qanday bo'lsangiz, o'zingizni sevishingiz kerak.

Bolalarning o'z-o'zini hurmat qilishiga yordam berish uchun ularni qo'llabquvvatlash, ularga samimiy g'amxo'rlik ko'rsatish va imkon qadar tez-tez ularning harakatlari va ishlariga ijobiy baho berish kerak. A.N.Bukin ta'limning uchta asosiy uslubini ajratib ko'rsatadi: avtoritar, liberal, ular orasida u demokratik yoki obro'li tarbiya uslubini eng muvaffaqiyatli deb biladi, chunki u bolaning shaxsiyatiga etarli darajada talabchanlik bilan, bu bolalarga yuqori, ammo oshirib yuborilmagan o'zo'zini hurmat bilan o'sishiga imkon beradi.

Avtoritar yoki diktator tarbiya uslubida iliqlik yo'q. U qat'iy tartib-intizom bilan ajralib turadi, "ota-ona - bola" rejimidagi muloqot "bola - ota-ona" rejimidagi muloqotdan ustun turadi. Bunday ota-onalarning farzandlariga nisbatan umidlari juda katta. Avtoritar ota-onalar, qoida tariqasida, bolaga ozgina mehr ko'rsatadilar, ko'rsatmalar va buyruqlar beradilar, shu bilan birga bolalarning fikriga e'tibor bermaydilar va murosaga kelish imkoniyatini tan olmaydilar. Bunday oilalarda itoatkorlik, hurmat va urf-odatlariga sodiqlik yuksak qadrlanadi. Ota-onalar har doim to'g'ri ekanligiga ishonishadi va itoatsizlik ba'zan jismonan jazolanadi. Avtoritar ota-onalar ham o'z farzandlaridan yoshiga nisbatan ko'proq etuklikni kutishadi. Bolalarning faolligi juda past, chunki ta'limga yondashuv ota-onaga va uning ehtiyojlariga qaratilgan. Ushbu ta'lim uslubi, A.N. Bukin, bolaning rivojlanishida bir qator kamchiliklarga olib keladi. Bunday bolalar ko'pincha tengdoshlarining kuchli ta'siri ostida qoladilar. Ko'pincha umidlaridan hafsalasi pir bo'lib, ular o'zlarini ota-onalaridan uzoqlashtiradilar va ko'pincha ularning qadriyatlari va tamoyillariga qarshi norozilik bildiradilar. O'zini past baholagan bolalar o'zlaridan norozi. Bu oilada sodir bo'ladi, unda ota-onalar doimo bolani ayblashadi yoki unga ortiqcha vazifalar qo'yadilar. Bola ota-onaning talablariga javob bermasligini his qiladi.

Ruxsat beruvchi yoki liberal uslub ota-ona va bolaning iliq munosabatlari, past intizom, ota-ona munosabatlaridan ustun bo'lgan bola va ota-ona muloqoti bilan tavsiflanadi va liberal ota-onalar o'z farzandlaridan katta umidlarga ega emaslar. Liberal

ota-onalar g'amxo'r, ehtiyotkor, ular o'z farzandlari bilan juda yaqin munosabatlarga ega. Eng muhimi, ular bolalarga o'zlarini, shaxsiyati va individualligining ijodiy tomonlarini ifoda etish va ularni xursand qilish imkoniyatini berish haqida qayg'uradilar. Ularning fikriga ko'ra, bu ularga to'g'ri va yomonni ajratishga o'rgatadi. Liberal ota-onalar uchun o'z farzandlari uchun maqbul xatti-harakatlar uchun aniq chegaralarni belgilash qiyin. Ular bir-biriga mos kelmaydigan va ko'pincha cheklanmagan xatti-harakatlarni rag'batlantiradilar. Agar oilada ma'lum qoidalar yoki standartlar mavjud bo'lsa, unda bolalar ularga to'liq rioya qilishga majbur emas. Bunday ota-onalar farzandlariga katta umid bog'lamaydilar, oilalaridagi tartib-intizom minimal, farzandlari taqdiri uchun mas'uliyatni sezmaydilar.

Demokratik yoki obro'li tarbiya uslubi ota-onalar va bolalar o'rtasidagi iliq munosabatlar, mo'tadil intizom talablari va bolalar kelajagiga umid qilish, shuningdek, tez-tez muloqot qilish bilan tavsiflanadi. Liberal ota-onalardan farqli o'laroq, ular qat'iy, talablarida izchil va adolatli.

Vakolatli ota-onalar bolalarning ma'lum bir guruh qoidalariga rioya qilishlari kerak bo'lganda mustaqil bo'lishini ta'minlash uchun oqilona va muammoga yo'naltirilgan strategiyalardan foydalangan holda tartib-intizom yaratadilar. Ular bolalardan ma'lum xatti-harakatlar standartlariga rioya qilishni va ularning bajarilishini nazorat qilishni talab qiladilar. Ota-onalar o'z farzandlari bilan tushunishga majburlash uchun emas, balki aql, muhokama va ishonitirishdan foydalanadilar. Ular o'z farzandlarini birdek tinglaydilar va ularga o'z talablarini bildiradilar. Bolalarning muqobil varianti bor, ular rag'batlantiriladi, ularga o'z echimlarini taklif qilish va o'z harakatlari uchun javobgarlikni olish imkoniyati beriladi. Natijada, bunday bolalar o'zlariga va o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga ishonishadi. Agar ota-onalar o'z farzandlarining fikrini qadrlashsa va hurmat qilsalar, bu ikkala tomon uchun ham foydalidir.

Vakolatli ota-onalar o'z farzandlari uchun maqbul chegaralar va xatti-harakatlar standartlarini o'rnatadilar. Ular har doim kerak bo'lganda yordam berishlarini aytishadi. Agar ularning talablari qondirilmasa, ular bunga tushunish bilan munosabatda bo'lishadi va bolalarini jazolashdan ko'ra kechirishlari mumkin.

Muvaffaqiyatli o'zaro munosabatlar, g'amxo'rlik va bolalarga qo'yilgan haqiqiy umidlar tufayli ular rivojlanish uchun yaxshi imkoniyatlarga ega bo'lishadi. Bundan tashqari, bunday ota-onalar farzandlarini maktabda muvaffaqiyatga erishishga undaydilar, bu esa ularning maktabdagi natijalariga ijobiy ta'sir qiladi.

Demokratik uslub qo'llaniladigan oilalarda bolalar yuqori, ammo ortiqcha baholanmagan o'z-o'zini hurmat qilish bilan o'sadi, bolaning shaxsiyatiga e'tibor (uning qiziqishlari, didi, do'stlari bilan munosabatlari) etarli talablar bilan uyg'unlashadi. Bu erda ular kamsituvchi jazolarga murojaat qilmaydilar va bola bunga loyiq bo'lsa, bajonidil maqtashadi. O'zini past baholaydigan bolalar (juda ham past bo'lishi shart emas) uyda

ko'proq erkinlikka ega, ammo bu erkinlik, aslida, nazoratning etishmasligi, ota-onalarning bolalarga va bir-biriga befarqligi oqibatidir.

Shunday qilib, maktabdagi ish faoliyati ota-onalar tomonidan bolani shaxs sifatida baholashning muhim mezonidir. Bolada ota-onasi birinchi navbatda g'amxo'rlik qiladigan fazilatlar - obro'-e'tiborni saqlash - birinchi o'ringa chiqadi. Ota-onalar ta'lim bilan emas, balki uning maktab hayotidagi kundalik lahzalar bilan shug'ullansalar yoki ular umuman ahamiyat bermasalar - maktab hayoti muhokama qilinmaydi yoki rasmiy ravishda muhokama qilinmasa, yosh o'quvchining o'z-o'zini anglashidagi e'tibor o'zgaradi. Bu yoshdagi shaxsning yana bir xususiyati tashvish bo'lishi mumkin. Ota-onalar tomonidan o'qishdan doimiy norozilik bilan yuqori tashvish barqaror bo'ladi. Xavotirning kuchayishi va o'z-o'zini hurmat qilishning pastligi tufayli ta'lim yutuqlari pasayadi va muvaffaqiyatsizliklar tuzatiladi. O'zo'zidan shubhalanish bir qator boshqa xususiyatlarga olib keladi - kattalarning ko'rsatmalariga o'ylamasdan amal qilish istagi, faqat naqsh va naqshlarga muvofiq harakat qilish, tashabbus ko'rsatishdan qo'rqish, bilim va harakat usullarini rasmiy ravishda o'zlashtirish.

Ota-onalar farzandlarining hayotiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bolalarning nima haqida o'ylashlari, qanday o'rganishlari va qanday ta'lim olishlari kerakligini tushunishlari o'sib borayotgan bolalarning kelajakdagi xatti-harakatlarini shakllantirishda juda muhimdir. Bolalarni tarbiyalash kattalar shaxsini boyitadi, uning ijtimoiy tajribasini oshiradi. Ular bolaga yangi xulq-atvor namunalarini beradi, ularning yordami bilan u atrofidagi dunyoni o'rganadi, u o'zining barcha harakatlarida ularga taqlid qiladi. Bu tendentsiya bolaning ota-onasi bilan ijobiy hissiy aloqalari va onasi va otasi kabi bo'lish istagi bilan tobora kuchayib bormoqda. Ota-onalar ushbu bolaning shaxsiyati va o'zini o'zi qadrlashi ko'p jihatdan ularga bog'liqligini tushunganlarida, ular o'zlarini shunday tutadilarki, ularning barcha harakatlari va umuman xatti-harakatlari bolada ushbu fazilatlarining shakllanishiga yordam beradi. va insoniy qadriyatlarni shunday tushunishki, ular unga topshirishni xohlashadi. Bunday tarbiya jarayonini juda ongli deb hisoblash mumkin, chunki o'z xatti-harakatlarini, boshqa odamlarga bo'lgan munosabatini doimiy nazorat qilish, oilaviy hayotni tashkil etishga e'tibor bolalarni har tomonlama rivojlanishiga yordam beradigan eng qulay sharoitlarda tarbiyalashga imkon beradi. Bolaning o'zini o'zi qadrlashini shakllantirishga oilaning ijobiy ta'sirini maksimal darajada oshirish va salbiy ta'sirini minimallashtirish uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan oila ichidagi psixologik omillarni esga olish kerak:

Oilaviy hayotda faol ishtirok eting;

Farzandingiz bilan suhbatlashish uchun doimo vaqt toping;

Bolaning muammolari bilan qiziqing, uning hayotida yuzaga keladigan barcha qiyinchiliklarni o'rganing va uning qobiliyatlari va iste'dodlarini rivojlantirishga yordam bering;

Bolaga hech qanday bosim o'tkazmang, bu bilan unga mustaqil ravishda qaror qabul qilishga yordam bering;

Bola hayotining turli bosqichlari haqida tasavvurga ega bo'ling;

Bolaning o'z fikriga bo'lgan huquqini hurmat qiling;

Egalik instinktlarini jilovlay olish va bolaga hozirgi paytda hayot tajribasi kamroq bo'lgan teng huquqli sherik sifatida munosabatda bo'lish;

XULOSA

Boshqa barcha oila a'zolarining martaba va o'z-o'zini takomillashtirish istagini hurmat qiling. Shunday qilib, oilaning yosh o'quvchining o'zini o'zi qadrlashiga ta'sirini ortiqcha baholash qiyin, chunki inson oilada nima olgan bo'lsa, u kelajakdagi hayoti davomida saqlab qoladi. Shuning uchun ota-onalar bolaning o'zini o'zi qadrlashi uchun to'g'ri oilaviy tarbiya qanchalik muhimligini tushunishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletshin M.G., Mavlonov M.M., To'ychieva S.M. "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2009 .
2. Dusmuxamedova Sh.A., Tillashayxova X.A., Baykunosova G.Yu., Ziyavitdinova G.Z., «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya» - Darslik Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU, 2020y.
3. G'oziyev E. "Ontogenez psixologiyasi".-T.: Noshir. 2010
4. Asper K. Ichki bola va o'z-o'zini hurmat qilish. - M.: Dobrosvet, 2008 yil.
5. Boryakova N.Yu. Bolalarni ta'lim va tarbiyalashning pedagogik tizimlari. M.: Astrel, 2008 yil.

OILADA FARZAND TARBIYASIGA PSIXOLOGIK YONDASHISH

Choriyev Norqul Qo'ziyevich

Surxondaryo viloyati Sherobod tumani 51-maktab psixologi

Annotatsiya. Inson yaralibdik, o'zining oilasida tarbiyalanadi. Onalar farzand tarbiyasida hamisha oilada muhim o'rin tutganlar. Farzand tug'ilgandan keyin ham otasi ish yoki boshqa sabablar bilan ko'p vaqt uyda bo'lmaydi, tarbiyaga doir zarur og'itlar, ko'rsatmalar bergan holda, asosiy ishi moddiy ta'minot bo'lib qolaveradi. Illo, ona soliha, ilmi bo'lsa, farzandi kelajakda buyuk inson bo'lib yetishishi uchun astoydil harakat qiladi. Agar "nega farzand tarbiyasi yolg'iz mening zimmamda bo'lar ekan?!" deya u ham tarbiya bilan shug'illanmasa, nafaqat bir bolaning balki butun boshli millatning kelajagini barbod qiladi.

Kalit so'zlar: oila, farzand tarbiyasi, kelin-kuyov, nikoh, oilaviy turmush, odob-axloq, bilim, ko'nikma, malaka va bilim, oila instituti, er-xotinning huquq va majburiyatlari, ruhiyat, psixik jarayonlar

KIRISH

Ulug'larimiz hayotiga nazar soladigan bo'lsak, ularning onalari hatto otlari vafot qilganda ham moddiy ta'minotni o'z zimmalariga olishgan, han farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishgan. Yillar davomida chekilgan zahmat natijasida Imom Ahmad, Imom Buxoriy kabi buyuk insonlar yetishgan. Abdurauf Fitrat "Rahbari najot" asarida shunday yozgan edi: "Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham shunday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Abdurauf Fitrat "Rahbari najot" asarida shunday yozgan edi: "Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham shunday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar.

Onaning tarbiya maskani zararga yo'liqsa, nasllarda o'nglanmaydigan yaralar ochiladi, onani yuqotadi. Farzandning ilk tarbiya makoni onaning ko'ksidir. Bolaning dunyo va ohiyat hayotiga bog'liq bilimlarga ona mehru muhabbati bilan berilishi eng go'zal tarbiya shaklidir. Bolaning tarbiyalanishida ota-onalar o'z farzandlariga ma'naviy merosimiz bo'lgan milliy urf-odatlar, an'analar, marosimlar, udumlarning o'ziga xosligini asta sekinlik bilan tushuntirib borishga ma'suldirlar. Zeri, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek "Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir".

Farzandning tarbiyalanishida ota-onalar diniy ta'limotlarga ham alohida ahamiyat berishlari lozim. Diniy tarbiyada bola Vatanga muhabbat bilan ajdodlarga sadoqat ruhida tarbiyalanadi. Bola tarbiyalashda buyuk mutafakkir bobomiz Mirzo Ulugbek shunday

deganlar: "Oilada ota-onalar ayniqsa o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim".

Shunday ekan, har bir ota-ona farzandining tarbiyasiga ko'proq e'tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan dars berishi, yomonlarga yaqin yo'latmasligi lozim ekan. Har bir ota-ona farzand tarbiyasida albatta ota-bobolarning fikrlariga e'tiborli bo'lishlari kerak. Ana shunda ular ota-onasi va el-yurtiga xizmat qiladigan, ularga ikki dunyoda obro' olib keladigan yuzlarini yorug' va boshlarini yuqori qiladigan farzand bo'lib ulg'ayishadi. Ota-ona bolaning vaqtini to'pa qamrab oladigan zarur va manfaatli mashg'ulotlarni tayyorlashi kerak va ana o'sha mashg'ulotlar bolaning ongini rivojlantirivchi bo'lishi shart. Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasida oilaning o'rni beqiyosdir. Farzand tarbiyasi oiladan boshlanadi. Oila bolaning jismoniy kamolotidagina emas, balki ma'naviy kamolga yetishida ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Farzand tarbiyasi ota-ona va jamiyat oldidagi eng zarur va e'tibortalab vazifa hisoblanadi. Farzandning jismoniy, ruhiy va aqliy kamolotiga bolalikdan e'tibor qaratish lozim. Odamning inson sifatida shakllanishi ham uning bolaligidan boshlanadi. Yaxshi, go'zal tarbiya olgan bolalar ulg'aygach, xush axloqli, go'zal odobli insonlar bo'lib yetishadi.

Solih farzand kishi o'z ortida qoldiradigan eng yaxshi boylikdir. Solih farzand dunyo va oxiratda ota-onasiga foyda keltiradi. Solih farzandga yetishish uchun bir amallarni bajarish lozim, ya'ni soliha ayol tanlash; luqmaga e'tibor berish; tug'ilgan farzandning qulog'iga azon aytish; tanglay ko'tarish; farzandlarga yoshligidanoq yaxshilik va xushmuomalani o'rgatish; xato qilganda, tanbeh berish bilan cheklanish; farzand tarbiyasida ayolning o'rnini oshirish.

"Avesto"da insoniy burch faqat axloqiy yo'l-yo'riqlarni o'zlashtirishdan iborat bo'libgina qolmasdan, balki inson oilaviy turmush, yaxshi yor va farzand to'g'risida ham o'ylashi zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, qarindoshlarning o'zaro oila qurishi man etilgan. Qavm va urug' qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Ko'pbolali oilalarga nafaqa tayinlash lozimligi qayd etilgan.

Oila mustahkamligini, farovonligini hamda kelajagini baxtli oila tamoyili darajasida ta'minlovchi omillardan biri farzandlardir. Yigit va qizning turmush qurishdan ham asosiy maqsadi nasl va zurriyot qoldirish hamda uning kamolini ko'rishdan iborat. Oilada tug'ilib o'sadigan bolaning kelajagi, birinchi navbatda, otaonaga bog'liq. Zero, tarbiya barcha sa'y-harakatlarning boshlanishidir.

Abdurauf Fitrat "Oila" asarining "Farzand tarbiyasi" bo'limida "Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi, bolalikdan o'z otaonalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq", – deb keltiradi [2]. Darhaqiqat, farzand tarbiyasi oilaga, ya'ni ota-onalar tomonidan berilgan tarbiyaga bog'liq.

Ota-ona o'z farzandini namunali, ilimli, odobli va ma'naviy kamolot darajasida bo'lishini istaydi. Bu jarayonda juda ko'p mashaqqatli va zahmatli yo'llarni bosib o'tadi. Ammo ayrim ota-onalar bolaning ma'naviyatli va qobil inson bo'lib yetishuvida tarbiya birlamchi ekanini ko'zdan qochirib qo'yadilar.

Xo'sh, ota-onalar bola tarbiyasini qachondan boshlashlari zarur va buning uchun nima qilishlari kerak? – degan savolga ko'pchilik ota-onalar javob berishga ikkilanib qolishadi. Chunki dunyo o'zgarmoqda, O'zbekiston yangi davr – uchinchi renessans bosqichiga ko'tarilmoqda. Bu o'z-o'zidan farzandlar tarbiyasiga qaysidir jihatdan ta'siri bo'lishi tayin. Farzandni tarbiyalash uchun, eng avvalo, bo'lg'usi otaonalarining o'zlarini tarbiyalash, ya'ni ularni farzand tarbiyasi haqidagi bilim, ko'nikma, malaka va bilimlar bilan qurollantirib hamda yanada bilimlarini takomillashtirib borish orqali qobil farzandlarni dunyoga keltirib, voyaga yetkazish kerak bo'ladi.

Farzandni tarbiya qilganda, uning yoshi va saviyasini inobatga olish muhim.

Ikki yoshgacha mutaxassislarning ta'kidlashicha, onalar bu davrda bola parvarishida quyidagi tavsiyalarga amal qilsalar foydadan holi bo'lmaydi:

–bolani ko'krak suti bilan boqish uning har tomonlama mukammal o'sishi, sog'lom bo'lishi, immunitetining ortishiga yordam beradi;

–bolaga kasallik yuqishidan qo'rqish tabiiy, biroq, shuni unutmangki, gripp havo-tomchi yo'li orqali yuqadi, emizish bilan emas. Bolani emizayotganda yuzingizda 5-6 qavat doka tutilgan bo'lishi kerak;

–bolani to'g'ri ovqatlantirish kerak. Iliq yoki issiq kunlarda bolaga ko'proq suv berish lozim;

–shirin suyuqliklar chanqoqni yaxshi qondirmaydi. Bolani ilk yoshidanoq shirin ta'mga o'rgatib qo'yasiz. Oshqozon osti beziga bosim tushib, diabetga moyillik ko'rsatkichini oshirasiz;

–bola uchun eng foydali ichimlik – qaynatilgan shakarsiz suv. Suv o'rniga turli meva kompotlarini berishingiz mumkin;

–so'rg'ich bola tug'ilganidan boshlab, ilk oylarda so'rishga ehtiyoj kuchli bo'lgan paytlarda juda kerak. Aks holda, u barmog'ini, lablarini, tagliklar chetlarini, qalam uchlarini so'rishni boshlaydi;

–odatda, emizikli bolalar uchun kukun-dorilar beriladi. Ba'zi vositalar sut bilan ichirilsa, ta'sir kuchi yo'qoladi, boshqalarini sutsiz ichirib bo'lmaydi;

–bola yig'laganda, injiqlik qilganida, qo'rqqanida yoki o'ta xursand bo'lganida terlaydi. Sog'lom, emizikli bola esa issiq sharoitda ham deyarli terlamaydi;

–bolani ob-havoga mos kiyintirgan bo'lsangiz, issiqlashi ehtimoldan yiroq. Lekin uning ko'ylakchalari besabab ho'l bo'lsa, unga e'tiborliroq bo'ling;

–doimiy notabiiy nur bola organizmida bioritmlarni nazorat qiluvchi va tetiklikni saqlovchi melatonin gormoni faoliyatini susaytiradi. Natijada, biologik davomiyligi

buzilib, bola o'zini yomon his qila boshlaydi, kunduzi injiqlanadi, tunda yaxshi uxlolmaydi;

–amerikalik pediatriklar har 16 ta boladan bittasida bosh suyagi deformatsiyasini aniqlashdi. Buning sababi, ular uzoq vaqt bir tomonga qarab yotganligidan yoki D vitamini tanqisligidan aziyat chekadi. Bolaga ushbu qimmatli vitaminni yetkazib berishni unutmang;

–har qanday holatda ham bola terisiga me'yordan ortiq yog' yoki krem surmang, ular me'yorda surilgach, bolani tagliklarga o'rab-chirmab tashlamang, yog' yoki krem ma'lum muddat ichida teriga so'rilishi lozim. Aks holda, so'rilmagan massa taglik teshikchalarini to'sib qo'yadi va uning namlikni tutish xususiyatiga putur yetadi, teri muammolari ham kuchayadi;

–bolani aravacha bilan birga zinadan olib tushish bola uchun katta xavf tug'dirishi mumkin. Ko'p qavatli uylarda lift yo'qmi yoki vaqtincha ishlamayaptimi? Unda kichkintoy bir muddat uyda qolgani ma'qul;

–faqat shirin so'zlar, chiroyli muomala va erkalashlar orqali tarbiya qilinadi.

Besh yoshgacha farzand atrofni kuzatadi, aksariyat ma'lumotni shu davrda oladi. Bu davrda ota-ona amaliy tomondan bolaga namuna bo'lishlari, oilada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishlari talab etiladi. Bolaga yoshligidan kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ayniqsa, o'zbek xalq ertaklarini o'qib berish, 3-4 yoshga kirganda o'qib berilgan ertakni tushunganini o'zidan so'rash lozim. Keyin o'qib berilgan ertaklar bo'yicha bolaga oddiy savollar berish va uning javob berishiga shoshiltirmaslik kerak. Bolani savolga bergan har bir javobi uchun maqtab, rag'batlantirib turish olgan tushunchalarining xotirasida doimiy muhrlanib qolishga katta imkoniyat beradi.

Shuningdek, maktabgacha yosh davri sensor jarayonlarni rivojlantirish davri sanaladi. Sensor tarbiya bolalarda hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirishga sezgi va idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

“**Sensor**” so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib “sensus” – “tuyg'u”, “sezgi”, “idrok”, “sezish qobiliyati” ma'nolarini anglatadi.

Demak, borliqni bilish avvalo, sezish, idrok qilishdan boshlanadi. Inson ko'rish, sezish, anglash, his qilish yordamida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida bilimga ega bo'ladi.

Bolalarning sensor madaniyati, unda sezgi va idrokning muvaffaqiyati uchun muhim shart-sharoit hisoblanadi. Bolalarning aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasini shakllanishida sensor tarbiya muhim o'rin tutadi.

O'n yoshgacha bolalar muvozanatli hayotni tez idrok etuvchi, ishonuvchan, ota-onalariga itoatli, tashqi qiyofa haqida ko'p e'tiborsiz bo'lganligi bois bu oltin yosh hisoblanadi. Bu davrda esa me'yorida qattiqqo'llik va intizom talab etiladi. Bola oqqorani, yaxshi-yomonni ayni shu davrda farqiga bora boshlaydi. Bu davrda farzandga to'g'ri yo'l

ko'rsatilishi, yaxshi, sadoqatli do'stlarga hamroh qilinishi bola biz ko'zlagan barcha talablarga javob beradigan odobli, yaxshi inson bo'ladi.

O'n besh yoshgacha bolalar tafakkurida mustaqil fikrlash boshlanadi, o'zim bilaman degan tushuncha paydo bo'ladi, organizmida fiziologik o'zgarishlar yuz beradi, xulq-atvorida qaysidir ma'noda salbiy illatlar namoyon bo'la boshlaydi, kayfiyati tez o'zgaradi, ota-onalariga nisbatan norozilik bildiruvchi, tez jazavaga tushuvchi va o'z o'rnida dunyoga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Ularda did, farosat, o'zini jamoa orasida tutish, aqllilik, hazil-mutoyibaga moyillik, chidamlilik, tashabbuskorlik, tashqi qiyofa va qarama-qarshi jinsdagilarga e'tibori orta boshlaydi.

O'smir o'zining ichki dunyosiga e'tiborliligi ortadi, tanqidlarga nisbatan ta'sirlanuvchan, ota-onasiga "Sizning dunyoqarashingiz boshqacha, unday emas, bunday bo'ladi", – degan tanqidiy munosabatlar bildiruvchi hamda do'st tanlovchi bo'ladi. Shuningdek, bu davrda voqea-hodisalardan o'ta darajada to'lqinlanish va hayajonlanishi ortadi. Shijoatli, xushmuomala, o'ziga ishonchi ortadi, atrofdagi insonlarga e'tibori ortadi va nisbiy farqni ajrata boshlaydi.

O'n sakkiz yoshgacha o'spirinlik ularda muvozanatlashuv, hayotdan quvonish, ichki mustaqillik, emotsional barqarorlik, muomalaga moyillik, kelajakka intiluvchanlik ortadi. Bu davrda farzand do'stimiz, suhbatdoshimiz, ta'bir joiz bo'lsa sirdoshimiz bo'lishi kerak. Bola ota-onadan tortinmasligi, balki do'sti sifatida yaqinlashmog'i lozim. Bu farzandimizni qay darajada tarbiya qilganimizning natijasi o'laroq farzand hayotining keyingi bosqichini belgilab beradi va bu borada donishmandlarning ta'kidlashicha:

- ✓ Agar bola tanqidiy ruhda yashasa, u ayblashni o'rganadi.
- ✓ Agar bola adovat bilan yashasa, u urishishni o'rganadi.
- ✓ Agar bola qo'rquvda yashasa, u qo'rquqlikni o'rganadi.
- ✓ Agar bola afsusda yashasa, u afsuslanishni o'rganadi.
- ✓ Agar bolaning ustidan ko'p kulishsa, uyatchan bo'lishni o'rganadi.
- ✓ Agar bola qiziqish bilan yashasa, u havas qilishni o'rganadi.
- ✓ Agar bola uyat bilan yashasa, u aybdorlik hissini o'rganadi.
- ✓ Agar bola qo'llab-quvvatlash bilan yashasa, u o'ziga ishonishni o'rganadi.
- ✓ Agar bola bag'rikenglikda yashasa, u sabrli bo'lishni o'rganadi.
- ✓ Agar bola maqto'v bilan yashasa, u qadrlashni o'rganadi.
- ✓ Agar bola tan olish bilan yashasa, sevishni o'rganadi.
- ✓ Agar bola rostgo'ylik va adolatda yashasa, u haqiqat va adolat nimaligini o'rganadi.
- ✓ Agar bola xavfsizlikda yashasa, u o'ziga va atrofidagilarga ishonadi.
- ✓ Agar bola do'stlik bilan yashasa, u yer yuzi yashash uchun ajoyib joy ekanligini anglaydi.
- ✓ Agar siz osoyishtalik bilan yashasangiz, sizning farzandingiz ham osoyishtalikda yashaydi.

Kelajak avlod yetuk va komil inson bo‘lib shakllanishi uchun kitob mutolaasi uchun hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘rganishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni tashkil qilish, ota-ona bolada estetik tarbiya, go‘zal manzaralardan zavq olish hissini shakllantirish uchun tabiatdagi manzarali joylarga, muzeylarga olib borishi orqali qalbiga go‘zallik his-tuyg‘usini singdirishi muhimdir.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytganda, ma’naviy immunitetli, fikrini ravon bayon qila oladigan, yuksak marralarni ko‘zlaydigan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti muhimdir. Yoshlarning ma’naviy dunyosini egallashga qaratilgan turli mafkuraviy bo‘xronlar va xavf-xatarlar kuchayib borayotgan davrda o‘zi kimlarning vorislari ekanini teran anglab, ona yurtiga sadoqat va mehr-muhabbat hissi bilan yashaydigan, imon-e’tiqodi chinakamiga barqaror yoshlarga ona yurtimizni yot va begona g‘oya va kuchlardan asrashga hamda jonajon vatanimizni barcha jabhalarda kamol toptirishga o‘z hissasini qo‘sha oladi. Biz ota-onalar farzandlarimizni shunday tarbiya qilishimiz kerakki, ular o‘z ajdodlariga, o‘z o‘tmishiga, Ona vataniga, ona tiliga, millatiga, diniga va qadriyatlariga sodiqlik bilan xizmat qiladigan inson bo‘lib kamolga yetishlari shart va zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A.Маковелский. “Авесто”. Баку, 1960. – Б.80-81.
2. A.Fitrat “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” 2-nashr, –Toshkent: “Ma’naviyat”. 2000. – B.112. 55.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “Adolat”, 2008, – B.24.
4. Amir Temur. “Temur tuzuklari”. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at”, 1996. – B.28.
5. Qur’oni karim “Oli Imron” surasi 38-oyat. “HILOL NASHR”, 2017, – B. 628.
6. Internet manbalari

BOLALARDA ZARARLI ODATLARGA QARAMLIKNI OLDINI OLISH

Fayzullayeva Mohira Davlatovna

Namangan viloyati Chortoq tumani 1-maktab amaliyotchi psixologi

Dexqanova Umidahon Ahmadaliyevna

Namangan viloyati Chortoq tumani 45-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Inson organizmi doimo oziq-ovqatni talab qiladi va ushbu ovqat hisobidan o'zida energiya jamlaydi. Lekin, turmushda shunday narsalar borki, o'smirlik davrida organizm talab qilmasa ham, uning har narsaga qiziquvchanligidan spirtli ichimliklar ichish, tamaki va nos chekish, giyohvand moddalarni iste'mol qilish singari zararli odatlarga o'rganadi.

Kalit so'zlar: psixika, tafakkur, zararli odatlar, psixoaktiv moddalar, qaramlik, addiktiv xulq, agressiya ruhiy holat

KIRISH

Avvalo bu odatlarni uni o'zlashtirgan shaxs boshqarsa, vaqt o'tishi bilan zararli odatlar shartli ravishda uni boshqaradi. Ya'ni inson o'zi-o'zini boshqarish qobiliyatidan mahrum bo'ladi. Shuning uchun ham xalqimizga bu xususida tushunchalar berish ularning ushbu odatlar bilan shug'ullanishning oldini oladi. Zararli odatlarni bartaraf etishda me'yoridagi parhez, jismoniy mashq va turli sport o'yinlari, to'g'ri mehnat faoliyati va dam olish tartibi muhim ahamiyatga ega. Chunki, sog'lom turmush tarzi - bu insonning hayoti va salomatligi xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiluvchi ko'nikmalarga ega bo'lishi asosida hayotiy faoliyatini yo'lga qo'yishi hamda salomatligining yuqori darajada bo'lishiga erishishni ta'minlovchi shakl bo'lib, u kun tartibiga rioya qilish, faol jismoniy harakat asosida organizmni chiniqtirish, sport bilan shug'ullanish, to'la va sifatli ovqatlanish, ovqatlanishda gigienik qoidalariga rioya qilish, muloqot va ekologik madaniyatga erishish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy tarbiya olish, zararli odatlardan o'zini tuta bilish va hokazo holatlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Pedagogik faoliyatning ustuvor yo'nalishi sifatida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish va ularning o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surdi. Prezidentimiz yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga e'tibor karatdi.

"Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb

masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi" O'smirlik asosan 11 dan 16 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda o'smir organizmning o'sish va rivojlanishi tezlashgan bo'lishi, organ va organizm funktsiyalarini takomillashuvi kabilar bilan xarakterlanadi. O'quvchilarning uzoq vaqt davomida ish qobiliyati va nerv sistemasi qo'zg'alishini yuqori darajada saqlashda kun davomida mehnat va dam olish vaqtlarining to'g'ri taqsimlanishini ta'minlovchi to'g'ri tashkil etilgan kun tartibi muhim ahamiyatga ega. Kun tartibini tuzatayotganda o'quvchilarni bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishi nazarda tutilmog'i lozim.

O'quvchilar bilan sinfdan tashqari va maktabdan tashqari mashg'ulotlar o'quv mashg'ulotlari ancha kam bo'lgan o'quv kunlari, shuningdek, yakshanba kunlari va kanikul davrida o'tkaziladi. O'quvchilarning to'garakdagi va jamoat ishlari ortiqcha yuklama tushishi extimolini bartaraf etish maqsadida qat'iy belgilanadi. Maktabdan tashqaridagi turli to'garaklardagi ishi o'smirning faoliyatini ularning rivojlanish, yoshga xos imkoniyatlari va ish bilan dam olishni to'g'ri navbati bilan mos xolda yo'naltirilishi o'qituvchi va ota-onalarni bevosita nazoratida turishi lozim.

Jamoat ishi bolalarga ularning yoshini, salomatlik xolatini va o'ziga xos qiziqishlarini, qobiliyatlarini hamda o'zlashtirishini hisobga olgan xolda topshiriladi. Maktabdan tashqari ishga 1-4 sinf o'quvchilari xaftada 1-2 soat, 5-7 sinf o'quvchilari 3-4 soat, 8-10 sinf o'quvchilari 8-9 soat sarf qilishlari mumkin. Bunday faoliyalar qiziqarli, jonli va bolalar hamda o'smirlar uchun tushunarli tarzda olib boriladi. Faoliyatni yig'ilishlar sifatida iloji boricha kamroq o'tkazish tavsiya etiladi, ko'proq ularni sport va serxarakat o'yinlar, umumta'lim beruvchi ekskursiyalar va sayrlar ko'rinishida o'tkazish lozim. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etilishi, musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlari bilan shug'ullanishi, ularda estetik did va madaniyatni rivojlantiradi.

O'quvchilar kun tartibini o'rganish shuni ko'rsatadiki, kichik maktab yoshidagi bolalar televidenie ko'rsatuvlarini ko'rish uchun xaftada 12 soat, ba'zi bolalaresa 24-26 soat sarf qiladilar. Markaziy nerv sistemasini funktsional xolatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, televidenie ko'rsatuvlarini xar kuni bir soatdan ortiq ko'rmasligi kerak, bu fikr ikkinchi smenada o'qiydigan bolalarga tegishli. Bunday bolalar uchun televidenie ko'rsatuvlarini ko'rish, internet ma'lumotlarini qabul qilish, dam olish va ko'ngil ochish uchun xizmat qilmaydi, balki qo'shimcha yuklama bo'ladi. Televidenie ko'rsatuvlarini ko'rayotgan paytda optimal ko'ruv zonasida, ya'ni ekrandan 2-5,5 m masofada o'tirishi zarur, yorug'lik o'tirgan orqasida turishi tavsiya etiladi.

O'quvchilarning maktabda uzoq vaqt davom etgan bunday faol dam olishi ularning ish qobiliyatiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Faol dam olishning ijobiy ta'siri haqida I.M.Sechenov faol dam olish paytida "Nerv markazlari energiya oladi" deb izoxlaydi[8].

O'quvchilarning faol dam olishi 1,5 soatdan oshganda yoki intensiv yuklama bilan bo'lsa ish qobiliyati juda pasayadi, xatolar soni ko'payadi.

Sport o'yinlarini maktabdagi o'quv mashg'ulotlari va uy vazifalarini tayyorlash o'rtasida o'ynash tavsiya etilmaydi. Ko'p xarakat qilish, intensiv yuklama bilan bog'liq o'yinlar o'quvchilarning ish, aqliy qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Telefon, televizor, kompyuter manbalaridan uzoq muddat foydalanish uyquning uzluksizligini va davomlilikini buzadi, xolbuki bu markaziy nerv sistemasi va butun organizmning normal mehnat qobiliyatini saqlash uchun nihoyatda zarur. O'quvchilarga albatta o'z vaqtidan qanday qilib to'g'ri foydalanishini va o'quv ishini dam olish bilan rejali qilib olib borishni ko'rsatish kerak.

XULOSA


Xulosa qilib shuni aytamizki, o'quvchilar bo'sh vaqtlarini ko'proq o'z qiziqishlariga qarab o'tkazadilar. Badiiy kitoblar o'qish, bichish-tikish, teleko'rsatuvlar ko'rish, rasm chizish o'quvchilar uchun 1,5-2,5 soatni tashkil qilishi kerak. To'garaklar, sport seksiyalariga qatnashish haftasiga 2 marta 45 minutdan 1,5-2 soatgacha bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar kun tartibidan o'z-o'ziga xizmat qilish va ijtimoiy-foydali mehnat ham o'rin egallashi zarur. Bo'sh vaqtlarni mazmunli tashkil etish, vaqtida ovqatlanish, jismoniy harakatlarni amalga oshirish nafaqat zararli odatlarni oldini oladi, balki uzoq umr garovi hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi "Yoshlar – kelajagimiz Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son.
2. Karimova Mukaddas Otajonovna, Nasirova Mavjudakhon Bakhodirovna, Tuychieva Ranokhon Nodirjon kizi PEDAGOGICAL BASES OF THE ORGANIZATION OF METHODOLOGICAL WORK IN PROFESSIONAL COLLEGES ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com> 2021
3. M.N.Ismoilov "Bolalar va o'smirlar gigienasi" Toshkent -1994 yil.
4. D.J.Sharipova "Talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish". "Farg'ona" nashriyoti -2010 y.
5. Internet materiallari

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA ZAMON TALABLARIGA MOS RAVISHDA TA'LIM-TARBIYA BERISH

Xadjayeva Baxriniso Sa'dullayevna
Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani
45-sonli maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi



Annotatsiya: Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan ona tili o'qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o'qish va nutq o'stirish bo'limida o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuniga: o'quvchilarni to'g'ri, ravon, ma'lum darajadagi tezlik bilan ifodali o'qishga o'rgatish; bolaning ona Vatan, uning tabiati kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqloq g'oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi.

Kalit so'zlar: O'qish dasturi, ongli o'qish, aralash dars, o'qituvchi hikoyasi, ta'lim-tarbiya, qobiliyat, idrok

KIRISH

O'qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog'lab o'tishi uning ta'sirchanligi ongli idrok etishlarini ta'minlaydi. O'qish va nutq o'stirishning ta'limiy tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo'yicha o'qish mazmunini o'qish ko'nikmalarining og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o'qish mashg'ulotlarining yozma nutq bilan bog'lanish kabi masalalar aniq kiritilgan.

O'qish darslari davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi. O'qish darslarida o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishning, asosan ikki yo'li bor:

1. Dars jarayonida turli matn xarakteridan kelib chiqib, o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish;
2. O'qish darslari materiallariga berilgan soatlarni qisqartirish hisobiga maxsus ifodali o'qish dasturlari tashkil etish.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. To'g'ri o'qish. Birinchi sinfda jiddiy ahamiyat berish talab qilinadi. Har bir so'z, bo'g'in va tovushni to'g'ri, eshitarli, talaffuz etilishiga erishish lozim.
2. Ongli o'qish. O'quvchi har bir gap, gapdagi so'z, so'zdagi bo'g'inlarni o'qish jarayonida uning ma'nosini tushunib o'qishi kerak.

3. Tez va ravon o'qish. Sekin yoki juda tez o'qish emas, balki gapirganday, o'rtacha tezlik sur'atiga amal qilinib, ham to'g'ri, ham ongli, ham sidirig'asiga ravon o'qishni ta'minlash zarur. Agar o'quvchi, labi labiga tegmay, haddan yashqari tez yoki aksincha sekin, tutilib o'qisa ko'r — ko'rona, ma'nosiga tushunmay qolishi mumkin. O'qish darslarning turlari:

- a) yaxshi bilim berish darsi;
- b) mustahkamlash darsi;
- v) nazorat darsi;
- g) aralash dars;
- d) takrorlash-umumlashtirish darsi o'qish.

Umumlashtiruvchi darsning o'ziga xos xususiyatlari maqsadi.

Umumlashtiruvchi o'qish darsi qurilishi jixatidan boshqa darslardan farqlanadi. Bunday darslar har bir sinfda 4-5 marta o'tkaziladi. Yangi dastur va metodik qo'llanmalarda tavsiya qilinganidek, har bir o'qish darsida o'qilgan asar haqidagi o'quvchilar tasavvuri va bilimini umumlashtiruvchi darsning qurilishi umumlashtirishning maqsadi va xarakteriga qarab belgilanadi. O'qishdan o'tkaziladigan umumlashtiruvchi dars o'quvchilar bilimini sistemaga solish, o'rganilganlarni takrorlab umumlashtirish maqsadiga xizmat qiladi. Umumlashtiruvchi dars, odatda, o'qish dasturidagi biror muhim mavzu yuzasidan o'tkaziladi. Umumlashtiruvchi dars dasturning butun bir bo'limini yakunlashga xizmat qilishi ham mumkin. Umumlashtiruvchi dars bolalar tasavvuri va tushunchalarini kengaytirishga yordam beradi; bunday darslarda o'quvchilar egallagan bilimlarining sinf va maktab jamoasi hayotida, har bir o'quvchi hayotidagi ahamiyatini tushunadilar. Bu darsda o'qituvchi bolalar bilimini boyitadigan qo'shimcha materiallar berishi ham mumkin. Umumlashtiruvchi darsda takrorlash ilgari o'qilganlarning mazmunini o'quvchilar yodida qayta tiklash emas, balki umumlashtiruvchi xarakterda bo'lishi, bolalar bilimini sistemalashtirishga, ayrim tasavvur va tushunchalarni tartibga solishga yordam berishi lozim. Shunday ekan, bunday darslar uchun kitobdan o'qilganlarga emas, balki bolalarning kuzatishlari natijasida bevosita idrok etilgan tabiatdagi fan va hodisalar, ijtimoiy hayot voqealari, shaxsiy tajribalari ham material bo'ladi. Maktab hayoti, oila va tabiatshunoslikka oid mavzuga bag'ishlangan umumlashtiruvchi darslarning vazifasi kitob materialini o'quvchilarning kuzatishlari, ekskursiyalardan olgan bilimlari bilan bog'lashdir. Umumlashtiruvchi darslarda ish turlari xilma-xil bo'lib, o'qilganlar, ko'rilgan-kechirilganlar yuzasidan suhbat, illyustrativ materiallar (rasmlar, misollar)ni ko'rsatish va tahlil qilish, o'quvchilarning ayrim asarlardan parchalar o'qishi, ekskursiya va kuzatishlar haqida bolalarning og'zaki hikoya qilishi kabilardan fodalaniladi. Umumlashtiruvchi dars uchun ish turi darsning aniq maqsadidan kelib chiqib ta'minlanadi. Umumlashtiruvchi darslarga, asosan, quyidagi pedagogik talablar qo'yiladi.

O'quvchilar dasturdagi muayyan mavzu ustida ishlab, o'qiganlari, ko'rgan, eshitgani, kuzatganlari haqida o'z fikr-mulohazalarini dalil va erkin aytish imkoniyatlariga ega bo'lsinlar. Masalan, ma'lum bir mavzuni yakunlab o'tkazilgan umumlashtiruvchi darsda bolalar kitobdan shu mavzuga oid o'qigan hikoya va maqolalardan qaysi biri qiziqarliroq ekanini, shuningdek, biror hikoya yoki maqoladagi qatnashuvchi shaxslar, ularning xulq-atvorlari haqida o'z fikrlarini aytadilar, zarur bo'lsa, o'qilgan asar mazmunini qisqa bayon qiladilar. Agar mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilar bilan ekskursiya o'tkazilgan bo'lsa, ular ekskursiyadan ko'rganlaridan nimalar qiziqarli bo'lganini, qaysilari kuchli taassurot qoldirganini aytib berishlariga o'qituvchi yordam beradi. Bular o'quvchilar tafakkurini faollashtiradi, ularni faol fikrlashga o'rgatadi, o'stiruvchi ta'limning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. O'qish kitoblarida berilgan savol va topshiriqlar bolalar qiziqishiga yaqin, ularning yosh xususiyatiga mos, shuning uchun ular yuzasidan bolalar to'g'ri yakun va umumiy xulosa chiqara oladilar. Mustaqil xulosa chiqarish tarbiyalovchi ta'limda muhim ahamiyatga ega. Umumlashtiruvchi darsning muvaffaqiyati unga o'qituvchining qanday tayyorgarlik ko'rishiga bog'liq. Bunday darsda juda ko'p material yuzasidan umumiy xulosa chiqarishni rejalashtirib bo'lmaydi; bu darsda ko'p material yuklash o'quvchilar diqqatini chalg'itadi; idrok etish qobiliyatlarini pasaytiradi va faol fikrlashlariga xalal beradi. O'qituvchi umumlashtiruvchi darsda o'quvchilardan nimalarni so'rashini, biror narsaga oid yana nimalarni umumlashtirishini belgilab oladi; darsning maqsadi haqida o'ylab, bolalar tafakkuri va faoliyatini faollashtirishga ta'sir etadigan ish shakllaridan foydalanishni rejalashtiradi.

Umumlashtiruvchi darsni dasturdagi har bir mavzu o'rganilgandan so'ng o'tkazish shart emas. Uni faqat muhim va katta bo'lim materiallari o'rganilgandan keyin o'tkazish kifoya. Umumlashtiruvchi darslarda ko'rgazma qo'llanmalar, savol va topshiriqlar, ekskursiya, kuzatish, uchrashuv va suhbat materiallaridan mavzularni o'rganish davridagidek foydalanish tavsiya etilmaydi. Umumlashtiruvchi dars oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchi kundalik mashg'ulotlarda foydalanilgan juda ko'p materiallardan har bir mavzu uchun muhim va xarakterlilarini tanlashi, o'quvchilar mustaqil xulosa chiqara olishlariga va o'z fikr-mulohazalarini bayon etishlariga imkon yaratib berishlari zarur. Buning uchun o'quvchilar o'zlarining ekskursiya va kuzatish vaqtida yozgan xotiralarini (agar bo'lsa) o'qib chiqishlari, ilgari tayyorlangan rasmlarini, kitobdagi materiallarni ko'zdan kechirib, qiziqarli o'rinlarini belgilashlari, biror asardan ayrim parchani yod olishlari yoki matnga yaqin bayon etishga tayyorlanishlari lozim.

O'qish darslari atrof-muhit, insoniy munosabatlar, Vatanning o'tmishi va hozirgi kundagi hayoti, unda insonlarning o'rni haqidagi o'quvchilar bilimlarini kengaytiradi, dunyoqarashlarining shakllanishiga, ma'naviy- axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Natijada o'quvchilarda ijobiy- axloqiy sifatlar shakllana boshlaydi, vatanparvarlik,

vatanga muhabbat, insonparvarlik hislari rivojlanadi. Shuning bilan birga kitobda mustaqil o'qish uchun ham materiallar berilgan. Darslikning har bir bo'limi ma'lum maqsad asosida tuzilgan. Har bir bo'lim so'ngida mustahkamlash uchun savollar va topshiriqlar, turli boshqotirma va rebuslar berilganki, bular o'quvchilarda erkin fikrlashni, izlanish qobiliyatini rivojlantirish bilan birga, ularda o'qish motivlarini rivojlanishiga xizmat qiladi.

Birinchi bo'lim - "O'zbekiston – mening vatanim" o'quvchilarni vatan tushunchasi bilan tanishtirib, uning qiyosi yo'qligiga ishonitiradi, uni asrab avaylashga, u bilan faxrlanish o'rgatadi. Shuningdek, vatanning o'tmishi va hozirgi kuni haqidagi materiallar ham o'quvchilarda vatnparvarlik, vatanga muhabbat hislarini rivojlantirishga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi bo'lim – "Biz – buyuklar avlodi" deb nomlangan. Bu bo'limda o'quvchilar o'zbek xalqining buyuk xalq ekanligini, uning donishmand farzandlarini butun dunyo bilishini o'rganib, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik sifatlari tarbiyalanadi. Bu bo'limda ular millatimiz faxri bo'lgan Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Abu Ali ibn Sino, Bobur kabi allomalar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishadilar. Ularning hayoti haqidagi rivoyatlarni o'rganadilar.

Uchinchi bo'lim- "Ko'klam- yashardi olam" deb nomlangan. Bu bo'limda o'quvchilar bahor fasli unda o'tadigan bayramlar, bahorda bajariladigan ishlar haqidagi ma'lumotlar bilan tanishadilar, fasllar haqida, bayramlar, urf- odatlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lishadi.

To'rtinchi bo'lim – "Ilm – aql chirog'i" deb nomlangan bo'lib, o'quvchilar bu bo'limda ilmga, o'qishga, kitobga mehrlil bo'lish haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilishadi. O'quvchilar bu bo'limni o'rganish orqali ilmning inson hayotidagi ahamiyatini bilib oladilar. Bilimli bo'lish uchun ko'proq o'qish, o'rganish lozimligini anglaydilar.

Beshinchi bo'lim – "Xalq o'giti – baxt kaliti" deb nomlanib, xalq og'zaki ijodini o'rganishga bag'ishlangan, bunda 1-sinf o'quvchilarining yoshi, o'zlashtirish xususiyatlariga mos materiallar tanlangan. Asosiy maqsad o'quvchilarda umuminsoniy sifatlarni, qadriyatlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Oltinchi bo'lim – "Odob – insonga husn". Bu bo'limda insonning eng go'zal fazilatlaridan biri – odoblilik haqida gap boradi. Bu bo'limni o'rganish orqali o'quvchilar kundalik hayotidagi insoniy munosabatlarni, undagi axloq normalarini, umuminsoniy sifatlarni bilib o'zlashtirib oladilar.

Yettinchi bo'lim – "Mehnatning tagi rohat". Bunda o'quvchilar mehnat insonga baxt keltirishini, insonlar hayotida baxtli yashash uchun birorkasbni egallashlari zarurligi haqidagi mavzularni o'rganadilar. Ularda mehnatga hurmat, mehnatsevarlik, kasb egallashga qiziqish tarbiyalanadi. O'qituvchi badiiy matn ustida ishlaganda mavjud savol va topshiriqlardan foydalanadi. U matnni avval ifodali qilib o'qib beradi. Keyin matn mazmuni ustida suhbat uyishtiradi. Bunda o'qituvchi savollar va tasviriy vositalardan

foydalanadi. O'quvchilarning o'zlariga ovoz chiqarmay o'qish, mazmunini tushunish topshiriladi. Keyin navbatma - navbat o'qitiladi. Lug'at ustida ishlab, yangi so'zlarning ma'nosi tushuntiriladi, o'quvchilarning lug'at boyligini oshorishga e'tibor qaratiladi. Oxirida savol – javob, test, boshqotirma, rebus yechib o'quvchilar umumlashtiriladi, reytingi e'lon qilinadi.

XULOSA

O'quvchilarning borliq, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlari, bilimlarini ma'lum bir tizimga solish va boyitish, dunyoqarashini shakllantirish kabi vazifalar bajariladi. O'quvchilarning o'qish tezligini oshirish. O'qituvchi 1-sinfning 2-yarim yilligida o'quvchining bir daqiqada 20-25 so'zni o'qiy olishiga erishishi kerak. Bu o'qish tezligi o'quvchilarning asar mazmunini o'zlashtirishini ta'minlashi lozim. Lekin o'qish tezligi har bir o'quvchining og'zaki nutq tempiga ham bog'liq bo'ladi. Bu o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi lozim. Sekin gapiradigan bola ravon, to'g'ri o'qisa-yu, bir daqiqada 22-23 so'zni o'qisa, uni o'qish talabini bajarmadi deb bo'lmaydi. O'quvchilarning o'qish sur'atini tezlashtirish uchun turli topshiriqlar asosida o'qishni mashq qilish, o'quvchida o'qishga qiziqish uyg'otish, rollarga bo'lib o'qitish, dialogli matnlarni avval tez o'qiydigan o'quvchiga, so'ng sekin o'qiydigan o'quvchiga taqsimlash kabi usullardan foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A “Yuksak m'naviyat yingilmas kuch “. Toshkent: O'zbekiston 2008. 202 b.
2. Tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi. 2005y.
3. A. Avloniy “Turkiy Guluston yohud ahloq” (nashirga tayyorlovchi Holiqov L)- Toshkent: O'qituvchi, 1992. 160b. 4.Sh. Shodmonov, M. Halimov, N. Fayzullayeva. Tarbiyaviy ishlar uslubiyati. T.2008y.
4. Ziyo.net

FARZAND TARBIYASIDA OILANING ROLI HAMDA PSIXOLOGIK MASALALARI

Abdullayeva Munojatxon Sharifovna
Qo'qon shahar 26-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

O'zbek xalq pedagogikasida tarbiyaning turli metod, vositalaridan foydalaniladi. Ular nihoyatda rang-barang. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan xilma-xil tarbiya turlari borligi uchun ham yosh avlod ko'plab yutuqlarga erishadi va o'z yo'lini topadi. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'shi oila yoki mahalla gullab-yashnaydi. Oiladagi muhit ota-ona o'z mas'uliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Oiladagi qo'pol munosabatlar ya'ni yolg'on gapirish, yoqimsiz hatti-xarakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi.

Kalit so'zlar: Oila, oilaviy muhit, farzand tarbiyasi, tarbiya turlari, nazorat, oilada ota-ona haqqi, farzand haqqi.

KIRISH

Oila tarbiyasining barcha turlarida - munosabat eng asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, otaonalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xusan farzandlarning bevosita ta'siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi. O'zaro aloqalari mazmuni boyib boradi. Real hayot mohiyatini chuqur anglash ya'ni farzandlar kamoloti kelajagi timsolida o'z umri davomiyligi farovonligini qurish holati ro'y beradi. Oila a'zolarining ma'naviy sifatlariga ega bolishi, unda ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bolishida oila tarbiyasi asosiy vazifani bajaradi, Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun beqiyos ahamiyatga egadir.

Vaqt o'tgan sari oilaviy tarbiya qiyinlashib boraveradi. Chunki jamiyat taraqqiy etib borar ekan, har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ham ortadi. Bu esa oilada bolaga jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, g'oyaviy hamda jinsiy ta'lim berish, ularda ko'nikma va malakalarni shakllantirish kerakligini anglatadi.

Farzand oilaning jamiyatning yuzi. Farzandning tarbiyasi, axloqi, dunyoqarashi go'zal bo'lsa, undan aqlli, mehribon, mustaqil - ona, ishbilarmon, jasur, qo'rqmas, vijdonli - ota, muhimi, iymonli, yetuk insonlar yetishib chiqadi. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday insonlar ma'naviyatli, madaniyatli jamiyatini yuzaga keltiradi va barchaga o'rnak bo'ladi. Shunday ekan, farzand ota-onaning biznes loyihasi bolishi kerak emas.

Farzand bu dunyoga umidlarimiz ushalishini ta'minlash va bizning qoidalarimiz boyicha yashash uchun kelmaydi. Uning ham hayotda o'zining vazifalari bo'ladi. Shu ma'noda, farzand - bu bizning faqatgina davomchimiz emas, balki mustaqil shaxs hamdir. Bolaga alohida shaxs sifatida qarab, unga ishonch bildirish, mustaqil qo'yish muhimdir.

Farzand uchun ota-onalar hamma narsani hal qilsalar, albatta, zo'r amalga oshadi. Shuning uchun ham ota-onalar bolaning yo'lida uchragan hamma qiyinchiliklarni o'zlari hal qiladilar, lekin bolaga har doim ham tez yordam berish uchun bu bola doimo ularning yonida bo'lishi kerak bo'ladi. Qiyinchiliklarsiz yashash evaziga bola o'z ozodligi va mustaqilligi bilan to'lashiga to'g'ri keladi. Lekin u bolani qo'rqitmaydi. Kun kelib, ota-onalar hayotdan ketadi va bola yolg'iz qoladi. Yoshi bo'yicha katta inson, lekin shunchalar ojizki...

Aslida, ota-onalarning vazifasi bolaning qiyinchiliklarni hal qilishga yordam berish, zo'r berib bu qiyinchiliklarni yengib o'tishni o'rgatishdir. Bu huddiki chiniqishga o'xshaydi. Agar shunday tarbiya bo'lsa, bola necha yosh bo'lishidan qat'iy nazar, qiyin vaziyatlarga uchraganda o'zini qo'lga olib: "Hechqisi yo'q, buni ham hal qila olaman", deb aytadi. Ota-onalarning nazorati har xil bo'ladi. Himoya qiluvchi, yo'naltiruvchi, bo'lavchi, g'ashga teguvchi, o'zidan itaruvchi nazorat turlari bo'lishi mumkin. Ota-onalar vaqtida nazoratni susaytirishni eplay olmasa, nazorat birinchi turdan boshqa turga o'tishi mumkin. Ikki yoshli bola kun davomida nima yeyishini ona nazorat qilishi oddiy va tabiiy hol, ayniqsa, unda allergiya bo'lsa. Mana endi bola yetti yoshga to'ldi va uni sinfdoshining tug'ilgan kuniga taklif qilishdi. Atrofda bolalar ko'p, hammayoq shovqin-suron va xursandchilikka to'la. Bolalar bir-bir stol yoniga kelib biror nima yeyishga olib yana o'ynashga chopib ketishadi. Onalar berilib suhbat qurishadi. Faqatgina bir ona bolasini nazorat qilish bilan mashg'ul: stoldan zararli, allergiya qo'zg'atuvchi biror narsa olib qo'yishi mumkin emas-da. "Bolam hozirgina nima olding?! Konfetni joyiga qo'yib qo'y! Bo'lmasa biz hoziroq ketamiz!" Bolaning har bir qadami onasi tomonidan nazoratga olinadi. Nazorati davomida "Stol ustidan menga bildirmay konfet olib qochsang ko'rasan!" deb ham qo'yadi. Balki bu safar bu ishni bajarish o'g'lining qo'lidan kelmas, lekin aniq aytishim mumkinki, bu o'yin keyingi safar ham davom etadi. Uning nazorati g'ashga tegishni boshlaydi va onani boladan uzoqlashtiradi.

Ota-onalar bola tarbiyasi oson ish emasligini anglashlari kerak. Yoshlikdagi tarbiya bolaning kelajak hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bolalar tarbiyasiga mas'ul shaxslar, ota-onalar yoki muallimmi, tarbiyaga qattiq e'tibor berishlari shart. Avvalgi musulmonlar farzandlariga ilmda yetuk, xulqi go'zal va chiroyli uslubi bilan tanilgan muallimlarni tanlashadi edi.

Johiz rahmatullohi alayh aytadi: "Uqba ibn Abu Sufyon farzandini murabbiyga berayotib: Bolamning islohida birinchi qiladigan ishing - o'zingni isloh qilish bo'lsin.

Chunki ularning ko'zlari sening ko'zlaringga bog'langan. Sen chiroyli deb bilgan amal - ularga ham chiroyli, yomon deb bilgan amal - ularga ham yomon ko'rinadi. Ularga

hakimlar siyratini, adiblar axloqini o'rgat. Ularga meni salobatli qil. Ularga kasalini bilib, keyin davosini qiladigan tabiiy kabi bo'l. Menga uzr aytadigan ish qilma. Chunki senga ishonganman", dedi.

Yana bir haqqi, ota-ona o'ziga to'q bo'lsa ham, ularning nafaqasini yaxshilash, nafaqa berib turish, ularni so'rashga muhtoj qilmay yoki minnat qilmay izzat ko'rsatishdir. Ota-onalari zaiflashgan qartaygab vaqtlarda farzandlari ularni haqqini ado qilishlarini Islom birinchi o'ringa qo'yadi. Islom shariati qodir farzandlarni ojiz bo'lgan ota-onalar haqqini kafolatga olishga hukm etadi. Ishni farzandlarning o'zlariga topshirib qo'ymagan, balki bu kafolatni ularga farz qilganki, agar vaqtida vafo qilmasalar ham baribir qazosi vojib bo'ladi.

XULOSA

Shunga ko'ra, ota-ona tomonidan yaqin qarindoshlik aloqasi bor kishilardan ham aloqani uzmaslik vojibdir. Yana ota-ona haqlariga hayot vaqtlarida ham vafotlaridan keyin ham duoda bo'lib turish kerak. Oila tarbiyasiga tegishli bo'lgan ota-ona haqlari dan tashqari farzandning ham haqlari bordir. Bunday haqlarning ado etilishi oilaning havas qilarli darajada yetuk bo'lishini ta'minlaydi. Farzandning haqlari quyidagilardir:

-Nikohning asl maqsadlaridan biri ham nasl-nasabini saqlashdir. Busiz oila ham, jamiyat ham bo'lmaydi. Farzandning ota-onasi nikohdan o'tgan, halol-pok yashagandagina nasabi aniq va pok bo'ladi.

-Islom bola haqida u hali dunyoga kelmasidan ancha oldin, oila qurishga tayyorgarlik ko'rilayotgan paytdan boshlab qayg'ura boshlaydi. "Talxays" nomli kitobda Oisha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: "Sizlar o'z nuftangizga munosib jufti halolini ixtiyor qilinglar. O'zingizga munosiblarga nikohlaning va ularga nikohlab bering".(Ibn Moja va Dora Qutniy rivoyat qilishgan.)

Alloh taolo Baqara surasida: "Onalar farzandlarini to'liq ikki yil emizurlar. (Bu) emizishni batamom qilmoqchi bo'lgan kishi uchundir", degan. (233 - oyat) Bolagaga munosib ism tanlash, aqiyqa, qulog'iga azon va takbir aytish, yangi tug'ilgan bolaning tanglayini ko'tarish, homiylik, valiylik, nafaqa, bolaga mehribonlik ko'rsatish, bolalar orasida adolat qilish va balog'atga yetganidan so'ng uylantirib oilali qilib qoyish kabilar ham bolaning haqlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Pedagogika / J. Hasanboyev, X.A. To'raqulov, I.Sh. Alqarov, N.O'. Usmanov. T.: "Noshir", 2011.
2. Pedagogika / U.I. Inoyatov, N.A. Muslimov, D.I. Ro'ziyeva, M.H. Usmonboyeva. T.: 2016.
3. Islomda oila: muammo va yechimlar / M.Ahmad. T.: "Azon kitoblari", 2022.
4. Ruhiy tarbiya – 3-juz, Xulqlanish / Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. T.: "Hilol-Nashr", 2021.

5. “Dangasa ona”ning katta kitobi / Anna Aleksandrovna Bikova. T.: “Taffakkur tomchilari”, 2021.
6. Shaxsiyat va harakter rivojlanishida farzand tarbiyalash siri / Adem Gunesh. T.: “Tasnim”, 2022.

JISMONIY ZO‘RAVONLIKNING YUZGA KELISHI HAMDA BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI

Xolmatova E'zozxon Muxtorovna

Buvayda tumani 21 maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Zo‘ravonlik qurbonlarining ruhiy holati ko‘pincha juda zaif bo‘ladi. Ular o‘zlarini yolg‘iz, tushkun, umidsiz his qilishlari mumkin. Bu holat ularning ijtimoiy faoliyatdan chetlanishiga, o‘z-o‘zini qadrlashning pasayishiga olib keladi. Shu bois, psixologik xizmatning asosiy vazifasi qurbonlarning ruhiy jarohatlarini aniqlash, ularni barqarorlashtirish va tiklashdan iborat.

Kalit so‘zlar: psixologik yordam, psixologik xizmat, jismoniy zo‘ravonlik, raqobat, muammolar, yechim, ta’lim muassasalari, ruhiy buzilishlar, psixik jarayonlar

KIRISH

Psixologik xizmat ko‘rsatishda mutaxassislarning malakasi va maxsus tayyorgarligi katta ahamiyatga ega. Zo‘ravonlik bilan bog‘liq ishlar o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi, chunki qurbonlarning ruhiy jarohatlari chuqur va murakkab bo‘lishi mumkin. Psixologlar, sotsiologlar, ijtimoiy ishchilar va huquqshunoslar zo‘ravonlikka uchraganlar bilan ishlashda maxsus treninglardan o‘tishi zarur. Bu ularning samarali va professional yordam ko‘rsatishlarini ta’minlaydi. Psixologik xizmatni tashkil etishda davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligi muhim rol o‘ynaydi. Davlat organlari zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha qonunlar va tartiblarni ishlab chiqadi, moliyaviy va tashkiliy yordam ko‘rsatadi. Nodavlat tashkilotlar esa ko‘pincha qurbonlarga yaqinroq bo‘lib, ularning ehtiyojlarini chuqurroq anglab, samarali yordam beradi. Bu hamkorlik tizimi psixologik xizmatlarning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy texnologiyalar psixologik xizmat ko‘rsatishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Onlayn maslahatlar, telefon orqali psixologik yordam, mobil ilovalar yordamida qo‘llab-quvvatlash tizimlari qurbonlarga tez va qulay yordam olish imkonini beradi. Bu ayniqsa uzoq hududlarda yashovchi va an’anaviy xizmatlarga erishish imkoni cheklangan ayollar va bolalar uchun muhimdir. Shu bilan birga, texnologiyalar yordamida psixologik xizmatlar doirasida ta’lim va profilaktika ishlarini ham kengaytirish mumkin. Profilaktika tadbirlari zo‘ravonlikning oldini olishda asosiy vositalardan biridir. Bu borada jamoatchilikni zo‘ravonlikning zararli oqibatlari haqida xabardor qilish, oilaviy munosabatlarni yaxshilash, stressni boshqarish va konfliktlarni hal etish ko‘nikmalarini o‘rgatish muhimdir. Psixologik xizmat tashkilotchilari bu tadbirlarni amalga oshirishda faol ishtirok etib, zo‘ravonlikka qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi. Ayollar va bolalar ruhiy hamda jismoniy zo‘ravonlikka uchraganda psixologik xizmatning tashkil etilishi tizimli, kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu xizmatlarning samarali bo‘lishi uchun

ularni tashkil etishda insonparvarlik, maxfiylik, individual yondashuv va ijtimoiy qo'llabquvvatlash kabi tamoyillar asosiy o'rin tutadi. Psixologik xizmatlar qurbonlarning ruhiy salomatligini tiklash, ularning jamiyatga qaytishini ta'minlash va zo'ravonlikni oldini olishga qaratilgan muhim ijtimoiy himoya mexanizmi hisoblanadi.

Psixologik xizmat zamonaviy jamiyatda insonlarning ruhiy salomatligini ta'minlash va ularning hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Har bir inson hayotida turli xil qiyinchiliklar, stresslar va ruhiy zo'riqishlar uchrab turadi, va bunday vaziyatlarda malakali psixologik yordamga murojaat qilish zarur bo'ladi. Psixologik xizmat insonlarga o'z his-tuyg'ularini anglash, muammolarni hal qilish, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yaxshilash imkonini yaratadi. Ayollar va bolalar jamiyatning eng himoyasiz qatlamlari bo'lib, ular ko'pincha ruhiy va jismoniy zo'ravonlikka duch keladilar. Bunday holatlarda psixologik xizmatning ahamiyati yanada oshadi, chunki zo'ravonlik qurbonlari o'zlarini yolg'iz, tushkun va umidsiz his qilishlari mumkin. Psixologik yordam ularning ruhiy jarohatlarini yengishga, o'zo'zini qadrlashni tiklashga va jamiyatga qaytishga yordam beradi. Psixologik xizmat ko'rsatish tizimi inson huquqlarini himoya qilish, zo'ravonlikning oldini olish va qurbonlarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu tizimda malakali mutaxassislar, maxfiylik tamoyili va ijtimoiy qo'llabquvvatlash muhim o'rin tutadi. Shu bois, psixologik xizmat jamiyatda barqarorlik va insonparvarlik tamoyillarini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi.

Zo'ravonlik qurbonlarining ruhiy holati ko'pincha juda zaif bo'ladi. Ular o'zlarini yolg'iz, tushkun, umidsiz his qilishlari mumkin. Bu holat ularning ijtimoiy faoliyatdan chetlanishiga, o'z-o'zini qadrlashning pasayishiga olib keladi. Shu bois, psixologik xizmatning asosiy vazifasi qurbonlarning ruhiy jarohatlarini aniqlash, ularni barqarorlashtirish va tiklashdan iborat. Bu jarayon murakkab va ko'p bosqichli bo'lib, har bir bosqichda individual yondashuv talab etiladi. Psixologik xizmatni tashkil etishda birinchi qadam zo'ravonlik qurbonlarini aniqlash va ularga tezkor yordam ko'rsatishdir. Bu uchun ijtimoiy xizmatlar, tibbiyot muassasalari, politsiya va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatilishi zarur. Zo'ravonlikka uchragan ayollar va bolalar uchun maxsus markazlar tashkil etilishi, u yerda ularga xavfsiz muhitda psixologik maslahatlar, tibbiy yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ko'rsatilishi kerak. Bu markazlarda psixologlar, sotsiologlar, ijtimoiy ishchilar va boshqa mutaxassislar faoliyat yuritadi.

Psixologik yordam ko'rsatishda individual terapiya muhim o'rin tutadi. Individual terapiya orqali har bir qurbonning shaxsiy muammolari, ruhiy holati chuqur o'rganiladi. Bu jarayonda travma terapiyasi, stressni boshqarish texnikalari, kognitivbehavioral terapiya kabi metodlar qo'llaniladi. Individual terapiya qurbonlarga o'z his-tuyg'ularini ifoda etish, qo'rquv va xavotirlarni yengish, o'z-o'zini qadrlashni tiklash imkonini beradi. Guruh terapiyalari ham samarali vosita hisoblanadi. Guruhda ishlash qurbonlarga o'zaro

tajriba almashish, bir-birini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy izolyatsiyadan chiqishga yordam beradi. Guruh terapiyalari orqali qurbonlar o'z muammolari bilan yolg'iz emasligini anglaydilar, bu esa ularning ruhiy holatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shuningdek, guruh terapiyalari ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Psixologik xizmat ko'rsatishda maxfiylik tamoyili alohida ahamiyatga ega. Zo'ravonlik qurbonlari ko'pincha o'z muammolarini oshkor qilishdan qo'rqadilar, chunki bu ularning xavfsizligiga tahdid solishi mumkin. Shu sababli, psixologik yordam ko'rsatiladigan muassasalarda shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi qat'iy ta'minlanishi zarur. Maxfiylik tamoyili qurbonlarning ishonchini qozonish va ularni yordam olishga undashda muhim omildir. Zo'ravonlikka uchragan ayollar va bolalarga psixologik yordam faqat ruhiy holatni barqarorlashtirish bilan cheklanmasligi kerak. Ularning ijtimoiy holatini yaxshilash, iqtisodiy mustaqilligini oshirish, ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish ham muhimdir. Shu bois, psixologik xizmat tizimi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xizmatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Bu orqali qurbonlar jamiyatga qaytib, o'z hayotlarini mustaqil ravishda boshqarish imkoniga ega bo'ladilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, zo'ravonlik qurbonlariga psixologik yordam ko'rsatish tizimini yaratish va rivojlantirish jamiyatning ijtimoiy adolati va inson huquqlarini himoya qilish borasidagi muhim vazifalaridan biridir. Bu tizim qurbonlarning ruhiy va jismoniy sog'lig'ini tiklash, ularni ijtimoiy hayotga qaytarish, shuningdek, zo'ravonlikning oldini olishga xizmat qiladi. Shu bois, psixologik xizmat ko'rsatish tizimlari davlat, jamiyat va mutaxassislar hamkorligida doimiy ravishda takomillashtirib borilishi lozim. Zo'ravonlikka qarshi kurashda psixologik yordamning roli beqiyosdir va bu borada amalga oshiriladigan har bir qadam inson hayotini yaxshilashga qaratilgan muhim sa'y-harakatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Islomova, N. (2022). Zo'ravonlik qurbonlariga psixologik yordam ko'rsatish metodikalari. Toshkent: Ilmiy nashrlar.
2. Karimov, S. (2024). Ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonlik: ijtimoiy va psixologik jihatlar. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti.
3. Mamatqulov, T. (2023). Zo'ravonlik qurbonlari uchun psixologik rehabilitatsiya tizimi. Toshkent: Psixologiya va Pedagogika Jurnal, 2-son.
4. Raximova, D. (2024). Psixologik xizmat va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash: zo'ravonlikka qarshi kurash. Toshkent: O'zbekiston Psixologlar Assotsiatsiyasi.
5. Sobirov, A. (2023). Bolalarga nisbatan zo'ravonlik va uning psixologik oqibatlari. Toshkent: Pedagogika va Psixologiya Jurnal, 1-son.

INSONDA EHTIYOJLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK BOSQICHLARI

G'offorova Gulchexraxon Abdumannon qizi
Buvayda tumani 3-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar inson va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, ularning qondirilishi jamiyatning rivojlanishi va barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ehtiyojlar insonning kundalik hayotidagi asosiy talablarini aks ettiradi va ijtimoiy, iqtisodiy, hamda madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Quyida ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning mazmuni va tarkibi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ehtiyojlar, iqtisodiy ehtiyojlar, moddiy ehtiyojlar, ma'naviy ehtiyojlar, jamiyat barqarorligi, farovonlik, ijtimoiy munosabatlar, moliyaviy xavfsizlik, shaxsiy rivojlanish, ruhiy rivojlanish

KIRISH

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar tushunchasi Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar insonning yashash va rivojlanish uchun zarur bo'lgan talab va istaklar majmuasi hisoblanadi. Bu ehtiyojlar insonning iqtisodiy faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va umumiy hayot sifatiga bog'liq holda shakllanadi. Ular quyidagi asosiy omillar orqali aniqlanadi:

1. Insonning biologik va psixologik xususiyatlari.
2. Jamiyatning rivojlanish darajasi.
3. Resurslar va ishlab chiqarish imkoniyatlari.
4. Ijtimoiy munosabatlarning tabiati va shakli.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning tarkibi Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib, ularning har biri alohida ahamiyatga ega. Asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1. Moddiy ehtiyojlar Moddiy ehtiyojlar insonning jismoniy mavjudligi uchun zarur bo'lgan asosiy talablarni o'z ichiga oladi. Ular quyidagilardan iborat:

- Oziq-ovqat: To'yimli va sog'lom ovqatlanish.
- Kiyim-kechak: Turli mavsum va sharoitlarga mos kiyimlar.
- Uy-joy: Yashash uchun xavfsiz va qulay sharoit.
- Transport vositalari: Kundalik faoliyatni ta'minlash uchun zarur bo'lgan vositalar.

2. Ma'naviy ehtiyojlar Ma'naviy ehtiyojlar insonning ichki dunyosini boyitish va intellektual rivojlanishini ta'minlash bilan bog'liqdir. Ular quyidagilarni qamrab oladi:

- Ta'lim olish: Bilim va ko'nikmalarni oshirish.
- Madaniy faoliyat: Kitob o'qish, san'at asarlarini tomosha qilish, ijodiy
- ishlar bilan shug'ullanish.
- Shaxsiy rivojlanish: Dunyoqarashni kengaytirish va yangi tajribalar orttirish.

- 3. Ijtimoiy ehtiyojlar Ijtimoiy ehtiyojlar insonning jamiyatda o'z o'rnini topish va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan talablaridir:
- Muloqot qilish: Oila a'zolari, do'stlar va hamkasblar bilan aloqa qilish. o Hamkorlik: Jamoaviy faoliyat va guruh ishlarida ishtirok etish. o Ijtimoiy maqom: Jamiyatda e'tirof etilgan mavqega ega bo'lish.
- Iqtisodiy ehtiyojlar Iqtisodiy ehtiyojlar insonning mehnat faoliyati va moddiy farovonlikka bo'lgan talablarini o'z ichiga oladi:
- Daromad manbai: Mehnat qilish va barqaror daromadga ega bo'lish.
- Moliyaviy xavfsizlik: Kelajakka bo'lgan ishonchni ta'minlash.
- Xarid qilish imkoniyati: Turli mahsulotlar va xizmatlardan foydalanish.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar inson hayotining barcha sohalarida muhim ahamiyatga ega. Ularning qondirilishi nafaqat shaxsiy farovonlikni, balki jamiyatning barqarorligini ham ta'minlaydi. Shu sababli, jamiyat va davlat bu ehtiyojlarni qondirish uchun zarur iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni yaratishi lozim. Bu esa o'z navbatida, inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud. Bu muammolar quyidagicha tasniflanadi:

Resurslarning cheklanganligi: Moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan resurslar yetarli darajada taqsimlanmagan yoki cheklangan bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy adolatsizlik: Ba'zi guruhlar yoki shaxslar ehtiyojlarini qondirishda teng imkoniyatlarga ega emaslar.

Ta'lim va ma'naviyatdagi kamchiliklar: Ko'plab jamiyatlarda ta'lim va madaniyat sohalarida resurs yetishmovchiligi ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat bozoridagi muammolar: Ishsizlik yoki past daromadli mehnat iqtisodiy ehtiyojlarning qondirilishiga to'siq bo'ladi.

Ekologik muammolar: Tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhitning ifloslanishi moddiy ehtiyojlarni barqaror ravishda qondirishni qiyinlashtiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni samarali qondirish uchun quyidagi yechimlarni amalga oshirish zarur:

Resurslarni samarali boshqarish: Resurslarni adolatli taqsimlash va ulardan oqilona foydalanish tizimini joriy etish.

Ijtimoiy tenglikni ta'minlash: Kam ta'minlangan guruhlarini qo'llabquvvatlash va barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratish.

Ta'lim sifatini oshirish: Zamonaviy va sifatli ta'lim tizimini rivojlantirish orqali ma'naviy ehtiyojlarni qondirish.

Ish o'rinlarini yaratish: Mehnat bozorini rivojlantirish va barqaror ish o'rinlarini ta'minlash.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash: Tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlik choralari kuchaytirish.

Innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish: Texnologiyalarni joriy qilish orqali ehtiyojlarni qondirishda samaradorlikni oshirish.

XULOSA

Ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar inson hayotining barcha sohalarida muhim ahamiyatga ega. Ularning qondirilishi nafaqat shaxsiy farovonlikni, balki jamiyatning barqarorligini ham ta'minlaydi. Shu sababli, jamiyat va davlat bu ehtiyojlarni qondirish uchun zarur iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni yaratishi lozim. Bu esa o'z navbatida, inson salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyot institutining nashriyoti. — Ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruvning qo'riqlash tizimi va uning amaliy yordamni ko'rib chiqadi
2. Sattorov, A. (2014). Ijtimoiy iqtisodiyotlar va iqtisodiy rivojlanish: nazariy va amaliy.
3. Toshkent: O'zbekiston iqtisodiyot universiteti. — Ijtimoiy tashkilotlar va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda amaliy ishlar haqida.
4. Saitov S. A., Xaydarov B. X., ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА «SWOT-АНАЛИЗ» В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ // Journal.jbnuu.uz. -2022-yil 14-15-oktyabr, 2022-yil. 10.5281/zenodo.7329802
5. Saitov S. A., Xaydarov B. X., Raqamli iqtisodiyotda kichik biznesning o'rni // Journal.jbnuu.uz. -2022-yil 14-15-oktyabr, 2022-yil. 10.5281/zenodo.7329523

O‘SMIRLIK DAVRIDA SALBIY ILLATLAR HAMDA PSIXIK INQIROZLAR RIVOJLANISHINI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI

Allaberganova Rashida Azatovna

Toshkent shahar Mirobod tumani

154-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya Hozirgi kunda fan-texnika asrida o‘smirlarda suitsidal xulq-atvor oldingi yillarga nisbatan ancha soni ko‘paygan. Sababi, o‘smirlik yoshi juda murakkab davr va shu davri kimdadir silliq, kimdadir butun olamga nisbatan boshqacha bir nigohda qarash bilan o‘tadigan davr hisoblanadi. Bir qarashda o‘smirlarning o‘z joniga qasd qilishi murakkabligini tushunish muhim hisoblanadi. Keling, o‘smirlik davri o‘zi nima? Shu savobga avval javob bersak.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik. Suitsidal hatti-harakatlar, xulq, suiqasd, psixik jarayonlarning kechishi, ruhiyat, psixik jarayonlar

KIRISH

Psixologiyada o‘smirlik davri o‘zgarish davri deb hisoblanadi. O‘smir-bola bo‘lib bola ham emas, katta bo‘lib katta odam ham. Ularda yangi hissiyot uyg‘onadigan, ya‘ni balog‘atga yetganlik hissi, balog‘at yoshining qadri, kattalar bilan aloqa qilish haqida yangi fikrlari bo‘lmaydi. Ularda, asosan, katta odamlardan ko‘ra o‘z tengdoshlari bilan aloqa qilish yetakchi o‘rinni egallaydi.

Kattalardan ko‘ra, o‘z sinfdoshlari, do‘stlari qurshovida bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘smirlik davridagi o‘zgarishlar, qiyinchiliklar nafaqat bolada ichki ziddiyatlarni keltirib chiqarishi bilan balki atrofdagilar bilan ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga kelishi bilan ham ajralib turadi. Bu hayot o‘smir uchun yetarli darajada anglanilmagan, tushunarsiz, qo‘rqinchililigi bilan ajralib turadi. Yangi hayotga, balog‘at yoshi dunyosiga qadam qo‘yish bilan bog‘liq muammolarni o‘smir o‘zicha hal qilolmaydi, shuningdek, o‘zida kechayotganlarini ham atrofdagilarga tushuntirib bera olmaydi. Suitsid-qasddan o‘limga olib keluvchi shikast yetkazish (o‘z joniga qasd qilish). Bunday psixologik holatning paydo bo‘lishi, ko‘pincha, insonning jazavaga tushishi, emotsional tuyg‘ularning yo‘qolishi, irodasizlik kabilarni o‘z ichiga oladi. Suitsidal xulq-atvor- bu suitsidal faollikning namoyon bo‘lishi. Bu o‘z ichiga suitsidal fikr, maqsad, mulohaza, tahdidlar, suiqasd va unga urinishni o‘z ichiga oladi.

Haqiqiy suitsidal xulq-atvorda nafaqat puxta o‘ylab o‘z joniga qasd qilish, balki, ko‘pincha, uzoq vaqt “tayyorlaniladi”. Shaxsda o‘z joniga qasd qilish, ko‘pincha, atrofdagilardan o‘z vaqtida yordam kelmaganida sodir etiladi. Shuningdek, suitsidal urinish sodir etish orqali xoh o‘g‘il bola bo‘lsin, xoh qiz bola birinchi navbatda o‘ziga e‘tibor qaratishga urinadi. Boshqa yoshdagilarga nisbatan, o‘smirlarda bo‘layotgan

voqealarni kuchli hissiyot, nafrat va ta'sirchanlik bilan qabul qiladilar. Boshqalarga, ya'ni o'z joniga qasd qilayotganlarga taqlid qilishga urinish, suitsid uchun asos bo'ladi. Ontogenetik rivojlanishning turli bosqichlarida suitsidal xulq-atvor o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ikkita asosiy "avj" bo'linadi: "yoshlikning avji"-15 dan 23 yoshgacha va "involyutsiya avji"-40 yoshdan so'ng. Tajriba va ko'p sonli tadqiqotlarning ko'rsatishicha, eng ko'p o'ziga xos xususiyat bolalik-o'smirlik bosqichi va inson hayotining involyusion davriga ajratib ko'rsatiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodni shakllantirishning dastlakgi pallasida ta'lim-tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratilayotganligi yosh avlodning yutug'idir. Har qanday mamlakatning ertangi taraqqiyotini uning kuchli bilim va salohiyatga ega, zamonaviy bilimlarni puxta o'zlashtirgan yoshlar belgilab beradi. Ularni global rivojlanishning barcha sohaları va tarmoqlariga hayotbaxsh kuch bag'ishlovchi shiddatli lokomativ desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Bugun dunyo aholisining 30 foizdan ko'progini yoshlar tashkil etmoqda. Ushbu foizlarning ko'p qismini o'smirlar tashkil qiladi. O'smirlar haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish va amaliyotda qo'llash yosh avlod tarbiyasiga berilgan e'tibor desak mubolag'a bo'lmaydi

O'smirlik balog'atga yetish bosqichi bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taaluqli chigal vaziyatlarning paydo bolishi bilan ham harakterlanadi. O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qiyuvchilariga qiziqishga intiladilar. O'smirlik davri „o'tish davri“, „krizis davr“, „qiyin davr“ kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlar bilan harakterlanadi. O'smirlik davrida ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy hususiyatlar xosdir. O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim hislat - voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. O'smirlik yoshiga hos bo'lgan psixologik hususiyatlarini o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolotga erishish yo'llarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini tushunish mumkin. O'smirlik davrida ichki erkinlikning o'sishida, o'z-o'zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti- harakatlarida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funksiya sifatida o'smirning erkin harakat qilish quroli, shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig'i bo'lib hisoblanadi. O'z-o'zini anglash hissining tarkib topishi, o'ziga nisbatan go'yo alohida mustaqil shaxs sifatidagi munosabatning vujudga kelishi bu davrdagi har ikki jinsdagi va istagan temperament tipidagi o'smirlar uchun muhim xususiyatlardir.

Psixolog L.S.Vigotskiy o'smir yoshi psixologiyasini „psixik rivojlanishdagi inqiroz“ deb nomlagan. O'smirlik davridagi inqiroz-o'smir kechinmalari, uning strukturasi, mazmunining qat'iy o'zgarishi, buzilishidir. U 13 yoshni inqirozni sindiradigan nuqtasi deb atagan. Inqirozdan keyingi davrlar ota-onalar va o'qituvchilar tomonidan subektiv

yanada qiyinroq deb ataladigan yangi psixologik tuzilmalar shakllanadi. O'smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o'zaro mos kelmasligi o'smirlar bilan ota-onalar, o'qituvchilari va boshqa murabbiylari o'rtasida qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Vigotskiy psixik rivojlanishdagi inqiroz bilan cheklanib qolmasdan, o'smirlik davridagi qiziqishlarning o'zgarishiga bog'liq ravishda ikki ya'ni salbiy va ijobiy fazani ajratib ko'rsatgan. Salbiy faza ilgarigi qiziqishlarning so'nishi va yangi dastlabki jinsiy qiziqishlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Bunda quyidagi salbiy xulq-atvor ko'rinishlari namoyon bo'ladi; ish qobiliyatining, o'zlashtirishning pasayishi, o'smirning qo'polligi va yuqori qo'zg'aluvchanligi, uning o'zidan qoniqmasligi va xavotirlanish va boshqalar. Ijobiy faza keng, chuqur yangi qiziqishlarning paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. O'smirda boshqalarning va o'zining psixologik kechinmalariga qiziqish paydo bo'ladi. Vigotskiy izlanishlariga hamohang tarzda M.G.Davlatshin, "5-7-sinf o'quvchilarida texnik qiziqishlarni shakllantirish" mavzusida o'z tadqiqotlarini olib borgan. Professor M.G.Davlatshin mehnat ta'limi va kasbga yo'llash muammolariga, texnik qiziqish va texnik qobiliyatlarni shakllantirishning psixologik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shu narsaga alohida e'tibor berish kerakki, yuqoridagi olimlarning izlanishlarini o'rganib chiqib o'smirlik yosh davrining naqadar muhim va dolzarb mavzu ekanligini hamda bu yosh davrining psixologik xususiyatlariga va o'zgarishlariga jamiyatning har bir a'zosi bee'tibor bo'lmasligini aytib o'tish o'rinlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.G'oziyev E., Umumiy psixologiya''.-T.;O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.2010.-548-b
- 2.Davlatshin M.G.,Yosh va pedagogik psixologiya''.-T.,2004
- 3.Nishanova Z.T. va boshqalar „Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya''.-T.;O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati.2018.332-b
- 4.Qodirova, M. (2020). Voyaga yetmagan o'smirlar xulq atvorini shakllantirishda olib boriladigan ishlar mazmuni. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 5.Qodirova, M. (2020). Особенности периода взросления подростка. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 6.Qodirova, M. (2020). Bolalar idrokini rivojlantirishda mashg'ulotlarning o'rnini. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 7.Qodirova, M. (2020). Psixologiya fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rnini va ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 8.Qodirova, M. (2020). РОЛЬ ЗАНЯТИЙ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ СПОСОБНОСТИ РАЗМЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ. Архив Научных Публикаций JSPI. 9.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	QATTIQ CHIQINDILARDAN ATROF-MUHITNI HIMOYA QILISH	3
2	ФУНКЦИОНИРОВАНИЕ БСП С УСЛОВНЫМ ЗНАЧЕНИЕМ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ РУССКИХ ПИСАТЕЛЕЙ И ПОЭТОВ	10
3	INGLIZ TILINI O'QITISHDA DARSNI QIZDIRUVCHI MASHG'ULOTLAR (WARM-UP ACTIVITIES)	14
4	LEGAL THEORIES OF UNJUST ENRICHMENT IN COMMERCIAL DISPUTES	22
5	INCREASING STUDENTS' INTEREST IN LEARNING ENGLISH	28
6	SURXON DAVLAT QO'RIQXONASI HUDUDIDA TARQALGAN CAREX L. TURKUMI TURLARINING BIOKOLOGIYASI VA TARQALISHI	30
7	QISHLOQ JOYLARDA QIZLAR FUTBOLINI RIVOJLANTIRISH	36
8	MAKTAB KUTUBXONALARINI BOSHQARISH AXBOROT TIZIMINING SAMARADORLIGI VA AVTOMATLASHTIRISH USULLARI	40
9	FREYMOVORLARNING FARQLARI, AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	45
10	ЎЗБЕКИСТОНДА БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА ИЖОДИЙ ФИКРЛАШ ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИ	50
11	RUS TILINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIK ASOSLARI	53
12	FARG'ONA-TOSHKENT XALQ KUYLARINI O'QITISH VA TARG'IB ETISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	58
13	INGLIZ TILI FANINI POLITEKNIKUMLARDA O'QITILISHI	64
14	BOLALARDA KASB-HUNARGA NISBATAN TUSHUNCHALAR SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK BOSQICHLARI	67
15	SHAXSLARDA ONGLI RAVISHDA RUHIY CHARCHOQNI YUZAGA KELISHI VA BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK USULLARI	71
16	ZAMONAVIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING MOTIVATSIYASI: MOTIVATSIYA TURLARI VA ULARNI TA'LIM JARAYONIDA QO'LLASH	76
17	RUS TILINI O'QUVCHILARGA YANGI METOD YORDAMIDA SIFATLI VA TEZ O'ZLASHTIRILISHI, O'QITILISHI	80
18	BOLALARDA PSIXIK BUZILISH, RUHIY ZO'RIQISH HOLATLARIGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH HAMDA PSIXOLOGIK HIMOYA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	83
19	BOLA TARBIYASIDA OILANING MUHIM PSIXOLOGIK VAZIFALARI, BURCHLARI	87
20	O'QUVCHILARDAGI JIZZAKILIK, AGRESSIYAGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI	91

21	O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR: ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'ZARO TA'SIRI VA AHAMIYATI	95
22	ЁШЛАР ОРАСИДА ГИЁХВАНДЛИКНИНГ ТАРҚАЛИШИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ	98
23	HOW METAPHORS REFLECT WORLDVIEW AND COGNITION	103
24	BOLALARDA O'ZLIGINI ANGLASH HAMDA "MEN" SHAXSINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK VAZIFALARI	107
25	O'Z-O'ZINI BOSHQARISH VA TA'LIM: O'QUVCHILARNING O'Z-O'ZINI BOSHQARISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	111
26	KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA DIQQAT VA BILISH JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK VAZIFALARI	114
27	MAKTABGACHA YOSHDAGILAR VA VERTUAL OLAM XATARLARI	118
28	GEOGRAFIYA FANIDA XARITA VA YOZUVSIZ XARITALAR BILAN ISHLASHNING O'QUVCHILARDA BILIM VA TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI	120
29	ILK BOLALIK DAVRIDA NUTQNING O'SISHI	124
30	MAKTABGA TAYYORGARLIK DARAJASINI DIAGNOSTIKA QILISH	128
31	QO'RQUV VAHIMASI	131
32	ENDOGEN PSIXOZLAR: KLINIK TAVSIFI, SABABLARI VA DAVOLASH YONDASHUVLARI	133
33	PSIXOPATYALAR (SHAXSNING BUZILISHLARI)	136
34	HOW SMART ARE YOU?	139
35	INTERNATIONAL ORGANIZATIONS AND THEIR ROLE IN GLOBAL GOVERNANCE	142
36	THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON LANGUAGE LEARNING	144
37	THE ROLE OF THE SILK ROAD IN GLOBAL CIVILIZATION	146
38	"TEMIR XOTIN" DRAMASIDA INSON RUHIYATI MASALASI	148
39	DEVELOPMENT OF THE AUTOMOTIVE INDUSTRY IN THE NEW UZBEKISTAN	151
40	THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN MODERN COMPUTER SCIENCE	153
41	AVTOMOBIL: KELIB CHIQISHI, RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY HAYOTDAGI O'RNI	155
42	BOLALARNI TA'LIM JARAYONIDA PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH	157
43	BOLALARDA EMOTSIONAL STRESSLARNI KELIB CHIQISHI VA BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK USULLARI	160
44	BOLALARDAGI SALBIY XULQ-ATVORNING KELIB CHIQISHIGA SABAB BO'LUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR	163
45	BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKNI OLDINI OLISHNING MUHIM VAZIFALARI	167
46	PSIXOLOGIYADA SHAXSLARDAGI STRESS HOLATLARINI TALQIN QILINISHI HAMDA BARTARAF ETISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK USULLARI	171

47	KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILARDA O'ZINI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK TA'SIRI	174
48	OBSTACLES IN RENDERING ENGLISH SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL WRITINGS INTO UZBEK	180
49	LOGISTIKA(YUK TASHISH)KOMPANIYASI UCHUN TRANSPORT INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH USULINI TANLASH	182
50	HORIJIY MAMLAKATLARDA LOGISTIKANING MAVJUD TURLARI VA HOLATI	187
51	AVTOMOBIL TRANSPORTIGA ORTISH TUSHIRISH PAYTIDA TEXNIKA XAVFSIZLIGI	191
52	MINTAQANI EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATINI O'RGANISH	196
53	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI	200
54	OTA-ONALARNING TA'LIMDAGI ROLI: OTA-ONALARNING TA'LIM JARAYONIDAGI ISHTIROKI VA UNING O'QUVCHILARGA TA'SIRI	204
55	YER VA KOSMOS	208
56	TABIIY FAN DARSLARIDA O'QUVCHILARNING EKOLOGIK MADANIYATI SHAKLLANTIRISH	212
57	HAYVONOT OLAMINING XILMA-XILLIGI	216
58	BOSHLANG'ICH SINFLARDA QUYOSH SISTEMASI	219
59	GIDROSFERA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT. DUNYO OKEANLARI.	222
60	O'SIMLIKLAR DUNYOSI. NOYOB O'SIMLIKLARNING YO'Q BO'LIB KETISHIGA SABAB	226
61	IBTIDOIY DINIY E'TIQODLAR BILAN BOG'LIQ BO'LGAN ORNAMENTLAR VA TASVIRLAR	230
62	THE ROLE OF TEACHER'S PERSONALITY IN STUDENT ENGAGEMENT	236
63	KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O'QUVCHILARDA O'ZINI HIMOYA QILISH KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK TA'SIRI	238
64	OILADA FARZAND TARBIYASIGA PSIXOLOGIK YONDASHISH	244
65	BOLALARDA ZARARLI ODATLARGA QARAMLIKNI OLDINI OLISH	250
66	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA ZAMON TALABLARIGA MOS RAVISHDA TA'LIM-TARBIYA BERISH	253
67	FARZAND TARBIYASIDA OILANING ROLI HAMDA PSIXOLOGIK MASALALARI	258
68	JISMONIY ZO'RAVONLIKNING YUZGA KELISHI HAMDA BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI	262
69	INSONDA EHTIYOJLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK BOSQICHLARI	265
70	O'SMIRLIK DAVRIDA SALBIY ILLATLAR HAMDA PSIXIK INQIROZLAR RIVOJLANISHINI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK YECHIMLARI	268